

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Termiz Davlat Universiteti

M.H. Fayzullayeva

IBTIDOIY JAMIYAT TARIXI

O`QUV QO`LLANMA



Termiz - 2014

M. Fayzullayeva. Ibtidoiy jamiyat tarixi fanidan o`quv-uslubiy qo`llanma
Termiz davlat universiteti ilmiy kengashining 2014 yil 29 maydagi qarori bilan
nashrga tavsiya etilgan.

Mazkur o`quv-uslubiy qo`llanma tarix bakalavriat ta'lim yo`nalishlarida tahsil
olayotgan I kurs talabalari uchun mo`ljallangan. O`quv-uslubiy qo`llanma amaldagi
dastur asosida tayyorlanib, unda kurs bo`yicha ma'ruzalar to`plami, seminar
mashg`ulotlar ishlanmalari, mustaqil ish topshiriqlari, tavsiya etilgan adabiyotlar
ro`yxati jamlangan. Mazkur o`quv-uslubiy qo`llanma o`qituvchilar va talabalar uchun
tavsiya etiladi.

Mas`ul muharrir: **t.f.d., professor Tursunov S.**

Taqrizchilar: **t.f.n., professor Kichkilov H.**
t.f.d., professor Shaydullayev Sh.
t.f.n., dotsent Qurbonova M.

Mundarija

1. Ish dasturi
2. Semestrlar bo'yicha ajratilgan soat.....
3. Ma`ruzalar mavzulari.....
4. Seminar mashg'ulotlari mavzulari.....
5. M a`ruzalar kursi.....
6. Kirish.....
7. Ibtidoiy tarixning manbashunosligi
8. Ibtidoiy tarixning tarixnavisligi.....
9. Antropogenez. Qadimgi gominidlar va ularning mehnat faoliyati.....
10. Ibtidoiy jamoa tuzumining tashkil topishi. Ibtidoiy to'lda.....
11. Ibtidoiy tafakkur, nutq va mafkuraviy qarashlar kurtaklari.....
12. Zamonaviy tipdagi odamning paydo bo'lishi.....
13. Ilk urug' jamoasi.....
14. Rivojlangan urug'chilik jamoasi.....
15. Urug'chilik tuzumining buzilishi va davlatning vujudga kelishi.....
16. Oila va nikoh
17. Ma'naviy madaniyat. Ibtidoiy jamoa va sivilizatsiya.....
18. Mustaqil ish mavzulari.....
19. Test savollari.....
20. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....
21. Glossariy.....

IBTIDOIY JAMIYAT TARIXI FANIDAN ISH DASTURI

1.1. Ushbu o'quv dastur ibtidoiy jamoa tuzumining tashkil topishi, va taraqqiy etish bosqichlarini, ibtidoiy davrning davrlanishi va sanalari, ibtidoiy to'da davri, antropogenez jarayoni, irqalarining kelib chiqishi, urug' jamoa tuzumining vujudga kelishi, ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar, ibtidoiy odamlarning xo'jalik faoliyati, nikoh va oila munosabatlari, urug' jamoasi xususiyatlari va ma'naviy madaniyati, ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi, harbiy demokratiya, ibtidoiy jamoa va sivilizatsiya kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Hamda, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

Shuningdek, "Ibtidoiy jamiyat tarixi" fani haqidagi bilimlarni qaror topshirish mavjud ilmiy adbiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish, fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar, kadrlar buyurtmachilarining fikr, talab va takliflari kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Fanni o'qitishdan maqsad– ibtidoiy jamoa tarixi to'g'risida talabalarda xolisona ilmiy dunyo qarashni, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi– insoniyat qadimgi tarixi va uning asosiy bosqichlarini o'rgatishdan iborat. Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar – "Ibtidoiy jamoa tarixi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

Ibtidoiy jamoa tarixi kursining maqsad va vazifalari, dastlabki insoniyat vakillarining Janubiy va Sharqiy Afrikada xayvonot dunyosidan ajralishi va shakllanishi muammolari, Olduvoy g'oridan topilgan arxeologik va paleantropologik materiallar, xronologiya muammolari, antropogenez jarayoni va ibtidoiy odamlarning xo'jalik faoliyatlari, ibtidoiy urug' jamoasining ijtimoiy – iqtisodiy, nikoh va oila munosabatlari, moddiy va ma'naviy madaniyati haqida zamonaviy ma'lumotlarni o'rganish va ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanishni *bilishi* kerak;

Talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganish. Muzey ashyolari va internet ma'lumotlarni, arxeologik manbalarni mustaqil tadqiq qilish, o'rganish *ko'nikmalariga ega bo'lishi* kerak;

Arxeologiya muzeyi, arxeologik manbalar tavsiflari, ilmiy tadqiqot institutlari materiallaridan foydalanish *malakalariga ega bo'lish* kerak.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyulda "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida O'zbek xalqi va uning davlatchiligini tarixini xolisona o'rganishning ilmiy asoslarini shakllantirish, tadqiqotlarni zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish, davlatchiligi haqqoniy tarxini tarixiy manbalar asosida o'rganish vazifasi belgilangan. Ibtidoiy jamoa tarixi materiallari mana shunday manba hisoblanadi. Ularni tadqiq etish, o'rganish orqali ko'plab ma'lumotlarni qo'lga kiritishimiz mumkin.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar. Talabalarning ibtidoiy jamoa tarixi fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbqiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar, jadvallardan foydalaniladi.

Dasturda berilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi. Shuningdek, fanning dolzarb masalalari mustaqil ish sifatida talabalarga o'zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Bumerang", "Aqliy hujum" singari uslublari orqali darslar olib boriladi.

2. Semestrlar bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti

	Yuklama	Auditoriya mashg'ulotlari bo'yicha o'quv yuklamasi taqsimoti (soat)			Mustaqil ish
		Jami	ma'ruza	Seminar mashg'uloti	
1	136	58	26	32	78
jami	136	58	26	32	78

IBTIDOIY JAMIYAT TARIXI fanidan reyting jadvali

№	Nazorat turlari	Jami ball	Soni	Nazoratning shakli	Maksimal ball	Saralash ball	O'tkazish vaqti
1	Oraliq nazorat	30	№ 1	Yozma ish	15	7,5	Dars jarayonida
			№ 2	Test	15	7,5	Dars jarayonida
2	Joriy nazorat	40	№ 1	Amaliy	15	7,5	Dars jarayonida
			№ 2	Amaliy	15	7,5	Dars jarayonida
			Mustaqil ish	Referat tayyorlash	10	5,5	Mustaqil
3	Yakuniy nazorat	30		Yozma ish	30	16,5	

3. Leksiya mavzulari, ko‘riladigan masalalar, vaqt:

№	MA'RUZA MAVZULARI	Ko‘riladigan masalalar	Vaqt soat
1	Ibtidoiy jamiyat tarixiga kirish	1.Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari. 2.Ibtidoiy jamoa tuzumi xronologiyasi va ibtidoiy jamoa tuzumini davrlashtirish.	2
2	Ibtidoiy tarixning manbashunosligi	1.Arxeologik ma'lumotlar. 2.Etnografik ma'lumotlar. 3.Tilshunoslik ma'lumotlari. 4.Antropologik ma'lumotlar. 5.Ibtidoiy jamiyat tarixini o‘rganishda tabiiy fanlarning o‘rni.	2
3	Ibtidoiy tarixning tarixnavisligi	1.Qadimgi dunyo mutafakkirlarining ibtidoiy jamoa haqida tasavvurlari. 2.O‘rta asrlarda ibtidoiy jamoa haqida tasavvurlar. 3.Etnografik bilimlarning yig‘ila borishi. 4.Ibtidoiy jamoa tarixining vujudga kelishi.	2
4	Antropogenez. Qadimgi gominidlar va ularning mehnat faoliyati	1.Insonning kelib chiqishi. Antropogenez jarayonining harakatlantiruvchi kuchlari. 2.Insonning eng yaqin ajdodlari va insoniyatning datlabki vatani masalasi. 3.Odamning paydo bo‘lishi haqida fan va din.	4
5	Ibtidoiy jamoa tuzumining tashkil topishi. Ibtidoiy to‘da	1.Ibtidoiy odamlar to‘dasi va uning tuzilishi. 2.Termachilik va ovchilik. Ibtidoiy jamoada mehnatning taraqqiy etishi. 3.Ibtidoiy to‘dada jinsiy munosabatlar. 4.O‘zbekiston hududida ibtidoiy davr manzilgohlaridan lavhalar.	2
6	Ibtidoiy tafakkur, nutq va mafkuraviy qarashlar kurtaklari	1. Tafakkur va nutqning shakllanishi. 2. Ibtidoiy to‘da davri kishilari mafkuraviy qarashlarining manbai. 3. Ibtidoiy tafakkur va nutq paydo bo‘lishi masalasi hamda mehnat qurollarining tafakkur va nutqning paydo bo‘lishiga ta’siri. 4. Ibtidoiy mafkura qarashlarining shakllana boshlashi.	2
7	Zamonaviy tipdagi odamning paydo bo‘lishi	1.Antropogenez jarayonining shakllanishi va hozirgi jismoniy qiyofadagi odamlarning vujudga kelishi bosqichlari. 2.Zamonaviy odamning vujudga kelish joyi va vaqti. Irqlarning paydo bo‘lishi va sabablari, ahamiyati. 3.Homo sapiensning kelib chiqishi zamonaviy zamonaviy talqin.	2

8	Ilk urug' jamoasi	1.Urug' jamoa tuzumining vujudga kelishi. 2.Ilkinchi urug' jamoasi va uning xususiyatlari. 3.Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. 4.Mezolitda mehnat qurollari texnologiyasining takomillashuvi va ovchilik unumdorligining oshishi.	2
9	Rivojlangan urug'chilik jamoasi.	1.Neolitda ona urug'i davri odamlarining muvaffaqiyatlari. 2.Eneolit va bronza asri. Rivojlangan dehqonchilik va chorvachilik. Birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti. 3.Matriarxatdan patriarxatga o'tish.	2
10	Urug'chilik tuzumining buzilishi va davlatning vujudga kelishi.	1.Temir asrining boshlanishi. 2.Harbiy demokratiya. 3.Sinflar va davlatning vujudga kelishi.	2
11	Oila va nikoh	1.Jamiyatning yosh va jinsga qarab bo'linishi. 2.Patriarxal jamoaning buzilishi. Monogam oila. 3.Urug' aloqalari o'rniga qo'shni aloqalar bilan almashuv jarayoni.	2
12	Ma'naviy madaniyat. Ibtidoiy jamoa va sivilizatsiya	1.Amaliy bilimlar. 2.San'at. 3.Ibtidoiy din. 4.Ilmiy bilimlar va yozuv kurtaklari.	2
	JAMI		26 soat

4. Seminar mashg'ulotlari mavzulari

N	Seminar mavzusi	Ko'riladigan masalalar	Vaqt
1	Ibtidoiy jamiyat tarixi fanining mavzusi, maqsadi, vazifasi va ahamiyati.	1.Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi fani va uning o'ziga xos xususiyatlari. 2.Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi fanining maqsadi va vazifalari.	2
2	Ibtidoiy jamiyat tarixining asosiy bosqichlari, sanalari va ularning tavsifi.	1.Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi xronologiyasi. 2.Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini davrlashtirish.	2
3	Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixshunosligi.	1.Qadimgi dunyo mutafakkirlarining ibtidoiy jamoa haqida tasavvurlari. 2.O'rta asrlarda ibtidoiy jamoa haqida tasavvurlar. 3.Buyuk geografik kashfiyotlarning insoniyat tarixini o'rganishda tutgan o'rne. 4.Etnografik bilimlarning yig'ila borishi. 5.XIX-XX asrlarda Ibtidoiy jamoa tuzumi haqida manbalarning rivojlanishi.	2
4	Ibtidoiy jamoa tuzumi manbashunosligi.	1.Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganishda moddiy manbalarning o'rne. 2.Ibtidoiy odamlar haqida antropologik ma'lumotlar. 3.Etnografik ma'lumotlar. 4.Tilshunoslik ma'lumotlari. 5.Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganishda tabiiy fanlarning ahamiyati.	2
5	Odamning paydo bo'lishi.	1.Hayvonot olamida insonning o'rne. 2.Antropogenez	4

		jarayonining harakatlantiruvchi kuchlari. 3.Insonning eng yaqin ajdodlari. 4.Insonning dastlabki vatani masalasi. 5.Odamning paydo bo'lishi haqida fan. 6.Odamning paydo bo'lishi haqida diniy tasavvurlar	
6	Ibtidoiy to'da davri va uning o'ziga xos xususiyatlari.	1.Ibtidoiy odamlar galasi. 2.Ibtidoiy odamlar galasi rivojlanishida ovning roli. 3.Jamoa bo'lib yashashning vuludga kelishi. 4.Ibtidoiy gala davrida jismoniy munosabatlar. Qon-qarindoshlik oilasi masalasi. 5.Ibtidoiy gala davrining boshqa davrlardan farqi.	4
7	Ibtidoiy tafakkur, nutq va mafkuraviy qarashlar kurtaklari.	1.Ibtidoiy tafakkur va nutq paydo bo'lishi masalasi. 2.Mehnat qurollarining tafakkur va nutqning paydo bo'lishiga ta'siri. 3.Ibtidoiy mafkura qarashlarining shakllana boshlashi.	2
8	Urug' jamoa tuzumining vujudga kelishining shart-sharoitlari.	1.So'nggi paleolitning tabiiy sharoitlari. 2.Hozirgi turdagi odamning va dastlabki irqiy farqlarning paydo bo'lishi. 3.Urug'ning vujudga kelishi.	2
9	Ilk urug' jamoasi bosqichi va uning xususiyatlari.	1.O'zlashtiruvchi xo'jalik(ovchilik, termachilik, baliqchilik). 2.Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi. 3.Ovchilik unumdorligining oshishi. 4.Ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlar. 5.Nikoh va oila.	2
10	Rivojlangan urug' jamoasi.	1.Neolit va eneolit davrida ona urug'i odamlarining muvaffaqiyatlari. 2.Dehqonchilik va chorvachilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi. 3.Baliqchilik va ovchilik xo'jaligi. 4.Ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlar va oila-nikoh masalasi.	2
11	Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va ilk davlatlarning tashkil topishi.	1.Temir asrining boshlanishi. 2.Patriarxal jamoaning buzilishi. 3.Monogam oila. 4.Harbiy demokratiya. 5.Sinflar va davlatning vujudga kelishi.	2
12	Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida madaniyat.	1.Ibtidoiy odamlarning amaliy bilimlari. 2.Ibtidoiy san'at. 3.Ibtidoiy din. 4.Ibtidoiy odamlarning ilmiy bilimlari. 5.Ilkl yozuv kurtaklari.	4
13	Tillar va etnoslar.	1.yetnik birlashmalarining qadimiy xalqlarga aylanish jarayoni. 2.Tillar oilalari.	2
	JAMI		32 s.

MA`RUZALAR KURSI

1- MAVZU: IBTIDOIY JAMIYAT TARIXIGA KIRISH

Asosiy savollar:

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi fanining predmeti va uning vazifalari.
2. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi fani xronologiyasi va davrlashtirish.

Tayanch tushuncha va iboralar: Ibtidoiy jamoa tarixi kursining mazmuni, vazifalari va ahamiyati. Ibtidoiy jamoa tarixining sanalari va davrlashtirilishi sanalarni aniqlashda tabiiy fanlarning o'rni. Davrlashtirishda L.G.Morgan nazariyasi. Angropogenez jarayoni, ibtidoiy urug' jamoasi, ibtidoiy urug'' jamoasining rivojlanishi, Ibtidoiy jamoa tarixining umumiy bosqichlari. Ibtidoiy jamoa tarixining manbashunosligi va tarixshunosligi, insoniyat jamoasining evolyutsion nazariyasi. XI-XIX asrlarda arxeologik qazish ishlari va uning natijalari. Ibtidoiy jamoa tuzumining yakuni va uning o'ziga xos xususiyatlari.

1-asosiy savol: Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi fani va uning vazifalari.

Darsning maqsadi: Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixining fan sifatidagi o'rni, predmeti, o'rganish obyekti to'g'risida tushuncha berish, uning tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirish. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini davrlashtirish masalasini ochib berish.

Identiv o'quv maqsadlari: 1.1. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixining fan sifatidagi o'rnini ko'rsatadi. 1.2. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi predmetini ochib beradi.

1.3. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi manbalarini izohlaydi.

1-asosiy savol bayoni: Ibtidoiy jamiyat tarixi odamzod paydo bo'lishidan to davlatning tashkil topishigacha bo'lgan davrni qamrab oladigan, ilk jamiyatning vujudga kelishi, ravnaq topishi va yemirilishi, uning sinfiy jamiyatga aylanishi formalarini o'rganadi. Ibtidoiy jamoa tuzumiga xos xususiyatlardan biri ishlab chiqarish kuchlarining nihoyat darajada past ekanligidir. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida mehnat quroli asosan toshdan tayyorlangan, eng sodda mehnat qurollarini ham takomillashtirish juda og'ir bo'lgan. Ibtidoiy odamlarning mehnat malakalari va ishlab chiqarish tajribasi mukammal darajada bo'lmagan. Kerakli qurol-yarog', asbob-uskunalar bilan yaxshi ta'minlanmagan, o'z kuch-qudratini yaxshi bilmagan, ibtidoiy odam tabiat oldida yakka holda ojiz bo'lgan. Shu sababli ibtidoiy odamlar turmush kechirish uchun kollektiv bo'lib mehnat qilishga, mehnat vositalari va oziq-ovqatlarga ijtimoiy egalik qilishga, birlashishga majbur bo'lganlar. Ibtidoiy jamiyatda xususiy mulk, kishini-kishi ekspluatatsiya qilish bo'lmagan. Ibtidoiy jamoa tarixi xususiy mulk, davlatning kelib chiqishini ob'ektiv ochib bera oladi. Ibtidoiy jamoa tarixi irqchilik nazariyasining ham asossiz ekanligini ochib beradi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi insoniyat tarixida eng uzoq davom etgan tuzumdur. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra insoniyat paydo bo'lganiga ko'ra 2,5-3,0 mln yil bo'lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi 5000 yil burun barham topa boshlagan va sinfiy jamiyat quldorlik tuzumiga o'rnini bo'shatib bergan. Osiyo va Afrikada dastlabki sivilizatsiyalar er.av. IV-III ming yilliklarda, Yevropada er.av. I ming yillikda, yer sharining ayrim joylarida keyinroq paydo bo'lgan.

Jahon xalqlari tarixi muqarrar ravishda biri ikkinchisi bilan almashinuvchi beshta tarixiy davrga bo'linadi. Ular ibtidoiy jamoa, qadimgi, o'rta, yangi va eng yangi tarixiy davrlardir. Ularning eng dastlabkisi ibtidoiy jamoa tuzumi hisoblanadi. U yer kurrasida odamzod paydo bo'la boshlagan vaqtdan boshlab ibtidoiy gala, urug' urug'chilik tuzumining vujudga kelishi, urug'chilik tuzumining yemirilishi, mulkiy tengsizlik tabaqalar va davlatning kelib chiqishigacha bo'lgan katta tarixiy davrni o'z ichiga qamrab oladi. Ibtidoiy jamoa tuzumi o'zidan keyingi barcha davrlarga nisbatan mehnat qurollarining soddaligi, binobarin ishlab chiqarish kuchlarining nihoyat darajada past bo'lishi bilan belgilanadi. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ayniqsa urug'chilik tuzumigacha bo'lgan davrda odamlar tosh, yog'och, suyak va boshqa buyumlardan yasalgan juda sodda qurollarga ega edilar. Ular yerda mavjud bo'lgan narsalarni terib yeb ovchilik va termachilik bilan tirikchilik qilganlar.

Keyingi yillar ichida arxeolog olimlar Afrika, Osiyo, Yevropa va yer kurrasining boshqa joylaridan ibtidoiy kishilarning juda ko'p makon va manzillarini kavlab ochishga muvaffaq bo'ldilar. Arxeologik qazishlar natijasida mazkur manzilgohlardan kishilikning eng qadimgi tosh asriga mansub bo'lgan ko'plab tosh, suyak va yog'ochdan yasalgan oddiy, sodda qurollari hamda ularning ayrim sinq parchalari topilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida, ayniqsa uning dastlabki bosqichlarida odamlar yasab foydalangan mehnat qurollari shunchalik sodda ekan, bu ularning mehnat malakasi, ishlab chiqarish tajribasining nihoyat darajada past bo'lganligidan darak beradi.

Demak, mehnat qurollari xilining ozligi, ularning soddaligi, qurol yasash texnikasining rivojlanmaganligi, o'z imkoniyatlarini bilmaslik ibtidoiy kishilarni tabiat oldida, unda ro'y beradigan turli-tuman dahshatli tabiiy hodisalar oldida ojiz va himoyasiz qilib qo'ygan edi. Bu hol ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi odamlarning yakka tartibda yashab kun kechirishlariga, binobarin tabiatdagi xilma-xil hodisalarga qarshi ayrim-ayrim holda kurashlariga sira ham imkon bermas edi. Insonni bu dahshatli kuchlardan, azob-uqubatlardan faqat mehnat, shunda ham umumlashib qilingan ijtimoiy mehnat qutqara olar edi, xolos. Ibtidoiy kishilar birgalashib mehnat qilishlari natijasidagina qadam-baqadam tabiatning dahshatli kuchlarini yenga boradilar. Ibtidoiy davr kishilari o'sha vaqtlarda birgalashib mehnat qilmaganlarida, umumlashib vahshiy hayvonlarga qarshi kurashmaganlarida, ular qurshovida yashay olmay mazkur hayvonlarga yemish bo'lib, yer yuzidan yo'q bo'lib ketar edilar. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek ular umumlashib yashash va mehnat qilishlari tufayligina yovuz kuchlardan g'olib chiqdilar. Demak, o'sha davrdagi shart-sharoit ibtidoiy kishilarni birgalashib mehnat qilish va yashashga majbur etdi. Birgalashib mehnat qilish, ishlab chiqarish vositalari, hamda iste'mol mahsulotlarini hamma uchun umumiy mulkka aylantirgan edi. Umummehnat natijasida qo'lga kiritilgan oziq-ovqat va boshqa iste'mol buyumlari u yoki bu guruhda yashagan barcha katta-kichik kishilar orasida barobar taqsimlanar edi. Lekin umumiy mulk bilan bir qatorda kishilarning shaxsiy buyumlari ham bo'lgan. Kiyim-bosh, jangovar, ov va ba'zi ishlab chiqarish qurollari shular jumlasidandir. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida nozi-ne'matga hammaning egalik qilishi, tenglik mavjud ekan, unda xususiy mulk ham, kishini kishi tomonidan ekspluatatsiya qilish ham qabiladan alohida ajralib turuvchi zo'ravonlikka asoslangan hokimiyat ham yo'q edi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi tabaqasiz va davlatsiz jamiyat edi. XIX va XX asrning mashhur tarixchilari bu eng dastlabki davrga baho berib, uni hamma barobar, teng bo'lgan ibtidoiy davr deb ta'riflagan edilar. Ibtidoiy jamiyat tarixining dalillari xususiy mulk, ijtimoiy tengsizlik va davlat hokimiyatining kelib chiqishining tub mohiyatini bilib olishga imkon yaratib berdi. Darhaqiqat tabaqalar, davlat hokimiyati tizimi va qismlari hech qachon azaldan mavjud bo'lgan emas, u ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi natijasida vujudga kelganligi olimlar tomonidan isbotlangan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik tarixining eng dastlabki, eng oddiy shakli edi dedik. Lekin u bir yerda qotib qolmadi, oddiylikdan murakkablik sari qadam qo'ya borib, keyingi davr uchun olamshumul tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan juda ko'p kashfiyotlarning poydevor toshini yaratdi. Insoniyatning iqtisodiy hayotida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan xo'jalik shakllari - dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, arxitektura, savdo va dastlabki almashuv munosabatlari ibtidoiy jamiyat tarixi zaminida shakllandi va rivojlana bordi. Bu hol ibtidoiy davrdan so'ng yashagan avlod uchun benihoya katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyati tarixining juda katta davrini tashkil etar ekan ibtidoiy jamiyat tarixi fanining vazifasi mazkur qadimiy davr tarixini har tomonlama chuqur o'rgana borishdan iboratdir.

2-asosiy savol: Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi fanining xronologiyasi va davrlashtirish.

Darsning maqsadi: Talabalarda ibtidoiy jamiyat tarixini davrlashtirish masalasi to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish va chuqur bilim berish.

Identiv o'quv maqsadlari: 2.1. Ibtidoiy jamiyat tarixini davrlashtirish mavzusini o'tish jarayonida ajdodlarimizning hozirgi aqli zukko qiyofali insonga aylanishigacha bo'lgan juda uzoq davrni bosib o'tganligini ko'z oldiga keltirish va shu orqali inson-insonga do'st va birodarlik hamda o'zaro yordam ruhida tarbiyalash. 2.2. Talabalarda ibtidoiy jamiyat tarixini davrlashtirish to'g'risida mustaqil va erkin fikrlash, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish.

2-asosiy savol bayoni: Kishilik jamiyati tarixini, shu jumladan ibtidoiy jamiyat tarixini davrlarga bo'lmay turib o'rganish mumkin emas. Davrlashtirishda tarixiy jarayon zamon va davrlarga bo'linib, ular muhim voqealar bilan bir-biridan ajraladi. Tarixni, xususan ibtidoiy jamiyat tarixini davrlarga bo'lish juda murakkab bo'lib, hali bu ilmiy jihatdan nihoyasiga yetgani yo'q.

Kishilik jamiyati tarixini davrlashtirishga intilish, qadimgi dunyodayoq er.avv. I asrda yashagan Rim faylasufi Lukretsiy Kar o'zining «Narsalarning tabiati» nomli poemasida odamzod madaniyatining rivojlanish manzarasini, tosh qurollarining mis qurollar bilan, undan so'ng temir qurollar bilan almasha borganini dastlab tasvirlab bergan. Lekin bu fikr tezda unutib yuborilgan. Shotlandiya faylasufi A.Fergysun kishilik tarixini uch davrga: yovvoyilik, varvarlik va sivilizatsiyaga bo'lib o'rganishni tavsiya qilgan.

Arxeologlar ibtidoiy davr kishilaridan qolgan moddiy va madaniy buyumlarni o'rganish asosida kishilikning ibtidoiy tarixini uch davrga: tosh, bronza va temir asrlariga bo'ladilar.

Tosh asri esa o'z o'rnida yana qadimgi va yangi tosh davrlariga bo'linadi. Qadimgi tosh asri qazilma odamlarning yashagan davri hisoblanadi. U vaqtda yerning iqlimi, o'simliklar va hayvonot dunyosi hozirgidan farq qilar edi. Qadimgi tosh asri kishilari silliqqlangan tosh qurollar va sopol idishlarni bilmaganlar. Ular yog'ochdan tayyorlangan so'yil va oddiy tosh qurollardan foydalanganlar. Qadimgi tosh asri kishilari ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar, baliqchilik esa endi shakllana boshlagan bo'lib, ular dehqonchilik va chorvachilikdan mutlaqo xabarsiz edilar. Kishilik jamiyati tarixining juda katta davrini o'z ichiga qamrab olgan tosh davri ikki bosqichga: eng qadimgi (quyi, ilk) va keyingi (yuqori) tosh asrlariga bo'linadi.

Eng qadimgi tosh asri olduvay, shel, qadimgi ashel, keyingi va o'rta ashel hamda muste davrlariga bo'linadi. Uning eng quyi sanasi 3,5-3 mil., yuqorisi esa 100-120 – 40-35 ming yilga kelib taqaladi.

So'nggi paleolit esa orinyak, solyutre va madlen davrlariga bo'linib 40-35 ming yilliklardan 15-12 ming yilliklargacha bo'lgan tarixiy davrni o'z ichiga oladi.

So'nggi tosh asridan so'ng esa o'rta tosh - mezolit asri boshlanib, 15-12 – 7-5 ming yilliklar orasidagi davrni qamrab oladi.

Mezolitdan so'ng tosh asrining so'nggi bosqichi – neolit (yangi tosh) asri boshlanib, Yevropaning markazi, g'arbi, sharqi va janubiy o'lkalarida, Osiyoda uning sanasi 7-5 – 5-3 ming yilliklarga mansubdir.

Neolit davridan so`ng eneolit va undan so`ng bronza asri boshlanadi. Eneolit er.avv. IV ming yillikka mansub bo`lsa, bronza davri III ming yillikning oxiridan er.avv. I ming yillik boshlarigacha davom etadi.

Bronza asridan so`ng Yevropa, Osiyo va boshqa joylarda temir asriga o`tish boshlanadi. Ibtidoiy jamiyat tarixini arxeologik jihatdan davrlashtirish mazkur davrni ishlab chiqarish kuchlarini puxta o`rganish uchun muhim ahamiyatga egadir. Lekin bu masalani oydinlashtirish uchun yetarli emas.

Ayni vaqtda mazkur arxeologik davrlar yer tarixining geologik bosqichlari bilan zamondosh bo`lishi ham mumkin. Odamning paydo bo`lishi zaminimiz tarixining to`rtlamchi bosqichiga to`g`ri keladi. Geologik jihatdan to`rtlamchi davr: neogen, eopleystotsen, pleystotsen va golotsen bosqichlariga bo`linadi.

Mazkur davrda Shimoliy Yevropa, Osiyo va Shimoliy Amerikaning ko`p joylarini vaqti-vaqti bilan Dunay, Gyunts, Mindel, Riss va Vyurm muzliklari qoplab turgan. Lekin golotsenga kelib mazkur joylardagi muzlar erib u yerlarning tabiati o`zgarib ketdi. Arxeologik nuqtai-nazaridan neogen va eopleystotsen qadimgi tosh asrining Olduvay, pleystotsen qadimgi shell, o`rta va so`nggi ashel, muste va so`nggi paleolit davrlariga to`g`ri keladi. Golotsen esa mezolit va neolit asrlariga mos tushadi.

Kishilikning ibtidoiy bosqichini to`g`ri davrlashtirish uchun arxeologiya, geologiya, klimatologiya va boshqa fanlar qo`lga kiritgan yutuqlarini joriy qilish ijobiy natijalar berishi mumkin. Bu hol ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi ishlab chiqarish kuchlarini to`laroq o`rganish uchun imkon beradi.

XIX asrda qator olimlar jamiyat tarixini davrlashtirishga intilib ko`rdilar. Ulardan biri shved olimi Nilson bo`lib, u jamiyat tarixini yovvoyilik, ko`chmanchilik, dehqonchilik va madaniylashgan bosqichga ajratadi.

Mashhur Amerika etnografi L.G.Morgan ham A.Fergyson kabi tarixni yovvoyilik, varvarlik va madaniylashgan bosqichlarga ajratadi. L.G.Morgan ibtidoiy jamiyat tarixini yovvoyilik va varvarlik davrlariga bo`lar ekan bu ikki davrning har birini tirikchilik vositalarining ishlab chiqarish sohasidagi muvaffaqiyatlariga qarab quyi, o`rta va yuqori bosqichlarga bo`ladi.

L.G.Morganning fikricha yovvoyilikning quyi bosqichida insoniyat shakllandi. «Odamlar yirtqich hayvonlar orasida yashab, yovvoyi mevalar, yong`oqlar va ildizlarni ovqat sifatida iste'mol qilganlar» - deydi. Bu davrning eng muhim yutug`i ma'noli nutqning vujudga kelganligidir.

O`rta bosqich esa baliqchilikning kelib chiqishi va olovni hosil qilish va undan foydalanish bilan harakterlanadi.

Yovvoyilikning yuqori bosqichi esa o`q-yoyning kashf qilinishi bilan mashhurdir.

Varvarlikning quyi bosqichida kulolchilik joriy qilingan bo`lsa,

o`rta bosqichda hayvonlar qo`lga o`rgatilib xonakilashtirildi, sug`orma dehqonchilik vujudga keladi.

Yuqori bosqich esa temir rudasini eritish bilan boshlanadi.

Arxeologiya, antropologiya, etnografiya, lingvistika, xalq og`zaki ijodiyoti va boshqa fanlarning 100 yildan ko`proq vaqt ichida qo`lga kiritgan yangiliklari, Morganning

davrlashtirilishida kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Keyingi davrdagi arxeologik kashfiyotlar ibtidoiy kishilar olovdan Morgan faraz qilgan vaqtdan ilgariyoq foydalanganliklarini isbotlab berdi. XIX asrning ikkinchi yarmida zaruriy dalillarning yo'qligi tufayli Morgan va boshqalar ibtidoiy jamiyat tarixi, uning o'ziga xos xususiyatlariga yetarlicha darajada yuqori baho bera olmadilar.

Ibtidoiy jamoa tuzumini ijtimoiy munosabatlar jihatidan ikki bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq deb biladilar. Ulardan biri ibtidoiy gala, to'da bosqichi bo'lsa, ikkinchisi esa, urug'chilik jamoasi bosqichi. Lekin tarixchilarning ko'pchiligi mazkur jamiyatni 3 bosqichga bo'ladilar: ular kishilikning ibtidoiy to'da, urug'chilik jamoasi va ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi davrlaridir.

Ibtidoiy to'da ibtidoiy jamiyat tarixi rivojlanishining eng dastlabki bosqichini tashkil etadi. Bu davrda eng dastlabki inson vujudga keldi, uning qo'li bilan esa, dastlabki tosh qurollar yasaldi. Odamlar birgalashib mehnat qilishlari, sodda bo'lsa ham mehnat qurollari yasashda, binobarin madaniyatga asos solishga hayvon ajdodlaridan tubdan farq qilib, ulardan uzoqlashib ketgan edilar. Ular gala-gala bo'lib yashar edilar. U davr kishilari bir-biri bilan mustahkam bog'langan edilar. Gala soni 25-30 kishi bo'lib tez-tez o'zgarib turardi. Arxeologik jihatdan bu davr ilk tosh davriga mansub bo'lib, juda uzoq davom etgan. Morgan bu davrni yovvoyilikning quyi bosqichiga kiritadi.

Ibtidoiy jamoa tarixining ikkinchi bosqichi ibtidoiy urug'chilik jamoasi bo'lib, inson ongining rivojlana borishi va ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining olg'a qarab siljishi bilan boshlanadi. Ishlab chiqarish kuchlarining yuksalishi natijasida kishilik jamiyatining ancha barqaror tashkiloti urug'chilik jamoasi vujudga keladi. Ibtidoiy urug'chilik jamoasi davri ibtidoiy jamoa tuzumi shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiyotning asosiy bosqichi hisoblanadi. Bu arxeologik jihatdan so'nggi, o'rta va yangi tosh davrlariga to'g'ri kelib, Morganning ta'rifi bo'yicha yovvoyilikning o'rta va yuqori, varvarlikning quyi va o'rta bosqichlariga to'g'ri keladi.

Ibtidoiy jamiyat tarixining uchinchi bosqichi mazkur jamiyatning buzila boshlashi davri bo'lib, tosh qurollar o'rnini metallar egallashi munosabati bilan ishlab chiqarish kuchlari yanada yuksaladi. Mazkur bosqichda xo'jalik tarmoqlarining hamma sohalarida yuksalish bo'lib, ortiqcha mahsulot to'planadi. Jamg'arilgan boyliklar hisobiga esa talonchilik urushlari keng yoyiladi. Rivojlanib borayotgan ishlab chiqarish kuchlari bilan urug'chilik tuzumining ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasidagi ziddiyatlar borgan sari chuqurlashadi. Natijada urug'chilik buzilib, oilaviy qo'shnichilik jamoalar vujudga kela boshlaydi. Urug'chilik aloqalari susayib, qo'shnichilik munosabatlari kuchaya boshlaydi. Ibtidoiy jamoa tuzumi buzila borib, alohida ishlab chiqarish munosabatlari paydo bo'ladi. Mazkur jamiyat negizida xususiy mulk, tabaqa, tabaqaviy jamiyat va nihoyat davlat kelib chiqadi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi fani nimani o'rganadi?
2. Ibtidoiy jamoa tuzumining o'ziga xos xususiyatlari qanday?
3. Qanday manbalar moddiy (ashyoviy) manbalar ekanligini tushuntiring.

4. Ibtidoiy jamoa tuzumining xronologiyasi deganda nimani tushunasiz?
5. Ibtidoiy jamoa tuzumini davrlashtirish masalasi necha xil tarzda amalga oshiriladi?
6. Arxeolog olimlar ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini davrlashtirishda nimalarga e'tibor beradilar?
7. Urug'chilik tuzumi davri necha bosqichga bo'lib o'rganiladi?

2 - MAVZU: IBTIDOIY JAMIYAT TARIXINING MANBASHUNOSLIGI

Asosiy savollar :

1. Arxeologik ma'lumotlar.
2. Etnografik ma'lumotlar.
3. Tilshunoslik ma'lumotlari.
4. Antropologik ma'lumotlar.
5. Ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda tabiiy fanlarning o'rni.

Tayanch tushuncha va iboralar: Ibtidoiy davrning tarixiy manbalari va ularning xususiyatlari. Arxeologiya manbalari va ularning imkoniyatlari. Etnografiya manbalari. Tarixiy antropologiya. Geologiya. Paleogeografiya, paleozoologiya. Ibtidoiy odamlarda nutq va til muammolari xususida.

1-asosiy savol: Arxeologik ma'lumotlar.

Darsning maqsadi: Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini o'rganishda arxeologiya manbalari va ularning imkoniyatlari bilan talabalarni tanishtirish.

Identiv o'quv maqsadlari: 1.1. Talabalarda ibtidoiy jamoa tuzumi manbashunosligi to'g'risida mustaqil va erkin fikrlash, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

1-asosiy savol bayoni: Ajdodlarimiz tarixining ilk davrini, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini qayta tiklash, uni o'rganish nihoyat darajada murakkab, ayni vaqtda sharaflı vazifadir. Uzoq davom etgan mazkur tarixiy davrda tabiatning turli-tuman hodisalari girdobida yashagan ibtidoiy kishilar yer sharining katta qismida hayot kechirib, xilma-xil tarzda tirikchilik o'tkazganlar. Shunday ekan ibtidoiy davr kishilari tirikchiligining asosiy manbai ularni o'rab turgan geografik muhitning turli shart-sharoitlariga muvofiq ovchilik, baliqchilik, termachilik, keyinchalik esa dehqonchilik va chorvachilikdan keladigan mahsulotlar bo'lganligi shubhasizdir. Ibtidoiy kishilar o'z tirikchilik vositalariga muvofiq keladigan qurol-yaroqlarni, asbob-uchkunalarini turar-joylarni va boshqa turli narsalarni yaratganlarki, ular yaratgan buyumlar, mehnat qurollari, turar-joylarning qoldiqlari, ayni vaqtda o'sha davr kishilarining butun skeletlari, yoki ular skeletining ayrim qismlari yer ostida saqlanib keladi. Bu vositalar kishilikning ibtidoiy davrini o'rganishda asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Shu narsa ravshanki, kishilikning keyingi davr tarixini bayon qilishda olimlar asosan yozma manbalarga suyanadilar. Lekin ibtidoiy davr tarixi bunday manbalarga ega emas. Chunki ibtidoiy davrda yozuv ham, yozma manbalar ham bo'lmagan. Lekin ibtidoiy davr tarixining shunday ajoyib, nodir manbalari mavjudki, mazkur manbalar qanday qilib odamzod hayvonlar dunyosidan ajralib chiqib, kishilik jamiyatini vujudga keltirganligini isbotlab bera oladi.

Ibtidoiy jamiyat tarixini qayta tiklashning ilmiy manbalari xilma-xil bo'lib, bular arxeologiya va etnografiya, antropologiya va lingvistika, paleobotanika va paleozoologiya, paleoklimatologiya va geologiya hamda qator boshqa aniq fanlar keltirgan dalillardir.

Kishilikning ibtidoiy davri hayotini o'rganishda tarixchilikning ajralmas bo'limini tashkil etgan arxeologiya fanining ahamiyati alohida o'rin tutadi. Moddiy manbalar yoki arxeologik yodgorliklar deb ataluvchi qadim zamonlardan saqlanib qolgan manbalar katta ahamiyatga egadir, moddiy manbalarga mehnat qurollari, qadimgi imoratlarning qoldiqlari, bezak buyumlari va boshqa ushbu jamiyat tomonidan yaratilgan moddiy madaniyat qoldiqlari

kiradi. Buyumlar eng qimmatli tarixiy manba hisoblanadi, ular o'sha davrning mahsulotidir, bu mahsulotlar o'sha davr turmush darajasini o'zida aks ettiradi.

Arxeologik manbalarga fakt buyumlar (topilma buyumlar) kirib qolmay, balki aholi istiqomat qilgan joylar va turar joylar, qabrlar, ustaxonalar, qadimgi odamlar yashagan g'orlar, muqaddas joylar, qadimgi sug'orish tarmoqlari, kanallar, to'g'onlar, yo'llar va hokazolar kiradi.

Turar joylarning evolyutsiyasini o'rganish oila va ijtimoiy tuzum evolyutsiyasi haqida fikr yuritish imkonini beradi. Kollektiv turar joylar o'rni yakka oilalarning turar joylari egallagan, ilgari muhofazalanmagan aholi qarorgohlari o'rnida muhofaza qilingan aholi punktlari paydo bo'lgan. Arxeologik yodgorliklarning ko'pi qazish ishlari davrida topilgandir.

Ibtidoiy arxeologiya umumiy arxeologiyaning tarkibiy qismini tashkil etib, yer ostidan, g'orlardan qoya toshlardan topilgan moddiy- madaniy va san'at buyumlarini sinchiklab o'rganish asosida kishilik jamiyati tarixining yozuvgacha bo'lgan ibtidoiy davri tarixini sinchiklab o'rganadi.

Odamlar yozishni bundan 5 ming yillar ilgari o'rgangan bo'lsalar, dastlabki oddiy tosh qurollar yasashni va ulardan foydalanishni esa qariyb bundan 3,5-3 million yil muqaddam, bila boshlaganlar. Ana shu katta davr tarixini tiklash va o'rganish ibtidoiy arxeologiya fani oldida turgan eng muhim va sharaflı vazifadir. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki yozuv va yozma manbalar kishilikning ibtidoiy hayoti haqida juda oz ma'lumot beradi. Demak, bu sohada arxeologiya fanining ahamiyati hammadan kattadir. Mazkur fan mutaxassislari esa juda ko'p va xilma-xil arxeologik yodgorliklarni o'rganadilar.

Demak, arxeologiya kishilikning yer ostida qolib ketgan moddiy, madaniy qoldiqlarini qidirib topuvchi va ularni tekshiruvchi tarixiy fandir. Arxeologiya mutaxassisi tosh qurollarni, suyaklarni, ro'zg'or va turar joy qoldiqlarini, zeb-ziynat va ibtidoiy davrda yaratilgan san'at obidalarini qidirib topish, tekshirish va o'rganish asosida kishilikning eng qadimiy tarixini tiklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Kishilik jamiyati tarixining ibtidoiy davrini o'rganishda mazkur davr kishilaridan qolgan hamma ashyolar orasida mehnat qurollarining ahamiyati kattaroqdir. Shunga binoan ibtidoiy kishilarning nimalarni, qanday ishlab chiqarganliklarini tiklash mumkin.

Faqatgina mehnat vositalarigina emas, ayni vaqtda ibtidoiy makonlar, turar joylarning qoldiqlari, qabrlar, shaxtalar, ustaxonalar, odamlar uchun boshpana bo'lgan g'orlar, ungurlar, sug'orish inshootlari, ibtidoiy qishloq xarobalarining qoldiqlari ham kishilikning ilk davri hayotini tiklash va o'rganish uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Kishilik jamiyati tarixining ibtidoiy davrida yaratilgan san'at obidalari, xususan qoya toshlarga urib-o'yib ishlangan, g'orlarning devor hamda shiplarini tabiiy bo'yoq ohra (angob) bilan chizilgan odam, hayvon, qurol-yarog' uy-ro'zg'or, mehnat qurollari va boshqa narsalarning rasmlari ham ibtidoiy tarixni o'rganishning muhim arxeologik manbasi hisoblanadi. Ularning ahamiyati shu bilangina kifoyalanmaydi, unda ibtidoiy kishilarning kundalik hayotidan olingan ayrim voqea va hodisalar haqqoniylik bilan aks ettirilgan.

Ibtidoiy san'atning bunday ajoyib namunalari yer yuzining hamma burchaklarida keng tarqalgan.

Shuni nazarda tutish kerakki, har bir arxeologik yodgorlik va buyumning o'ziga xos xususiyati bo'lib, ular kishilik (tarixining) hayotining u yoki bu tomonini tiklashga xizmat qiladi. Mehnat qurollari kishilarning nimalar ishlab chiqarganliklari va qanday qilib tirikchilik

o'tkazganliklarini o'rganish imkoniyatini bersa, o'lik ko'mish tartiblari, ba'zi san'at obidalarini esa ularning e'tiqodi qanday bo'lganini aks ettirishi mumkin.

Ibtidoiy odamlar yashagan turar joylar, makonlar, manzillar va qishloq xarobalarini o'rganilishi esa oila va ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar haqida ham fikr yuritish imkonini beradi.

Bu hol ibtidoiy kishilarning umumiy ravishda yashaydigan turar joylarining oilaviy turar joylar bilan almashinuvini, oddiy, mustahkamlanmagan qishloqlarning murakkab, mustahkam istehkomli qishloqlarga aylana borishi jarayonini kuzatishga imkon beradi.

XIX asrning oxiriga kelib arxeologiya fanida arxeologik madaniyat tushunchasi vujudga keldi. Arxeologik madaniyat deb muayyan territoriyada joylashib, o'zining mahalliy xususiyatlariga ega bo'lgan, ayni vaqtda muayyan davrga mansub arxeologik yodgorliklar majmuasiga aytiladi. Arxeologik madaniyatning ahamiyati va eng muhim vazifasi shundaki, u qabilalar va xalqlar turmushining o'ziga xos xususiyatlarini hamda o'zaro mushtarak bo'lgan umumiy tomonlarini aks ettirishdan iboratdir.

Arxeologiya boshqa fanlarga nisbatan juda yosh bo'lib XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga keldi va rivoj topa boshladi. Mazkur fanning qadimgi tosh asrini o'rganish sohasidagi dastlabki qadamlari ham XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu sohadagi ishlar G'arbiy Yevropada Bushs-de Pert, Larte, Martile Vankil, G.Chayld, Rossiyada esa F.I.Kalinskiy, I.S.Polyakov, I.D.Cherskiy, A.A.Chekanovskiy, V.V.Dakuchaev, A.S.Uvarov, Melejkovski va boshqalarning nomlari bilan chambarchas bog'liqdir.

XX asr birinchi yarmi, ayniqsa 60-90 yillarida arxeologik tekshirish ishlari keng quloq yoyib, arxeologiya materiallari ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishning asosiy bosh manbaiga aylandi. Ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganish P.P.Efimenko, S.N.Zamyatnik, Ya.Bryusov, M.E.Foss, V.A.Gorodkov, O.N.Bader, P.I.Boriskovski, A.P.Okladnikov, S.P.Tolstov, B.B.Piotrovskiy, D.A.Kraynov va boshqalarning nomi bilan uzviy bog'liqdir.

Shunday qilib, yer ibtidoiy davrning o'ziga xos arxivi bo'lib, mazkur arxivdan chiqqan moddiy-madaniy yodgorliklar ibtidoiy kishilar hayotini o'rganishning asosiy manbasi hisoblanadi. Jahondagi mamlakatlarda ilmiy asosda olib borilayotgan sistematik qazish ishlari kishilikning ibtidoiy davr tarixiga doir boy, ko'pdan-ko'p materiallar bermoqda, mazkur materiallarning tadqiq qilinishi ibtidoiy jamiyat kishilarining turmush tarzi, diniy e'tiqodi va boshqa masalalarini hal qilish uchun xizmat qilmoqda.

2-asosiy savol: Etnografik ma'lumotlar.

Darsning maqsadi: Yer sharining ayrim joylarida hozirgi davrlargacha saqlanib qolgan, ibtidoiy jamoa tuzumining ma'lum bir bosqichida qolib ketgan qabila va elatlarning ham hayotini, turmush tarzini, urf-odatlarini, diniy marosimlarini o'rganishga, shuningdek ibtidoiy davr qoldiqlarini o'zida ma'lum darajada saqlab qolgan xalqlarni o'rganib, ibtidoiy jamoa tarixini to'laroq yoritib berishga hissa qo'shish.

Identiv o'quv maqsadlari: 2.1. Jahon xalqlari madaniyati, maishiy turmushi, etnik kelib chiqishi, tarkibini o'rganadi.

2-asosiy savol bayoni: Etnografik ma'lumotlar. Kishilikning uzoq o'tmishi tarixini tiklashda arxeologik ma'lumotlarning o'zi kifoya qilmaydi. Arxeologlar tomonidan topilgan moddiy madaniy yodgorliklar ibtidoiy davrdagi iqtisodiy rivojlanishning yo'nalishi va darajasini tasavvur qilishga yordam bersada, mazkur davrning ijtimoiy tuzumi va ma'naviy taraqqiyotini chuqurroq darajada bilib olishga imkon bermaydi. Ibtidoiy kishilarning xo'jaligi, ijtimoiy tuzumi, turmush darajasi oila-nikoh munosabatlari va g'oyaviy qarashlari qanday

bo'lganligini o'rganishda etnografik ma'lumotlar ham alohida qimmatga egadir. Tarixchilikning eng muhim tarmog'i hisoblangan etnografiya fani yer yuzidagi turli xalqlar, qabilalar, elatlar va etnik gruppalarining turmushi va madaniyatini o'rganadi. Mazkur qabila va xalqlar turmushi, madaniyati hamda g'oyaviy qarashlarida esa ibtidoiy davrga xos bo'lgan ba'zi irim-sirim odatlar saqlanib qolganligini kuzatish mumkin.

Etnografiya fani yer yuzining turli burchaklarida kishilikning ibtidoiylik darajasida hayot kechirgan va kechirayotgan juda ko'p qoloq qabilalarni biladi. XIX asr o'rtalarida ingliz kolonizatorlari tomonidan vahshiylarcha qirib tashlangan Tasmaniyaning yerlik aholisi, oz miqdorda saqlanib qolgan mahalliy avstraliyaliklar, Sumatra orolidagi kubu, Steylon orolidagi vedda, Okeaniya orollaridagi (ayrim qabilalar) Amerika va Afrikada istiqomat qiluvchi qator qabilalarni shular jumlasiga kiritish mumkin. Mazkur qabilalar esa metall nima ekanligini ham bilmaydilar, yarim yalang'och yurib toshdan, suyakdan va yog'ochdan yasalgan oddiy qurollardan foydalanadilar. Ular tirikchiligining asosiy manbai ovchilik va termachilik bo'lib, tosh asri kishilari kabi hayot kechiradilar. Ularda diniy tushunchalar ham juda oddiydir.

Shu singari qabilalarning turmush tarzini har tomonlama chuqur o'rganish va ta'riflash kishilikning ibtidoiy davri hayotini tiklash uchun juda katta ahamiyatga egadir. Lekin mazkur qoloq qabila va xalqlarning barchasi, haqiqiy ibtidoiylikdan ancha yuqori bo'lgan rivojlanish bosqichida turar edilar. Chunki ularning hammasi o'tmishdan qanchalik ajralgan holda yashagan bo'lmasinlar, o'zlariga nisbatan ancha rivoj topgan xalqlar ta'siriga uchraganlar. Lekin shunga qaramay ular turmushida ibtidoiy davrning ko'p tomonlari saqlanib qolgan.

Ibtidoiy davr uchun xos bo'lgan belgilarni faqat qoloq xalq va qabilalar turmushidan qidirishning o'zi kifoya qilmaydi. Dunyodagi barcha xalq, qabila va etnik guruhlar o'z rivojlanishining qaysi darajasida turganliklaridan qat'iy nazar ular turmushi mafkurasida ozmi-ko'pmi ibtidoiy hamda qadimgi davrning sarqit va qoldiqlarini ko'rish mumkin. Keksa o'tmishning keyingi ijtimoiy jamiyatlar negizida saqlanib kelayotgan ayrim sarqit, qoldiq va an'analari kishilikning ibtidoiy davr hayotini tiklashda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Qadimgi davrning mazkur qoldiq, sarqit va an'analari jahondagi qator qabila, millat va milliy guruhlarining to'y, bayram, ko'mish marosimi, mafkuraviy qarashlari, kiyimlari, bezak buyumlari, san'ati, uy-ro'zg'or buyumlari, turar joylarining tuzilishi va boshqa har turli udumlarida ko'zga tashlanadi. Bular esa olimlarga ibtidoiy jamiyat tarixining ochilmagan masalalarini hal qilishda muhim kasb etadi.

Etnograf olimlar yer sharining ayrim joylarida hozirgi davrlargacha saqlanib qolgan, ibtidoiy jamoa tuzumining ma'lum bir bosqichida qolib ketgan qabila va elatlarning ham qayotini, turmush tarzini, urf-odatlarini, diniy marosimlarini o'rganishga, shuningdek ibtidoiy davr qoldiqlarini o'zida ma'lum darajada saqlab qolgan xalqlarni o'rganib, ibtidoiy jamoa tarixini to'laroq yoritib berishga hissa qo'shganlar. To'y, bayramlar, dafn-marosimlarida, kiyimlar, bezaklar, turar joylar tuzilishida ibtidoiy jamoa davridan saqlanib qolgan belgilar uchraydi. Ibtidoiy diniy marosimlar, urf-odatlar ertaklar, qo'shiqlar topishmoqlarda ham saqlanib qolgan. Shunday qilib, jahon miqyosida to'plangan etnografik ma'lumotlar ibtidoiy jamiyat tarixining ayrim tomonlarini tiklashda eng asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

3-asosiy savol: Tilshunoslik ma'lumotlari.

Darsning maqsadi: Ibtidoiy odamlarda nutq va til muammolari xususida. Ibtidoiy jamoa tarixi fanini o'rganishda ilmiy yoki tilshunoslik asosida ma'lumotlar to'plash. Ibtidoiy jamoa tarixi fanini o'rganishda qadimgi tillarni o'rganib, ibtidoiy jamoa tarixini to'laroq yoritib berishga hissa qo'shish.

Identiv o'quv maqsadlari: 3.1. Uzoq o'tmish haqidagi tasavvurlarimizni kengaytirishda lingvinistik (tilshunoslik) ma'lumotlarning ahamiyatini o'rganadi.

3-asosiy savol bayoni: Tilshunoslik ma'lumotlari. Kishilikning uzoq o'tmishini tiklashda arxeologik, etnografik va antropologik ma'lumotlar bilan bir qatorda tilshunoslik dalillarning ham ahamiyati kattadir. Tafakkur va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan tillar kishilik jamiyatining tongida odamlarning birgalashib mehnat qilishi jarayonida zaruriyat natijasida shakllanib vujudga keldi. Ibtidoiy kishilarning tili va tafakkuri rivojlanishdan sira to'xtamadi, aksincha yanada taraqqiy qilishda davom etaverdi. Odamlar tabiat bilan, uning turli-tuman hodisalari bilan borgan sari chuqurroq tanisha boshladilar. Ular orasida asta-sekin narsalarga, yashab turgan joylariga, o'zlari yasagan qurollarga, jonli va jonsiz buyumlarga va o'zlariga nom qo'yish rasm bo'la boshlagan. Oqibat-natijada ibtidoiy kishilarning so'z boyligi orta borib, har bir narsa, hodisa, uning konkret nomiga ega bo'lgan. Bu so'z va gaplar esa asrlar osha avloddan-avlodga o'tib, ayrimlari ba'zi o'zgarishlarga uchragan, ba'zilari esa hech qanday o'zgarishga yo'liqmay, qanday bo'lsa shundayligicha saqlanib qolgan, lekin qanchalari unutib yuborilgan.

Shunday ekan jahonning ko'pgina tillarida uzoq o'tmishda foydalanilgan ba'zi so'zlarning saqlanib qolishi tasodifiy hodisa emas. Biz rus tilidagi otmoq (strelyat) so'ziga murojaat qilsak, uning yoy, kamon o'qi (strela) so'zidan kelib chiqqanini bilib olishimiz qiyin emas. Mazkur so'zning kelib chiqishi esa kishilik jamiyat tarixining uzoq o'tmishiga, ya'ni ibtidoiy kishilar hayotida muhim rol o'ynagan o'q-yoy kashf etilib, odamlar undan keng foydalanilgan davrga to'g'ri keladi. Biz uchun juda oddiy bo'lgan o'z davri uchun esa nihoyatda murakkab va muhim bo'lgan bu qurol ibtidoiy jamiyat tarixining o'rta tosh (mezolit) davrida kashf qilingan. Shunday ekan, mazkur jangovar va ov qurolining kashf qilinganligiga 12-15 ming yildan ortiqroq vaqt o'tdi. Demak, mazkur qurolga berilgan nom ham xuddi o'sha davrga mansub bo'lishi shubhasizdir. Chiqib kelishi kishilikning ibtidoiy jamiyat tarixiga borib taqaluvchi so'z va iboralarni har bir qabila, xalq va millatlar tilidan topish mumkin. Ko'pgina Hind-Yevropa tillarida xususan rus tilida «skot» (hayvon, chorva) so'zi mol, bisot, xazina, mulk, pul kabi ma'nolarni anglatadi. Sababi shuki qadimda chorva (qo'y, echki, qoramol, ot, tuya va boshqalar) mollari aholining buyum almashinuvida pul vazifasini o'tagan. Qadimgi hind tili hisoblangan (sanskritda) rus tilidagi «plemyannik» - jiyan so'zi «sopernik» - raqib. yov, dushman kabi ma'nolarni ham anglatgan. Bunday misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. Hozirgi zamon tillarining o'zaro munosabatlari va o'xshashlik tomonlarini chuqur o'rganish asosida turli xalqlarning tarixan bir-biri bilan aloqador va o'zaro bog'liq ekanligini bilib olish mumkin. Bu hol oilaviy tillar, shuningdek xalqlarning kelib chiqishida mushtarak umumiy bog'lanish mavjudligini anglatadi.

Tilshunoslik ma'lumotlari orasida biror mamlakat, o'lka, shahar, qishloq, daryo, ko'l, tog' ayrim joylarning geografik nomlarini o'rganuvchi toponimika fanining dalillari ham ibtidoiy davr tarixini asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Ba'zi geografik nomlar juda ham qadim zamonlarda kelib chiqqan bo'lib, uning (negizi) asosi ibtidoiy jamoa tuzumi davriga borib taqaladi. Shubhasiz ibtidoiy odamlarning so'z boyligi u qadar ko'p bo'lmasa ham, o'zi yashab turgan joy va uning atroflariga nom qo'yganlar. Tevarak atrofda sodir bo'lgan hodisalarni nimadir deb ataganlar. Qabila, urug'larning o'z nomi bo'lib, ular ovchilik, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan. Demak, ularning ham o'ziga yarasha nomlari bo'lganligi shubhasizdir.

Shuni aytish mumkinki, hanuzgacha biror-bir oddiy qabila yo'qki, ular odamlar va joy uchun xos bo'lgan nomlardan foydalanmagan bo'lsinlar. Insonni qurollarni va boshqa ko'p narsalarni ishlab chiqaruvchisi deyishadi. Biz erkin ravishda ayta olamizki, ibtidoiy odamlar nom qo'yishning asoschisidir, deb yozgan edi amerikalik mashhur toponim Jorj Styuart. Geografik nomlar ma'lum tarixiy sharoitda tug'ilib, o'z shaklini o'zgartirib, ma'lum vaqt o'tgach unutiladi. Lekin ularning ayrimlari uzoq yashovchan bo'lib, zamonamizgacha saqlangan.

Nisbatan turg'un va barqaror bo'lgan, uzoq yashovchan joy nomlari «o'lik» so'zlardan iborat bo'lib qolmay, balki zamirida urug' qabila va xalqlar hayoti, tarixi, tili va boshqa ko'p ma'lumotlarni o'zida saqlab keladi.

Joy, qabila, kishi va urug' nomlari haqidagi dalillar ibtidoiy va qadimgi aholining qabilaviy tarkibi, joylar, o'simliklar, hayvonot dunyosi, qabilalararo munosabat va ularning mashg'ulotlari haqida ajoyib ma'lumotlar berishi mumkin. Qadimgi Sharq, Rossiya, O'rta Osiyo, shuningdek, O'zbekiston tarixining sahifalari varaqlanar ekan, unda asosiy negizi ibtidoiy jamoa tuzumiga borib taqaluvchi juda ko'p geografik nomlarni, kishi ismlarini uchratish mumkinki, bu ibtidoiy tarixning shohidlaridir.

Ibtidoiy jamiyat tarixida, ayniqsa uning keyingi bosqichlarida xalq og'zaki ijodiyoti rivojlana boshladi. Xalq og'zaki ijodiyotining dastlabki ko'rinishi, o'sha davr kishilarining o'tmishi haqidagi afsonalardan iborat bo'lgan. Tafakkur doirasi rivojlanayotgan ibtidoiy inson o'z o'tmishi haqida o'ylay boshlaganligi shubhasizdir. Odamlar atrofni o'rab turgan narsalar va sodir bo'layotgan tabiat hodisalariga qiziqib qarab, ularni qaerdan va qanday paydo bo'lgani haqida fikr yurita boshlaganlar. O'tmish haqida mana shunday sodda fikr yuritishning o'zi ma'lum darajada tarixning boshlanishidir, deb juda to'g'ri ta'kidlagan etnograf M.O.Kosven. Garchi ibtidoiy davrda to'qilgan rivoyat va afsonalar ibtidoiy davrdagi animistik, fetishistik va totemistik ruhda yaratilgan bo'lishiga qaramay, ularda ibtidoiy davr kishilarining kundalik hayotidan olingan haqqoniy voqealar ham aks ettirilgan bo'lib, ular tarixiy asosga egadirlar. Bu hol afsona va rivoyatlarni kishilikning sinfsiz jamiyat taixini o'rganishning muhim manbalaridan biriga aylantiradi. Undan tashqari ibtidoiy kishilarning turmushi, kundalik hayoti va mafkuraviy qarashlari o'sha vaqtda yaratilib, og'izdan-og'izga ko'chib keyingi avlodlarga yetib kelgan xalq og'zaki ijodiyotining ertak, matal, maqol, mehnat, qahramonlik, marosim va mavsum qo'shiqlari janrlarida o'z ifodasini topganki, bular ham kishilikning qadimgi hayotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Maksim Gorkiy «Qadimgi ertaklar, miflar va afsonalarning ma'lum ekanligiga shubha qilmayman, ammo men bu ertak, mif va afsonalarning asosiy mag'zini chuqurroq tushunishlaringizni istardim. Bularning asosiy g'oyasi qadimgi davrlardagi mehnat kishilarining yukini engillashtirishga, ularning ish unumi oshirishlariga to'rt oyoqli va ikki oyoqli dushmanlarga qarshi qurollanishlariga hamda so'z kuchi - «avrash», «afsun» yo'li bilan tabiatning kishilarga xatarli bo'lgan hodisalariga ta'sir etishlariga qaratilgan», deb yozgan edi. Shunday qilib, miflar, afsonalar, ertaklar, maqollar va xalq og'zaki ijodiyotining boshqa eng qadimgi adabiy yodgorliklari ibtidoiy davr tarixini o'rganishda asosiy bo'lmasa ham muhim manba bo'lib hisoblanadi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yozuv kashf qilinmagan, binobarin, yozma manbalar ham yo'q edi. Lekin ibtidoiy tuzum yemirilib, tabaqaviy jamiyat vujudga keldi, xat-yozuv kashf qilinib, diniy va dunyoviy mazmunga ega bo'lgan asarlar yaratila boshlandi. Bu asarlarning ba'zilar butunicha, ayrimlaridan esa parchalar zamonamizgacha saqlanib kelgan. Bular orasida «Avesto», Firdavsiyning «Shohnoma», hindlar yaratgan «Maxabxarata» va «Ramayana» kabi asarlari alohida ahamiyatga egadir. Mazkur asarlarda kishilikning

tabaqaviy jamiyatdan burungi hayoti, mashg'ulotlari va mafkuraviy qarashlari haqida ba'zi ma'lumotlar uchraydi. Ularda odamlarning o'zlari, har turli hayvonlarni qo'lga o'rgatilishi madaniy va dorivor o'simliklarning kashf qilinishi, hunarmandchilik, dastlabki dehqonchilikning vujudga kelishi, qurollar yasash, ibtidoiy meditsina, davolash tartibi va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar bor. Xalq og'zaki ijodida odamlarning kundalik turmush tarzi, hayoti, mehnat qurollari yasash va turli xil dorivor o'simliklardan foydalanish yo'llari haqida ma'lumotlar topamiz.

Ibtidoiy jamoa davrida nutq va til vujudga kelgan bo'lsada, lekin yozuv yozma manbalar to'liq mavjud emas edi, shuning uchun bu davr haqida og'zaki manbalar, yoki sinfiy jamiyat davrida qadimgi Grek va Rim olimlari, buyuk geografik kashfiyotlar natijasida sayyohlar orqada qolgan xalqlarning tili, yozuvi, etnografiyasini o'rgandi va bizga qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirdi.

4-asosiy savol: Antropologik ma'lumotlar.

Darsning maqsadi: Tarixiy antropologiyani o'rganib, ibtidoiy jamoa tarixini to'laroq yoritib berishga hissa qo'shish.

Identiv o'quv maqsadlari: 4.1. Talabalarda ibtidoiy jamoa tuzumi haqidagi tasavvurlarni kengaytirishda antropologik ma'lumotlarning ahamiyati.

4-asosiy savol bayoni: Antropologiya ma'lumotlari. Ma'lumki, inson juda uzoq tarixiy rivojlanish jarayonini bosib o'tdi. Odamzodning vujudga kelishi masalasi bilan paleoantropologiya (odamning qazilma qoldiqlarini o'rganuvchi antropologiya bo'limi) shug'ullanadi.

Ma'lumki, ibtidoiy kishilar allaqachonlar o'lib ketganlar, lekin ularning suyak qoldiqlari yer yuzining juda ko'p joylaridan topildi va topilmoqda. Ibtidoiy odamlarning suyak qoldiqlari Tanganika (Sharqiy Afrika)dagi Olduvay darasidan, Keniyaning Rudolf ko'li yaqinidan, Efiopiyadan, Aljirdan, Janubiy Afrikadan, Chad respublikasidan, Xitoydan, Indoneziyadan, Sobiq SSSR territoriyasidan, shu jumladan Qrimdan, Gruziyadan, Armaniston, O'zbekistondan ko'plab topilgan va topilmoqda. Mazkur suyaklar antropologlar uchun asosiy material bo'lib, ular bu suyaklarni har tomonlama sinchiklab o'rganish asosida ibtidoiy davr kishilarining tana tuzilishi va umumiy ko'rinishini tiklaydilar. Qazilma odamlarning saqlanib qolgan suyaklarini sinchkovlik bilan qiyosiy-anatomik jihatidan o'rganish ularning saqlanib qolmagan qismini tiklash imkonini beradi. Buning uchun antropologiya fanida puxta ishlangan skeletni o'lchash sistemasi keng ko'lamda qo'llaniladi.

Antropologlar (ibtidoiy odamning suyak qoldiqlari va butun skeletlarini chuqur o'rganish asosida ular muskulining joylanishi, rivojlanishi, yuz tuzilishi, bosh miya qopqog'i, miya qutisining hajmi, uning katta-kichikligi hamda ichki va tashqi tomonining tuzilishini tiklaydilar. Bu esa ibtidoiy kishilarning qiyofasi qanday ekanligini, ularning nimalarga qodir ekanligini bilib olish imkonini beradi. Bu sohada V.V.Bunak, G.A.Bonch-Osmolovskiy, G.F.Debest, M.M.Gerasimov, M.F.Nesturx, Ya.Ya.Roginskiy, V.P.Yakimov, Yu.I.Semenov, N.A.Sinelnikov, V.P.Alekseev va boshqa chet el antropologlari juda katta xizmat qildilar va xizmat qilmoqdalar.

Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganishda antropologik (suyak qoldiqlari) manbalarining o'rni katta, antropolog olimlar qadimgi zamonlarga tegishli deb, hisoblangan odam suyaklarini anatomik qiyoslash metodi asosida chuqur taxlil qiladilar. Ko'proq skeletning boshi, peshonasi, gavda tuzilishiga qarab o'rganadilar, ayniqsa, ular bosh miya hajmi, yuz peshona tuzilishlari asosida qadimgi odamning ongi, fikrlashi, nutq rivojlanishi, gavda tuzilishi, rivojlanishlarini aniqlab beradilar.

Odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi, odamzod irqalarining paydo bo'lishi, odamning tana tuzilishidagi normal farq tafovut o'zgaruvchanligi haqida antropologiya fani o'rganiladi. U fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan shakllana boshlagan. Antropologiya quyidagi uch katta bo'limdan iborat: Odam morfologiyasi, Antropogenez, Irqshunoslik.

Morfologiya – odamning jismoniy tuzilishidagi belgilarning yosh, jins, kasb va tashqi sharoitiga qarab o'zgarishini tushuntirib beradi.

Irqshunoslik – odamzod irqalarining kelib chiqish davri va sabablarini, ularning yer yuzida tarqalishini izohlab, etnogenez muammolarini yechishga ham o'z hissasini qo'shadi.

Antropogenez – esa inson jismoniy qiyofasining shakllanishi, mehnat faoliyati, tili, shuningdek jamiyatning dastlabki rivojlanish jarayonlarini o'rganadi.

Demak, antropologik dalillarsiz kishilikning ibtidoiy davrini tasavvur qilish qiyin va mushkul ishdir. Shuning uchun antropologik dalillar ibtidoiy jamiyat tarixini tiklashning muhim manbalaridan hisoblanadi.

5-asosiy savol: Ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda tabiiy fanlarning o'rni.

5-asosiy savol bayoni: Shu narsani ham ta'kidlab o'tish kerakki, paleobotanika, paleozoologiya, paleoklimatologiya, geologiya kabi tabiiy fanlar qo'lga kiritgan ma'lumotlarisiz ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini har tomonlama va chuqur o'rganib bo'lmaydi.

Agar paleobotanika o'simlik turlarini, ularning torfda saqlanib qolgan gul changiga qarab o'rgansa, paleozoologiya esa qirilib ketgan hayvonlarning qazilma suyaklariga qarab ibtidoiy odamlar bilan bir davrda yashagan qadimgi hayvonlar olamini o'rganib, ularni qaysi turga mansub ekanligini belgilaydi. Paleoklimatologiya - (qadimgi iqlimlar haqidagi fan) u yoki bu davrdagi iqlimni o'simliklarning gul changi va tasmaimon gullariga qarab, nam miqdoriga bog'liq holda o'zgarib boradigan havzalar chegaralariga qarab aniqlanadi. Demak tabiatdagi o'simliklar olami, hayvonot dunyosi, jumladan inson hali o'zining yashash sharoiti va muhiti bilan bir butun ekan u davr iqlimini o'rganish ibtidoiy kishilar hayoti qay tarzda edi degan masalani yoritishda katta yordam beradi. Geologiya fani esa yer po'sti cho'kindi qavatlarini paydo bo'lish jarayonini, vaqt izchilligini va shu cho'kindilar ichidagi organik qoldiqlarga qarab, aniqlab berar ekan, odamzodning hali u yaratgan moddiy-madaniy buyumlar yoshini ham bilib olishga yordam beradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek ibtidoiy jamoa tuzumi tarixining manbalari xilma-xildir. Lekin bu manbalarining hech biri alohida olganda kishilikning ibtidoiy davri hayotini chuqur va har tomonlama yoritib bera olmaydi. Mazkur manbalarining eng asosiy hisoblangan arxeologik yodgorliklar ham masalani biz istagandek oydinlashtirib berishga qodir emas.

Bunga qo'shimcha ravishda qoloq qabilalar hayotidan olingan etnografik ma'lumotlarni jalb qilingan taqdirda ham ibtidoiy kishilar hayoti manzarasini ibtidoiy davrdagidek qilib tavsiflash qiyin, albatta. Chunki ibtidoiy kishilar bilan hozir ibtidoiy tarzda hayot kechirayotgan kishilar orasida juda katta tarixiy davr yotadi. Binobarin ibtidoiy kishilarning turmush madaniyati, tili va diniy e'tiqodi bilan hozir fanga ma'lum bo'lgan qoloq qabilalarning moddiy madaniyati, tili va mafkuraviy qarashlari orasida juda katta tafovut bor. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, hali etnograflar moddiy madaniyati so'nggi tosh asri darajasida turgan biron-bir qoloq qabilani o'rganish imkoniyatiga ega bo'lganlari yo'q. Fanda Avstraliyaning mahalliy aholisi, xususan materikning sharqi-janubidagi Tasmaniya orolida yashab kelgan tasmaniyaliklar kishilikning etnografiyaga ma'lum bo'lgan qoloq guruhi deb hisoblanadi. To'g'ri, tasmaniyaliklar hozir yo'q bo'lib ketganlar. Inglizlarning XIX asrning 20-yillarida boshlagan shafqatsiz mustamlakachilik harakatlari Tasmaniya mahalliy aholisining yoppasiga qirilib ketishiga sabab bo'ldi. Etnograflarning keltirgan ma'lumotiga

ko'ra 1869 yili Xobarta yaqinidagi Ustrichnoy qo'ltig'i qirg'og'ida Uillyam Lenni ismli tasmaniyalik erkak kishi dunyodan ko'z yumgan. 1876 yilda esa Truganini ismli tasmaniyalik ayol 70 yoshlarida vafot etgan. Eng so'nggi ma'lumotlarga qaraganda Tasmaniya mahalliy aholisining oxirgi vakili Fanni Smit ismli ayol 1905 go'rga qo'yilgan. Ular yoshligida eshitgan o'z xalqining qo'shiqlarini umrining oxirigacha eslab aytib yurganlar. Ingliz mustamlakachilarining o'taketgan zolimligi, berahmliги tufayli tasmaniyaliklarning madaniyati haqida juda oz, ayni vaqtda bir-biriga zid ma'lumotlar saqlanib qolgan. Tabiiy to'siqlar, tashqi dunyo bilan o'zaro aloqaning yo'qligi Tasmaniyadagi qabilalarni rivojlanmasligiga va qoloq bo'lib qolishiga sabab bo'lgan. Ularning turar joylari, uy-ro'zg'or buyumlari juda oddiy bo'lib, ular hali juda sodda bo'lgan. Ular asosan baliqchilik, termachilik va ovchilik bilan tirikchilik qilishgan. Ularning moddiy madaniyati, texnikasi so'nggi tosh asriga yaqin bo'lib, ayni bir vaqtda mezolit (o'rta tosh asri) hamda neolit (yangi tosh asri) davriga xos qator belgi va xususiyatlarni topish mumkin. Ularning ba'zilarida hatto o'q-yoy bo'lmagan. Shunday va shunga yaqin qabilalar hozir ham Afrika va Janubiy Amerikadagi changalzorlarda yashaydilar. Lekin ular etnografik jihatdan yaxshi o'rganilgani yo'q. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, taraqqiyotning quyi bosqichida turgan mazkur qabilalar bilan ibtidoiy kishilarning moddiy madaniyati orasida ayrim o'zhashliklar mavjud bo'lsa ham lekin ular o'rtasida davr jihatdan juda katta tafovut mavjud. Ikkinchidan, mazkur qabilalar u yoki bu darajada madaniy dunyoning ta'siriga ham kirib qolganlar.

Shunday ekan, hozirgi zamon qoloq qabilalarining hayotini ibtidoiy kishilar turmushining nusxasi deb bo'lmaydi. Mavjud etnograflardan qiyosiy foydalanib, ibtidoiy kishilar hayotining ayrim tomonlarini tasavvur qilish mumkin. Lekin etnografik ma'lumotlar va arxeologik dalillarning o'zi masalani chuqurroq va har taraflama bayon qilishga ozlik qiladi. Bu sohada arxeologiya etnografik, antropologiya, geologiya, tilshunoslik, paleozoologiya, paleoklimatologiya, fizika, ximiya, kibernetika va boshqa fanlar qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib odamning paydo bo'lishi, ibtidoiy gala, urug'chilik jamoasining vujudga kelishi ravnaq topishi, mehnat qurollarining takomillashuvi, chorvachilik va dehqonchilikning vujudga kelishi ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi, ibtidoiy kishilarning madaniyati haqida birmuncha to'laroq tasavvurga ega bo'lish mumkin. Demak, insonning kelib chiqishi, ibtidoiy jamiyat tarixini tiklash, u davrning qator masalalarini o'rganish uchun hozirgi zamonning qator fanlarini jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Arxeologik yodgorliklarning mutlaq yoshini aniqlashda qanday usullardan foydalaniladi?
2. Paleoklimatologiya qanday fan?
3. Paleozoologiya qanday fan?
4. Paleontologiya qanday fan?
5. Geologiya qanday fan?

3 - MAVZU: IBTIDOIY JAMOA TUZUMI TARIXSHUNOSLIGI

Asosiy savollar:

1. Qadimgi dunyo mutafakkirlarining ibtidoiy jamoa haqida tasavvurlari.
2. O'rta asrlarda ibtidoiy jamoa haqida tasavvurlar.
3. Etnografik bilimlarning yig'ila borishi.
4. Ibtidoiy jamoa tarixining vujudga kelishi.

Tayanch tushuncha va iboralar: Ibtidoiy jamoa tarixi haqida Qadimgi Rim va Yunon olimlari, Sharq allomalarining fikrlari. Ibtidoiy jamoa davri haqida yozilgan asarlar. O'rta asrlar davrida ibtidoiy jamoa davri haqida ma'lumotlarning to'planishi. Ibtidoiy jamoa davrini o'rganishda buyuk geografik kashfiyotlarning ahamiyati. Yangi hududlar va xalqlarning o'rganilishi. XIX-XX asrlarda ibtidoiy jamoa davri haqida yaratilgan kitoblar va ibtidoiy jamoa tarixining vujudga kelishi va hokazolar.

1-asosiy savol: Qadimgi dunyo mutafakkirlarining ibtidoiy jamoa haqida tasavvurlari.

Darsning maqsadi: Talabalarda Ibtidoiy jamoa tarixi haqida qadimgi Rim, Yunon olimlari fikrlari, O'rta asrlarda ibtidoiy jamoa haqida to'plangan ma'lumotlar, yozilgan asarlar orqali bilimlarini shakllantirish. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixshunosligi mavzusini o'tish jarayonida ajdodlarimizning hozirgi qiyofali insonga aylanishigacha bo'lgan juda uzoq davrni bosib o'tganligini ko'z oldiga keltirish va shu orqali inson-insonga do'st va birodarlik hamda o'zaro yordam ruhida tarbiyalash. Qadimgi dunyo mutafakkirlarining ibtidoiy jamoa haqida tasavvurlarini, ibtidoiy jamoa tarixi haqida Qadimgi Rim va Yunon olimlari, Sharq allomalarining fikrlarini talabalarga tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadlari: 1.1. Qadimgi dunyo mutafakkirlarining ibtidoiy jamoa haqida tasavvurlarini tushunadi. 1.2. Ibtidoiy jamoa tarixi haqida Qadimgi Rim va Yunon olimlarining fikrlarini aytib beradi. 1.3. Sharq allomalarining fikrlarini taqqoslay oladi.

1-asosiy savol bayoni: Ibtidoiy jamiyat tarixi bashariyat tarixining ajralmas qismini tashkil etadi. U tarixchilikning boshqa sohalariga nisbatan ancha yosh bo'lib, XIX asrning ikkinchi yarimlaridan vujudga keldi va mustaqil fan sifatida rivojlanmoqda. Lekin bu degan so'z ilgari insoniyat jamiyati tarixining bu dastlabki davri haqida hech qanday tushunchalarga ega emas edilar, degan fikr kelib chiqmasligi kerak. O'zining uzoq o'tmishiga qiziqish kishilarda ular taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridayoq vujudga kelgan. Shu narsa ravshanki, etnograflar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar va boshqa fan sohiblari tomonidan o'rganilgan xalq, qabila, elatlarda ularning uzoq o'tmishi, ajdodlarining ajoyib-g'aroyib qahramonligi, urug' qabila va xalqlarning kelib chiqishi ularning turmush tarzi haqida juda ko'p og'zaki rivoyat va afsonalar saqlanib kelayotganligi hisobga olingan.

O'zaro qo'shni bo'lib yashagan qabilalar bir-birlarining turmush tarzi mashg'uloti, diniy e'tiqodi qanday ekanligini kuzatganliklari shubhasizdir. Bu kuzatishlar faqatgina so'nggi davrga mansub bo'lib qolmay, juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi tarix fanlari orasida eng keyin paydo bo'lganidir, lekin ibtidoiy jamiyat haqidagi ma'lumotlar, fikrlar, bilimlar qadim zamonlardayoq mavjud bo'lgan. Etnograf olimlar o'rgangan, taraqqiyotdan orqada qolgan xalqlarda o'z tarixi haqida og'zaki ma'lumotlar bo'lganligini aniqlaganlar, ular o'z avlodlarining jasoratlari, urug'larining kelib chiqishi kabi ma'lumotlarni saqlab qolganlar.

O'zining uzoq o'tmishiga qiziqish kishilarda ular taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridayoq vujudga kelgan. Shu narsa ravshanki, etnograflar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar va boshqa fan sohiblari tomonidan o'rganilgan xalq, qabila, elatlarda ularning uzoq o'tmishi, ajdodlarining ajoyib-g'aroyib qahramonligi, urug' qabila va xalqlarning kelib chiqishi ularning turmush tarzi haqida juda ko'p og'zaki rivoyat va afsonalar saqlanib kelayotganligi hisobga olingan. O'zaro qo'shni bo'lib yashagan qabilalar bir-birlarining turmush tarzi mashg'uloti, diniy e'tiqodi qanday ekanligini kuzatganliklari

shubhasizdir. Bu kuzatishlar faqatgina so'nggi davrga mansub bo'lib qolmay, juda qadim zamonlarga borib taqaladi.

Shumer-bobilliklarning «oltin davr haqidagi doston»larida davr haqida na ilon, na chayon, na sirtlon, na arslon bo'lgan, yovvoyi itlar ham, bo'rilar ham bo'lmagan, qo'rqinch, dahshat bo'lmagan, insonning ham raqibi bo'lmagan, odamlar g'am-g'ussasiz, mehnat qilmay yashab, dushman va urush nimaligini bilmaganlar, deb madh qilinadi. Bu tasavvurlar keyinchalik turli xil shakllarda uzoq vaqt davom etdi.

Qadimgi mualliflar xususan Demokrit ibtidoiy jamoa tuzumi davriga baho berib, ibtidoiy davr kishilari hech qanday oltin asrda yashagan emaslar, qadimgi zamon kishisi ham tirikchilik qiyinchiliklari, tabiat bilan kurash qiyinchiliklari ostida ko'p ezilib azob tortgan deb ta'kidlagan edi. Ibtidoiy jamiyat tarixi haqidagi dastlabki ilmiy bilimlar afsonaviy tarzda bayon etilgan. Lekin ularda haqiqat kurtaklari bo'rtib turar edi.

Qadimgi Mesopotamiya, Misr, Hindiston, O'rta Osiyo, Xitoy va Qadimgi Sharqning boshqa o'lkalarida yaratilgan qator dostonlar, hikoyalar, qo'shiqlar va xalq og'zaki ijodiyotida kishilikning ibtidoiy davri haqida ba'zi ma'lumotlar uchraydi. Bu borada qadimgi grek, rim va bobillik tarixchilar tomonidan qayd qilingan ma'lumotlar qimmatlidir. Qadimgi davr tarixchilari tasavvurida madaniylashgan dunyo faqat O'rta yer dengizi atroflaridagi mamlakatlar bilan chegaralanib, undan tashqaridagi bepoyon yerlarda esa ular «varvarlar» deb atalgan qabilalar yashagan. Mazkur qabilalarning ko'pchiligi hali ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida yashar edilar. Varvarlarning turmush tarzi rim va grek tarixchilariga u qadar yaxshi ma'lum emas edi. Sayohatchilar ular yurtiga kamdan kam borar, borganlari ham u yerlarda qisqa vaqt bo'lib, og'zaki ma'lumot to'plash bilan kifoyalanar edilar. To'plangan ma'lumotlar esa ko'pincha bo'rttirilgan va g'ayri tabiiy mazmunga ega bo'lar edi. Lekin shunga qaramay xuddi shu qadimgi davrda ibtidoiy qabilalar hayotini bayon etishga asos solinib, bu keyinchalik ibtidoiy davr haqidagi ma'lumotlarni tartibga solish uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Skiflar, pigmeylar va boshqa ko'p qabilalar haqida Gerodotning (484-425), Kichik Osiyo xalqlari haqida Strabonning er. avv. (63 er.20), germonlar haqida Yuliy Stezar (100-44) va Tastit, Misr va O'rta Osiyo qabilalari haqida Trog Pompey yozib qoldirgan ma'lumotlar juda qimmatlidir. Gerodot va Strabonlar varvar qabilalarining ba'zilarida umumiy mulk mavjud bo'lib, ona nasabidan qarindoshlik hisobi barqarorligini payqaganlar. Xususan Gerodot likiylarda ona urug'i tartibi hukmron bo'lib, ularda qayliqlarni xotin-qizlarning o'zlari tanlaydilar, sarmat xotin-qizlari esa juda mag'rur, jangovar bo'lib, o'z dushmanini o'ldirgach, turmushga chiqadilar deb yozadi.

Old Osiyo xalqlari haqida qadimgi tarixchilar orasida Aleksandr Makedonskiy va dastlabki Salavkalar sulolasining zamondoshi er. avv. IV-III asrlarda yashagan, grek tilini yaxshi bilgan bobillik tarixchi Berossning xizmatlari ham alohida o'rin tutadi. Uni grek tilida Bobil tarixi va mifologiyasi haqida katta tarixiy asar yozganligi ma'lum. Afsuski, Beross yaratgan bu asar zamonamizgacha saqlanib qolmagan. Beross asarining Iosif Flaviy va boshqa tarixchilarning asarlarida keltirilgan parchalari va stitatalarigina bizning zamonamizgacha etib kelgan. Beross asarlaridan qolgan mazkur parchalarda ibtidoiy zamonlarga oid ma'lumotlar ham uchraydi.

Qadimgi davr, xususan grek va rimlik mualliflar orasida insoniyatning bu ilk davri to'g'risida yagona fikr bo'lmagan albatta. Eradan avvalgi VIII-VII asrlarda yashagan grek shoiri Gesiod o'zining «Mehnat va kunlar» poemasi insoniyat tarixining ilk bosqichini «jannat» yoki «oltin asr» shaklida tasavvur qilgan. Gesiodning o'zi o'rta hol dehqon, mayda

quldor bo'lib, u o'zining ikki quli va bir batragi bilan birgalikda dalada ertadan kechgacha mehnat qilgan. U dehqon mehnatiga g'oyat hurmat va ehtirom bilan qaragan. Lekin ilk quldorlik sharoitida dehqonlarning og'ir ahvolda bo'lishi Gesiodni g'azablantirgan. Bu hol Gesiodni inson tabiati va kishilarning turmush sharoiti asta-sekin yomonlashib uzoq o'tmishdagi baxtli oltin davrdan Gesiod zamonidagi qayg'uli temir davrga borayotganligi haqida pessimistik xulosa chiqarishga olib kelgan.

Qadimgi davrning mashhur materialist faylasuflaridan biri bo'lgan Demokrit (470-380) asarlarida ibtidoiy kishilarning qanday hayot kechirganliklari haqida sodda lekin haqqoniy fikrlar uchraydi. Demokritning fikricha yer yuzidagi dastlabki odamlar «dag'al, qo'pol va vahshiyona suratda hayot kechirganlar, yemish qidirib o'tloqlarda ko'chib yurganlar. Ular yerda mavjud bo'lgan tabiiy ozuqalar va daraxtlardagi yovvoyi mevalar bilan ovqatlanaganlar». Oziq ovqat topish, yog'in-sochin va vahshiy hayvonlardan saqlanish zaruriyati, kishilarni tabiatning turli-tuman hodisalari bilan kurashish usullarini qidirib topishga majbur etgan albatta.

Demokrit qarashlarining davomchisi qadimgi rim faylasufi va mashhur shoiri Lukrestiy Kar (99-55) «Buyumlarning xislati haqida» nomli poemasi kishilikning eng qadimgi yovvoyilik holatidan olov, kiyim-bosh, turar-joy va boshqa narsalarning kashf qilinishigacha bo'lgan taraqqiyot manzarasi qisqacha, lekin haqqoniylik bilan bayon qilingan. Lukrestiy Kar Demokrit kabi odamlarning muxtojlik, zaruriyat tufayli qilgan kashfiyotlarini izohlab ko'rsatgan va o'sha vaqtda xudoning odamni yaratganligi hamda kishilik jamiyati tarixining tongida «oltin asr» mavjud bo'lganligi haqida tarqalgan afsonalarni tanqid qilgan. Lukrestiy Karning muhim xizmatlaridan biri shuki, u mehnat qurollarini qanday buyumlardan yasalganiga asoslangan holda kishilik tarixini tosh, mis-bronza va temir davrlariga bo'lishni tavsiya qilgan. U o'zining mazkur farazi bilan hozirgi zamon arxeologiyasining bu eng muhim qoidasini davrimizdan ikki ming yilcha avval payqashga muvaffaq bo'lganligi kishini hayratga soladi.

2- asosiy savol: O'rta asrlarda ibtidoiy jamoa haqida tasavvurlar.

Darsning maqsadi: O'rta asrlarda ibtidoiy jamoa haqida to'plangan ma'lumotlar, yozilgan asarlar orqali bilimlarini shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadlari: 2.1. Talabalarda ibtidoiy jamoa tuzumi tarixshunosligi to'g'risida mustaqil va erkin fikrlash, tahlil qilish qobiliyatlarini shakllantirish.

2-asosiy savol bayoni: Garchi o'rta asrlarda din homiylari ilmiy bilimlarni, xususan ibtidoiy jamiyat haqidagi ilg'or g'oyalarni har tomonlama bo'g'ishga harakat qilmasin yer va unda yashagan xalqlar haqidagi bilim asta-sekinlik bilan bo'lsa ham olg'a qadam tashladi.

Sharqning mashhur olimlari Yevropa va Osiyo xalqlari haqida juda ko'p ma'lumot yozib qoldirishgan. Xususan, Abu Rayhon Beruniyning «Osor al boqiya», «Hindiston», Xitoy geografi Chan-Chunning (XIII asr) asarlari va yilnomalarida Sharq xalqlari, qabilalari haqida ularning urf-odati, turmushi, mashg'uloti va madaniyatiga doir juda ko'p ma'lumotlar bor.

Sharq o'lkalariga savdo-sotiq va diplomatik munosabatlarni tiklash uchun borgan Plano Karpini, Marko Polo va Afanasiy Nikitin va boshqalar mazkur joylardagi xalq va qabilalarning hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar to'plab, qaytganlarki, bu bilan Yevropaliklarni Sharq xalqlari haqidagi bilimlari ortdi. Ularning, kundaliklari, yilnomalari va asarlaridan kishilik tarixining ilk bosqichiga aloqador bo'lgan ko'pgina etnografik ma'lumotlar topish mumkin. Afanasiy Nikitinning "Uch dengiz osha sayohat" asari Hindiston

xalqlari va ularning urf-odatları haqida qimmatli ma'lumotlarga boydir. Afanasiy Nikitin 1466-72 yillarda Hindistonda yashagan va mahalliy xalqlarning etnografiyasini o'rganan.

3-asosiy savol: Etnografik bilimlarning yig'ila borishi.

Darsning maqsadi: Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin Yevropada etnografik bilimlar to'plashda haqiqiy to'ntarish yuz berganini, shuningdek ibtidoiy davr qoldiqlarini o'zida ma'lum darajada saqlab qolgan xalqlarni o'rganib, ibtidoiy jamoa tarixini to'laroq yoritib berishga hissa qo'shish.

Identiv o'quv maqsadlari: 3.1. O'rta asrlarda ibtidoiy jamoa davri haqida ma'lumotlar qanday to'plana borganini o'rganadi. 3.3. Ibtidoiy jamoa tuzumini o'rganishda buyuk geografik kashfiyotlarning ahamiyatini o'rganadi.

3- asosiy savol bayoni: Shu narsani ta'kidlab o'tish kerakki, qiyosiy etnografiyasiz kishilikning uzoq o'tmishini tiklash mumkin emas. Shu jihatdan XV asrning ikkinchi yarmidan boshlangan va keyingi asrlarda davom etgan, buyuk geografik kashfiyotlar Amerika, Hindiston, Afrika, Avstraliya, Okeaniya, Osiyo va Yevropada yashagan qabilalar, elatlar va xalqlar etnografiyasini o'rganish uchun shart-sharoit vujudga keltirdi.

1492 yilda Xristofor Kolumb, Ameriko Vespuchchi, Amerika qirg'oqlariga 1497 yilda Vasko-da Gama o'z odamlari bilan Hindiston yerlariga, 1519-1521 yillarda Magellan butun yer kurrasini aylanib chiqar ekan, ular ketidan okean ortiga kon izlovchilar, savdogarlar, bosqinchi-talonchilar hamda har xil sohaning mutaxassislari ham yo'l oldilar. Ularning ba'zilar mahalliy aholining turmushi bilan qiziqib, mazkur qabilalarning hayoti, ijtimoiy tuzumi, madaniyati va diniy e'tiqodlari haqida qimmatli etnografik ma'lumotlar to'plab juda katta ish qildilar.

Ulardan biri Amerikadagi irokez va guonlar turmushini kuzatgan J.F.Lafitodir (1670-1740) u o'zining «Obichai amerikanskix dikarey v sravnenii s obichayami pervobitnix vremen» degan asarida Shimoliy Amerikada yashovchi qabilalar hayoti haqida juda ko'p ma'lumotlar bo'lib, ulardan kishilikning ibtidoiy hayot manzarasini tiklashda foydalanish mumkinligini aytgan edi. Lafito mazkur qabilalar orasida bo'lar ekan, o'zining kuzatishlariga asoslanib, ibtidoiy qabilalarning ijtimoiy tuzumi ham Shimoliy Amerika hindularining xususan, guonlar va irokezlarning ijtimoiy tuzumiga o'xshash bo'lgan bo'lsa kerak, degan fikrni bayon qilgan. Ana shularga asoslanib Lafito Yevropa xalqlarining eng qadimiy davrini Shimoliy Amerika hindularining urf-odatları asosida izohlab tushuntirib berish mumkinligini birinchi bo'lib maydonga tashladi.

XVIII asr oxirigacha yangi yerlarni kashf etish davom etgan. Djeyms Kuk (1776-1779 yy) Yevropaliklarga Okeaniyani kashf etdi. Kuk va uning hamrohlari Gaiti oroli, Yangi Zellandiya, Avstraliya tub aholisining turmushi va madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlar to'plaganlar.

XVIII asr boshlaridan boshlab Sharqiy Yevropa va Shimoliy hamda Sharqiy Osiyoga ham qator ekspeditsiyalar uyushtirildi. Rus sayyohlari va tadqiqotchilaridan G.Novistkiy, G.F.Miller, I.G.Gmelin, S.P.Krashennikov, G.V.Steller, P.S.Pallas, I.G.Georgiy, V.F.Zuev, I.I.Lepexin kabi sayyohlar Ural, Volgabo'yi, Rossiyaning yevropa qismi, Shimoliy va Sharqiy Osiyoda yashovchi xalqlarning turmushi, dini, mashg'uloti, xalq og'zaki ijodiyotiga aloqador bo'lgan ko'pgina etnografik ma'lumotlar to'pladilar.

Rus sayyohlaridan I.F.Kruzenshtern, Yu.F.Lisyanskiy, O.E.Kotsebu, F.P.Litke, A.P.Lazarev, L.Ya.Zagoskin va I.E.Keniaminov kabilar Okeaniya hamda Shimoliy Amerikaning eskimos, hind-atapask va boshqa qabilalari haqida qimmatli ma'lumotlar to'pladilar.

XVIII asr boshlarida etnografik bilimlar Osiyo qit'asining shimoli hisobiga kengaydi. 1715 yilda Rossiyada birinchi etnografik asar “Kratkoe opisanie o narode ostyatskom” (Ostak xalqlari haqida qisqacha yodnomalar. Grigoriy Navitskiy) yaratilgan. V.N.Tatitsevning tarixiy va geografik asarlarida etnografik ma'lumotlar keltirilgan. Rossiya Akademiyasi 1733-1743 yillarda birinchi, 1768-1771 yillarda ikkinchi ekspeditsiyalarini Sibirga yuborgan. Birinchi yoki Buyuk shimoliy ekspeditsiya a'zolari Miller, Gmelin, Krashennikov Sibir xalqlari haqida ko'plab qiziq ma'lumotlar keltirgan. S.P.Krashennikovning “Kamchatka yeri haqida yozmalar” asarida metallni bilmaydigan va urug'chilik tuzumida yashayotgan itelmenlar haqida ma'lumotlar berilgan. Ikkinchi “Fizicheskaya ekspeditsiya” deb ataluvchi ekspeditsiya a'zolari P.S.Pallas, V.F.Zuevlar tungus (evenk), xanti, nenets va boshqa xalqlardagi urug'chilik tuzumining o'ziga xos tomonlari, urf-odatlarini, dini, og'zaki ijodi haqida qimmatli ma'lumotlar to'plashgan. Volgabo'yi, Ural va Rossiyaning Shimoliy Yevropa qismini o'rgangan I.R.Georgi “Rossiya davlatida istiqomat qiluvchi boshqa xalqlar to'g'risida yozmalar” nomli to'rt tomlik asar yaratgan (1776-1780 yillarda).

Rus sayyohlari va tadqiqotchilari Yangi va Eng yangi dunyoni o'rganishga ham munosib hissa qo'shganlar. I.F.Kruzenshteyn, Yu.F.Lisyanskiy, O.ye.Kotsebu, F.P.Litke, A.P.Lazarev va boshqalar Okeaniya va Amerikaning janubiy sohilidagi ko'plab xalqlar turmush tarsi, urf-odatlarini yozib chiqqanlar. L.Ya.Zagoskin Yukona qabilasi eskimos-ataposklar qabilasini o'rganib, “Amerikadagi rus yeri haqida chizgilar”ni (1847 yil) yozgan va moddiy-madaniy buyumlar kolleksiyasini to'plagan.

Mashhur rus etnograf olimi N.N.Mikluxo-Maklay (1846-1888) Yangi Gvineyadagi papuaslar orasida uzoq yashab, ularning urf-odatlarini va turmush madaniyatini chuqur o'rganib, katta ilmiy qimmatga ega bo'lgan ma'lumotlar to'plagan. U O'z hayotining katta qismini Okeaniya xalqlarining hayotini o'rganishga bag'ishlab, uch marta sayohat qilib, odamlarning irqiy belgilari o'rtasida bog'lanish yo'g'ligini isbotladi va etnografiya fani rivojiga katta hissa qo'shdi.

Etnograf olim N.I.Ziber ibtidoiy jamiyat iqtisodini o'rgandi. U o'zining 1883 yilda yozgan “Ibtidoiy-iqtisodiy madaniyat ocherklari” nomli asarida insoniyatning ilk bosqichlaridagi barcha xalqlarda umumiy ishlab chiqarish va iste'mol mavjud bo'lganligi, yer egaligining jamoa turlari haqida fikr bildiradi. M.M.Kovalevskiy ibtidoiy jamiyatda ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining past darajada bo'lganligi, matriarxatning o'ziga xos xususiyatlari va patriarxatga o'tilishini slavyan va kavkaz xalqlarida kuzatgan va ularni fanga kiritgan.

XIX asr oxirida L.Ya.Shternberg va V.G. Bogoraz-Tanlar Saxalin shimolidagi gilyak qabilalarida oilaviy nikoh sarqitlari mavjudligi haqida va Bogoraz-Tan “Chukchalar” asarida chukcha xalqlarida urug'chilik tuzumining yemirilishi haqida ma'lumot beradi.

4-asosiy savol: Ibtidoiy jamiyat tarixining vujudga kelishi.

Darsning maqsadi: Buyuk geografik kashfiyotlar va undan keyingi etnografik tadqiqotlar ibtidoiy jamoa va uning rivojlanishi haqida turli xil asarlar nazariyalarning yaratilishiga olib kelganini tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadlari: 4.1. XIXasrda ibtidoiy jamoa to'g'risida ma'lumotlarni umumlashtiradi. 4.2. K.Tomsen, I.Verso, S.Nilsonlarning arxeologiya fani nazariyasiga qo'shgan hissalarini izohlaydi. 4.3. XIX-XX asrda A.Gumboldt, Ch.Darvin, V.I.Vernadskiy asarlarini tushuntiradi. 4.4. Nikoh va oila haqida L.G.Morgan fikrlarini ochib beradi.

4-asosiy savol bayoni: Buyuk geografik kashfiyotlar va undan keyingi etnografik tadqiqotlar ibtidoiy jamoa va uning rivojlanishi haqida turli xil asarlar, nazariyalarning yaratilishiga olib keldi.

XVIII-XIX asrlarda yashab ijod etgan Adam Fergyson, I.Forster, uning o'g'li Georg, K.Yu.Tomsen, I.Ya.Verso, S.Nilson, J.Bushe de Pert, D.Evans, Ch.Layel, E.Larte, Mak-Ineri Shmerling, Ch.Darvin, T.Geksli kabi olimlar odamning paydo bo'lishi, ibtidoiy jamiyat, ibtidoiy jamiyatning davrlarga bo'linishi, u davr kishilarining ijtimoiy hayoti, mehnat qurollari va diniy tasavvurlari haqida xilma-xil mulohazalar bildirdilar. XIX-XX asrlarda esa E.Teylor, G.Speyser, J.Fergyson, Mak-Lennan, Yu.Lippert, J.Lebbok, G.Mortele, O Mon-Telius, I.Ya.Baxofen kabilarning ibtidoiy jamiyat tarixiga bag'ishlangan asarlari chop etila boshladi. Mazkur olimlarning aksariyati ibtidoiy jamiyat tarixining ko'pgina masalalariga ob'ektiv suratda yondoshib, ularni ilmiy asosda talqin qila boshladilar.

Bu sohada Shotlandiya faylasufi Adam Fergysonning (1723-1816) fikrlari ayniqsa diqqatga sazovordir. U o'zining «Grajdanlar jamiyati tarixi ocherki» nomli asarida tarixni-yovvoyilik, vahshiylik va madaniylik degan uch davrga bo'lgan. Nemis olimlaridan Iogann Forster (1729-1798) va uning o'g'li Georg Forster (1754-1794) ham shunday fikrlar bilan maydonga chiqib, kishilikning eng qadimgi davrini bolalik yoki yovvoyilik, yoshlik yoki vahshiylik va yetuklik yoki «madaniy» holatlari bosqichiga ajratishgan.

Daniyalik arxeolog K.Yu.Tomsen esa (1778-1865) esa ibtidoiy davrga mansub bo'lgan arxeologik yodgorliklarni buyumlarga qarab tosh, bronza va temir davrlariga bo'ladi.

U juda ko'p arxeologik materiallarga asoslangan holda Lukrestiy Kar zamonasidan beri saqlanib kelayotgan uch davrlilik (asrlilik) nazariyasining to'g'ri ekanligini ilmiy jihatdan isbotlab berdi. Daniyalik arxeolog I.Ya.Versa esa Tomsenga nisbatan ham ilgari lab ketib, hatto bronza davridagi ko'mish marosimlari bir-biridan farq qilishiga e'tibor berdi.

XIX asrdan boshlab arxeologiya sohasida ma'lum darajada siljish ro'y berdi.

Franstuz arxeologlaridan J.Bushe de Perta (1788-1868) juda qo'pol ishlangan tosh qurollar topib, ular qadimgi mamont, karkidon va boshqa yovvoyi hayvonlar bilan bir zamonda yashagan ibtidoiy kishilarning mehnat qurollari ekanini bayon qildi. J.B.Lamark, Ch.Darvin va Tomas Geksli esa insoniyatning eng qadimgi ajdodi odamsimon maymun ekanligini bayon qilib berdilar. Yuqorida nomlari zikr qilingan olimlar dastlabki kishilar ibtidoiy jamiyat tarixi fanining vujudga kelishi, uning davrlarga bo'linishi, rivojlanish etaplari, u davr kishilarining ijtimoiy hayoti, mehnat qurollari va diniy tasavvurlari haqida xilma-xil fikr hamda mulohazalar bilan maydonga chiqdilar.

Bu bilan ular ibtidoiy jamiyat tarixi fanining vujudga kelishida salmoqli hissa qo'shdilar. Lekin bular orasida I.Ya.Bahofen, Mek-Lennan va amerikalik mashhur etnograf L.G.Morganning xizmatlari alohida ahamiyatga egadir.

Shveystariyalik tarixchi va yurist I.Ya.Bahofen ibtidoiy oila va nikoh masalalarini o'rganish ishiga eng dastlabki asos solgan tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. U qadimgi klassik adabiyot, etnografiya va arxeologiya fanlari qo'lga kiritgan ma'lumotlarga asoslanib yaratilgan «Onalik huquqi» va boshqa asarlarida oila, nikohning vujudga kelishi haqida qimmatli mulohazalar bildirdi.

I.Ya.Bahofen dastlabki jinsiy aloqa, onalik huquqi, ayollarning tutgan o'rni, ona va ota urug'lari haqida quyidagi fikrlarni bildirdi: Kishilar dastlab tartibsiz jinsiy aloqa qilib yashaganlari, buni Bahofen «*geterizm*» - erkin hayot kechiruvchi ayol degan nomuvofiq nom bilan atagan. Shunday ekan tug'ilgan bolaning otasi kim ekanligini bilishning imkoniyati

bo'lmagan, binobarin nasl-nasabni faqat xotin tomondan qarab onalik huquqiga qarab belgilash mumkin edi. Demak shunday ekan xotinlar tug'ilgan bolalarning onalari, yosh bo'g'inni tug'ib o'stirganliklari hammaga aniq ma'lum bo'lgan. Birdan-bir onalar bo'lganliklari sababdan, juda katta e'tibor qozonganlar va izzat-ikrom qilinadilar. Ayollar bunday izzat-ikrom qilinganliklari tufayli to'la hukmronlik-*ginekokratiya* darajasiga etishgan edilar. Bir nikohlilikka o'tish, bunda xotin bitta erkakniki bo'lib, bu hol eng qadimgi diniy nizomni buzish, degan gap edi: bu tartibni buzish jazo berilishini talab qilar, yoki hech bo'lmaganda bu xotin bundan keyin ma'lum bir vaqt ichida boshqalar bilan aloqa qilib gunohini yuvishi kerak edi.

Uning fikricha «geterizm»dan monogamiyaga va ona huquqidan ota huquqiga taraqqiy etish diniy tasavvurlarning yanada taraqqiy etishi natijasida sodir bo'ladi, deb noto'g'ri fikrni bildirgan. Shunga qaramay Bahofen Aristotel zamonidan beri hukm surib kelayotgan «patriarxal» nazariyaga - kishilikning boshlang'ich shakli ota-onalar va ularning avlodlaridan tashkil topgan oiladan oilada esa katta yoshdagi erkak hukmron, uning huquqi chegaralanmagan edi, degan noto'g'ri fikrga qattiq zarba berdi. I.Ya.Bahofenning «Onalik huquqi» asari bosilib chiqqandan so'ng oila tarixini o'rganishga asos solindi.

Ibtidoiy nikoh va oila tarixini o'rganishda shotlandiyalik yurist J.F.Mak-Lennanning (1827-1881) ham xizmati bor. Mak-Lennan qadim zamonda yashagan va yangi zamonda yashayotgan qabila va xalqlarda nikohlanishning formalari shubhasiz xilma-xil bo'lgan, degan fikrni bayon qiladi. Qoloq qabilalar orasida deydi u, shunday gruppalar mavjud bo'lganki, mazkur gruppalar ichida o'zaro nikohlanish mutlaqo man etilgan. Shuning uchun ham erkaklar xotinni, xotinlar erni o'zlari yashab turgan gruppadan tashqari joydan olishgan. Lekin shunday gruppalar ham mavjud bo'lganki, ularda erkaklar xotinni, xotinlar erni o'z gruppalari ichidan tanlash odati bo'lgan. Mak-Lennan birinchi gruppani *ekzogamiya* - tashqaridan nikohlanish, ikkinchisini esa *endogamiya* - ichkarida gruppada doirasida nikohlanish tartibi deb atagan. Mak-Lennanning xizmati shundaki, u o'zi *ekzogamiya* deb atalgan nikoh tartibining hamma joyga tarqalganligini va uning katta ahamiyati borligini ko'rsatdi. Uning boshqa xizmati shundaki, u nasl-nasabni onalik huquqiga qarab tayin qilish, dastlab hukm surgan tartib ekanini e'tirof etdi. Ammo, u barcha qabilalar *ekzogamiya* va *endogamiya* bo'linib, *ekzogamiya* mazkur gruppada qiz bolalarni tug'ilishi bilan o'ldirilishi natijasida ayollar sonining kamayib ketishi oqibatida kelib chiqqan, deb noto'g'ri xulosaga keladi. Mak-Lennan o'zining bu mulohazalarini «Qadimgi tarix ocherklari», «Boshlang'ich nikoh» kabi asarlarida bayon qilgan.

Ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda mashhur Amerika olimi L.G.Morgan (1818-1881) ham alohida o'rinni egallaydi. L.G.Morganning ibtidoiy va qadimgi davr qabila va xalqlari haqidagi qarashlari uning «Qon-qarindoshlik tizimi», «Amerikaliklarning uyi va uy xo'jaligi», ayniqsa «Qadimgi jamiyat» degan asarlarida o'zining to'liq ifodasini topgan. Uning xulosalari yer sharining hamma joylaridan olingan juda ko'p etnografik, arxeologik va tarixiy dalillarga asoslangan edi. L.G.Morgan Shimoliy Amerika hind-irokezlari orasida 40 yildan oshiq yashab, ular hayotini chuqur o'rgangan. Bu kuzatishlar Morgan tadqiqotlarining negizini tashkil etadi. Bahofen va Mak-Lennandan so'ng oila va nikoh tarixi bilan qiziqib, uni tiklashga kirishdi. L.G.Morgan oila va nikoh taraqqiyotining qator bosqichlarini eng dastlabki nikohdan monogamiyagacha bo'lgan bosqichlarini belgilab berdi. Ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda Lyuis Genri Morganning «Qadimgi jamiyat» (1877 y), «Qarindoshlik xususiyatlari va tartibi», «Amerika tub aholisining uyi va turmushi» (1881 y) asarlari juda katta qimmatga egadir. U etnografik, arxeologik va tarixiy faktlarga asoslanib, shuningdek, irokez qabilalarini uzoq kuzatuv natijasida qimmatli xulosalar yaratgan.

L.Morgan ibtidoiy jamoa tuzumining asosiy yacheykasi urug', ibtidoiy urug'ni arxaik ona urug'idan so'nggi ota urug'i sari rivojlanib, o'sib o'tadigan urug' tashkil etadi deb hisobladi. Ibtidoiy jamoa iqtisodi jamoa mulkiga asoslangan, bu kollektivchilik printsipli ibtidoiy xalqlar ijtimoiy hayoti boshqa tomonlarini belgilab boradi, jumladan oila-nikoh munosabatlarini dastlabki formalarini ham belgilab boradi. L.G.Morganning ulug' xizmati shundan iboratki, u yozma tariximizning ana shu tarixdan bugungi negizining asosiy xususiyatlarini ochib bordi va tikladi hamda qadimgi greklar, rimliklar va germanlar tarixining hozirgacha hal qilinmay kelgan eng muhim muammolarini hal qilishga imkon beradigan kalitni Shimoliy Amerika hindilarining urug'doshlik birlashmalaridan topdi. L.G.Morganning asarlari, xususan uning, «Qadimgi jamiyat» kitobi, ibtidoiy davr tarixini o'rganishda eng qimmatli manbalardan hisoblanib, butun bir davrni ochadigan nodir asarlardan biridir.

To'plangan ma'lumotlar ibtidoiy jamiyat tarixini to'laroq tushunish uchun yangi dalil bo'lib xizmat qildi. V.V.Bunok, G.A.Bonch-Osmolovskiy, G.F.Debest, M.M.Gerasimov, M.F.Nesturx, Ya.Ya.Roginskiy, V.P.Yakimov, V.P.Alekseev va boshqa antropologlarning asarlari odamning kelib chiqish bosqichlari, kishilik jamiyat vujudga kelishining yo'llari, shart-sharoitlari haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lish uchun yangi imkoniyatlar ochib berdi.

P.I.Boriskovskiy, A.Ya.Bryusov, P.P.Efimenko, S.N.Zamyatin, A.P.Okladnikov, V.I.Rovdonikos, S.T.Semenov, D.A.Kraynov, A.V.Arstixovekskiy, O.N.Bader, V.A.Gorodstov, S.P.Tolstov, V.M.Masson va boshqa arxeologlarning tadqiqotlari esa ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yashagan kishilarning madaniyatini qayta tiklash uchun qimmatbaho manba hisoblanadi.

Etnograflardan A.M.Zolotaryov, E.Yu.Krichevskiy, M.Kosven, V.K.Nikolskiy, D.A.Olderogge, S.A.Tokarev, S.P.Tolstov, Yu.P.Averkjeva, L.A.Faynberg, V.R.Kabo kabi atoqli namoyandalarning ishlari esa urug' qabila, nikoh, din va ibtidoiy davrdagi boshqa masalalarning rivojlanish jarayonini tushunishda katta imkoniyatlar ochib berdi.

Evolutsion maktabning yirik vakillaridan biri ingliz etnografi Eduard Teylor bo'lib, u o'zining «Ibtidoiy madaniyat», «Antropologiya» asarlarida jamiyat va madaniyatga asta-sekin quyidan yuqoriga qarab rivojlanib boradi degan nazariyani olg'a surdi va tabiat qonunlarini jamiyat tarixiga qo'llashga urinib ko'rdi.

Odamning kelib chiqishi to'g'risidagi masala ham qadim zamonlardan beri insoniyat diqqatini jalb qilib kelgan. Qadimgi Misrda dastlabki odamni Xnum degan xudo kulolning charxida yasagan, degan fikr paydo bo'ldi. Bunday afsona qadimgi Yunonistonda ham tarqaldi. Yunonistonda odamni Zevs loydan yasagan, donolik iloxasi Afina esa ularga hayot baxsh etgan deyiladi. Eramizdan oldingi VI asrda yashagan Anaksimandr fikricha, barcha tirik mavjudotlar dastlab quyosh nurlariga isigach loydan kelib chiqqan, so'ngra ularning ba'zilari quruqlikda tarqalib o'zgargan, odam xam shu yo'l bilan paydo bo'lgan deyiladi¹.

XIX asrning birinchi yarmida odamzodning biologik tarixi paydo bo'lishining antropogenez masalasini o'rganish boshlandi. 1825 yilda Angliyaning janubiy-g'arbida, 1833-34 yillarda Belgiyadagi Shmerling g'oridagi eng qadimgi odamlarning suyak qoldiqlari topildi-yu, uni hozirgi odam skeleti bilan (va ichki organlarini ham) solishtirib ko'ra boshladilar. Odam gavdasining anatomik tuzilishi bilan birinchi marta tanishuvning o'zi odam

¹ Константинов А.В. Основы эволюционной теории. 2-е изд. Минск. Высшая школа, 1979.

bilan yuqori tuzilishdagi hayvonlar, ayniqsa sut emizuvchilar o'rtasida o'xshashlik borligini ko'rsatdi.

K.Linney odamni xudo tomonidan yaratilgan deb aytsa ham quyidagicha yozadi: maymun jirkanch bir maxluq nechog'lik bizga o'xshadiya. Linney o'z sistemasida odamni primatlar turkumiga kiritib, sistemaning boshiga qo'ydi. U maymunlar, chala maymunlar va ko'rshapalaklarni ham shu gruppaga kiritadi, ya'ni sut emizuvchilarga kiritadi. Rus olimi Kaverziev odam bilan hayvonlar o'rtasidagi o'xshashlikni sezib, odam, mushuk, she'r, yo'lbars, maymun va boshqalarini bir oila a'zolari deb qarash mumkin deydi.

XIX asrning boshlarida J.B.Lamark evolyutsion nazariyaga asos soldi. Biologiyada tarixiy metodni qo'lladi. U odamning tarixiy rivojlanishi to'g'risidagi yangi tushunchani tasdiqlagan birinchi tabiat tadqiqotchisi bo'lib, odam o'z tana tuzilishi bilan sut emizuvchilarga o'xshash, biroq tik yurish, orqa, oldingi oyoqlarining tuzilishi va boshqa xususiyatlari bilan ulardan farq qiladi. Odamlar qadimgi odamsimon maymunlarning ikki oyoqlab yurishga o'tishi, to'lda-to'lda bo'lib yashashi tufayli paydo bo'lgan deb ko'rsatadi.

Ingliz olimi Charlz Darvinning "Tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarniyg kelib chiqishi", "Odamzodning kelib chiqishi va jinsiy tanlanish" nomli asarlarida odamning hayvonot olamidani ajralib chiqqanini qiyosiy anatomiya, zoogeografiya, ibtidoiy jamoa tarixiga doir ko'p faktlarga tayanib isbotlashga uringan. Uning fikricha hozirgi odamga o'xshagan mavjud maymunlar odamzod urug' ajdodi bo'lgan hozirda qirilib bitgan maymunlar bilan bir urug'dan bo'lmaganini isbotladi. Darvin yaratgan bu nazariya antropogenez nazariyasiga asos bo'lib xizmat qildi.

Ch.Darvin turlarning kelib chiqishi asaridan foydalanib, Geksli va Gekkel evolyutsion ta'limotni birinchi bo'lib, odam paydo bo'lishi masalasini tadbiq etdilar. Geksli solishtirma anatomiya dalillaridan foydalanib odam odamsimon maymunlarga yaqin ekanligini ko'rsatib beradi. Gekkel esa embriologik ma'lumotlarga asoslanib, odam primatlardan kelib chiqqanligini qayd etadi. U sut emizuvchilarning shajarasini tuzib geneologik chiziqqacha maymunlardan maymunlarga, ulardan odamlarga borib taqalishini ta'kidlaydi. Gekkel uchlamchi davrning oxirida antropoidlar bilan odam o'rtasida qandaydir oraliq mavjudotlar yashagan, deb taxmin qildi va ularni pitekanthrop ya'ni maymun odam deb atadi.

Ch.Darvin 1871 yilda "Odamning paydo bo'lishi va jinsiy tanlanish" asarida odamning kelib chiqish masalasini alohida yoritdi. Bu asarda u odam anatomik, fiziologik va boshqa biologik jihatdan maymunlarga yaqin ekanligini isbotladi. Darvin fikricha, odam va hozirgi odamsimon maymunlar bir vaqtlar uchlamchi davrda yashab, so'ng qirilib ketgan qadimgi odamsimon maymunlardan kelib chiqqan. Odamning paydo bo'lishida qadimgi odamsimon maymunlarning to'rt oyoqlab yurishdan tik yurishga o'tishi, yo'lining tayanch organi vazifasidan ozod bo'lishi, bosh miyasining takomillashishi, nutqning shakllanishi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Darvin odamdagi ko'plab belgilar tabiiy tanlanishga bog'liq, deb aytadi. Lekin u antropogenezdagi sotsial faktorlar rolini tushunmagan. Bu masalani F.Engels 1896 yilda yozgan "Maymunning odamga aylanishida mehnatning roli" degan asarida ochib bergan.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Rossiya Akademiyasining Sibirga 1-chi ekspeditsiyasi qachon uyushtirildi?
2. Rossiya Akademiyasining Sibirga 2- ekspeditsiyasi qachon uyushtirildi?
3. Tungus, Evenk va Xanti xalqlari haqida kimlar qimmatli ma'lumotlar bergan?

4. Yangi Gvineya orolidagi papuas qabilasi haqida kim ma'lumot qoldirgan?
5. «Qadimgi jamiyat» asarining muallifi kim?
6. Ibtidoiy jamoa tuzumi haqida Sharq allomalarining fikrlarini bilasizmi?
7. O'rta asrlarda ibtidoiy jamoa davri haqida ma'lumotlar qanday to'plana bordi?
8. Ibtidoiy jamoa tuzumini o'rganishda buyuk geografik kashfiyotlarning ahamiyati qanday?
9. Ibtidoiy jamoa tuzumi haqida qadimgi Rim va Yunon olimlari fikrlarini bilasizmi?
10. Antik dunyo avtorlaridan kim skiflar va pigmeylar haqida ma'lumotlar qoldirgan?
11. Antik dunyo avtorlaridan kim Kichik Osiyo xalqlari haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan?
12. Antik dunyo avtorlaridan kim German qabilalari haqida yozib qoldirgan?
13. Antik dunyo avtorlaridan kim Yevropa va Osiyo xalqlari haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan?
14. Antik dunyo tarixchilari madaniy olamni qayer deb hisoblashgan?
15. Frantsuz missioneri Jozef-Fransua Lafito qaysi qabilalarini chuqur o'rgangan?
16. «Grajdanlik jamiyati tarixi tajribasi» asarining muallifi kim?
17. Daniyalik arxeolog K.Yu.Tomsenning xizmati nimadan iborat?
18. «Ibtidoiy madaniyat», «Antropologiya» asarlari muallifi kim?
19. Shveytsariyalik tarixchi Iogan Yakobi Baxofenning oila tarixini o'rganishga asos solgan asari?
20. Ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda juda katta qimmatga ega bo'lgan Lyuis Genri Morganning qanday asarlarini bilasiz?

4-MAVZU: ANTROPOGENEZ. QADIMGI GOMINIDLAR VA ULARNING MEHNAT FAOLIYATI

Asosiy savollar:

1. Insonning kelib chiqishi. Antropogenez jarayonining harakatlantiruvchi kuchlari.
2. Insonning eng yaqin ajdodlari va insoniyatning datlabki vatani masalasi.
3. Odamning paydo bo'lishi haqida fan va din.

Tayanch tushuncha va iboralar: Antropogenez muammosi. Odamning ajdodlari. Odamga aylanish omillari. Insoniyatning eng dastlabki vatani masalasi. Primatlar, gominidlar, zamonaviy odam. Arxeologiya natijalari. Insonning o'ziga xos xususiyatlari. Jinsiy tanlanish, tik yurish evolyutsiyasi. Mehnatning ahamiyati. Mehnat qurollari. Irqlarning vujudga kelishi. Ch. Darvin nazariyasi.

1-asosiy savol: Insonning kelib chiqishi. Antropogenez jarayonining harakatlantiruvchi kuchlari.

Darsning maqsadi: Odamning kelib chiqishiga doir paleontologik dalillar. Antropogenez jarayoni bosqichlari haqida ma'lumot berish. Talabalarda antropogenez muammosi bo'yicha ilmiy dunyoqarash va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Identiv o'quv maqsadlari: 1.1.Talabalarga antropogenez jarayoni haqidagi bilimlarni shakllantirish. 1.2.Talabalarda bashariyatga hurmat hissini rivojlantirish. 1.3.Hayvonot olamida insonning o'rni. Driopitek, ramapitek, avstrolopitek, pitekanthrop, sinantrop, neandertal, kromanonlar xususiyatlarini aniqlash.

1-asosiy savol bayoni: Antropogenez muammosi odamning ajdodlari, odamga aylanish omillari, insoniyatning eng dastlabki vatani haqidagi masalalarni o'z ichiga oladi. Qadim

zamonlardan beri odamlar ana shu masalalarga qiziqib kelganlar. Munozaralar jarayonida shu masalalarga doir ko'pdan-ko'p dunyoviy va diniy nazariyalar yaratildi.

Odamning kelib chiqishiga doir paleontologik dalillar. Paleontologiya fani hozir yashab turgan tirik organizmlarning ajdodlarini qazilmalar holda o'rganadi. Tirik organizmlarni ma'lum davrida rivojlanishi kelib chiqishini isbotlashda paleontologik dalillar nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Geologlar yer tarixini 5 ta eraga arxey, proterozoy, poleozoy, mezazoy, kaynazoy eralariga bo'ladilar. Mezazoy erasining trias davrida umurtqali hayvonlarning murakkab vakillari - sut emizuvchilar vujudga kelgan. Primatlar turkumining vakillari mezazoy erasining bo'r davrida sut emizuvchilarning tuban vakillari bo'lgan hasharotxo'rlardan keyin kelib chiqqan.

Eng qadimgi qazilma holdagi (qirilib ketgan) maymunlar kaynazoy erasining oligotsen davridan ma'lum. Bu maymunlarning barchasi primatlarning eng sodda vakillari hisoblanadi. Bular parapiteklar, propliopiteklar va ramapiteklar hisoblanadi.

Parapitekning kattaligi mushukcha keladigan, tor burunli bo'lib, mezazoy erasida xasharotxo'rlardan ajralib chiqqan. Yerda va daraxtda yashagan, meva va hasharotlar bilan oziqlangan. Yer sharida iqlim sovushi bilan o'rmonlar o'rnini dashtlar egallagan. Ana shunday sharoitda eng qadimgi odamsimon maymunlar mehnat qurollari yaratish, qo'ldan mehnat qurollari sifatida foydalanish, ikki oyoqlab yurish, yerda hayot kechirishga moslasha borgan. Yerda yangi muhitga moslashish uchun ular boshqa hayvonlar bilan qattiq kurash olib borishgan. Ular daraxtda yashagan vaqtlaridayoq atrofni ancha yaxshi bilar, ovoz va sharpani sezar edi va ko'rar edi. Qo'llari narsalarni ushlar, changallar, otar edi. Parapitek - Grekcha para-yaqin, pitekos-maymun, ya'ni maymunga yaqin odam, forma degan ma'noni bildiradi.

Propliopiteklar bir muncha kattaroq. To'rt oyoqlab yurishdan bir oz tik yurishga o'tgan va natijada oldingi oyoqlari (qo'llari) har-xil vazifalarni bajargan deb taxmin qilinadi. Bular Yevropa, Osiyo, Afrikada keng tarqalgan. Propliopiteklardan keyin hozirgi davrda yashaydigan gibbonlar tarqalgan, deb taxmin qilinadi. Parapiteklar va propliopitekning suyak qoldiqlari, ostki jag' suyaklari 1911 yilda Misrdan Fayum sahrosidan topilgan. Propliopitek grekcha pro-dastlabki, plios-ko'prik, pitekos-maymun so'zlaridan olingan, ya'ni dastlabki va odamsimon maymunlar o'rtasidagi oralq (ko'prik) forma degan ma'noni bildiradi. Propliopitekning pastki jag'i 1837 yilda Fransiyada ham topilgan.

Miotsen davrida haqiqiy antropomorf maymunlar paydo bo'lgan. Ular Yevropa, Osiyo va Afrikada tarqalgan. Bular tishlarining tuzilishi jihatidan zamonaviy odamsimon maymunlarga qaraganda odamga ko'proq yaqin turdagi formalar hisoblanadi. Chunki zamonaviy maymunlar bilan odamlarning ajdodlari shular hisoblanadi. Bular driopiteklar deb ataladi. Driopiteklar dastlab 1856 yilda Fransiyaning Sen-Godan degan joyidan topilgan. Uning yoshi 15-18 mln yilga tengdir. Bu topilmadan xabardor bo'lgan Darvin uni omad va Afrika antropomorf maymunlari-gorilla va shimpanzening umumiy avlodi deb atadi. Jag'lari va tishlarining tuzilishi driopitekning odam bilan qon-qarindosh ekanligidan dalolat beradi. Bu jag'lardagi tishlarda odam va antropoidlarga xos belgilar bor. Ularning pastki jag' tishlari odam tishlariga o'xshaydi, qoziq tishlari esa juda rivojlanganligi bilan antropomorf maymunlarga xosdir. Ular o'z hayotini asosan daraxtlarda o'tkazgan. Bo'yi 150 sm, og'irligi 50 kg, tanasi qora junli, peshonasi tor, miya quttsining xajmi 500 sm³ ga teng. Ular poda-poda bo'lib yashagan.

1934 yilda Xindistondagi Sivalik tepaliklarining pliotsen yotqiziklarida qazilma antropoidlarning 3 ta yangi turi bramopitek, sivapitek va ramapitek topilgan edi. Ramapitek driopitekka nisbatan ham odam ajdodiga ancha yaqin turadi. Uning yirtqich tishlari tish qatoridan ajralib chiqmagan. Ular 8-10 mln yil oldin yashagan.

Avstralopiteklarning Janubiy Afrikadan topilishi odam evolyutsiyasini aniqlashda muxim o'rin tutadi. Avstralopitek avstraliye-lotincha janubiy, pitekos grekcha maymun degan ma'noni bildiradi. Ularni birinchi marta 1924 yilda R.Dard degan olim topgan. Keyinchalik 1935 yilda Janubiy Afrika territoriyasidagi g'or va konlardan R.Brum, I.Robinson va boshqalar avstralopiteklarni 5 turga oid 30 dan ortiq xilini topdilar. Shuning uchun ularning ba'zilari boshqacha nomlangan, ya'ni pleziantrop, parantrop (grekcha para-yaqin, yondosh, antropos odam, ya'ni odamga yondosh) deb ataladi.

Avstrolopiteklarning suyak qoldiqlarini tekshirish ularni odamsimon maymun bo'lganligidan dalolat beradi. Ular asosan ikki oyoqlab yurgan. Bo'yi odamcha bo'lgan, ko'z chuqurchasining joylashishi, tishining tuzilishi quloq va uning atrofi tuzilishi hozirgi zamon odamsimon maymunlarinikiga nisbatan odamga ko'proq o'xshaydi. Ular bundan 800 000-1 000 000 yil oldin Afrikaning janubida yashagan. Ularning bosh miyasining hajmi 520 sm^3 bo'lgan. Avstralopiteklar ikki oyoqlab tik yurgan. Ular o'simliklar bilan oziqlangan, lekin ular go'shtli ovqat ham istemol qilgan, ya'ni ular hayvonlarni, jumladan pavianlarni ovlagan. Shularning dalili sifatida g'orlardan avstralopiteklar bilan pavianlarning suyak qoldiqlari topilgan.

Agar eng yuqori darajada tuzilgan qazilma odamsimon maymunlar driopiteklar, ramapiteklar, avstralopiteklarning jismoniy tuzilishi bilan hozirgi odamning jismoniy tuzilishi solishtirilsa, ular o'rtasida juda katta farq borligini ko'rish mumkin. Bu farqlar hozirgi odamlar to'g'ridan-to'g'ri qazilma odamsimon maymunlardan kelib chiqqan deb aytishga yo'l qo'ymaydi. hozirgi odamlar bilan qazilma odamsimon maymunlar o'rtasida oraliq formalar o'tgan bo'ishi kerak.

So'nggi yillarda aniqlanishicha, bir vaqtning o'zida avstralopiteklarning bir necha turlari yashagan. Ular gavdasining hajmi, tishlarining tuzilishi (o'txo'r, hashoratxo'r) bilan farq qiladi. Shulardan odam avlodiga (nomo) yaqin va uning ajdodi deb ataladigani - Avstralopitekos afarensis hisoblanadi. Uning qoldiqlari Efiopiyadan topilgan bo'lib, 3,5 mln yil oldin yashagan. M: Sharqiy Osiyoda 300-400 mln yil oldin yashagan megantropalar shular jumlasidandir. Umuman avstralopiteklar juda ko'p belgilari bilan odamsimon maymunlarga nisbatan odamga yaqinroq turadi. Bu o'xshashlik tish va yurish organlarida nerv sistemasiga nisbatan ko'proq namoyon bo'lgan. Ular primitiv tosh qurollardan foydalangan.

So'nggi yillarda qilingan kashfiyotlar avstralopiteklar va yuksak darajada tuzilgan maymunlarning morfologik jihatdan ularga yaqin turlari Janubiy Afrika va Osiyoda keng tarqalganligini ko'rsatadi. Ana shunday topilmalarning umumiy soni ayni vaqtda 350 dan oshib ketganligini alohida ta'kidlash lozim.

Nomo avlodi evolyutsiyasining asosiy bosqichlari. Afrikadagi Tanzaniyaning Olduvay dasaridan qazilmalar 1911 yildan boshlab topila boshlagan. 1931 yildan ingliz olimi Luis Liki darada arxeologik va paleontologik qazish ishlari olib bordi. Ingliz arxeologi Luis Liki rafiqasi Meri Liki bilan 17 iyun 1959 yilda Sharqiy Afrikadagi Tanzaniyaning Olduvoy dasaridan 30m chuqurlikdagi qatlamdan odamsimon maymunning kalla suyagi, tishlari, boldir suyaklari va qurollarni topgan.

L.Liki fikricha bu topilgan kalla suyagi Janubiy avstralopiteklarga yaqin turadi va unga zinjantrop (ya'ni zindj arabcha-Sharqiy Afrika, antropos grekcha-odam) deb nom qo'ydi. Ularning miya hajmi 530 sm^3 ga teng. AQSh ning fizika va kimyo laboratoriyalarida olib borilgan tekshirishlardan ma'lum bo'lishicha, zindjantropalar bundan 1 mln 750 ming yil oldin yashagan. Demak, pitekantropalar 1 mln yil oldin yashagan. Zindjantropalar topilgan joyda

mayda tosh qurollarning topilishi ular shu qurollardan foydalangan va ularni o'zlari yasagan degan xulosaga keltirdi.

Zindjantropalar morfologik jihatdan avstralopiteklerden yuqori turmaydi. Chakka suyagining yanoq bo'limi yaxshi rivojlangan. Lekin miya xajmi 800-900 sm³ bo'lgan pitekantropalar mayda tosh qurollarni yasay olmagan, foydalana olmagan, ammo qanday qilib miya hajmi 530 sm³ bo'lgan zindjantropalar bunday qurollarni ishlata olgan degan savol olimlar orasida tortishuvga sababchi bo'ldi.

Luis Liki va uning tarafdorlari mayda tosh qurollarni zindjantropalar yasagan desalar, boshqa olimlar bu qurollarni zindjantropalarga nisbatan murakkabroq jonzorlar yasagan bo'lsa kerak deyishadi.

Zindjantropalar olovdan foydalanishni bilmagan. Demak, ularni eng qadimgi odamlar qatoriga kiritishga asos yo'q, deb hisobladilar (M.F.Chesurx, V.P.Yakimov). 1960 yilda L.Liki va M.Liki zindjantropning qoldig'i topilgan yerdan sal chuqurroqda yana skeletning bir qancha bo'laklarni topishdi (kalla suyagi qoldig'i va tosh qurollari). Bu topilgan qazilmalar zindjantropalar 200-250 000 yil oldin paydo bo'lganligi va zindjantropalar bilan bir vaqtda yashaganligi aniqlanib, L.Liki unga prezinjantrop (pre-oldin) deb nom qo'ydi. Bularning kalla suyagi va tishlarining tuzilishi avstralopiteklerga nisbatan murakkabroq, pitekantropalarga nisbatan soddaroq tuzilgan. Miya hajmi 650 sm³ ga teng odamsimon maymunlardan farq qilib, oyog'ining bosh barmog'i chetga qayrilmagan. Bu hodisa unda tik yurish bilan bog'liq morfologik o'zgarishlar yakunlanganligini ko'rsatadi. Suyak qoldiqlari bilan birgalikda qo'pol holda yasalgan ko'pgina tosh, suyak qurollar topiladi.

L.Liki zindjantropalarni avstralopitekler, odamsimon maymunlar qatoriga emas, balki tosh davridagi tosh qurollarini yasagan eng qadimgi odam deb hisoblash kerak, degan xulosaga keldi va uni "homohabilis" (lotinchadan uquvli odam degan ma'noni bildiradi) deb atadi. Homohabilis 2 mln yil oldin yashagan.

Demak, bu yangilikning kashf etilishi yerda odamning paydo bo'lganiga 1 mln yil emas, balki 2 mln yil bo'lganini, yerda yashagan dastlabki odamlar pitekantropalar emas, uquvli odamlar ekanligi isbotlandi.

Dastlab mehnat qurollarini yasash N.habilis uquvli odamdan boshlanib, keyinchalik takomillasha borgan. Bundan 30-20, 10-5 ming va 500 yil oldin yashagan odamlarning tashqi qiyofasi hozirgi davr odamlarnikidan keskin farq qilmasada, ularning madaniyatda keskin farq borligi aniqdir. Mehnat faoliyati odamni tabiatdagi boshqa narsalardan ajratuvchi chegara hisoblanadi.

Yaqin yillarda Oltoy o'lkasi va Yakutiya tog'laridan ana shunday primitiv qurollar topilgan bo'lib, ular 1 400 000 yil ilgari yasalganligi aniqlandi. Agar joylarda skeletlar ham topilib, bu topilmalar yanada boyitilsa, uquvli odam yer yuzida keng tarqalganligi isbotlanadi. Ba'zi antropologlar uquvli odamni hozir ham avstralopiteklerga kiritadilar. Morfologik jihatdan olganda, u odamsimon maymunlardan kam farq qiladi. Farqi tabiiy narsalarni qurol sifatida ishlatishdan tashqari, mayda toshdan kesadigan va chopadigan oddiy qurollar tayyorlash munosabati bilan ham dastlabki ong belgilari borligidan dalolat beradi.

Odamning paydo bo'lishi 3 ta bosqichga bo'linadi:

1. Eng qadimgi odamlar
2. Qadimgi odamlar
3. Dastlabki hozirgi odamlar.

Eng qadimgi odamlar arxantropalar. Ko'p tarmoqli bo'lgan, ko'p turga ega bo'lgan avstralopitekларning bir tarmog'i keyinchalik progressiv tomonga rivojlanib, qurol yasash qobiliyatiga ega bo'lgan. Bu hodisa tik yurish, miyaning yanada rivojlanishi natijasida amalga

oshgan. Ular bu davrda olovdan ham foydalanishgan. Bundan taxminan 1,5-2 mln yil oldin bunday progressiv formalar Afrika, Osiyo bo'ylab tarqalib, uning alohidalashgan bir qancha guruhlari paydo bo'lgan. 1960 yillargacha hozirgi odam bilan avstralopitekklar o'rtasida turuvchi 10 ga yaqin har xil qazilma holdagi oraliq formalar topilgan. Bu formalarning hammasi eng qadimgi odamlar arxantropolar nomini olgan. Arxantrop grekcha arxaios-qadimgi antropos-odam degan ma'noni bildiradi.

Eng qadimgi odamlarga xos suyak qoldiqlar har xil bo'lishi bilan birgalikda, ular uchun umumiy belgi qurol yasashning rivojlanishi bilan ifodalanadi. Tabiatda uchraydigan turli buyumlarni ishlatishdan ongli ravishda qurol yasashga o'tish rivojlanishning odam darajasiga o'tish demakdir. Arxantropolar qirrali toshlar yasab, ular yordamida o'simlik ildizlari, piyozlar tugunaklarini kovlab olganlar, hayvonlarni jarohatlaganlar, go'shtni nimtalaganlar.

Dastlabki topilgan tosh qurollar kaynazoy erasining to'rtlamchi davri boshlariga to'g'ri keladi. Topilgan qazilmalarga ko'ra eng qadimgi odamlar g'orlarda yashab, yovvoyi otlar, cho'chqalar, kiyiklar, qushlarni ovlaganlar va o'ziga o'xshagan odamlarni ham yegan. Ular o'zlariga toshlardan boshpana yasagan va olovdan foydalanganlar, Arxantropolar so'zlashni bilishlari ehtimoldan holi emas, lekin nutq juda tuban darajada rivojlangan bo'lishi mumkin. Ularning qiyofasi bir muncha hozirgi zamon odamlari qiyofasiga o'xshash bo'lgan, ammo ba'zi belgilari bizdan farq ham qilishgan.

Arxantropolarga faqat bitta katta tur yoki bitta bosh tur kiradi, bu turni Homo erektus deb nomlaganlar, unga sistemaliklar 9 ta kenja turni birlashtiradilar.

Mashhur nemis olimi E.Gekkel o'zining 1868 yilda yozilgan "Dunyo yaratilishining tabiiy tarixi" nomli asarida odamga aylanish protsessida maymunga umumiy bo'lgan belgisi qandaydir oraliq forma yashagan, deb taxmin qildi, hamda uni pitekanthrop deb atadi. Pitekanthrop grekcha pitekos-maymun, antropos-odam degan ma'noni bildiradi.

Gekkel taxminiga 25 yil to'lmasdanoq Gollandiya olimi Evgeniy Dyuba Indoneziyaning Yava orolidan 1891-1892 yillarda miya qutisi, son suyaklari va bir qancha tish qoldiqlarini topgan. Jag'lari oldinga turtib chiqqan, iyagi rivojlanmagan, qosh burmalari yaxshi rivojlangan. Miya qutisining hajmi boshqa antropofomlarning miya hajmidan 1,5 marta ortiqdir.

1937 yil nemis paleontologi Rolffon Kyonigsvald Yavadan pitekanthropning bosh miya qopqog'i suyagini topadi. 1961-1972 yillarda Yavadan yana pitekanthropning 4 ta bosh suyagi va 2 ta jag` suyagini topganlar. Ular orasida eng qadimiysining yoshi 1mil.500 ming-1mil.900 ming yil deb hisoblangan. Ularning tishlari odam tishlariga juda o'xshash. Pitekanthropolar bo'yi 165-170 sm bo'lib, orqa oyoqlari tik yurishga moslashgan, qo'li esa erkin bo'lgan. Pitekanthropolarni dastlabki eng qadimgi odamlar deb hisoblashgan. Pitekanthropning jismoniy tuzilishiga qarab, ular muntazam ravishda qurollar yasay olganlar deb faraz qilish mumkin. Pitekanthropolar faqat Yava orolida yashabgina qolmay, Janubi-Sharqiy Osiyo, Yevropaning Janubi va Afrikada tarqalgan. Shunday qilib pitekanthrop afrikalik ishbilarmon odamdan biroz keyinroq yashagan.

Dyubaning keyingi qazish ishlari bu jonotning son suyagi zamonaviy odamga tegishli suyakdan juda kam farq qilishini ko'rsatdi. Shu sababli Dyuba o'zi topgan formani Pitekanthropus erektus, ya'ni maymunsimon tik odam deb atadi. Hozir bu tur Homo erektus, deb ataladi.

Eng qadimgi odamlarning pitekanthropdan tashqari Xitoyda sinantrop, Germaniyada geydelberg, Afrikada telantrop va atlantropolar kabi formalari ham topilgan.

Sinantropolar (grekchadan-qadimgi xitoy odami degan ma'noni bildiradi) – ba'zan ularni Xitoy pitekanthropi ham deb aytiladi. Sinantrop qoldiqlari Xitoyning shimolida, Chjoy-Kaudyan qishlog'i yonida Pekindan taxminan 50 km janubiy-g'arbda topilgan. 1918-1923 yil shved geologi G.Anderson avval tosh qurol, hayvonlarning suyagi va odam tishini topadi. Qazish ishlariga kanadalik D.Blek ham jalb qilinib, 1927-1937 yillari Blekning assistenti professor Pyay Betsjun mazkur joydagi Kotsetong g'oridan eng qadimgi Xitoy odamining kalla suyagini topadi. Qazish ishlari xitoy olimlari tomonidan davom ettirilib, 60 ga yaqin odam suyagi topiladi, shundan 15 tasi yosh bolalarniki. Sinantrop pitekanthrop va Olduvaydagi «ishbilarmon odam»ga nisbatan ancha taraqqiy etgan bo'lib, bo'yi past, erkaklari-156 sm, ayollari-144 sm, peshonasi tor, pastki jag'i katta, tishlari yirik, iyagi yo'q. Pitekanthrop miya qutisining hajmi 850-950 sm.³ bo'lsa, sinantropniki esa 1050-1200 sm.³ Shunday qilib, sinantropolar bundan 400-500 ming yil ilgari yashab o'tgan.

Sinantropolar yashagan g'orlardan oddiy tosh qurollari olov, turli hayvonlarning qoldig'i, o'simlik urug'i topilgan. Ular eng oddiy qurollar yog'och va toshlardan foydalanganlar. Ammo, ularning ba'zilari chirib ketgan va bizgacha etib kelmagan. Sinantropolar tabiiy holda olovdan foydalanish, uni o'chirmasdan saqlash, oddiy qurollarni yasash va ulardan ovda foydalanishni bilgan.

1954-1955 yillarda Shimoliy Afrikada va Jazoirida Maskara shahri yaqinida Tirnofin qishlog'idan frantsuz olimi K.Arambur to'rtlamchi davrda yashab qirilib ketgan hayvonlarning tishlari va shoxlari, qo'pol ishlangan qurollar (bolta), deyarli barcha tishlari saqlangan 3 ta pastki jag' suyagi topilgan. Bu odamni atlantrop deb nomlagan. U bundan 400 yil oldin yashagan. Atlant - Shimoliy Afrikada qazilmalar topilgan joy yaqinida Atlant tog'ining nomi, antropos-odam degan ma'noni bildiradi.

1908 yilda professor Shetenzan Germaniyaning Geydelberg shahri yaqinida ikkinchi muzliklararo davrining yer yuzasidan 24 m chuqurlikdagi yotqiziqlardan odam va antropomorf maymunlarga xos belgilarga ega bo'lgan pastki jag' suyagi topiladi. Bu suyak odam suyagidan bir oz katta va yo'g'ondir. Bu qoldiq topilgan joyi sharafiga Geydelberg odam deb ataladi.

Odamning tik yurishga yanada takomillashgani bosh miyani yanada rivojlantirish tomonga yo'nalgan bo'lishi kerak. Tabiiy tanlanish tufayli qadimgi odamlar ichidan nisbatan yaxshi rivojlangan tafakkur, nutq va mehnat faoliyatiga ega formalar yashab qolgan, boshqalari esa qirilib ketgan.

Geydelberg odamlarning tishi maymunlarnikidan ko'ra odamlarnikiga yaqinroq turadi. Shuning uchun ham Shetenzan bu jag'larni sinantropolardan 150-200 ming keyin yashagan odam jag'i degan xulosaga keladi. Ana shulardan odam kelib chiqishining keyingi bosqichi qadimgi odamlar tarixiy taraqqiyot tufayli paydo bo'lgan, deb hisoblanadi.

Qadimgi odamlar-paleantrop (neandertal) lar. Eng qadimgi odamlardan qadimgi odamlar yoki bundan 200-400 ming oldin paydo bo'lgan neandertal odamlari kelib chiqqan. Bu odam paleantrop ham deb ataladi. Qadimgi odamning to'la saqlanmagan kalla suyagi dastlab Ispaniyaning Gibraltar bug'ozi rayonidan 1848 yilda, ya'ni Darvinning "Turlarning kelib chiqishi" nomli asaridan oldin topilgan edi. O'sha vaqtda bunga hech kim e'tibor bermadi. Qadimgi odam skeleti qoldiqlari ikkinchi marta 1856 yilda Germaniyada Dyusseldorf yaqinidagi Neander vodiysidagi neandertal daryosi yaqinidagi g'ordan topiladi va topilgan joy sharafiga neandertal odam deb nomlandi. 1887 yil Belgiyaning Spi degan joyidan, keyinchalik yer yuzining turli joylaridan neandertal odamning suyaklari ko'plab topildi.

Keyingi yillarda Yevropa, Afrika, Osiyo, Indoneziyaning 400 dan ortiq joyida neandertal odamning suyak qoldiqlari va qurollari topildi. Bularning hammasi neandertal odam nomi bilan ataladi. Bu odamlar qoldig'i Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi

Machay qishlog'idan Teshik-tosh g'oridan 1936-1938 yillarda rus olimi Okladnikov tomonidan topiladi. Qrimda Simferopol va Boqchasaroy yaqinidan (Kiyik-koba g'oridan) 1938-1939 yillarda ular foydalangan qurollar - siyacha, qirg'ich, chopperlar topildi. 1954 yilda neandertallarning qoldig'i va foydalangan qurollari Samarqand atrofidan, Sirdaryo havzasidan topildi.

1970 yilda neandertallar makonlaridan biri Obi-Rahmat g'oridan ohak toshdan ishlangan tosh qurollarni topdilar. G'or ohak toshli qoyada o'yilgan chaqanaksimon tokchaga o'xshaydi. G'orning bo'yi 12m, eni 21m ga boradi. Bu qazilmalarga M.M. Gerasimov va Rustam Sulaymonov rahbarlik qilgan. G'or 10 m chuqurga ochilgan. Unda 21 ta madaniy qatlam borligi aniqlandi. Bu qatlamlarga qarab neandertal qanday qilib hozirgi odamlarga aylanganligini bilish-aniqlash mumkin. Bu yerdagi quyi qatlamlardan yuqori qatlamlarga o'tilishi bir muncha sekin borganligini kuzatish mumkin. Bu yerda tosh va suyakdan ishlangan mehnat qurollari ko'plab topildi.

Neandertal odamning bo'yi 155-160 sm bo'lib, bukchayib yurgan, peshonasi tor va biroz nishab bo'lgan. Uning pastki jag' suyaklari ko'proq odamnikiga nisbatan rivojlangan. Bosh miyasining hajmi 1450 sm^3 ga teng. Neandertal odamlari to'rtlamchi davrdagi muzlanishning eng og'ir sharoitida yashagan. Ular olov hosil qilish va uni saqlashni bilishgan va u bilan g'orni isitishgan. Ular yirik hayvonlarni ovlashgan, go'shtini yeyishgan va terisini yopinib sovuqdan saqlanishgan.

Neandertallarning yasagan qurollaridan ularning onggi rivojlanganligini bilish mumkin. Tosh qurollarining uchi o'tkir bo'lib, dastali chopqi, qirgichlar ko'p uchraydi. Neandertallar 50-100 tadan jamoa bo'lib yashashi ular hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Yashash uchun kurashda yaxshi ov qiladigan va o'zini oziq bilan ta'minlaydigan jamoalar qolib kelgan.

Neandertallar noqulay ob-havo sharoitlaridan jon saqlash maqsadida tabiiy g'orlardan yovvoyi hayvonlarni haydab chiqarib foydalanganlar. Ana shu pana joylarda betinim yonib turadigan olov, hayvonlar terisi ularni saqlanib qolishiga imkon berdi. Ular yasagan qurollar ham ancha ongli ishlangan edi.

Neandertallarning erkaklari ovchilik, xotin va bolalari o'simlik ildizi, mevasi va urug'ini yig'ganlar va ular bilan oziqlangan, ammo ularda kannibalizm (o'z avlodini eyish) ya'ni odamxo'rlik saqlanib qolgan.

Bosh va yuz suyaklarini o'rganish asosida shunday xulosaga kelindiki neandertallar o'zaro muomala qilganda imo-ishoradan, aniq ma'no bermaydigan tovushlardan, dastlabki ma'noli tovushlardan va nutqdan foydalanganlar. Neandertallar turli maydonlarda yashashlariga qaramay madaniyati hamma yerda deyarli bir xil rivojlangan masalan: hamma qazilmalarda deyarli bir xil mehnat qurollari topilgan.

Neandertallar dastlabki diniy tushunchalar va ular bilan bog'liq bo'lgan diniy marosimlarning vujudga kelishiga ham asos solgan. Masalan, ular o'z sheriklari o'lganda ko'mganlar, ko'mishdan oldin murdaning oyoq va qo'llarini tanaga bog'lashgan va qabriga turli xil qurollar qo'yishgan. Bu ularda o'lim, narigi dunyo haqida tushunchalar bo'lganligidan dalolat beradi.

Gvineyada papauslar (millat) yaqin vaqtlargacha o'likdan qo'rqqanlar va ularni qaytib kelmasligi uchun yuqorigidagidek qilib ko'mishgan. Har holda neandertallar ham o'likni ko'mishda ularning qaytib kelishini nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Ular qabrning ustini tuproq va toshlar bilan to'ldirishgan.

Antropogenezning 3-bosqichi hozirgi jismoniy tipdagi odam- neantrop «yangi odam» kromanon odamdir. Neantrop o'zlarining jismoniy va aqliy qobiliyatlari bilan eng qadimgi va qadimgi odamlardan tubdan farq qilar edi. Shuning uchun ham uni «aql-idrokli»-«homo-sapiens» deb atagan. Neantrop o'zlarining tashqi qiyofasi bilan hozirgi zamon odamlariga juda o'xshab ketadi. Neantrop bundan 40-35 ming yil avval so'nggi paleolit davrida paydo

bo'lgan. Bu tip odam miya qutisining hajmi $1400-1560 \text{ sm}^3$ ga teng bo'lib, peshonasi keng, qosh usti qabartmasi yo'q, tanasi to'g'ri va tez chopa olgan. Frantsiyaning kromanon, Italiyaning grimaldilik odamlarida gavdalanadi. Ular urug' va jamoa bo'lib yashagan. Boshpana qurishni, hayvonlar terisidan kiyim tikishni bilishgan, nutqi rivojlangan. Neantroparning skletlari, suyak parchalari, moddiy-madaniy qoldiqlari, Afrika, Yevropa, Osiyoning ko'p joylaridan topilgan.

Kromanonlar g'or, chayla, yerto'lalarda yashagan. It, cho'chqa, qo'y va boshqa uy hayvonlari saqlagan. Ular hayvonlarni ovlashda juda murakkab va xilma-xil usullardan foydalangan, uy-joy qurgan, nafas qurollar yasagan, tasviriy san'atni bilgan. Kromanon odamlari yashagan qarorgohlardan ibtidoiy ninalar topilishi ular hayvonlar terisidan o'ziga kiyim tayyorlashganligini bildiradi. Kiyim tikish va uy-joy qurish orqali odamni iqlim sharoitiga qaramligi kamaya borgan. Taxmin qilinishicha, tarixiy rivojlanish natijasida vujudga kelgan kromanon odamlar keng tarqalib, o'rtoq holda hayot kechiruvchi neandertal bilan aralashib ketgan. Natijada kromanon madaniyati hamma joyga keng tarqalgan.

Frantsuz tadqiqotchilari olti million yil muqaddam yashagan eng qadimgi odam qoldiqlarini topishdi. Keniya hududida umrguzaronlik qilgan bu odam hozirgi avlodlaridan qariyb farq qilmaydi.

Ilgari dunyodagi eng qadimgi odam avstralopitek hisoblangan. Bunday odam suyaklari Efiopiyada topilgan. Ular qariyb to'rt yarim million yil avval yashaganlar. Frantsuzlarning kashfiyoti antropologlarni jiddiy o'ylantiradi. Avstrolopiteklar chindan ham bizning ajdodlarimizmikan? Keniyada insonga tegishli suyak to'qimalari va tishlarning o'n ikki xil namunasi topildi. Arxeologlar topildiq yoshi olti million yilga teng demoqdalar. Bundan chiqadiki, topilgan suyaklar sayyoramizdagi eng qadimgi odamga tegishlidir.

Tadqiqotchilar bu suyaklar hozirgacha zamonaviy odamning rasmiy ajdodi hisoblanib kelinayotgan avstralopitekka qarashli emasligiga ishonch bildirishayapti. Eng qadimgi suyaklarning egasiga Millenium Ajdodi degan nom berildi. U gominidlar oilasining ikki oyoqli vakilidir. Gominidlar odamning dastlabki ajdodi hisoblanadilar. Taxmin qilinishicha, bu odam yerda ikki oyoqlab yurishiga qaramay, daraxtlarga tirmashib chiqishni ham unitgan emas. Tadqiqotchilar Millenium Ajdodi ko'rinishdan taxminan tik yuruvchi shimpanzega yoxud maymunsimon odamga o'xshash bo'lgan, deyishmoqda.

Ilk to'rtlamchi zamonda yashagan eng qadimgi odamlar maymunning ko'pgina xususiyatlarini: bosh suyagining ensizligi, pastakligi, peshonasining qiyaligi, qosh usti suyaklarining yo'g'onligi, iyak dumbog'ining yo'qligi, qo'l boshmaldoqchalarining o'smay qolganligi va shu sabablarga ko'ra ular maymun - odamlar deb ataladi. Biroq ular odamning ba'zi xususiyatlariga ega bo'lganlar : garchi engashgan holatda bo'lsa ham ikki oyoq bilan yurganlar, bosh suyagining sig'imi kattalashgan - bu gominid evolyutsiyasining eng asosiy ko'rsatgichidir. Pitekanthrop miyasining hajmi 900 sm^3 sinantropniki 1200 sm^3 ga yaqinlashgan, ular ilk va o'rta paleolitda yashaganlar. Pitekanthrop shell davrida, sinantrop va geydelberg odami - ashel zamonida, neandertal odam muste davrida yashagan.

Antropogenezni harakatlantiruvchi kuchlar. Odam evolyutsiyasini, ya'ni antropogenezni harakatlantiruvchi kuchlar asosan 2 xilda bo'lgan:

1. Antropogenezni, ya'ni odam evolyutsiyasini harakatlantiruvchi biologik faktorlar. Bular mutatsiya, populyatsiya, hayot to'lqini, alohidalanish, yashash uchun kurash hisoblanadi. Yashash uchun kurash primatlar, jumladan qadimgi to'dalar oziqlanish maydonini egallash, yovvoyi hayvonlarni ovlash, o'simliklarning har xil qismlarini topish, yig'ish, saqlash bo'yicha o'zaro raqobatda namoyon bo'lgan. To'dalar orasidagi bunday raqobatlar qolib chiqish to'da a'zolarining soniga, uddaburonligiga, ov qilish qobiliyatiga, xavf-xatarni oldini olish kabi faktorlarga bog'liqdir. Bunday to'dalar mavjudligi tabiiy bir xoldir. Bunday gruppali tanlanish ikki oyoqlab yurishga, yo'lni ishlatishga olib keladi.

2. Antropogenezni, ya'ni odam evolyutsiyasini harakatlanuvchi sotsial faktorlar. Odamlar borgan sari takomillashgach ish qurollari ishlab chiqishi oziq-ovqat tayyorlash, uy-joy qurish, atrof-muhitni xavf-xatardan saqlashga imkon berdi. Ammo odamning tarixiy rivojlanishida biologik va sotsial faktorlar o'zaro bog'liq xolda ta'sir ko'rsatgan. Har bir odamlar to'dasi qurol yasash, ovlash, o'simliklarni yig'ish, hayvon va o'simliklarni parvarish qilish, xonakilashtirish va madaniylashtirish singari omillarni yosh avlodga o'rgatgan. Yosh avlod ularni o'zgartirib yangiliklar bilan boyitgan.

Birgalikda hayot kechirish olovdan foydalanish, go'shtli ovqat iste'mol qilish tafakkur nutqining rivojlanishiga, bosh miya hajmining ortishiga, yanada kattalashishiga olib kelgan. Odatda, yangi tug'ilgan chaqaloqning miyasi hali to'liq shakllanmagan bo'lib, uning rivojlanishi asosan go'daklik va bolalik davriga to'g'ri keladi. Sut emizuvchi hayvonlarda yangi tug'ilgan organizm mustaqil hayot kechirishga tayyor bo'lgani holda, yangi tug'ilgan odam bolasi mustaqil hayot kechira olmaydi. Shu sababli ayollar bolalarni uzoq muddat parvarish qilishga va oqibatda erkakka birmuncha qaram bo'lishga majburlar. Shunga ko'ra, jamoa ayollarga va ularning bolalariga g'amxo'rlik qila boshlaganlar, bu esa o'z navbatida jamoa a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatni kuchaytirgan.

Ajdodlarimiz o'lik va tirik tabiat qarshiliklarini yengishda yakka odam ojizlik qilishini va jamoa bo'lib yashaganda esa bir-biriga tez yordam bera olishini yaxshi tushuna borgan va shu tufayli to'da-to'da (jamo) bo'lib yashashga o'tganlar. Avvalo mehnat, so'ngra ma'noli nutq, mana shu ikkita eng muhim stimullardir. F.Engels odamning paydo bo'lishida mehnatning rolini birinchi o'ringa qo'yadi. Engels fikricha, maymunning odamga aylanishi jarayonida rol o'ynagan yana bir muhim hodisa go'shtli ovqat iste'mol qilishdir. Go'shtli ovqat iste'mol qilinishi tufayli miyaning oziqlanishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddalarni nisbatan ko'proq ola boshlaganligini isbotlab: "... bu hol miyaning bo'yindan-bo'yinga tezroq va to'laroq takomillashuviga imkon beradi" degan edi. Go'shtli ovqat iste'mol qilish bora-bora olovdan foydalanishga sabab bo'lgan. Ovqatni pishirib iste'mol qilish tufayli hazm qilish jarayoni ancha qisqargan va kishilar hayotidagi barcha jarayonlar uchun zarur bo'lgan energiya tejala boshlagan. Natijada odamning organlari kompleks ravishda rivojlana borgan.

Odam paydo bo'lishi protsessining asosiy etaplari quyidagilar edi:

1. Qo'lning mehnat quroli ishlab chiqaradigan organga aylanishi davri. Bu davr juda uzoq vaqt davom etgan.

2. Ma'noli nutqning rivojlanishi davri. Oldin imo-ishora, keyin ma'nosiz, keyin ma'noli tovushlar-nutq paydo bo'lgan. Bu mehnat jarayoni va jamoa bo'lib yashash tufayli paydo bo'lgan.

3. Markaziy nerv sistemasi va oliy nerv faoliyatining yuksak darajada rivojlanishi davri. Mehnat, nutq nerv sistemasining murakkablashuviga olib kelgan.

4. Jamiyatning vujudga kelishi davri. Bu odamlar madaniyatining oshishi, ya'ni madaniy evolyutsiya tufayli kishilik jamiyatining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

2-asosiy savol: Insonning eng yaqin ajdodlari va insoniyatning datlabki vatani masalasi.

Darsning maqsadi: Odamzodning vatani masalasi uzoq vaqtlardan beri olimlarni qiziqtirib keladi, talabalarda bu masalani o'rganishga qiziqish uyg'otish.

2- asosiy savol bayoni: Fanning tasdiqlashicha, odamzod juda qadim zamonlardan beri yer yuzida mavjud bo'lgan. Xo'sh, shunday ekan, dastlabki odam qayerdan paydo bo'lib qolgan? Axir ungacha yer yuzida odamzoddan nishon bo'lmagan-ku. Demak dastlabki odam o'sha vaqtlardagi mavjud maxluqlardan, ya'ni hayvonlar ajdodidan ajralib chiqqan.

Darvinning fikricha, hozirgi zamon odamsimon maymunlari bilan odam bitta ajdoddan kelib chiqqan. Bu umumiy ajdod rivojlanishini shajara daraxti shaklida tasavvur qilish mumkin. Ana shu umumiy ajdoddan alohida (go'yo daraxtdan yon tomonga qarab o'sgan shox singari) ajralib chiqqan odamsimon maymunlar tezda rivojlanishdan to'xtab qolgan. Umumiy ajdod (shajara daraxtining asosiy tanasi) esa rivojlanishda davom etavergan va, natijada, odamning uzoq o'tmishdoshlari vujudga kelgan².

Bu jarayonning bosh omili mehnat bo'ldi. Engelsning aytishicha, qo'l faqat mehnat qiladigan a'zogina emas, shuningdek, mehnatning mahsuli hamdir. Ma'lum ma'noda hatto odamning o'zini ham mehnat yaratgan deyish mumkin.

U tabiatdagi tayyor ne'matlarga qanoat qilmay, tabiatga aktiv ta'sir ham ko'rsata boshlaydi. Kuzatish, tajriba va mehnat qo'lni tobora rivojlantira bordi, hatto ular tosh, o'tkir suyak va hayvon shoxlaridan mehnat quroli sifatida foydalanib, katta-katta hayvonlarni ov qilishgan.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: odamning hayvonot olamidani ajralib chiqishida mehnat juda katta rol o'ynagan. Bu narsa, masalan, Yava pitekanthropi bilan Xitoy sinantropi o'rtasidagi tafovutda yaqqol ko'rinadi. Xitoy sinantropi yashashga ancha qobil bo'lganligi ma'lum. Ularning manzilgohlari g'orlar edi. Yirik hayvonlarni ov qilishga va, ayniqsa, olovdan foydalanishga juda uquvli bo'lishgan. Sinantropiarning tana tuzilishida odamga xos o'zgarishlarning vujudga kelishiga ham mehnat sababchi.

Shunday qilib, odamning dastlabki ajdodi necha ming yilliklar davomida rivojlanishda davom etib, sinantrop, geydelberg, neandertal, kromanon odamlari kabi oraliq bosqichlarni bosib o'tdi va, nihoyat, dastlabki haqiqiy odam vujudga keldi. Zamonlar o'tishi bilan odamlar yer yuzi bo'ylab juda keng tarqalib ketadi. Ular turli tabiiy sharoitlarda yashadi. har joyning alohida sharoitlari bo'lgani uchun, o'sha sharoitlarga moslashishga to'g'ri keldi. Natijada odamlarda turli odatlar, turmush tarzining turli xil shakllari paydo bo'ldi.

Lekin bir narsa dastlabki odam aniq qachon va birinchi bor yer yuzining qaysi joyida paydo bo'lgan degan masala hali muammo. Inson tafakkurining qudrati, vaqti kelib, bu muammoni ham albatta yechishga ishonchimiz komil.

Dastlabki hozirgi odamlar-Neantropi. Hozirgi odamlarga o'xshaydigan odamlar ya'ni neantropi Yevropa, Osiyo va Avstraliyada topilgan. Neantropi grekcha nean-yangi, antropos-odam, ya'ni yangi odam degan ma'noni anglatadi. Gominid evolyutsiyasidagi bu uchinchi bosqich hozirgi jismoniy tipdagi odam Engels ta'biricha o'zining ham jismoniy ham aqliy qobiliyatlari bilan qadimgi odamlardan sifat jihatdan farq qiladigan tayyor odamning vujudga kelishi bilan bog'langan. Shuning uchun ularni (aql-idrokli odam) deb ataganlar. U oxirgi paleolit davrida paydo bo'lgan. U kromanonlik va grimaldilik (Italiya) odamda gavdalangan.

Neantropiarning suyak qoldiqlari birinchi marta 1868 yilda Fransiyaning Kromanon qishlog'i yaqinida topilgan, shuning uchun ham ular kromanon odamlar deb ataladi. Kromanonlar neandertallarga nisbatan ham takomillashgan odamlar hisoblanadi. Ular ancha bo'ydor bo'lib, uzunligi 180 sm gacha boradi. Ular aqli odam - Homo sapiens deb ataladi. Kromanonlarning kalla suyagi hozirgi odamlarnikiga o'xshab peshonasi keng va tekis,

² В. В. Лункевич. Одамзод шажараси. // Фан ва турмуш. 1965, 12 декабрь. 2-5 бетлар.

kalla qutisining hajmi 1600 sm³ bo'lgan. Pastki jag' hozirgi odamlarnikiga nisbatan kattaroq bo'lsa ham, lekin iyagi turtib chiqqan. Bu ham uning ma'noli nutqi yaxshi rivojlanganligidan darak beradi.

1909 yilda Ukrainada, keyinchalik Sibirda, o'rta Osiyoda, Yoqutitsonda ham kromaonlar san'atining namunalari topildi. Ularning pastki jag'i va tishi 1958-1963 yillarda Samarqandda ham topildi.

Kroman'onlar toshlardan tashqari suyaklardan, hayvon shoxlaridan qurollar yasashgan. Ularni yasash pardoqlash ishlari neandertallarga nisbatan ancha takimillashgan. Ovlangan hayvonlar go'shtini ortiqchasi quritib qo'yilgan, terisi kiyim tayyorlash uchun ishlatilgan. Qariyalar, ayollar ko'proq o'simlik mevasi, doni va ildizini yig'ish, erkaklar esa ovchilik bilan shug'ullangan. Kromanon odamlar hayvonlarni qo'lga o'rgatish va yovvoyi o'simliklar urug'ini ekish, ya'ni ibtidoiy chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullangan. Bu davrda qayiq, qarmoq kashf etildi. Hozirgi odam biologik tipining rivojlana borishi bilan antropogenez protsessi asosan tugallanadi.

Odam evolyutsiyasidagi eng katta muvaffaqiyatlardan biri yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirish va o'simliklarni madaniylashtirish -neolitik revolyutsiyadir. Bu revolyutsiyaga qadar odam oziq va kiyim-kechak topishda tabiatga butunlay qaram bo'lgan. Dastlabki xonakilashtirilgan hayvonlar va madaniylashtirilgan o'simliklar tufayli bu qaramlikka barham berilgan. Shu tariqa oykumen yer sharining inson yashaydigan qismi ortib bordi.

Odamning dastlabki vatani. Odamzodning vatani masalasi uzoq vaqtlardan beri olimlarni qiziqtirib keladi, hali bu masala to'laligicha hal etilgani yo'q. Afrikaning janubi, ayniqsa sharqidan arxeologik ashyolar, ayniqsa eng qadimgi avstrolopitek, Olduvay darasidan esa eng qadimgi qazilma odamlarning suyaklari, Keniyadan esa dunyoda eng qadimgi tosh qurollarining topilishi, Afrika odamzod vatanining ilk beshigi ekanligini ta'kidlaydi. Yava pitekanropi, Xitoy sinantropi, Hindistonning Sivalak tepaligidan topilgan driopitek va ramapiteklarning topilishi Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoning ham insoniyatning ilk vatani deyishga imkon beradi. Shunday qilib Janubi-Sharqiy Osiyo ham Shimoli-Sharqiy Afrika bilan birga odamzodning ilk vatani hisoblanadi.

Hozirgi ilmiy muloxazalarga ko'ra, tadrijiy rivojlanish mahsuli bo'lgan odam bir necha million yillar muqaddam odamsimon maymunlardan vujudga kelgan. Odamning dastlabki kelib chiqish markazining manzili masalasiga kelsak, bu borada ko'plab nuqtai nazarlar mavjud. Ulkan Osiyo qit'asi, shu jumladan Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo tabiatshunoslar e'tiborini tortdi. Ushbu mintaqalarda topilgan sodda odamsimon mavjudodlar - gominidlarning qazilma qoldiqlari misli ko'rilmagan topilma bo'lib, odamning Osiyodan kelib chiqqanligiga bir dalil hisoblanadi. Masalan, 1893 yildayoq golland olimi E.Dyubua Yava orolida darvinchi E.Gekkel: bashorat qilgan odam bilan odamsimon maymun o'rtasida "yetishmayotgan bo'g'in", Homo erektus (tik yuruvchi odam) ilmiy nomini olgan "maymun-yoki pitekanthrop topilganligi haqida ilmiy jamoatchilikni xabardor qilgan edi. Keyinroq Xitoyda va Janubi-Sharqiy Osiyoning boshqa mintaqalarida ham 1,7 million qadar "tabarruk" yoshdagi pitekanthroplarning qazilma qoldiqlari ko'plab topildi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Markaziy Osiyo odamzodning ilk vatani sifatida targ'ib etila boshlandi. Bunga uchlamchi davrda quruqlikning Markaziy Osiyo qismi yuzasining ko'tarilib, tropik o'rmonlarning yo'qolishi sabab qilib ko'rsatildi. Yashash sharoitlari keskin o'zgargan, «maymunlar» yerga tushishga majbur bo'lishgan va hokazo, va hokazo-xullas buyog'i, umuman, Darwin nazariyasi bo'yicha kechgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Vagner -Kartfaj - Kartalyakning odamzodning ilk vatani Shimoliy Osiyo-Evropa bo'lganligi haqidagi fransuz olimlari orasida g'oyat mashhur bo'lgan g'alati faraz muhokama qilindi. Antropolog A. Kartfaj to'g'ridan-to'g'ri Sibir va, umuman, shimol odamzodning beshigi bo'lgan deb aytgan. Biroq, XX asrda masala «ravshanlasha» boshladi: 20-30- boshlab pitekanthroplarga nisbatan ancha sodda va odamsimon maymunlarga yaqin gominidlarning ko'plab qazilma vakillari Janubiy va Sharqiy Afrikada topildi.

Odamlashishning ilk bosqichiga oid ana shunday boy jihatlar tufayli o'tgan asr oxirlariga kelib Afrika odamzodning ilk vatani masalasida oldingi marraga chiqib oldi. Paleogenetiklar XX asr oxirlarida keng ko'lamdagi materiallar asosida barcha odamzod yagona turga mansub va bu turning vatani -Afrika ekanini ishonchli tarzda isbotlab, ta'bir joiz bo'lsa, masalaga so'nggi nuqtani qo'ya bildilar.

Homo Africanus. Hozirgi vaqtda odamning kelib chiqishi muammosi bilan shug'ullanuvchi olimlarning aksariyati odamzod asli Afrikadan «kelib chiqqan»ligiga amin bo'lishyapti. Odamzod tadrijiy rivojlanishining eng muhim bosqichlari izchil kechgan odamzod vujudga kelishining taxminiy yagona markazi O'lik dengiz cho'kmasidan Qizil dengiz, Efiopiya, Keniya va Tanzaniya orqali meridional yo'nalishda cho'zilgan Sharqiy Afrika rifi mintaqasida joylashgan. Bundan qariyb 5-6 million yil ilgari ro'y bergan gominidlar oilasi ilk vakillarining odamsimon maymunlardan ajralishidan guvohlik beruvchi eng qadimgi qazilma qoldiqlar aynan shu yerdan topilgan. Qadimgi gominidlar va qadimgi odam manzilgohlarining katta qismi ham xuddi shu yerdan topilgan. Odam ilk bor yasagan tosh qurollar saqlanib qolgan manzilgohlar muqim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrgacha eng qadimgi odam yashagan izlar Efiopiyaning Kada Gona daryosi havzasida aniqlangan: 15 ta manzilgoh, yovvoyi hayvonlarning maydalangan suyaklari bilan birgalikda odamning suyak qoldiqlari, muhimi - 3 mingga yaqin eng sodda qurollar topilgan!.

Taqriban bundan ikki million yil muqaddam odam, chamasi, Homo erektus yoki Homo ergaser (ya'ni mehnat qiladigan, garchi arxaik anatomik qiyofada bo'lsa-da, lekin hozirgi odamga ancha yaqinroq bo'lgan odam) Afrikadan ulkan Yevroosiyo hududi tomon yurib, u yerda joylasha boshlagan. Buni, sirasini aytganda, to'g'ridan-to'g'ri ko'chib o'tish deb tushunmaslik kerak, balki bu uzoq va tadrijiy ravishda turli yerlarga o'rnamish jarayonidir. Mazkur sharq tomon ko'chish to'liqida ikki asosiy yo'nalish -janubiy va shimoliy yo'nalishni ajratish mumkinki, ular Himolay va Tibet singari tog'lar bilan tabiiy bo'lingan edi. Janubiy yo'nalishga kelganda, Arabiston yarim oroli va Pokistonda (2 million yillik munozarali yosh) ilk g'or topilmalarini hamda sanasi 1 million yil bo'lgan Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyodagi mashhur Homo erektus topilmalarni esga olish zarur. Pokiston hududida bundan 800 ming yil muqaddam qadimgi odam yashaganligini hech shubhasiz isbotlovchi tosh qurollar topilgan.

Biroq odamzodning turli yerlarga o'tib o'rnamishining boshqa - shimoliy «to'liqini» biz uchun, shubhasiz, g'oyat qiziqarli. Ozarbayjonda, Qorabog' pasttekisligida noyob, lekin, afsuski, oxirigacha tadqiq qilinmagan g'orlar topilgan. Gruziyada, Tbilisi shahridan atigi 60 kilometr masofada so'nggi 10 yil mobaynida garoyib paleoantropologik majmualar - qadimgi odamning bosh suyagi va jag' suyaklari (yoshi 1,6-1,7 million yil bol'gan mayda tosh qurollar bilan birga) topildi. U, ehtimol, Yevropada «ro'yxatdan o'tgan» dastlabki Homo erektuslardan biriga mansub bo'lsa kerak³.

³ Анатолий Деревянко. // Fan va turmush. 2008 y. №3-4-5-sonlar. – Б. 19-25

Darvoqe, hozirgi vaqtda qadimgi odamning Yevropaga kirib kelishining uchta ehtimoliy yo'nalishi ma'lum: Gibraltar orqali, Turkiya orqali hamda g'arbiy Kaspiy orqali. Binobarin, qadimgi odamning sharqiy Kaspiy, keyin shimol tomonga Shimoliy Kavkaz orqali kirib borishi, umuman, Yevropaga aholi joylasha boshlashining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan. Shimoliy Kavkaz, Stavropol o'lkasi, Kabarda-Balkar va Maxachkalada aniqlangan ilk topilmalar bunga dalildir.

Qadimgi ko'chmanchilar ortidan sharqqa Eron orqali Yevroosiyo materigining yuragi tomon harakatlanamiz. So'nggi 10 yil mobaynida Rossiya arxeologiya ekspeditsiyasi Qozog'istonda va O'rta Osiyoda bu yerga kelib joylashgan odamning ko'plab izlarini topdi. Xususan. Qozog'istonda Qiziltov (Kichik Qoratog' tizmasida) va Mang'ishloq yarim orolida ko'plab qadimiy manzilgohlar topildi. Odam uchun noqulay iqlim sharoiti hukm surgan ana shu yerlarda o'n minglab tosh qurollar qo'lga kiritildi. Aytish joizki, Kaspiy dengizining sharqiy sohil bo'yi yashash uchun ancha qulay bo'lgan g'arbiy sohil bo'yiga nisbatan noyob bir xususiyatga ega: bu yerdagi ohaktoshlar orasida kremniyli chaqiq toshlar uchraydiki, ular ibtidoiy davr qurollari uchun xom ashyo bo'lib xizmat qilgan.

Eng sharqiy va g'aroyib so'nggi topilma Anuy daryo vodiysidagi Karama Oltoy manzilgohidir. Hozir xuddi shu yerda Rossiya Fanlar akademiyasi Sibir bo'limi Arxeologiya va etnografiya institutining «Denis G'ori» bazasi mavjud. Ibtidoiy tosh qurollar tadqiqining dastlabki natijalari hamda spora-chang tahlili ma'lumotlariga ko'ra, bu manzilgoh bugungi kunda Rossiyadagi eng qadimgi, Yevroosiyoda esa qadimiylardan biri hisoblanadi: uning yoshi kamida 550-700 ming yil.

Bu o'rinda, albatta, Mongoliyani tilga olish joiz. So'nggi 20 yilda mongol olimlari bilan hamkorlikda mingdan ziyod qazilma yodgorliklar topilib, ularning o'ttizdan ziyodi ilk paleolit davriga mansubligi aniqlandi. Shulardan eng qadimiylarida sodda mayda tosh qurollar topildi, ular vaqt o'tishi bilan hamda qum ta'sirida silliqqlangan bo'lib, shundoqqina quyi pliotsen terrasalar yuzasida joylashgan.

Shunday qilib, million yil mobaynida qadimgi odam - Afrikadan chiqib Tinch okeangacha bo'lgan ulkan hududda o'rtnashgan. Ibtidoiy odam uchun manzillarning bir-biridan juda uzoqligi, mehnat qurollari yasash texnologiyalari mushtarak bo'lsa-da, lekin tiplarining xilma-xilligi - toshdan uchirib ishlangan oddiy shakllardagi va kremniyli chaqiq toshlardan yasalgan kurakchasifat qurollar xosdir. Biroq bularning bari birinchi to'lqiningadir.

Ikkinchi to'lqin Afrikada 1,2 million yil muqaddam ancha takomillashgan texnika usullarida mehnat qurollari tayyorlash xos bo'lgan ashel madaniyati vujudga kelgan⁴.

Toshga ishlov berishning texnologik usullari xilma-xilligiga va namunaviy «asbob-uskunalar majmuasi» yo'qligiga qaramay, ashel tosh qurollari yasashi uchun mushtarak bo'lgan tipologik xususiyatlarni ajratish mumkin. Mazkur texnika an'anasiga ko'ra, topshning chekkasini shunchaki uchirish bilan cheklanmay. toshga yo'naltirilgan zarb berish bilan unga har tomondan ishlov berib, muayyan tarzda, ko'pincha, takomilli shakl berilgan, parametri bo'yicha o'tkirlashtirilgan. Bunday juda maqbul qurollar faqat yaxlit toshdangina emas, balki tosh yormalaridan olingan kremniyli chaqiq toshlardan ham tayyorlangan. Binobarin, bundan 450-350 ming yil muqaddam Yaqin Sharqdan quyi ashel madaniyati bilan bog'liq va hisob bo'yicha ikkinchi migratsiya to'lqini tarqala boshlab, o'z ortidan xos moddiy izlar qoldirib, Hindistonga qadar yetgan. Qo'l zubilalari yoki bifaslar - Afrikada keng tarqalgan, chekkalari

⁴ Анатолий Деревянко. // Fan va turmush. 2008 y. №3-4-5-sonlar. – Б. 19-25

o'tkir ikki tomonlama qo'lladigan universal asboblarning ashen madaniyatiga xos tipik qurollar bo'lgan. Xuddi shunday tosh qurollar Anuy daryo vodiysida, bevosita Denis g'orida topilgan. Tog'li Oltoy topilmalarining noyobligi shundaki, ular maqbul strukturalari yotqiziq-larningtlzshbir necha metrli qatlamiga ega. Yotqiziq-lar tosh qurollar yasashning uzoq rivojlanish jarayoni haqida to'liq ma'lumot olish imkonini beradi.

Mongoliyadagi topilmalar haqida ham shunday gaplarni aytish mumkin. O'n yillik tadqiqotlar mobaynida 1987 yilda ochilgan Syagan-Aguy g'ori yotqiziq-laridan qadimgi odam 200 ming yil davomida ishlatgan ajoyib qurol-yarog' to'plami topildi. 1995 yilda esa Mongoliya yana bir kashfiyotni - ochiq turdagi noyob Kremniy vodiysi manzilgohini taqdim etdi. Bu yerda, Janubiy Gobi sahrosida yirik kremniy izlari chiqib turgan manzilda 20 kvadrat kilometrdan ziyod maydonda tosh buyumlarning chinakam risoladagidek "ombori" ochildi. Har kvadrat metrda 600 tagacha, umuman o'nlab, yuzlab million qurollar mavjud edi. Buni tasavvur qilish qiyin albatta. Gap shundaki, pleystotsen davrida bu mintaqaga suv chiqarilib, gullab-yashnatilgan. Uzoq yillar (kamida 300 ming yil!) bu yerdagi tosh qurollarning bitmas-tuganmas xomashyo manbalari odamni o'ziga jalb qilib keldi. Ha, jahonda yagona ana shu madaniy -antropogen majmua vaqti kelib ochiq havodagi jozibador muzey bo'lib qolishi zarur.

Homo sapiens qayerda paydo bo'lgan? Odam qayerda paydo bo'lgan degan masalaga qaytamiz. Xo'sh, hozirgi jismoniy tipdagi odam (*Homo sapiens sapiaens* ikki bor aqlli odam) bizning xeshimizmi? Agar olimlar odamning dastlabki kelib chiqqan ilk vatani Afrika ekani haqida fikrga kelgan bo'lishsa, *Homo sapiens* haqida hanuz bir fikrga kelinmagan, mavjud fikrlar xilma-xil. Shulardan birinchisi - yana Afrika, zero aynan ana shu qit'aning janubi sharqida nafaqat qazilma gominidlar va unga xesh odamsimon shakllar rivojlanishining deyarli barcha rivojlanish bosqichlari, balki hozirgi zamon tipidagi odamning ilk antropologik topilmalari aniqlangan manzilgohlar topilgan.

Ikkinchi fikrga ko'ra, odamning tadrijiy rivojlanishi anchagina quyi bosqichlarda u qadar mushtarak xususiyatga ega bo'lmagan. Hozirgi tipdagi aqlli odam shunchaki Afrikada paydo bo'lib, keyin butun yer kurrasi bo'ylab joylashmagan. U anchagina kengroq hududda, go'yoki sayyoramizning turli geografik mintaqalarida yashagan qadimgi odamlar negizida shakllangan deb aytishga barcha asoslar bor. Janubiy Sibir, aniqrg'i – Tog'li Oltoyda ham g'orlardagi, ham ochiq tarzdagi manzilgohlarda 60 mingdan to 30 ming yilgacha bo'lgan davrda, ya'ni *Homo sapiens* madaniyati shakllangan davrda ro'y bergan qazilma qurollar majmualarining ketma-ket almashinuvini yaqqol ko'rish mumkin.

Xuddi shunga doir eng so'nggi kashfiyot O'zbekistonda Obirahmat g'orida amalga oshirildi. Ko'p qatlamli «g'or yilnomasi» ma'lumotlariga ko'ra, bu yerda bundan 90000 yildan to 30000 yilgacha muqaddam o'tgan davr industriya madaniyatining o'zgarish dinamikasini kuzatishga muvaffaq bo'lindi. Eng asosiysi - 2003 yilda 54000 - 56000 yoshli tuproq qatlamida odam bosh suyagining qoldiqlari topildi⁵. Endilikda mitoxondiral DNK tahlili vositasida Obirahmat g'orida yashagan qadimgi odam kim bo'lganligini - hozirgi zamon odamimi yoki neandertal bo'lganini aniqlash mumkin. Quloq suprasining tuzilishi bu odamning neandertaldan kelib chiqqanligidan dalolat bersa, miya hajmi va tishlarining shakli hozirgi zamon odamining jismoniy tipiga aloqador ekaini ko'rsatadi.

Yuqori paleolit davrining igna, bezaklar (suyak va hayvon tishlari, toshdan ishlangan shokilalar), haykalchalar va ko'plab boshqa obidalar bu yerda barcha xos xususiyatlarga: murakkab va rivojlangan moddiy madaniyat, boy ma'naviy hayotga ega bo'lgan hozirgi

⁵ Анатолий Деревянко. // Fan va turmush. 2008 y. №3-4-5-sonlar. – Б. 19-25

zamon jismoniy tipiga mansub odam yashaganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, aholi migratsiyasining ikki katta to'liqini natijasida odamzod o'zining qadimiy Afrika vatanidan turli geografik va iqlim mintaqalaridagi ulkan hududlarga tarqalib, u yerlarda o'nlab va yuzlab ming yillar mobaynida tashqi tomondan farqlanuvchi, lekin morfologik va genetik o'xshash, bir turga birlashgan irqnlarni shakllantirgan.

3-asosiy savol: Odamning paydo bo'lishi haqida fan va din.

Darsning maqsadi: Yerda hayotning paydo bo'lishi va odamzodning vujudga kelishi haqida bahslashish.

3-savol bayoni: Ma'lumki, fan va din bir necha ming yil davomida ayrim masalalar yuzasidan ixtilofda. Xususan, Yerning shakli va o'rni, osmon nimaligi, olamning yaratilishi, Yerda hayotning paydo bo'lishi va hokazo. Ulardan eng murakkabi - odamzodning vujudga kelishi haqidagi baxsi, hozirgacha davom etib keladi.

Olloh odamni va, umuman, barcha tirik tabiatni mudom rivojlanib, taraqqiy etadigan qilib yaratgan. Darhaqiqat, Ollohning olam va odamni yaratishidan masadi hadislarda ochiq bayon etilgan: "Kuntu kanzan xafiyyan fa xalaqtun xalqa" (Men maxfiy bir ganjina edim, mening Tangriligimni bilguvchi hech kim yo'q edi, xaloyiq yaratdim mendan foyda olsinlar, deb). Ana shu maxfiy xazinani ochish va undagi ganjinalarni tasarruf qilish tadrifiy dialektik tarzda) amalga oshadi, birdaniga emas. Odam Ollohni anglash jarayonida o'zi ham taraqqiy etadi, odamning yuksalishi uning Ollohni qanchalik teran anglashiga bog'liq. Chunki olamda Ollohdan tashqari narsa yo'q, nimaniki anglasak, inkishof etsak, bu - Ollohni anglashning bir pillapoyasidir⁶.

Darvin odam maymundan kelib chiqqanligini da'vo qilgan, deb bilish nafaqat Darvinni, balki oddiy dialektikani ham anglamaslik oqibatidir. Darvinning o'zi ham "unday odamlar ustidan kulib, anoyi talqinlarga ortiqcha e'tibor bermagani ma'lum. Chunonchi, go'zal bir xonim uni mot qilmoqchi bo'lib, janob Darwin, nahotki meni ham badbashara bir maymundan bino bo'lgan deb bilsangiz, deganida olim unga, yo'q xonim, siz eng chiroyli maymundan yaralgansiz, deb lutf qilgan ekan. O'sha xonimning savolini bugun biz ham berib ko'raylik: Odam maymun zurriyodimi?

Tiriklik Yaratgan zotning marhamati bilan muqarrar taqdim etilgan! Tabiiy: odam loydan yasalganiga ishongan kishigina musulmoni komil sanalib, inson tadrifiy taraqqiyot oqibatida hozirgi darajaga yetgan, deb aytgan kishi dahriy bo'lib qolmaydi. Gap Ollohning ilmini tafakkur qilish-qila olmaslikda. Aslida esa, bu qarashlar orasidagi ziddiyat ham uncha katta emas - har ikki sodda gap bir hovuch tuproq va suv ustida ketyapti. Xalloqi olam yerda organik hayot hujayra asosida bino bo'lishini belgilagan. Barcha tirik organizm (jumladan odam ham), avvalo, hujayradan tashkil topgan.

Insonni esa qaysi makonda, qay zamonda yaratganini Olloh o'zi biladi. Ammo olam yaralganidayoq, odam jismining bir zarrasi shu zamin ibtidosida bor bo'lgan. Rivoyatlardan birida har bir odamning tuprog'i qayerdan olingan bo'lsa, qazosi yetganida o'sha yerga ko'milishi aytiladi. Yo'q. odam – borlig'i ila Yer farzandi. U shu sayyorada yaratilgan. "qissasi Rabg'uziy"da ham aytiladiki, Odamga jon kiritilishdan avval uning loyi Toif va Makka shaharlari o'rtasida, Daxno degan joyga qo'yilgan. Agar odamzod koinotning boshqa bir joyida bino bo'lib, so'ng Yerga yuborilgan bo'lsa, mantiqan, yolg'iz odamzod emas, xuddi Nuh kemasining yo'lchilari kabi jami nabotot va hayvonot dunyosi (jumladan u kabi

⁶ Fan va turmush. 2008 y. №3-4-5-sonlar. – B. 50-56

qon, et, suyak, teri va asab tolalaridan bino bo'lgan hayvonlar ham) birga kelgan. Chunki ular ham nasl qoldirish orqali ko'payadi, juft yashaydi va hokazo.

Yer yuzida organik dunyo o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Qodir Olloh tiriklik xossasini Yerga in'om etgan. Milliard yillar davomida eng sodda jonivorlar rivojlanib, bir turdan ikkinchi turga o'ta borishi orqali biz bilgan biolam shakllangan. Ana shu taraqqiyotning cho'qqisi - odam.

Inson Ollohnin aql bilan tanibdi, degan gap bor. Darvin - olamning biologik xossalarini boshqalardan teranroq, nozikroq anglagan zot edi. U biron-bir asarida tirik hujayra noorganik moddalardan bino bo'lgan, deb aytmagan. Bil'aks, u tirik tabiat eng sodda holda Olloh tomonidan yerga in'om etilgan va shundan so'ng hayot boshlangan, deb uqtirgan. Darvin va uning salaflari Olloh mo'jizalari olam yaratilishi bilanoq tugab bitmagani va to'xtab qolmaganini, bu mo'jiza har on va hammavaqt, har bir hujayradan tortib, butun koinot k'olamida, azal-abad davom etishini va Parvardigor uni bir zaylda, o'zgarmaydigan qilib emas, balki tinimsiz taraqqiy etadigan, tobora murakkablashib boradigan va mukammallik sari intiladigan qilib yaratganini teran anglagan, to'g'ri talqin qilgan edilar.

Butun koinot, Yerdagi jonli va jonsiz tabiat, har bir organizm betinim rivojlanishda. Olam mavjudligini harakatsiz (va u orqali keladigan taraqqiyotsiz) tasavvur etib bo'lmaydi. Yer yuzida rivojlanishda bo'lgan maxluqotning eng oldingi safida esa inson turadi, u eng taraqqiy etgan va rivojlanishi tobora tezlashayotgan jonzotdir. Sut-emizuvchilarning boshqa vakillari undan xiyla sust rivoj topadilar, umurtqalilarning boshqa vakillari undan ham sekinroq taraqqiy etadi, barcha xil boshqa jonivorlar yanada ohista rivojlanadi.

Agar Olloh taolo barcha turdagi nabotot hayvonotni hech o'zgarmaydigan, rivojlanmaydigan qilib yaratishni ixtiyor etib, shunday bino qilganida, mantiqan, yer yuzida hech bir tur qirilib bitmagan, hammasi qiyomatgacha yashaydigan bo'lmasmi edi? Yer kurrasining uzoq o'tmishida bir zamonlar yashagan, hozir yo'qolib ketgan o'simlik, daraxt va jonivorlarning qazilmalari topilgan. Ularning bir qismi qandaydir sabablarga ko'ra tur sifatida yashashdan to'xtagan bo'lsa, boshqasi million yillar mobaynida rivojlangan, mahalliy sharoitga, ob-havoga moslashib, yangi turga aylana borgan. Buni inkor etish aqldan emas⁷.

Evolutsiya tabiatda bor hodisadir. Qazilma ishlari natijalari eng kichik sutemizuvchi jonivor – ko'rshapalakning bir guri million yillar ilgari suvdagi o'ljani tutib eyish uchun suzishga moslashgani, havoda uchishni tark etib, suv ichida hayot kechirishga o'tgani va kitga aylanganini uzil-kesil dalilladi. Tabiatda tadrijiy taraqqiyot borligini ko'rmaslik amalda din foydasiga emas, aksincha dahriylikni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Chunki u taraqqiyotga turtki beruvchi qodir zotni nazardan qochiradi. Odamzod bir yaratilganicha, ongni ham, shakl-shamoyili ham million yillar o'tsa-da, o'zgarmaydigan bo'lsa, yer yuzida har bir o't-o'lan va dov-daraxt, har bir jon-jonivor abadiy shu holicha, rivoj topmay, yangilanaveradigan bo'lsa, unda Tangrining bu olamni yatishdan maqsadini tushunib bo'lmay qoladi- ku. Unda olamning yaratilishida mantiq bo'lmas edi (Gyote bu to'g'rida gap ketganda, Xudo hozir ham olam yaratilishining birinchi kunidagidagi kabi qudratga molik, unga horish-toliqish begona, deb aytgan). Lev Tolstoy evolyutsiya nazariyasiga munosabat bildirib, dialektikani soddayu teran talqin etgandi. U yozadiki, «agar odam noma'lum zamon davrida maymundan paydo bo'lgan bo'lsa, bu narsa inson ma'lum bir davrda bir hovuch tuproqdan paydo bo'lgan deganday gap». Ya'ni, odam maymundan bino bo'lgan bo'lsa, maymunning o'zi undan soddaroq bir maxluqdan, unisi yana ham tubanroq bir jonivordan va

⁷ Fan va turmush. 2008 y. №3-4-5-sonlar. – B. 50-56.

oxir-oqibat. bir hovuch tuproq jonli tabiat uchun xamirturush bo'lgan, ilk hayot nishonalari tuproqda yuz ko'rsatgan.

Odam maymundan tarqalmagan, u maymunsimon odam (pitekantrop)ning rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan, maymunsimon odam esa odamsimon maymun (eng yuksak taraqqiy etgan primatlar)dan o'sib kamol topgan. Biz bilgan maymunlar esa ana shu odamsimon maymunning asosiy taraqqiyot yo'lidan chetga qayrilgan, rivoji tanazzulga qarab ketgan turidir.

Hozir tirik jonivorlarning barchasi o'z yashaydigan muhitiga moslashganlaridir, moslasha olmaganlari qirilib bitgan. Chunonchi, oq ayiqning yungi oppoq bo'lganidan, qor ustida o'ljaga sezdirmay yaqinlashish imkoni ko'proq, ovi o'ngidan kelishi tayinroq. Qorli Arktika sharoitida qora yo ola ayiq kun ko'rolmaydi - och qolib, halok bo'ladi. Qahraton sovuqqa moslashgan qo'y-ho'kiz (juni uzunligi 60-90 sm.) tundrada bemalol yashaydi. U qo'yning bir turi bo'lib, biologik tanlanish orqali hozirgi xususiyatga ega bo'lgan. Ayrim jonivorlar sonining bugun nihoyatda kam ekanligiga sabab ko'p ovlanganigina emas. Ularda himoyaning zaifligi ham bor gap.

Har bir tur avvalgisidan har xil sabablarga ko'ra ajralib chiqqan - yo asosiy yashash joyi torlik qilib, boshqa sharoitga moslashib yashashga ega bo'lish oqibatida o'zgarishlar yuz bergan, ular oxir-oqibat sifat o'zgarishiga olib kelgan, yo yangi, yanada qulay sharoitga tushib qolish natijasida o'zgargan vahokazo. Yer yuzidagi taraqqiyot biz ko'rib turgan hayotning o'zidan ham murakkab va xilma-xildirki, buning natijasida bizga ma'lum bo'lgan va bo'lmagan ming-million nabotot va hayvonot turlari shakllangan.

Inson - hayot daraxtining qulf urib o'sayotgan eng tik novdasi. Odamning eng qadimgi ajdodlari nisbatan qulay yashash sharoitiga tushgan va buning oqibatida boshqa turdoshlariga qaraganda tezroq kamol topgan. Ikkinchi yondan, ularda kurashuvchanlik, har qanday noqulay sharoitdan chiqib keta olish ko'nikmasi rivojlangan. Boshqa jonivorlar mana shu taraqqiyot jarayonining ma'lum bir bosqichida tik novdadan ajralib chiqqan yon shoxlar singari bo'lib, ularda o'sish istiqboli qolmagan. Albatta, yon shoxlarda ham yangi novdalar chiqqani kabi, asosiy o'sish yo'lidan chetda ham, biron tur ichida yangi o'simlik yo hayvonlar shakllanib chiqqani shubhasiz. Hozirgi yirtqich va o'txo'r sutemizuvchi hayvonlar baayni o'sib borayotgan daraxtning yon-atrofdagi shox-shabbalari singari bo'lib, «hayot shajarasi»ning bu shoxlari endi tik -yuqoriga o'sish u yoqda tursin, hatto pastga qayrilgan, ya'ni tanazzulga yuz tutgan. Endilikda ularning rivoji yuksalish sari emas, aksincha bo'ladi. Bular - yuz million yillar davomida taraqqiyotning asosiy oqimidan chetga chiqqan va ongi rivoj topmaydigan turlardir. Jumladan, ayrimlar odam ajdodi deb tushungan maymunlar ham.

Odam maymun taraqqiyoti tufayli paydo bo'lgan emas. Odam boshqa hayvonlarga qaraganda maymunga ko'proq o'xshab ketgani uchunoq uning qadim ajdodi maymun bo'lgan deyish Darvin nazariyasini yuzaki anglash bo'lib, bu bo'sh temir qutini protsessor deb atash bilan mohiyatan bir. Buyuk tabiatshunosning nazariyasini to'g'ri tushunadigan bo'lsak, odam maymundan emas, maymun odamdan kelib chiqqan, deyish to'g'riroq bo'ladi. Zero biologik tabiat taraqqiyotining asosiy yo'nalishi odamzodning kelib chiqishiga qaratilgan bo'lsa, maymunlar va umuman primatlar ana shu rivojlanish yo'lining ma'lum bir bosqichida asosiy rivojlanishning o'q ildizidan ajralib chiqqan va taraqqiyotda ilgarilay olmay qolgan vakillardir⁸.

⁸ Fan va turmush. 2008 y. №3-4-5-sonlar. – B. 50-56.

Odamning vujudga kelish borasidagi fan va din nuqtai nazarlari o'zaro zid emas, aksincha, uyg'un va bir-birini to'ldiradi. Bunda "dinda ham, fanda ham bosh maqsad - haqiqat, haqiqat esa - bitta" degan ishonchga tayanamiz.

"Odam" nima degani?: Avvalo, fan nuqtai nazaridan qat'iy va aniq javob berib bo'lmashligini ko'raylik. Hozirgi biologiya tushunchasiga muvofiq jonli mavjudotlarning odamgacha bo'lgan turlari ketma-ketlik tarzida tasvirlansa, uning so'nggida Homo jinsi kelib, Avstralopitek jinsidan keyin joylashadi. (D.Lambert. Doistoricheskiy chelovek. Leningrad, "Nedra", 1991). Bunda hozirgi odamlar Homo jinsining Homo sapiens (Aqlli odam) turiga mansub, Bu tur Homo Erectus (Tik qomatli odam) turidan kelib chiqqan deb hisoblanadi. Endi odamligi hech kimda shubxa tug'dirmaydigan tayin shaxsni olaylikda, uning shajarasini (masalan, ota-o'g'il chizig'i bo'ylab) tasavvur qilaylik. Bu chiziq vaqt bo'yicha orqaga qarab davom ettirilsa, avval Homo erectus turiga, so'ng bora-bora Avstrolopitek (yoki boshqa bir mavjudot) jinsiga, keyin undan ham tubanroq jinslarga o'tib ketadi. Xo'sh, bu ketma-ketlikning qaysi a'zosidan "odam" zoti boshlanadi?. Demak, biologiyada "odam" aniq tushuncha emas.

Diniy ilm nuqtai nazaridan, yaratilish - Ollohning siri, tilsimi, uni bayon qilish muqaddas kitob vazifasiga kirmaydi. Qur'on inson ruhiga yo'naltirilgan bo'lib, har bir odamga qarata "Unutmagilki, seni Tangri yaratgan, yo'qdan bor qilgan va sen yana uning dargohiga qaytajaksan. Shuning uchun hayotingni savob ishlarga bag'ishla, gunohdan o'zingni tiy" deya ta'lim beradi.

Xulosa: Odamning moddiy mavjudot sifatida paydo bo'lish masalasi fan ob'ektidir, odam boshqa jonzorlar kabi shunchaki maxluq emasligi, u jismdan tashqari ruhga ham egaligi uchun uning ruhiyati bilan bog'liq masalalar haqida fikr yuritish diniy ilm ob'ektidir. Fan inson ruhini o'rganishga ojiz, diniy ilm esa inson jismiga oid muammolar bilan shug'ullana olmaydi. Har ikkisi ham o'z tadqiq ob'ektidan chetga chiqqan taqdirda sayoz mushoxadalardan nariga o'ta olmagan.

Darvin o'zining nomini abadiylashtirgan "Turlarning paydo bo'lishi" (to'liq atalishi - "Tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarning kelib chiqishi haqida yoki hayot uchun kurashda muqobil zotlarning saqlanishi") monografiyasini bitirib, 1859 yilda chop etadi. Ruxoniylar, jurnalistlar, umuman fandan yiroq ko'plab arboblardan darvinizmdan "Odam maymundan tarqagan" degen xulosa chiqarib, kitobni insoniyatga haqorat sifatida qabul qiladi va Darvin nazariyasiga qarshi kompaniya boshlab yuborildi. Xolbuki, Darvin "Turlarning kelib chiqishi" asarida hali odamning paydo bo'lishi mavzusiga deyarli tegmagan edi. Uning oradan 12 yil o'tgach chop etilgan "Odamning paydo bo'lishi va jinsiy tanlanish" asarida ham "odam maymundan kelib chiqqan" deyilmagan. Bunday da'vo "nok olmagan kelib chiqqan" deyishga o'xshash bo'lib. fanga aloqasi yo'q. Masalan, mazkur asarning birinchi bobi "Odamning qandaydir quyiroq shakldan paydo bo'lishining isboti" deb atalgan. (Bundagi shakl so'ziga alohida e'tibor qiling!) "Odam maymundan tarqagan" degan "nazariya" darvinist T.Xaksliga mansub bir iboraning gazetadagi talqini oqibatidir. Darvinizm tarafdorlari ichida ham jangarilari bor edi. Ulardan biri Tomas Xakslilik iste'dodli notiq bo'lgan. U faoliyatini darvinizmni himoya va targ'ib qilishga bag'ishladi. Muxoliflar bilan munozara hayotining mazmuniga aylanib, "darvinning to'zisi" degan laqab orttirdi. Ommaviy munozaralardan birida yepiskop S.Uilberfors Xakslilikni mantiqiy dalillar bilan yenga olmagach, "Katta buvingiz maymun bo'lganmi, kelib chiqishingizni bu qadar jon-jahd bilan himoya qilyapsiz?" deya xuruj qiladi. Bunga javoban Xakslilik ham "Sizday aqli o'tkir, lekin tafakkurni mensimaydigan, o'zi bilmaydigan sohaga burun suqib, ilmiy munozarani safсатаbozlikka aylantiradigan odam bilan turdosh bo'lgandan maymun bilan qarindosh

bo'lgan afzalroq" deya javob beradi. Bu gapni gazetchilar "Darvinistlar odam maymundan kelib chiqqan degan da'voni tan oldi" deb ovoza qiladi.

Davrin ta'limoti xudoga, xudoning borligiga shak keltirish, uning yaratuvchi ekanligiga qarshi degani emas. Aksincha, Davrin ko'zday murakkab va mukammal a'zo faqat evolyutsiya tufayli paydo bo'lishiga ishonmasligini bayon etgan! (Bu faqat bir umr qilingan toat-ibodat qiyomatda Ollohning birgina ko'zdan iborat ne'matini tarozida bosa olmasligi haqidagi hikmatini yodga tushiradi).

"Оллоҳ сизларнинг қайсиларингиз яхшироқ амал қилиб яшашингизни синаш учун олти кунда осмонлар ва Ерни яратган зотдир" (Худ сураси 7 оят). "Ҳақиқатдан ҳам сизлар Ерни икки кунда яратган зотга кофир бўлурмисизлар..." (Фуссилат сураси 9 оят), "Ерда унинг емишларини (яъни Ер аҳлининг ризку-рўзларини) тўла тўрт кунда тақсимлади" (10 оят), "Бас икки кунда етти осмонни барпо қилди ва ҳар бир осмонга иш вазифасини ваҳий қилди" (12 оят). Оллоҳ етти осмонни ва Ердан ҳам ўшаларнинг жисмини (яъни етти қават Ерни) яратган зотдир (Талок сураси 12 оят). Мазкур оятлар Оллоҳ осмонлар ва Ерни олти кунда яратгани ҳақидаги тафсилотлардир. Яъни Ҳақ таоло Ерни икки кунда яратиб, тўртинчи кунгача унинг ризку-рўзини ҳам тақсимлаб бўлиб бергани ва олтинчи кун деганда эса етти осмонни ҳам яратиб бўлганини баён қилади. Оллоҳ Еру-Кўкни яратишда ҳамма нарсани ҳисобга олган, коинотдаги энг кичик заррадан тортиб, энг катта мавжудотгача ҳамма нарса шунчалар чеварлик билан яратилиб, ўз ўрнига қўйилганки, бу тартиб интизомга четдан бирон куч сунъий йўл билан дахл қилса - аралашса, бутун олам мувозанатига футур етади.

Bu oyatlar fanning "Olam 10-15 milliard yildan beri, odamzod esa bir necha million yildan beri mavjud" degan xulosasi o'rtasida ziddiyat bormi? Yuzaki qaraganda bordek, aslida esa ziddiyat yo'q. Zero, Qur'oni Karimdagi vaqt bilan bog'liq kun, oy, yil, asr kabi tushunchalarni astronomik ma'noda tushunish ham doim to'g'ri bo'lmaydi. Buni "asr" misolida ko'raylik. Yirik arabshunos olim I.Yu.Krachkovskiy "Predvechernee vremya" - kun oqqandan keyingi palla deb o'giradi. Bizningcha, mazmunan afzalroq tarjima misrlik islomshunos Valeriya Poroxova-Rusht tomonidan taklif etilgan. Bulardan ko'rinadiki, asr kunning quyosh botishidan oldingi payti, yuz yillik, muayyan davr hamda umuman vaqt timsoli deya talqin qilinishi mumkin. Xuddi shu singari yuqoridagi oyatda "kun" so'zini 24 soatlik sutka yoki quyosh chiqishidan botishigacha bo'lgan oraliq deb tushunish o'ta tor bo'ladi. Zero, har ikki holda ham bu tushuncha Yerning Quyoshga nisbatan harakati bilan bog'lanib qoladi. Mantiqan hali Yer ham, Quyosh ham yaratilmagan, endi yaratila boshlangan zamonda "kun" tushunchasini astronomik ma'noda anglash mantiqqa to'g'ri kelmaydi. (Aytaylik, bu holda 6 kundan birinchisi qachon boshlangan bo'ladi?) "Asr" kabi "kun" ham Qur'oni Karimda ramziy - davr ma'nosida talqin qilinishi ilohiy kitob uslubiyati va mantig'iga munosib Olloh zamon va makon kategoriyalaridan yuqori zotdir, vaqt ham, fazo ham Ollohga tobedir. Milliard yil Olloh uchun bir soniyachalik bo'lishi mumkin. Bunga Ҳаж сурасининг 47 оятида келтирилган сўзлар мисол бўлади: "Дарвоқе Парвардигорингиз наздидаги бир кун сизларнинг ҳисоб-китобларингиздаги минг йил кабидир"⁹. "У Зот Қуёш ва Ойни (ўз амрига) бўйсундирди. Уларнинг ҳар бири муайян муддатгача (яъни қиёмат қоим бўлгунча) сайр қилаверар" (Раъд сураси, 2 оят). "У Зот сизлар (бекаму-қўст ҳаёт кечиришларингиз учун) кеча-кундузни, Қуёш ва Ойни (бир тартибга солиб) бўйсундириб қўйди" (Наҳл сураси, 12 оят). "Кеча ва кундузни, Қуёш ва Ойни яратган Зот ҳам (ёлғиз Оллоҳдир). Буларнинг барчаси ўз фалак фазосида сузиб юрурлар" (Анбиё сураси, 33 оят). "Сиз тоғларни кўриб тек қотиб турибди, деб ўйларсиз. Холбуки, улар ҳам худди булутлар юргандек юрарлар" (Намл сураси, 88 оят). Ушбу оят Ернинг

⁹ Қуръони Карим. Алоуддин Мансур. Маъноларнинг таржима ва тафсири .Т. 2004. – Б. 181.

тинмасдан ўз ўқи атрофида айланиб туришига Оллоҳ таоло томонидан нозил қилинган далилдир. Унинг оятларидан (яна бири) Осмон ва Ер У Зотнинг амри билан (фазода муаллақ) туришидир (Рум сураси, 25 оят). “У Қуёш ва Ойни ҳам (сизларнинг манфаатларингизга) бўйсундириб қўйгандир. Ҳар бири муайян муддатгача (яъни Қиёмат кунигача ўз фазосида) жорий бўлур” (Фотур сураси, 13 оят). “Биз Ойни ҳам токи у (хурмо) бутоғи каби бўлиб (эгилиб, ҳилол ҳолига келиб) қолгунича бир неча манзилларга белгилаб- тайинлаб қўйгандирмиз” (Ёсин сураси, 39 оят). Дарҳақиқат, Ой бир ой мобайнида йигирма саккиз манзил жойда турли суратда кўрингани сабабли кўзга йигирма саккизта бўлиб туюлади. Сўнгра бир ёки икки кеча кўринмасдан турадида, кейин яна ўша тартиб такрорланади. “На Қуёш учун Ойга етиш мумкин бўлур ва на кеча кундуздан ўзгувчидир (қуёш, ой ва юлдузларнинг) барчалари фалакда сузиб юрур” (Ёсин сураси, 40 оят). Ушбу ояти каримада коинотдаги барча катта-кичик сайёралар фазода муаллақ сузиб юришлари баён қилингандир. Илм-фанга XX асрнинг бошларига келибгина маълум бўлган бу ҳақиқатлар ҳақида Қуръони Каримда бундан XIV аср илгари хабар берган эди. “У Зот икки денгиз-дарёни бир-бирлари билан учрашадиган ҳолларида (ёнма-ён) оқизиб қўйди. (Аммо) у иккисининг ўрталарида бир тўсиқ бўлиб, улар (ўша тўсиқдан) кесиб ўтмаслар” (Раҳмон сураси, 19-20 оятлар). Маълумки, денгиз қаъри ҳам, дарё туби ҳам сув бемалол сизиб ўта оладиган қумлоқ ёки тупроқдир. Кўп ҳолларда шўр сувли денгиз билан чучук сувли дарё ёки кўл шундоқ ёнма-ён туташиб қолади. Лекин Яратганнинг қудрати билан улардан бирининг шўри иккинчисига ўтмайди. “У Зот яна сизлар билмайдиган нарсаларни ҳам яратур” (Наҳл сураси, 8 оят). Замондош муфассирлар ушбу оятдаги “сизлар билмайдиган нарсаларни ҳам яратур” жумласини Қуръон нозил бўлган даврда мавжуд бўлмай, кейин илм-фан тараққий этиши билан кашф қилинган машина, поезд, самолёт ва бошқа бизлар ҳам билмайдиган, бундан кейин кашф қилинадиган янгиликлар, нарсалар деб тафсир қиладилар.

Qur'oni Karimda insonni Olloh yaratgani qat'iy ta'kidlanadi. Shu bilan birga, fikri ojimizcha, qanday yaratilganligi bayon qilinmaydi, nimadan yaratilganligi esa qayta-qayta aytiladi: “Биз инсонни (одамни) қора балчиқдан, қуритилган лойдан яратганмиз” (Хижр сураси, 26 оят)¹⁰. Эсланг, (биз) фаришталарга: “Одамга сажда қилинг”, дейишимиз билан улар сажда қилдилар. Фақат иблис (кибру-хаво билан) “Сен лойдан яралган кимсага сажда қиламанми?” деди, (Ал-исро сураси, 61 оят)¹¹. (Қасамки), Биз инсонни (яъни Одам алайҳиссаломни) лойнинг мағзидан яратдик (Мўминун сураси, 12 оят)¹². Дарвоқе, ҳозирги илм-фан инсон баданида Ер таркибида бўлган барча жисмлар мавжуд эканини исботлаган. Лойнинг мағзидан мурод – лой Ер жинсидаги барча моддалардир. Замонавий тиббиёт ҳам инсон вужудида Ер жинсининг барча моддалари бор эканлигини тасдиқлаган. Юқоридаги Қуръон оятларида Олам ва Одамнинг яралиши ҳақида сўз борган бўлса, қуйида инсоннинг нимадан ва қандай пайдо бўлиши янада чуқурроқ тушунтирилади.

“У сизларни бир жондан (Одамдан) яратди, сўнгра ундан жуфтини (яъни Ҳаввони) пайдо қилди. У сизларнинг оналарингизнинг қорнида уч (кават) зулмат ичида аста-секин яралур” (Зумар сураси, 6 оят)¹³. Она қорнидаги уч кават зулмат, она қорни, бачадон ва боланинг йўлдошидир. Боланинг аста-секин яратилиши эса унинг она қорнида аввал нутфа, сўнгра лахта қон, сўнгра бир тишлам гўштга айланиб аста-секин ривожланиб боришидир. “Сўнгра уни (яъни барча инсонларни аввало) мустаҳкам қароргоҳдаги (яъни бачадондаги) нутфа-маний қилдик” (Мўминун сураси, 13 оят).

¹⁰ Қуръони Карим. Абдулазиз Мансур. Маъноларнинг таржима ва тафсири. Т. 2007. – Б. 263.

¹¹ Қуръони Карим. Абдулазиз Мансур. Т. 2007. – Б. 288.

¹² Қуръони Карим. Абдулазиз Мансур. Т. 2007. – Б. 380.

¹³ Қуръони Карим. Абдулазиз Мансур. Т. 2007. – Б. 515.

“Сўнгра бу нутфадан лахта қонни яратиб, лахта қондан бир тишлам гўштни яратиб, бир тишлам гўштан суякларни яратиб, бу суякларга гўштни кийдирдик, сўнгра унга жон киргизиб, аввал бошдаги бир томчи сув нутфадан бутунлай бошқа бир жонзот ҳолида пайдо қилдик” (Мўминун сураси, 14 оят)¹⁴. Ушбу оятда инсоннинг она қорнидаги бир томчи сувдан то тирик, комил инсонга айлангунигача кечган жараён Яратганнинг илоҳий қалами билан аниқ-равшан қилиб чизиб берилган. “Бас инсон ўзининг нимадан яралганига бир боқсин. У (эркакнинг) бели билан (аёлнинг) кўкрак қафаси ўртасидан отилиб чиқувчи бир сувдан яралган-ку!” (Торик сураси, 6-7 оятлар)¹⁵. Демак, ҳар бир инсон ўзини бир томчи сувдан яратишга қодир бўлган Оллоҳнинг қудратига тан бериб, фаолиятини яхши амаллар қилишга бағишлаши лозим.

Ўз ўрнида Президент И.Каримовнинг сўзларини эслаш жоиз, “Оллоҳнинг ўзи бизга буюрган комил инсон бўлиш, ҳалоллик ва адолат билан ҳаёт кечириш каби олижаноб фазилатларнинг маъно-мазмунини нафақат чуқур англаш, балки ана шундай хусусиятларга эга бўлиш, уларга амал қилиб яшаш — одамзотнинг маънавий бойлигини белгилаб берадиган асосий мезон, десак, ҳеч қандай хато бўлмайди”¹⁶.

“Inson ruhga ega“ degan oyin (printsip) esa har bir odamdan ruh haqida qayg`urishni, ”Ruh qayerdan kelgan? Keyin nima bo`ladi?” kabi savollarga javob axtarishni talab qiladi. Shu bilan odam o`zining hayvon emasligini, ruhga egaligini anglaydiki, ruhni ato etgan Yaratuvchisini taniydi, shaytonning hiylalarini idrok qila boshlaydi. Buyuk mutaffakkirlar Ibn Sino va Ibn Tufayl “Yakzon ibn Xayy haqida”gi qissalarida odam, biron o`rgatmasa ham, tabiatni kuzatib, avval ruh borligini, so`ng shu orqali Tangri mavjudligini bila olishini bayon qilgan. Хужжатул ислом Муҳаммад Ғаззолий дейдики, руҳни кўриб бўлмайди, лекин руҳ бор, у йўқдай бўлиб туюладиган борлиқдир. Масалан тўзон кўтарилганда, тупроқ ўз-ўзидан ҳавога кўтарилади деб айтолмаймиз. Тупроқни шамол кўтариб, тўзонга айлантиради, лекин шамол ва ҳаво кўзга кўринмайди. Шу каби руҳ ҳам кўзга кўринмайди, аммо жисм ҳаракатлари руҳдандир¹⁷. Навоий ҳазратлари айтгандек:

Рух раҳмони эрур, нафс эрур шайтони,

Иккисин бир-бирига қўшмоқ эмасдур маршрут.

Чунки Навоий эътиқод қўйган фалсафий таълимотга кўра, олам азалий ва абадий ягона руҳнинг ўз-ўзини севиб, ўз жамолини томоша қилиш истагидан пайдо бўлган кўзгудир. Инсон ҳам мазкур кўзгунинг бир бўлаги, лекин руҳи мутлоқ энг кўп акс этган хилқат. Инсон руҳи шу боис тинимсиз равишда ўз манбаига (Оллоҳга) қараб интилади. Чунки жаннат руҳлар макони, нафс эса руҳни булғайди. Аммо инсон табиати икки асос – руҳий ва моддий олам унсурларидан таркиб топгани учун бу унсурлар орасида кураш боради. Агар моддий асос бўлмиш жисм талаблари кучайса, у хирс ва шахват, ҳайвоний нафс домига гирифтор бўлиб, борган сари тубанлашади. Бу хавфнинг олдини олиш учун киши доимий равишда руҳий-маънавий эҳтиёжларини қондириб бориши, шу жиҳатни тарбиялашга бел боғламоғи лозим. Бу ишда унга ўзидан кўра комилроқ инсон – устоз раҳнамолик қилади¹⁸.

Inson tabiatiga doir, uning ruhi bilan bog`liq savollarni ko`rib chiqaylik:

1. Barcha turdagi jonzot ichida faqat o`z turdoshining joniga tajovuz qiladi. Hasharotlar orasida ham bunday uchrasa-da, u faqat instiknt tufayli qilinadi. Odamzod tarixidagi qirg`inbarot urushlarni va turfa qotilliklarni esa instinkt orqali izohlab bo`lmaydi.

2. Inson odatda axloqiy chegaralarga amal qiladi. Masalan, kiyim bilan uyat joylarini to`sadi. (ilk bor buni tushunib yetgan Homo erekstus dastlabki Homo sapiehsга aylangan

¹⁴ Қуръони Карим. Алоуддин Мансур. Маъноларнинг таржима ва тафсири .Т. 2004. – Б. 380.

¹⁵ Қуръони Карим. Абдулазиз Мансур. Маъноларнинг таржима ва тафсири. Т. 2007. – Б. 591.

¹⁶ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Toshkent, 2008. – Б.16.

¹⁷ Комилов Нажмиддин. Тасаввуф. Тошкент, “Ёзувчи” нашриёти, 1996. – Б. 37.

¹⁸ Комилов Нажмиддин. Ўша китоб. – Б. 167.

mavjudot bo'lishi mumkinki, bu Qur'on ta'limotiga muvofiq keladi) Xolbuki, nima uchun odam jazirama issiqda ham kiyimda yurishini materialistik nuqtai nazar bilan izohlab bo'lmaydi.

3. Evolyutsiya ta'limotiga muvofiq barcha jonzorot o'zidan zurriyod qoldirish uchun kurashadi. Lekin odamzorotga nisbatan bu qonun mutloq kuchga ega emas. Zurriyod qoldirish uchun barcha imkoniyatga ega kishilar boshqa faoliyat taqazosi bilan bunga urinmaydilar hatto umuman jinsiy hayotdan voz kechgan hollar ko'p.

4. Eng oliy rivojlangan hayvonlar ham faqat hayotiy ehtiyojlarni qondirish uchun yashaydi, birgina odamzorot o'limidan so'ng eshlari uchun faoliyat ko'rsatishi mumkin. (Yorqin misol - keksaygan kishilarning o'zidan bog' qoldirishga urinishlari).

5. Faqat odamzorot ongli ravishda qasd qiladi. Bu hodisani evolyutsiya ta'limoti nuqtai nazaridan masalan, mutatsiya orqali izohlash mumkin emas.

6. Hayvonlar orasida bolasining hayotini saqlab qolish uchun o'z hayotini xavfga solish, hatto qurbon qilish hollari uchraydi va bu darvinizmga mos keladi. Lekin odamzorot umuman mantiqqa xilof hollarida ham o'zini halok qilishi mumkin: Mansur Halloj, Mashrab, Suqrot, Bruno, Yan Gus kabi jangda, falokat paytida o'limga tik boqadigan kishilar hatti-harakatini ham, ruh tushunchasi jalb qilinmasa, ilmiy asoslab bo'lmaydi.

7. Materializmda iymon tushunchasi tan olinmaydi, lekin eng ashaddiy materialistik faylasuf ham vijdon tushunchasidan voz kechmaydi. Shu bilan birga inson nima uchun, instinktiga xilof bo'lishiga qaramay, vijdonga bo'ysunishni qat'iy asoslab berolmaydi.

8. Hayvonot dunyosida g'oya degan kuch amal qilmaydi. Insoniyat tarixidan esa u naqadar dahshatli kuchga aylanishi, har qanday materialistik qonunlarni majaqlab tashlashi mumkinligi ma'lum. Masalan, tarixiy materializmga ko'ra, shaxs tarixda hal qiluvchi rol o'ynamaydi. Tarixiy amaliyot esa har doim buning aksini isbotlab kelgan. Albatta, moddiy mavjudot sifatida bir kishi million kishiga nisbatan ojiz, ammo bir kishining ruhi million kishining ruhiga ham, jismiga ham ta'sir o'tkazishi mumkin.

9. Hayvonlar o'rtasida ruhiy kasalga chalinish kuzatilmaydi. Ruhiy kasalga chalingan odamni moddiy vositalar bilan davolash qiyinligi, lekin u ba'zan "ruhiy silkinish" tufayli sog'ayib ketishi ma'lum. Shuningdek, hayvonlar o'rtasida narkotik moddalarga o'rganish hodisasi yo'q. Odam nafaqat giyohvandlikka girifdor bo'lishi, boshqalarni ham unga tortishga intilishi mumkinligi, bu - o'ziga xos aks darvinizm.

10. Ikki jinsli hayvonlar o'rtasida jinsiy buzqlik hodisasi yo'q.

11. Fan, adabiyot, san'at, siyosat, harbiy ishda inson g'ayri tabiiy mo'jizalar namoyon qiladi. Masalan, matematikada Kantorning cheksizlik xossalarni o'rganishga oid ishlar va bundan o'zining ruhiy kasallikka chalinishi, Oppengeymer atom bombasini, Saxarov vodorod bombasini yaratishi va bu ish ularga ulkan moddiy manfaat va obro' keltiradigan holda hamma narsadan voz kechishlari, Cho'lponning millat erki mavzusidagi she'rlari va q'atag'on mashinasiga tik borgani, Jaloliddin Manguberdining Sind daryosi sohilidagi jangdan keyingi harakati. Bu hodisalarni inson miyasining shunchaki faoliyati bilan izohlab bo'lmaydi.

Yuqorida bayon qilinganlarga asoslanib, materiya ham mavjud, ruh ham mavjud degan to'rtinchi yo'nalish - dualizm eng mukammal falsafiy oqim degan xulosaga kelamiz. U aynan diniy e'tiqodga muqobil. Insoniyat tarixidagi ko'plab buyuk olimlar (Arastu, Ibn Sino, Ibn Rushid, Dekart, Leybnits va boshqalar) shu nuqtai nazarni himoya qilgan. Bugun u falsafada yetakchi yo'nalishni tashkil etadi. Юқоридагилардан маълумки, ақл, рух тафаккур тушунчалари фақат инсонгагина берилган. Бошқа биронта жонзодда бу тушунчалар йўқ. Демак, инсон олий мавжудод бўлиб, у Оллоҳ томонидан яратилган деган хулосани беради.

Jism - bir shakl, u o'tkinchi. Shunday ekan, haqiqiy imon sohibi uchun inson nimadan yaralgan, qanday yaralgan, degan savollar emas, kim yaratgan va nima uchun yaratgan, degan

savollar muhim. Insonga ong va tafakkur berilganki, u hayot Olloh ne'mati ekanini fahmlashi va xayrli ishlar bilan ruhini tarbiyalashi lozim.

Ma'lumotlarga qaraganda, inson o'ziga berilgan genetik axborotning atigi 3-5 foizinigina umri davomida ishlata ekan. Genlar zahirasidagi irsiy axborotning bunchalik ko'pligi sababi hali fanga ma'lum emas¹⁹. Bunday mo'jizaviy xususiyatlar faqat insonga xos bo'lib, boshqa jonzorlar bundan mutlaqo mahrum. 1985 yili Chikagoning Illinoys universitetida bo'lib o'tgan evolyutsiya tarafdorlarining xalqaro anjumanida: «Evolutsiya yuritmasi shu kungacha bahsli va mavhum bo'lib kelmoqda», deya qayd qilingan. Ayniqsa, ko'z, quloq va bosh miyaning evolyutsiyasi mavzuida qizg'in munozara bo'lgan. Odam faoliyati ana shu uch a'zo uyg'unligiga bog'liq. Ular evolyutsiya jarayonida har biri mustaqil taraqqiy qilgan deyilsa, mantiqqa ziddir. Darvinning o'zi «Turlarning kelib chiqishi» asarida shunday yozgan: «Ko'zning tabiiy tanlanish asosida shakllangan deb taxmin qilinishi, ishonchim komilki, bu o'ta bema'nilikning o'zginasidir». Janobi haqning, Odam alayhissalom naslidan tarqalgan ibtidoiy insonlar o'zlari uy va boshpana qurib yashashga o'rganganlariga qadar g'orlarni ehson etishi ham o'ziga xos bir mo'jiza.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Dastlabki odam qachon va qayerda paydo bo'lgan?
2. Odamning paydo bo'lishi haqida qanday farazlarni bilasiz?
3. Qadimgi odam suyaklari qanday joylarda yaxshi saqlanadi?
4. Dastlabki sut emizuvchilar haqida hozirgi qaysi hayvon tasavvur bera oladi?
5. Antropogenez so'zining lug'aviy ma'nosini toping?
6. «Avstralopitek» so'zi lotinchada qanday ma'noni anglatadi?
7. «Sinantrop» odam qachon, qayerdan topilgan?
8. Sinantropga ancha yaqin bo'lgan «geydelberg odami» qachon, qayerdan topilgan?
9. Hozirgi zamon odami yoki homo sapiensning eng tipik vakillari qayerlardan topilgan?
10. Driopiteklar haqida ma'lumot bering.
11. Ramapiteklar qaysi davrda yashagan.
12. Avstrolopitek so'zining lug'aviy ma'nosi va yashagan davri.
13. Pitekanthroplar qaysi davrda yashagan va qoldiqlari qayerdan topilgan.
14. Homo erektusga qaysi odamlar kiradi.
15. Hozirgi tipdagi odamning va dastlabki irqiy farqlarning paydo bo'lishi?
16. Odamning tashqi jismoniy farqlari asosida inson irqi nechanchi yilda, kim tomonidan klassifikatsiya qilindi?

¹⁹ Валихонов Мухсин. Одам маймундан пайдо бўлганми ёки одамдан маймун? // Фан ва турмуш. 1998, № 1. 8-10 бетлар.

4-MAVZU: IBTIDOIY JAMOA TUZUMINING TASHKIL TOPISHI. IBTIDOIY TO'DA

Asosiy savollar:

1. Ibtidoiy odamlar to'dasi va uning tuzilishi.
2. Termachilik va ovchilik. Ibtidoiy jamoada mehnatning taraqqiy etishi.
3. Ibtidoiy to'dada jinsiy munosabatlar.
4. O'zbekiston hududida ibtidoiy davr manzilgohlaridan lavhalar.

Tayanch tushuncha va iboralar: Ibtidoiy odamlar galasining vujudga kelishi. Ibtidoiy jamoa davrida ijtimoiy munosabatlar. Mehnat faoliyati, termachilik, ovchilik. Ibtidoiy odamlarda jismoniy munosabatlar. Promiskuytet.

1-asosiy savol: Ibtidoiy odamlar to'dasi va uning tuzilishi.

Darsning maqsadi: Ibtidoiy odamlar jamoasi. L.Morganning ibtidoiy jamiyatni davrlashtirishi. Ibtidoiy odamlarda nutq va tafakkurning rivojlanishi, mafkuraviy qarashlarning kurtaklari.

Identiv o'quv maqsadlari: 1.1. Ibtidoiy gala davri haqida olimlar fikrlarini biladi. 1.2. Ibtidoiy gala davrida termachilik, ovchilik va ibtidoiy odamlarda jismoniy munosabatlarga baho beradi. 1.3. Ibtidoiy jamoa davrida qon-qarindoshlik oilasi masalasini tushuntiradi.

1-savol bayoni: Biz o'tgan darslarimizda ibtidoiy jamoa tuzumini davrlashtirdik va antropogenez masalasi haqida to'xtalib o'tdik. Bugungi darsimizda odamlarning jamiyat bo'lib yashashga o'ta boshlashi, urug'chilik davrigacha bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyatining rivojlanishi, kollektivchilik, jinsiy aloqalar va qon-qarindoshlik oilasining vujudga kelishi masalalari haqida to'xtalib o'tamiz. Ibtidoiy gala davri haqida tasavvur hosil qilishda arxeologik, antropologik, etnografik ma'lumotlarga tayaniladi. Bu ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, gepotezaviy fikr yuritish orqali ibtidoiy gala davri haqida tasavvur hosil qilamiz.

Ibtidoiy gala davrining tarixiy ramkasi odamning paydo bo'lishidan boshlanadi, tugashi urug' tuzumining vujudga kelishi bilan tugaydi. Arxeologlar P.P.Yedimenko va P.I.Boriskovskiylar urug'chilik tuzumiga o'tishni so'nggi paleolit davriga to'g'ri keladi, deb hisoblashganlar.

Shakllanib borayotgan odamlar ilk paleolitda yashaganlar. Xo'sh bu davrda tabiiy sharoitlar qanday bo'lgan? To'rtlamchi davrning muzlanishlari orqasida tabiiy sharoitlar o'zgara borgan, lekin muzlanishlarning sabablari noma'lum. Dastlabki muzlanishlar paydo bo'lishi bilan bir muncha sovuq tushib qolgan. Ammo, har holda Janubiy va O'rta Yevropada iqlim subtropik, Janubiy Osiyo va Afrikada esa tropik iqlimligicha qolavergan.

Shell davrida issiq iqlim bo'lgan va o'simliklar hamisha yashil bo'lgan, issiqsevar hayvonlar urchiy boshlagan. Ilk ashel tabiiy sharoitlari jihatidan shellga o'xshagan. Muzlanish boshlanishi sababli oxirgi ashelda ancha sovuq tushgan. Musteda eng uzoq va katta riss muzlanishi boshlangan.

Muzlik boshlanishi bilan issiqsevar hayvonlar sovuqqa bardosh berolmasdan qisman o'lib-qirilib ketgan, qisman janubga ko'chgan. Ularning o'rmini mamontlar, sibir serjun karkidonlari, bizonlar, bug'ular, los va yirtqich (g'or ayiqlari, arslonlar) egallagan. Odamlar ilgari erishgan yutuqlari va olovdan foydalanishni bilib olganliklari tufayli dahshatli tabiat siquviga bardosh beradilar. Odam ashel davrida olovdan foydalana boshlaydi. Lekin muste davriga qadar u faqat tabiiy olovdan foydalanadi, olovni shox-shabba tashlab turib uzoq saqlashga o'rganadi. Muste davrida odamlar yog'ochni yog'ochga ishqalash yo'li bilan sun'iy olov hosil qilishni bilib olganlar. Ular qirish yoki tarashlash yordamida yog'och kukunini hosil qilganlar. Ishqalanish tufayli kukun qizib, tutay boshlagan. So'ngra uning ustiga tez o't oladigan tutantiriq tashlab, puflab yondirgan. Olov hosil qilishning qadimgi usuli g'oyat katta bardosh berishni va epchillikni talab etgan. Shuning uchun bir marta hosil qilingan olovni

shox-shabba tashlab turib, saqlashga harakat qilgan. Olov hosil qilishning boshqa usullari ancha keyingi zamonlarga xos.

Muste davridan ko'pgina gulxan qoldiqlari shu davrgacha saqlanib qolgan, bu qoldiqlar o'sha zamonlarda olovdan keng foydalanganligini ko'rsatadi. Olov odamlarni sovuqdan himoya qilish bilan birga, bularning yer yuzida keng o'rnatilishiga imkon bergan, yog'och va suyakdan mehnat qurollari ishlab tayyorlashda muhim o'rin tutgan. Olov odamlarning ovqatni pishirib iste'mol qilishlariga imkoniyat tug'dirgan, pishirilmay turib, ovqatga yaroqsiz bo'lgan mahsulotlarni yeyiladigan qilib, oziq-ovqat manbalarini kengaytirgan. O't yoqib yirtqich hayvonlardan saqlanganlar va hayvonlarni o'rab olib yoki haydab qamash uchun ularga hujum qilgan vaqtda o'tdan foydalanganlar.

2-asosiy savol: Termachilik va ovchilik. Ibtidoiy jamoada mehnatning taraqqiy etishi.

Darsning maqsadi: Insoniyatning jamoaga aylanishida mehnatning rolini tushuntirish. Ibtidoiy g'ala odamlarining chaqmoqtoshdan yasaladigan qurollarni takomillashtirishi mehnatning roli ortib borganligini ko'rsatadi.

Identiv o'quv maqsadlari: 2.1. Oddiy mehnatni bajarish ham faqat kollektivchilik asosida paydo bo'lganini biladi. 2.2. Birlikda ov qilish, yirtqichlardan himoyalash, olovni saqlab turish ibtidoiy g'ala odamlarini o'zaro jipslashtirganini tahlil qiladi. 2.3. Chaqmoqtoshdan qurollar yasashning yangi texnikasi paydo bo'lganini biladi. 2.4. Muste davri uchun xarakterli bo'lgan mehnat qurollarini tahlil qiladi.

2-savol bayoni: Albatta insoniyatning jamoaga aylanishida mehnatning roli ortib borgan. Birgalikda ov qilish, yirtqichlardan himoyalash, olovni saqlab turish ibtidoiy g'ala odamlarini o'zaro jipslashtirgan. Bu yo'nalish jarayonida nutqning paydo bo'lishining roli katta bo'lgan. Neandertal odamlar turar joylarida ayrim arxeologlarning fikricha diniy tasavvurlar haqida guvohlik beruvchi belgilar uchraydi.

Mehnat faoliyati boshlanishi insonning tabiatga munosabati o'zgarishi bilangina emas, odamlarning dastlabki kollektivida o'zaro munosabatlarning vujudga kelishi bilan ham bir vaqtda sodir bo'ladi. Odamlar o'zlarini o'limdan saqlamoq uchun uyushishga majbur bo'lgan. Shell davridayoq ibtidoiy odamning ikki xil asosiy mashg'uloti, ya'ni ov bilan termachilik tirikchilik manbai bo'lgan. Bu 2 mashg'ulot hamma yerda va har qachon bir-biri bilan bog'liq bo'lgan. Shell makonlari G'arbiy Yevropa, Afrika va Janubiy Osiyoda uchraydi. Shell qo'l cho'qmorlari Armanistonda Satani-Dar makonida topilgan.

Bundan keyingi davr ashel Frantsiyadagi Sent-Ashel makoni nomi bilan bog'liq bo'lib, qo'l cho'qmorlari kichikroq, yalpoqroq va qirralari o'tkirroq yasalgan. Ularning shakli bodomsimon, tuxumsimon va nayzasimondir. Demak, bu ma'lum shakldagi birdan-bir qurol bo'lib, ular yonida mayda tosh parrakchalar avvalgidan ko'ra yana ham ko'proq uchraydi. Ilk ashel davri xo'jalik sharoiti va tabiiy vaziyati jihatidan shelldan farq qilmaydi desa bo'ladi.

So'nggi ashel ilk asheldan ancha farq qiladi. Tabiiy vaziyat keskin ravishda o'zgargan. Xo'jalikda ham muhim o'zgarishlar yuz bergan. Iqlim, hayvonot, o'simliklar keskin suratda o'zgargan, muzlik davri boshlangan. Qishning qattiq kelishi bilan termachilikning ahamiyati kamayib boradi. Hayvonlarni ovlashning ahamiyati orta boradi. Katta-katta hayvonlarni ovlashning u vaqtdagi birdan-bir usuli ko'plashib o't bilan o'rab olib ovlash, botqoqlikka haydash, jarlikka qulatilish. Yakka ovchilar bunday qilolmagan. Ibtidoiy to'da esa buni uddalagan. Ibtidoiy to'daning yana bir ahamiyati g'orlarni egallashdir. G'orlarga kirib olishda juda xavfli to'qnashuvlar bo'lib turgan. Ilgarigi qurollar qo'pol, beso'naqay va uncha o'tkir bo'lmagan. Ular teri shilish, kiyim tayyorlashga uncha yaramay qoladi. Avval yo'nilgan tayoqni sekin-asta yog'och nayzaga aylantirganlar. Yog'ochni yo'nish uchun ishlatiladigan chaqmoqtosh qurolni ham takomillashtirish kerak edi.

Chaqmoqtoshdan qurollar yasashning yangi texnikasi yoyilishi bilan yangi arxeologik bosqich, ashel o'rniga, muzlikning riss bosqichiga asosan muvofiq keladigan muste bosqich

boshlanadi. Bu bosqich Frantsiyadagi muste g'or makoni nomi bilan atalgan. Chaqmoqtoshdan qurollar yasashning yangi texnikasi yorma texnika deb ataladi. Chaqmoqtoshdan tosh parrakchalar birin-ketin uchirib olinaverib nihoyat tosh bo'lagidan boshqa uchirib bo'lmaydigan va tashqarisi tarashlangan o'zak qolgan. Bu o'zak *nukleus* deb, urib uchirish uchun ishlatiladigan yaxlit tosh esa *ushatgich* deb ataladi. Muste davri uchun nukleuslar va uch burchakli tosh parrakchalar xarakterli bo'lgan. Bu uchburchakli yalpoq tosh parrakchalar har holda ancha yupqa bo'lib yog'och yo'nish, teri shilish, qurol va kiyim tayyorlashga yaraydigan qurol xizmatini o'tagan. Uzoq davom etgan muste davrida asosan 2 xil qurol nayzasimon tosh qurol va tosh qirg'ich ishlatilgan. Boshqa xil qurollar ham bo'lgan. Masalan: o'sha davrdayoq toshdan yasalgan o'roqranda, ya'ni daraxt po'stini shilishda dag'al bo'lsa ham randalash quroli paydo bo'lgan. Chaqmoqtoshdan tashqari, masalan qumtosh va ohaktoshdan uzun tasma uchiga juft qilib bog'langan sharlar *sopqon* deb ataladi. Ibtidoiy ovchi sopqon bilan hayvonlarni oyog'idan ilintirgan. Suyakdan yasalgan qurollar mustening oxirlarida paydo bo'la boshlaydi.

3-asosiy savol: Ibtidoiy to'dada jinsiy munosabatlar.

Darsning maqsadi: Eng qadimgi odamlarning tartibsiz jinsiy aloqalarini tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadlari: 3.1. Tosh qurollarning o'zgara borishi, odamning o'zgara borishi, ibtidoiy gala davri uzoq davom etganligini biladi. 3.2 Ibtidoiy gala odamlarida qon-qarindoshlik aloqalari tan olinmaganligini, qardoshlik, nasl-nasab hisobi olib borilmaganligini tahlil qiladi.

3-savol bayoni: Shel va ashel davri makonlari Janubiy Yevropada, Afrikada, Janubi-Sharqiy Osiyoda, jumladan Armanistonda Satani-dar, Abxaziyada Yashtux, Osetiyada Kudaro I, Ukrainada Luka Vrublevskeyadan joy va qurollar topildi. Muste turar joylari Angliyada, Frantsiyada, Ispaniyada, Germaniyada, Shveytsariyada, Italiyada, Afrikada, Falastinda, Iroqda, Eronda, Xitoyda, Yavada muste davriga oid makonlar topildi. Jumladan Ukraina, Qrim, Kuban, Volga va O'rta Osiyodan ham ana shu davrning turar joylari topildi. Bu muste davrida yer ustida aholining nisbatan ko'proq zichlanganligini ko'rsatadi.

Tosh qurollarning o'zgara borishi, odamning o'zgara borishi, ibtidoiy gala davri uzoq davom etganidan dalolat beradi. Ibtidoiy odamlar galasi ko'p sonli bo'lmagan, chunki mehnat unumdorligi past bo'lib, oziq-ovqat topib yeyish qiyin bo'lgan. Termachilik ularning asosiy usuli bo'lgan. Yirik hayvonlarni ov qilish albatta qiyin bo'lgan. Yuqoridagi fikrga asoslanib, ilk ibtidoiy galada 20-30 ta katta yoshli a'zo bo'lgan. Bundan katta galalar ham bo'lgan, lekin u tasodifiy va vaqtinchalik bo'lgan. Ibtidoiy gala odamlari doimo bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurmagan. Ko'pincha g'orlarda muqim yashagan.

Arxeologlar ibtidoiy gala ovi miqdorini topilgan suyaklar soniga qarab xulosa qilishadi. Masalan: Teshiktoshdan kiyik, echki suyaklari ko'p topilgan. Italiyadagi Oservatoriya g'ori, Ispaniyaning Tarralba turar joyidan ham ko'plab suyaklar, birinchisidan hatto 30 ta fil suyagi ham topilgan. Katta va yirtqich hayvonlarni jarliklarga, chuqurliklarga haydab tushurib ovlashgan. Ov albatta go'sht bilan ta'minlashning manbai bo'lgan. Go'shtdagi oqsil va yog'lar odam organizmining rivojlanishiga juda katta ijobiy ta'sir etgan.

Eng qadimgi odamlarning tartibsiz jinsiy aloqalari *promiskuytet* (aralash) deb ataladi. O'sha davrda xotinlar bilan erkaklarning galaga xos umumiylik davri mavjud bo'lgan. Ota-onalar bilan bolalar, tug'ishgan aka-uka bilan opa singillar o'rtasida nikoh cheklanishlari bo'lmagan. Qon-qarindoshlik aloqalari tan olinmagan, qardoshlik, nasl-nasabi hisobi olib borilmagan. Galalar bir-birlaridan mustaqil yashashgan. Neandartal galalari 50 kishidan 100 kishigacha hisoblangan. Ular ishlab chiqarish va maishiy turmush birligini tashkil etgan. O'troq hayot kurtaklari, umumiy o'choq va turar joy, birgalikdagi mehnat odamlarni jipslashtirgan, galalarni ancha holi yashaydigan alohida guruhlariga aylantirilgan. Nikoh avvalgidek gala ichida voqe bo'lgan. L.Morgan o'zining "Qadimgi jamiyat" asarida ota-ona

hamma bolalarning otalari va onalaridir. Jamoadagi hamma bolalar hamma ota-onalarni o'z ota-onalari deb hisoblashgan. Jinsiy munosabatlarni tartibga keltirish ancha uzoq so'nggi davrlarda ham davom etadi.

4-asosiy savol: O'zbekiston hududida ibtidoiy davr manzilgohlaridan lavhalar.

Darsning maqsadi: O'zbekiston hududida ibtidoiy davr manzilgohlarining mukammal o'rganilishi nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo xalqlari uchun jahonshumul tarixiy ahamiyatga molik bo'lgan xulosalarini asoslab berish.

Identiv o'quv maqsadlari: 4.1. Talabalarda bashariyatga hurmat hissini rivojlantirish. 4.2. Barcha tadqiqotlar O'rta Osiyo ilk antropogenezisining qadimgi tarixini yangicha yoritish imkonini yaratishi masalasi bo'yicha ilmiy dunyoqarash va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

4-savol bayoni: Selungur. O'zbekiston hududida, jumladan, Farg'ona vodiysida yashagan qadimgi ajdodlarimizning ilk tarixi tosh davridan boshlanadi. Arxeologik qazishmalar shuni ko'rsatadiki, nafaqat O'zbekistonda, balki O'rta Osiyo hududida ajdodlarimiz tarixi boshlanganiga 1-1,2 million yil bo'lgan. Ma'lumki, sinfiy jamiyat boshlanishi 2,5- ming yil bilan belgilanadi.

Ma'lumki, XX asrning ikkinchi yarmiga qadar nafaqat O'zbekiston, balki O'rta Osiyo hududida 300 dan ortiq O'rta paleolit, muste davriga oid neandertal odamiarning mehnat qurollari va makonlari aniqlandi. 1980 yillardan boshlab O'zRFA Arxeologiya institutining paleolit otryadi Janubiy Farg'onada qazish ishlari olib bordi va nafaqat O'zbekiston uchun, balki butun O'rta Osiyo uchun ulkan tarixiy ahamiyatga molik qator yangiliklar ochishga muvaffaq bo'ldi. Selungur, Chashma, So'x, shuningdek Angren daryo vodiysidagi Toshsoy shular jumlasidandir. Barcha mazkur tadqiqotlar O'rta Osiyo ilk antropogenezisining qadimgi tarixini yangicha yoritish imkonini yaratdi. Hozirgi vaqtda O'rta Osiyo hududida qadimgi moddiy va ma'naviy madaniyatning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan birga odamning dastlabki paydo bo'lishi va antropologik shakllanishi ro'y bergan deb taxmin qilish uchun asosli dalillar mavjud.

Qazishmalar vaqtida ochilgan yodgorliklar orasida Selungur g'ori o'zining olamshumul ahamiyati bilan ajralib turadi. Bu g'or Farg'ona shahridan janubi g'arbda Aydarkonning g'arbiy chekkasida joylashgan bo'lib, ulkan g'orning ichkari tomon uzunligi 120, eni 34, balandligi 25 metrni tashkil etadi. Qazish ishlari natijasida 20-40 santimetrdan iborat 5 ta madaniy qatlam aniqlangan. Bu qatlamlarning qalinligi 30 santimetrdan 1 metrgacha bo'lib, o'rtacha 60-70 santimetrni tashkil qiladi²⁰. Demak, ajdodlarimiz mazkur g'orda o'z makonlarini 5 marotaba uzoq vaqt tark etib yashaganlar.

Bu madaniy qatlamlarda toshdan yasalgan mehnat qurollari: qo'l chopqisi, to'mtoq bolta, pichoqsimon-qurollar, ko'plab tosh qurollar, qush tumshug'iga o'xshash qurollar qazib olindi. Selungurning 4-qatlamidan topilgan, arxeologiya fani uchun juda noyob bo'lgan qurollardan biri og'ir va to'mtoq tosh boltadir. U ancha sodda usulda yasalganiga qaramay, ishlov berish nihoyasiga yetgan mehnat qurollaridan hisoblanadi. Selungurning 5-qatlamida topilgan qo'l chopqisi ashel qo'l chopqilariga o'xshash jihati bilan ajralib turadi. Chopqi qizil yashma toshdan tayyorlangan bo'lib, unga yon tomonlaridan otboyniklar yordamida urib uchirib ishlov berilgan. Natijada, uning yon tomonlarida nisbatan yirikroq uchirindilar uchirib

²⁰ Ўткир Исломов. // Fan va turmush. 2008 y. №3-4-5-sonlar. – Б. 40-42

olinganligidan dalolat beruvchi izlar qolgan. Ana shunday o'ziga xos xususiyatlari tufayli Selungur noyob arxeologik yodgorliklar qatoridan joy olgan. Germaniyaning Kyoln shahrida yashovchi arxeolog olim, professor Basinskiyning fikricha, Selungur tarzdagi arxeologik yodgorliklarning yoshi Germaniyada 1 million yil bilan belgilanadi.

Selungur g'orining madaniy qatlamlaridan 32 turdagi sutemizuvchi hayvonlarga taalluqli 5 mingdan ortiqroq suyak qoldiqlari aniqlanib, tadqiq etildi. Natijada, Selungur hayvonot majmuasini ajratishga muvaffaq bo'lindi. Bu majmua morfologik belgilari hamda arxaikligi (moddiy va qadimiyligi) bo'yicha ilk pleystotsen davri oxirlariga mansub, degan fikrdamiz. Bunday hayvonot qoldiqlari orasida yirtqich, tuyoqli va kemiruvchi hayvon turlari ko'pchilikni tashkil etadi. Bular ichida, o'z navbatida, dasht va ochiq landshaftli yerlarga xos turlar bisyor. G'or ayig'i, bo'ri, g'or arsloni, sirtloni, karkidoni, bo'rilar, otlari, pleystotsen eshagi, to'ng'izlar, har turli kemiruvchilar qoldiqlarining mavjudligi bu yerda issiq va quruq iqlim hukmronlik qilganligidan dalolat beradi. Bayon qilinganlardan ko'rinib turibdiki, Selungur manzilgohining hayvon suyaklari xronologik jihatdan ilk pleystotsen davriga to'g'ri keladi. Darvoqe, arxantrop suyak qoldiqlarining topilishi katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Suyaklar aytarli ko'p emas: odam tishlari, bosh suyagi parchasi va yelka suyagi bo'lagi. Turi jihatidan Farg'ona odami Nomo erektusga mansub.

Selungur g'orida topilgan tishlar ancha yaxshi saqlangan, binobarin, ularning turli kimsalarga mansubligini aniqlash mumkin. O'ta darajada siyqalangan qoplamali va uzun ildizli ikkita yirik yuqori kurak tish, ehtimol, 35-40 yoshlardagi erkak kishiniki bo'lsa kerak. Qisqa ildizli kichikroq yuqori kurak tish, chamasi, 40 yoshlardagi ayolga tegishli. Topilgan elka suyagi bo'lagi katta qiziqish uyg'otdi. U muayyan belgilariga ko'ra, taqriban, million yil ilgari yashab o'tgan. Selungurda olingan namunalarning kollagen tahlili bu yerdagi madaniy qatlamlar bundan 1,1 million yil muqaddam vujudga kelganligi O'zR FA Yadro fizikasi institutida kaliy-argon usulida aniqlanib, qariyb 1,5 million yil ekani ma'lum bo'ldi. Bu qadimgi odam suyaklarini antropologik o'rganish bularning barchasi arxantropplarga tegishli ekanini ko'rsatadi. Suyak qoldiqlarining engak bo'lagi hamda bosh suyak kosasi bo'laklari hanuz o'rganib kelinmoqda. Bular haqida hali uzil-kesil xulosaga kelingani yo'q.

O'rta Osiyo hududida Teshiktosh g'oridan so'ng uzoq yillar davomida undan ko'ra qadimiyroq arxeologik yodgorlik topilmagani tufayli o'lkamizda insoniyat tarixi 80-100 ming yildan nariga o'tmay qolaverardi. Ammo Teshiktosh g'ori topilganidan so'ng 50 yil o'tgach, Selungur g'orining topilishi va uning mukammal o'rganilishi nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo xalqlari uchun jahonshumul tarixiy ahamiyatga molik bo'lgan xulosalarga olib keldi. Bu mintaqada inson tarixi 80-100 ming yildan 1,5 million yilga uzaytirildi²¹.

Teshiktosh. O'rta Osiyoning siru sinoatli yalangliklari tamaddun o'choqlaridan biri sifatida hammavaqt tadqiqotchilarni maftun etib kelgan. Darhaqiqat, O'zbekistonning ulkan hududida hozirga qadar o'lkaning uzoq va murakkab tarixini aks ettiruvchi ko'plab xilma-xil arxeologik yodgorliklar aniqlangan. Biroq eng ko'hna tarix sahifalari yaqin-yaqingacha "o'rganilmay qolib kelardi, chunki O'rta Osiyo hududida uzoq vaqt paleolit manzilgohlarini topish nasib etmadi. O'zbekiston hududida yechilgan eng mashhur ilk paleolit manzilgohi Boysun tog'laridagi Teshiktosh g'oridir.

Teshiktosh g'ori Amir Temur soyidan uzoq bo'lmagan, Zovtoloshsoyda joylashgan. Soy yirik, sersuv bo'lib, avval u janubga, keyin esa janubi-g'arbga buriladi, so'ng sharqqa burilib, yana janubga qayriladi. Soyning burilish yeri nihoyatda tor bo'lib, Teshiktoshning

²¹ Ўткир Исломов. // Fan va turmush. 2008 y. №3-4-5-sonlar. – Б. 40-42

birinchi madaniy qatlamlari joylashgan. Birinchi g'ordan yuqoriroqda esa yana uchta g'or bo'lib, ularning eng yirigi birinchi g'ordan 100 metr uzoqda joylashgan. G'orning kiraverish qismi cho'zinchoq shaklda. G'or balandligi - 7, eni - 20, g'orning uzunligi esa 21 metr²². Mazkur g'ordan tosh uchirindisidan tayyorlangan qurollar, qirg'ichlar, to'g'nog'ich, nayza va keskichlar topilgan. Bularning barchasi kremniyli ohaktoshdan ishlangan.

P.P.Efimenkoning fikricha, O'rta paleolitda yig'ilgan texnik malaka, ov ehtiyojining oshishi natijasida va urf-odatlarining murakkablashishi yangi ish qurolining shakllanishiga olib keldi. "Bolta" deb atash mumkin bo'lgan, muste davriga oid qo'pol va og'ir ish qurolini o'rganib chiqqan olimning yozishicha, u birinchi galda, bolta vazifasini o'tagan. U ish quroli sifatida atayin ishlangan. Unda barmoqlarga mo'ljallangan ushlagich joylar mavjudligi va uning pastki qismi uzun uchqir shaklga ega ekanligi va murakkab zaruriy vazifalarni bajarishga mo'ljallanganligi ham shundan dalolat beradi.

Teshiktoshda yirik uchli nayzasimon ish qurollari yo'q. Maydalari esa uchburchaksimon shaklda tayyorlangan bo'lib, bir tomoni retushlangan, ikkinchi pastki tomoni esa silliq bo'lgan. Muste odamlari kundalik hayotlarida ulardan kesish va sanchishda foydalanishgan. Teshiktoshdan topilgan uchli ish qurollaridan atigi bittasi haqiqiy pichoq o'rnida ishlatilganligini payqash mumkin, chunki unga maxsus ishlov berilganligini va unda kesishdan boshqa ish bajarib bo'lmasligini ish qurolining ko'rinishidan bilish mumkin. P.P.Efimenko muste davriga oid ikkita eng mashhur mehnat qurollari - nayza va qirg'ichni taqqoslab, quyidagi fikrga kelgan: uchli nayza ko'proq "erkaklar pichog'iga", qirg'ich esa "ayollar pichog'iga" yaqinroq bo'lgan.

Nayza bilan bemalol hayvonlarni o'ldirish, terisini shilish, go'shtini ajratish mumkin bo'lsa, qirg'ichdan ayollar ko'proq uy xo'jaligida foydalanishgan. Teshiktosh g'oridan topilgan buyumlar ichida suyakdan ishlangan mehnat qurollari ham bor. Ishlov berilgan uzun ingichka suyak bir tomonga ingichkalashib borgan. Unga ishlov berilganligini ko'rib, neandertal odami ikki xil texnika bo'yicha kesish yoki arralash hamda qirtishlash asosida suyakka ishlov berilganligini bilish mumkin. Bu ikki texnika, garchi sodda bo'lsa-da, biroq samarali edi. Shunday texnika orqali neandertal odamlari avval tosh qurollar orqali yog'ochga ishlov berishni o'rganishgan, keyin esa suyakka ishlov berishga o'tishgan. G'orning ichi dastlabki ko'zdan kechirilgandayoq kishida bu g'or odamlar yashagan makon bo'lganligi haqida tasavvur hosil qiladi.

1938 yilda olib borilgan dastlabki qazish ishlari natijasida yodgorlik stratigrafiyasi va madaniy qatlam qoldiqlari haqida muayyan darajada tushunchaga ega bo'lindi. G'orning shimoli-g'arbiy qismida qazish ishlari olib borilganda bu yerning madaniy qatlami boshqa qismlarga qaraganda boyligi va xilma-xilligi ma'lum bo'ldi. Teshiktosh g'orining umumiy qalinligi bor-yo'g'i 1,5 metr bo'lgan madaniy qatlami beshta mustaqil qatlamchaga ajratiladi. Ana shu beshta qatlamchanning eng qalini atigi 40 santimetrni tashkil etadi. Madaniy qatlamdan hayvonlarning naysmon suyak bo'laklari, uchirindilar, nukleuslar, kremniy qurollar va gulxan o'rni mavjud bo'lgan eng qalin ustki (birinchi) qatlamda to'qqiz yoshli bola qabri topildi. U g'orning oxir chekkasida sayozroq chuqurchaga dafn etilib, ustiga tuproq tortilgan, atrofiga aylana bo'ylab bir juftan kiyik shoxlari qo'yilgan.

Qiziqarli jihati shundaki, shoxlar yonida kichkinagina gulxan izlari aniqlandi, gulxan uzoq yonmagan ko'rinadi. Ehtimol, bularning bari ibtidoiy diniy qarashlarning kurtaklaridir. Balki, doira bo'ylab joylashtirilgan juft-juft kiyik shoxlari hamda gulxan olovi

²² Fan va turmush. 2008 y. №3-4-5-sonlar. – B. 48-51

neandertallarda quyoshga topinishning shakllanib kela boshlanishidan darak berar, dafn esa hayot va o'lim holatini anglash, jon va u dunyo haqidagi tushunchalarning paydo bo'la boshlaganini anglatadi.

Odamning suyak qoddiqlari bor-yo'g'i 25 santimetrlik chuqurdan topilgan. Shuning uchun qazish ishlari nihoyatda ehtiyotkorlik bilan olib borildi. Keyingi qazish ishlari vaqtida, bosh suyak qoldig'idan uncha uzoq bo'lmagan yerdan echkining bo'laklangan va butun shoxlari topildi. Barcha shoxlar juft-juft joylashgan bo'lib, ularning uchta jufti butun saqlangan, muste odamlari ularni qay holda qoldirib ketishgan bo'lsa, shu holda saqlangan. Bir juft shox bosh suyagi bilan "sanchqi" sifatida tabiiy bog'lanib turgan. Shunisi diqqatga sazovorki, "sanchqi" shaklida joylashgan topilma boshqa topilmalarga o'xshab ko'ndalang emas, balki tik holatda joylashgan bo'lib, uning asosi tepada, uch qismi esa pastga qadalgan. Bu juft shox yirik qari hayvonniki bo'lishi mumkin. Ikkala shox ham kalla suyaklari qoldiqlarini o'zida saqlab qolgan. Birinchi galda ular bir-butunlikni tashkil etgan bo'lsa, keyinchalik ajralgan.

Uchinchi juft shox ham yaqin orada joylashgan bo'lib, butun "sanchqi" ko'rinishiga ega. Topilgan shoxlarni yopiq aylanaga "joylashtirsak, ko'z o'ngimizda birbutun aylana xosil bo'ladi. Bu aylana ichida kalla suyagi va odam tanasining boshqa suyaklari joylashganini ko'ramiz. Xullas, odam qoldiqlari g'orning g'arbiy devori yaqiniga ko'milgan bo'lib, ikki gruppani tashkil qiladi. Ikki uyum suyaklar bir-biridan yarim metr masofada joylashgan. Odam tanasining bosh qismi – g'or ichiga, oyog'i esa tashqariga qaratib qo'yilgan. Suyaklarning qatlamlar ostida joylashganligiga ko'ra, mayit maxsus kavlangan, uncha chuqur bo'lmagan o'raga dafn etilgan, deb taxmin qilish chumkin²³.

Neandertal odamlar bolani ko'mgach, o'z makonlarini tark etishgan. Shundan so'ng bir oz vaqt o'tgach, bola qabrini qandaydir yirtqich hayvon, taxminlarga ko'ra, g'or sirtloni kavlab, yumshoq qismlarini yeb tugatgan. Lekin bu borada boshqa fikrlar ham mavjud. Masalan, tadqiqotchi G.Ulrix qabr hayvon tomonidan buzilmagan, suyakdagi mavjud tirnov esa boshqa narsaning izlari bo'lishi mumkinligini aytgan. Uning fikricha, mayitni qabrga qo'yishdan oldin, bo'laklarga ajratib, eti kesib olingan. Yangi ma'lumotlarga ko'ra, suyak qoldig'i atrofida joylashgan beshta echki shoxlardan qabrni bezashda yoki sinch o'rnida foydalanishgan. Biroq bu fikr hanuz olimlar tomonidan isbotlanmagan.

Qabr oldidagi o'choqning odam suyaklari qoldiqlari bilan hech bir bog'liqligi yo'q degan fikr ham mavjud, lekin bu ham hali o'z isbotini topmagan. Teshiktosh g'oridagi odamni ko'mishdan oldin bo'laklarga bo'lib, uning asosiy qismlarini qabrga qo'yishgan, qolganini esa o'zlarida olib qolishgan. Binobarin, neandertal odami ham bundan mustasno emas. Qabrdan topilgan suyak qoldiqlari va ular atrofidagi topilmalar neandertal odamlar o'z yaqinlarini diniy marosimlar asosida ko'mishganligidan dalolat beradi.

Teshiktosh g'oridan topilgan muste davri odamining jismoniy turi haqidagi keskin munozaralar hanuz tingani yo'q. Antropolog M.M. Gerasimov uning kalla suyagini 150 dan ziyod parchalardan yelimlab, qiyofasini tikladi. 9 yoshli bola bo'lganligidan uning miya hajmi 1490 kub santimetr, voyaga yetganida 1600 kub santimetr bo'larmidi. G.F. Debets Teshiktosh odamining jinsi erkak ekanini aniqlab, uni Yevropa neandertallarining namunaviy turiga (birinchi navbatda Shapel-o-Sen va Ferrasi topilmalariga) yaqinlashtirdi. F.Vanderayx bunday fikrni shubha ostiga olib, uning morfologiyasida bir qator ijobiy xususiyatlarni, binobarin, Teshiktosh topilmasining tadrijiy rivojlanish jihatidan neandertallar shakliga mansubligini ta'kidladi. Keyingi tadqiqotchilar qam Teshiktosh odamining "namunaviy" neandertallardan

²³ Fan va turmush. 2008 y. №3-4-5-sonlar. – B. 48-51

farqlanishini ta'kidlab, tadrijiy rivojlanish yo'liga ko'ra, hozirgi zamon odamiga borib taqaladi, deb hisoblashadi.

To'g'ri, A. Toma Teshiktosh odamini qozirgi zamon mongoloid odami tomon olib boruvchi tadrijiy rivojlanish tarmog'iga kiritgan. V.P. Alekseev hozirgi zamon odamida o'zgarishlar shkalasi asosida Teshiktosh odamining "balog'at" o'lchamlari boshqa neandertallarga nisbatan juda kichik, u qiz bola bo'lishi kerak, degan xulosaga keladi. So'nggi yillarda DNK orqali olingan ma'lumotlar Teshiktosh bolasi sapiens turiga emas, balki neandertal turiga tegishli ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga Ternes Rittsmanning 2003-2004 yillarda olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, Teshiktosh odami qaytadan ilk Nomo sapienz odami deb belgilandi²⁴. Biroq munozara bu bilan poyoniga yetgani yo'q. Ehtimol, yangi kashfiyotlar mazkur muammoga yangicha qarash imkonini berar. Nima bo'lganida ham Teshiktoshdan odam topilishi O'rta Osiyo hududi odam shakllanishining ulkan Sharqiy O'rta dengiz makoniga kirganligini ko'rsatadi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Ibtidoiy gala davri qachongacha davom etgan?
2. Odamning paydo bo'lishi yer tarixining qaysi davriga to'g'ri keladi?
3. O'rta paleolitning tabiiy sharoiti qanday bo'lgan?
4. Pleystotsen arxeologik jihatdan davrlashtirilsa qaysi davrga to'g'ri keladi?
5. Bundan qancha yil ilgari yer yuzida qattiq sovuq va muzlik boshlangan?
6. Ilk paleolit odamlarining ijtimoiy munosabatlari?
7. Nima sababdan termachilikning ahamiyati kamayib boradi?
8. Ashel davrida qo'l cho'qmorlari qanday yasalgan?
9. Shakllanayotgan odamlarning mehnat qurollari va ovqat topish usullari qanday bo'lgan?
10. Uzoq davom etgan muste davrida asosan qanday 2 xil qurol ishlatilgan?
11. Chaqmoqtoshdan tashqari yana qanday qurollar yasalgan?
12. Suyakdan yasalgan qurollar qachon paydo bo'la boshlaydi?
13. Ibtidoiy gala odamlarining o'zaro jipslashuviga olib kelgan omillar?
14. Neandertal odamlarda diniy tasavvurlar haqida guvohlik beruvchi belgilar haqida nima deya olasiz?
15. Arxantrop va paleontrop galalarida ishlab chiqarish munosabatlari va jinsiy munosabatlar qanday bo'lgan?
16. Eng qadimgi odamlarning tartibsiz jinsiy aloqalari qanday ataladi?

6-MAVZU: IBTIDOIY TAFAKKUR, NUTQ VA MAFKURAVIY QARASHLAR KURTAKLARI

Asosiy savollar:

1. Tafakkur va nutqning shakllanishi.
2. Ibtidoiy to'da davri kishilari mafkuraviy qarashlarining manbai.
3. Ibtidoiy tafakkur va nutq paydo bo'lishi masalasi hamda mehnat qurollarining tafakkur va nutqning paydo bo'lishiga ta'siri.
4. Ibtidoiy mafkura qarashlarining shakllana boshlashi.

Tayanch tushuncha va iboralar: Tafakkur va nutq paydo bo'lishining manbalari. Mehnat qurollarining inson tafakkuri va mehnat mahsuli ekanligi. Tafakkur va nutqning taraqqiy

²⁴ Fan va turmush. 2008 y. 3-4-5-sonlar. – B. 48-51

etishidagi ikki bosqichi. Neandertal odamning mafkuraviy qarashlarga ega bo'lgan odam ekanligi.

1-asosiy savol: Tafakkur va nutqning shakllanishi.

Darsning maqsadi: Talabalarda ibtidoiy tafakkur va nutq paydo bo'lishi masalasi haqidagi bilimlarni shakllantirish. Mehnat qurollarining tafakkur va nutqning paydo bo'lishiga ta'sirini tushuntirish. Insoniyat tarixida tafakkur oldin paydo bo'lganmi yoki nutq degan masalani tahlil qilish hamda tafakkur va nutqning o'sishi mehnat jarayoni mehnat qurollari takomillashuvining mahsuli ekanligini asoslab berish.

Identiv o'quv maqsadlari: 1.1. Talabalarda bashariyatga hurmat hissini rivojlantirish. 1.2. Talabalarda ibtidoiy tafakkur va nutq paydo bo'lishi masalasi bo'yicha ilmiy dunyoqarash va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

1.3. Eng oddiy mehnat qurollarining paydo bo'lishi uni insonning yaratganligi tafakkurlash asosida sodir bo'lganligini tushuntirish. 1.4. Tafakkur va nutqning taraqqiy etishdagi ikki bosqichni ochib berish.

1-savol bayoni: Ibtidoiy to'da davrning oxiriga kelib, ibtidoiy kishilar hayotida juda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu o'zgarishlar avvalo kishilarning tashqi qiyofasi, tafakkur doirasi, nutqi, ishlab chiqarish qurollari va xo'jaligida ko'zga tashlanadi. Insonning tafakkuri va nutqi ularning birgalashib qilgan mehnati natijasida vujudga keldi. Inson tafakkur qilmasa toshdan oddiy bo'lsada qurollar yasay olmasdi. Demak, inson tafakkuri ular mehnatining samarasi edi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek qadimgi tosh asrining boshlariga kelib insonning tafakkur doirasi, nutqi yanada rivojlana boshladi. Bu hol ular yaratgan madaniyatda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tafakkur va nutqning paydo bo'lishi masalasi ibtidoiy jamoa tarixidagi murakkab masaladan biridir. Masalaning qiyin tomoni shundan iboratki, bizning ixtiyorimizda ochiq-oydin ma'lumotlar yo'q, balki tafakkur va nutqning paydo bo'lishini tasavvur etishimiz uchun qo'shimcha ma'lumotlarga tayanamiz. Tafakkur va nutqning paydo bo'lishini aniqlab beradigan manbalar bir qancha bo'lib, ular qiyosiy psixologiya, qiyosiy fiziologiya, qiyosiy tilshunoslik, shuningdek etnografik va arxeologik manbalardan iboratdir. Ayniqsa, antropologiya bu masalani oydinlashtirishda katta ahamiyatga ega. Antropologlar nutq hosil qiluvchi inson a'zolari miya va nutq organlarining rivojlanishini chuqur tahlil qilib, tafakkur va nutqning paydo bo'lishi jarayonini tabiiy - ijtimoiy jarayon ekanini isbotlashgan.

Tafakkur va nutq odamning paydo bo'lishi, uning mehnat faoliyat rivojlanishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi va insonning tabiat sirlarini bilib borishining ikki tomoni ekani mutlaqo aniq holdir. Shu sababli insoniyat tarixida tafakkur oldin paydo bo'lganmi yoki nutqi degan masala ustida tortishuvlar mavjud. Tafakkur ong mahsuli shuning uchun ham u oldin paydo bo'lgan. Eng oddiy mehnat qurollarining paydo bo'lishi, uni insonning yaratganligi tafakkurlash asosida sodir bo'lgan. Mehnat qurollari uzoq kuzatish, tajribalar to'planishi asosida, mehnatni osonlashtirish uchun ixtiro qilingan, takomillashtirilgan. Demak, mehnat qurollari inson tafakkuri va mehnati mahsulidir. Mehnat qurollarni yasash, ularni boshqalarga, avlodlarga yetkazish ehtiyoji tug'ildi (jumladan ishlab chiqarish jarayoni ham shuning o'zginasidir). Shunday qilib eng oddiy tasavvurlar vujudga kelishi bilan bir vaqtda bu axborotlarni boshqalarga yetkazishning eng oddiy tovushli signallari, simvollari va belgilari paydo bo'lgan.

Odamzod urug'iga yaqin turgan mavjudotlardan biri bo'lgan maymunlarda tovushli signallar bor, Masalan: shimpanze 20 dan ortiq turli xil tovushlar chiqaradi. Bu tovushlar (umuman hayvonlarda) ikki turga bo'linadi: xis-hayajonli signallar (tovushlar) va organizm erkin holatida chiqariladigan "hayotiy shovqin" tovushlarga bo'linadi. Lekin qaysi biri nutqning paydo bo'lishida asosiy rol o'ynagani isbotlanmagan. Antropolog V.V.Bunak aynan "hayotiy shovqin" nutqning paydo bo'lishiga asos bo'lgan deb hisoblaydi.

Tafakkur va nutqning o'sishi mehnat jarayoni mehnat qurollari takomillashuvi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, insonning tabiat sirlarini bila borishi bilan birga parallel davom etgan. Tadqiqotchilar ibtidoiy odamlar tafakkuri va nutqining taraqqiy etishdagi ikki bosqichni ajratib ko'rsatadilar. Ular birinchi bosqichni arxantropolar va petikantropolar bilan, ikkinchi bosqichni aqlli odamning paydo bo'lishi bilan bog'laydilar. Keyingi paleolitga qadar nutq noaniq bo'lgan, ammo, paleantropolar nutqi arxantropolar nutqiga qaraganda ancha taraqqiy etgan. Neandertallarda ko'p ma'noli va yaxlit mazmunli yangi so'z jumlar paydo bo'lgan. Eng qadimgi odamlarda esa bir bo'g'inli, turlanmaydigan va bir-biri bilan bog'lanmagan so'zlar mavjud bo'lgan.

Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'lanib borgan. Yer yuzida gapirishni bilmaydigan bironta ham xalq yo'q. Shuning uchun olimlar g'oyat katta insoniy muvaffaqiyatlardan biri bo'lgan nutqning shu darajada o'sishiga qanday yo'l bilan erishganligini fahmlab, bilib olishlarigagina to'g'ri keladi. Tilning paydo bo'lish imkoniyatini anglash uchun oziq-ovqat qidirib topish yo'lida cheksiz tashvish tortgan ibtidoiy odamlarning yashagan sharoitlarini unutmasligimiz kerak. Odamlar oziq-ovqat qidirib topishgan, o'zlarini dushmanlardan birgalikda himoya qilgan. Ana shu vaziyatda nutq o'sa borgan, chunki mehnat jarayonida odamlarning birgalikdagi ish-harakatlari to'g'risida so'zlashish, tajriba almashish zarur bo'lgan.

Shuningdek, odamning tikka yurishga o'rganishi, butun organizmning shakllanishi bilan birga ba'zi bir organlarning (hiqildoq, o'pka, til..) alohida jismoniy tuzilishi nutq o'sishining zaruriy shartidir. Nutq avval boshdanoq tovush nutqi, noaniq nutq bo'lgan. Xursandlik, og'riq yoki qo'rqish bilan bog'liq bo'lgan shu kabi qichqiriqlar odam ko'krigidan beixtiyor chiqib, atrofdagi odamlarga o'z sherigining qanday ahvolga tushib qolganini bildirgan. Chunonchi, ma'lum tovushlarga muayyan ma'no berilgan. Odam tovush signallari berar ekan, ular orqali ma'lum fikrni bildirgan. Imo-ishora tovush nutqida yordamchi element bo'lgan. Til sekin taraqqiy qilgan. U doim kishilarning tajriba almashish quroli bo'lib kelgan. Vaziyat xilma-xillasha borgan sayin til yanada boyigan. Hislar, munosabatlarni, ish-harakatlarni ifodalash uchun so'zlar bo'lmagan. Bularning hammasi qichqiriqlar va harakatlar bilan ifodalangan. Keyinroq odam o'z hislari va fikrlarini ifodalash uchun tildan foydalanish imkoniyatini topgan. Til tom ma'nosi bilan fikr qurol bo'lib qolgan. Til bo'lmay turib odamlar hozirgi vaqtda ega bo'lgan narsalarga erisha olmagan bo'lur edi.

Tafakkur bilan mahkam bog'langan til noaniq tovush tilidan boshlab to urug'larning keyinchalik qabilalarining aniq tillariga qadar uzoq taraqqiyot yo'lni bosib o'tgan. Qabilaviy tillar o'rnini sinfiy jamiyatlarda xalqlarning tillari egalladi. Munosabatlar rivojlanishi bilan milliy tillar paydo bo'ldi. Neolit davri oxiri va metall asrining boshlariga kelib asosiy til oilalari tarkib topgan. Oxirgi yillarda dunyo xalqlari tillarini quyidagi til oilalariga bo'lish mumkin²⁵:

Hind-Yevropa tillar oilasi (dunyo aholisining 45% so'zlashadi. hind, eroniy, slavyan, boltiq, german, roman, kelt, grek, alban, arman).

Oltoy tillar oilasi (dunyo aholisining 6% so'zlashadi. Markaziy Osiyo xalqlarining tillari, turk, mongol, tungus, manjur va koreyslar tili).

Xitoy-Tibet tillar oilasi. (dunyo aholisining 23% so'zlashadi. Sharqiy Osiyo, Markaziy, Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyoning shimoli: xitoy, tibet-birma, kachin, bodo-garo, midju, digaro, miri, jimal, lepcha vietnam, nevari, gurung xalqlarining tillari.)

Avstroosiyo tillar oilasi (dunyo aholisining 1,6% so'zlashadi. Janubi-Sharqiy, Janubiy Osiyoda: mon-kxmer, kxasi, asliy, nikobar, munda)

Myao-yao tillar oilasi (dunyo aholisining 0,2% so'zlashadi. Sharqiy Osiyoning janubiy rayonlari va Janubi-Sharqiy Osiyoning Shimoli: myao va yao tillari)

²⁵ Ashirov A. Etnologiya. Toshkent. Yangi nashr, 2014.

Janubi-Sharqiy Osiyoda paratay tillar oilasi (dunyo aholisining 1,4% so'zlashadi. tay, kim-suys, ong-be, li, lak, gelaolardan iborat)

Janubi-Sharqiy Osiyoda, Okeaniyada va Tayvanda avstroneziya tillar oilasi (dunyo aholisining 5% so'zlashadi. g'arbiy avstroneziy, sharqiy avstroneziy, atayal, tsou, payvan)

Avstraliya tillar oilasi (22 guruhga bo'linadi)

And tillar oilasi (dunyo aholisining 0,3% so'zlashadi. And tog'i atrofida yashovchi xalqlar: urarina-vaorani, kauapana-saparo, shimoliy, kechua, aymara, janubiy)

Semit-Xamit tillar oilasi (dunyo aholisining 5% so'zlashadi. Shimoliy va Shimoli-Sharqiy Afrika, Arabiston yarim oroli, Suriya, Iordaniya, Iroqda: semit, barbar, chad, kushit).

Nigero-kordofan tillar oilasi (dunyo aholisining 6% so'zlashadi. Garbiy, Markaziy, Sharqiy va Janubiy Afrikada: kongo va kordofan)

Nil-saxara tillar oilasi (dunyo aholisining 6% so'zlashadi. Sharqiy Sudan, Markaziy Sudan, bertlar, kunama, saxar, songai, fur, mabang, komue)

Shimoliy Kavkaz tillar oilasi (dunyo aholisining 0,1% so'zlashadi. abxaz-adigey va naxdog'istonliklar)

Kartvel til oilasiga mansub kishilar Gruziya hududidagina yashashadi.

Dravidlar oilasi (dunyo aholisining 4% so'zlashadi. Hindistonning janubi va Shri-Lankaning sharqi)²⁶.

Hozirgi jismoniy tipdagi odamning yetilishi va urug'-jamo'a tuzumining vujudga kelishi faqatgina ijtimoiy sohadagina emas, balki ibtidoiy kishilar ma'naviy hayotini rivojlanishi uchun katta imkoniyat yaratdi. Ilk urug'chilik tuzumidan boshlab ishlab chiqarish kuchlarining rivojlana borishi bilan bir qatorda, insonda yangi tasavvurlar va tushunchalar paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida kishilarning tafakkuri va tili rivojlanib ularning so'z boyligi ham orta bordi. Yangi-yangi so'zlar paydo bo'lib, ularning ma'naviy mazmuni boydi, so'zlarning bir-biri bilan mantiqiy bog'lanishi natijasida sintaksis ham rivoj topa boshladi.

U yoki bu voqeani, fikrni o'zgalarga tushuntirishda so'zlashuv odamlar orasidagi munosabatning asosiy negizini tashkil eta boshlaydi. Lekin ibtidoiy davrda fikrni anglatishning boshqa bir sodda usuli ham mavjud bo'lib u «signallar tili» deb atalgan. «Signallar tili» da biror xabarni aniq belgilar yordami bilan ifoda qilinadi. Buni Avstraliya, Okeaniya, Afrikadan va boshqa qabila, elatlar hayotidan olingan etnografik materiallar ham tasdiqlaydi. Mahalliy avstraliyaliklar bir joydan ikkinchi joyga ko'chganlarida qumga oyoqlari bilan chiziq chizib, uning uchiga xivich tiqib ketadilar. Chiziqning yo'nalishi va uning uzunligi ketuvchi guruhlarining qaysi tomonga va qancha masofaga ketgaligini bildiradi. Bu mazkur guruhning kechikib qolgan a'zolari va qo'shni guruhlar uchun shartli belgisi edi. «Signallar tili» hozirgi zamon qabila va xalqlar xarakterli bo'lib Shimoliy qabilalar xabar, fikr yoki qandaydir tuyg'uni ifodalash uchun «simvollar tili» yoki «belgilar tili» dan keng foydalanishgan.

Shimoliy Amerika Xindilarida tomagauk (so'yil) yuborish urush e'ron qilishning simbolik belgisi hisoblangan. Tamagauk dushmanga maxsus elchi orqali yuborilgan. Elchi tomagaukni dushman qarorgohiga borib yerga qo'ygan. Agar dushman tomon tomogaukni yerdan ko'tarsa urushga rozi, tomagaukni ko'msa sulh tuzishga moyil ekanligi tushunilgan.

Tarix otasi Gerododning xabariga ko'ra eroniylar skiflarning yerlariga bostirib kelganlar. Shunda skiflar eroniylarga qush, sichqon, qurbaqa va beshta o'q-yoy yuborganlar. Bu ramziy belgining ma'nosi quydagicha edi. «Agar siz eroniylar qush singari osmonga uchmasangiz, sichqon singari kavakka bekinmasangiz yoki qurbaqa singari ko'lga sakrab, suv ostiga yashirinmasangiz elingizga qayta olmaysiz va bizning o'q-yoylarimiz ostida qirilasiz»

²⁶ Ashirov A. Etnologiya. Toshkent. Yangi nashr, 2014. –B. 165-167.

Shunday qilib «signallar tili» va «simvollik tillar» o'z davri uchun muhim madaniy-tarixiy rol o'ynab, iqtisodiy, harbiy va mudofaa ishlarida katta ahamiyat kasb etgan. Tabiiyki ibtidoiy odamning turmush sharoiti o'zi yashab turgan joyni va tevarak atrofni yaxshi o'rganishni taqazo etgan. Odamlar o'z atroflarini o'rab turgan muhitni bilmay turib tirikchilik qila olmas edilar albatta.

2-asosiy savol: Ibtidoiy to'da davri kishilari mafkuraviy qarashlarining manbai.

Darsning maqsadi: Ibtidoiy mafkura qarashlarining shakllana boshlashi. Ibtidoiy odamlarning mafkuraviy qarashlarini tahlil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari: 2.1. Neandertal odamlarda mafkuraviy qarashlarning kurtaklarigina paydo bo'lganligi haqida fikr yuritadi.

2-savol bayoni: Ibtidoiy odamlarning mafkuraviy qarashlarini tiklash ibtidoiy jamoa tarixidagi eng qiyin masalalardan biridir. Neandertal odamlarning qabrlari, murdaning ko'milishi holatini o'rganish hozirgi zamonda bu masalani o'rganishda yordam beradi. Neandertal odamlar qabrlari, suyaklari qoldiqlari yerning turli qatlamlaridan topilgan, bu albatta to'rtlamchi davrning ilk bosqichlaridagi intensiv tektonik jaryonlar bilan bog'liq. Bizning davrimizgacha saqlanib, yetib kelgan qadimgi odamlarning qabrlari va suyak qoldiqlari asosan xavf-xatarsiz yerlardan topilgan. Ular ashel va muste davrlarida yashagan neandertal odamlarga tegishlidir. Shunday qadimgi odamlar suyaklar qoldiqlaridan 20 ga yaqini topilgan. Arxeologlar va antropologlar bu qabrlarning tuzilishi, skeletlarning holatlarini chuqur o'rganib, bu skelet egalari neandertal odamlar ma'lum bir marosim, g'oyaviy yo'nalishga ega bo'lgan jamoa tomonidan ko'milgan degan xulosaga kelishgan. Bunday qabrlar, suyaklar qoldiqlari asosan uzoq chet joylardagi g'orlardan topilgan. Qabrlar uncha chuqur bo'lmagan madaniy qatlamlardan yoki o'yib qazilgan tosh chuqurlar ichidan topilgan. Topilgan skeletlar yon tomoni bilan uxlayotgandek qilib yotqizilgan. Tuproq tortib ko'milgan. Nega neandertal odamlar marhumlarni ko'mganlar? Bu savol ko'pgina tadqiqotchilar diqqatini o'ziga tortgan va tortishuvlarga sabab bo'lgan. Ayrim olimlar neandertal odamlar qabrlarini o'rganib marhumga qilingan g'amxo'rlikni, o'lim vaqtinchalik holat qayta turiladi deb o'ylashgan deb sharxlashadi. Shuningdek murdani ko'mishni sanitariya maqsadida yoki murdani yeb qo'yishidan tiyilish maqsadida ham amalga oshirilgan deb hisoblashgan.

Suyaklar qoldiqlari sharqdan g'arbga qaratib yotqizilganligi hammaning diqqatini o'ziga tortadi. Bu quyoshning sharqdan g'arbga tomon o'tishi bilan bog'liq bo'lsa kerak. A.P. Okladnikov bu qabrdagi suyak va toshlarning joylashuvini qiyoslab o'rganib, Teshiktosh odami quyoshga topingan bo'lsa kerak degan fikrni bildirgan. Ko'pgina olimlar neandertal odamlarning so'nggi davrlardagi qabrlari oddiy diniy tasavvurlar paydo bo'lganini ko'rsatadi degan fikrga kelganlar. Eng yangi arxeologik topilmalar ham neandertal jamoalarda diniy kurtaklar paydo bo'lganini tasdiqlamoqda. Demak, neandertal odamlarda mafkuraviy qarashlarning kurtaklarigina paydo bo'lgan, xolos. Neandertal odamlar jamoasida murakkab ko'mish marosimlari, ruh, xudo, o'limdan keyingi hayot haqida tasavvurlar bo'lmagan.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Inson «Aql-idrokli odam»ga bundan qancha yil ilgari aylangan?
2. «Aql-idrokli odam» miyasi, «Ishbilarmon odam» miyasidan necha barobar katta bo'lgan?
3. Shakllanayotgan odamlarning mehnat qurollari va ovqat topish usullari qanday bo'lgan?
4. Ibtidoiy gala davri qachongacha davom etgan?

5. «Pitekanthrop», «Sinantrop», «Geydelberg» odamlari antropogenez jarayonining qaysi bosqichiga kiradi?
6. Tadqiqotchilar ibtidoiy odamlar tafakkur va nutqining taraqqiy etishidagi necha bosqichni ajratib ko'rsatadilar?
7. Hislar, munosabatlarni, ish-harakatlarni ifodalash uchun so'zlar bo'lganmi?
8. Qabilaviy tillar o'rnini sinfiy jamiyatlarda qanday tillar egalladi.?
9. Asosiy til oilalari qachon tarkib topgan?
10. Neandertal odamlarning qabrlari, murdaning ko'milishi holatini o'rganish orqali qanday masalani yechishga yordam beradi?
11. Arxeologlar va antropologlar bu qabrlarning tuzilishi, skeletlarning holatlarini chuqur o'rganib, qanday xulosaga kelishadi?
12. Bunday qabrlar, suyaklar qoldiqlari asosan qayerlardan topilgan?
13. Nega neandertal odamlar marhumlarni ko'mganlar?
14. A.P.Okladnikov Teshiktosh odami qabridagi suyak va toshlarning joylashuvini qiyoslab o'rganib, qanday xulosaga keladi?

7- MAVZU: ZAMONAVIY TIPDAGI ODAMNING PAYDO BO'LISHI

Asosiy savollar:

1. Antropogenez jarayonining shakllanishi va hozirgi jismoniy qiyofadagi odamlarning vujudga kelish bosqichlari.
2. Zamonaviy odamning vujudga kelish joyi va vaqti. Irqlarning paydo bo'lishi va sabablari, ahamiyati.
3. Homo sapiensning kelib chiqisi: zamonaviy talqin

Tayanch tushuncha va iboralar: hozirgi jismoniy tipdagi odam neantrop "yangi odam" va dastlabki odamzod irqlarining vujudga kelishi. O'zlashtiruvchi xo'jalik bosqichlari. Ibtidoiy jamoaning yangi shakllari. Jamoada oilalarning o'rni. Ovchilik, baliqchilik va termachilik xo'jaligi. Homo sapiensning kelib chiqisi.

1-asosiy savol: Antropogenez jarayonining shakllanishi va hozirgi jismoniy qiyofadagi odamlarning vujudga kelish bosqichlari.

Darsning maqsadi: Talabalarda urug'ning vujudga kelishi va dastlabki irqiy farqlarning paydo bo'lishi masalasi haqidagi bilimlarni shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadlari: 1. Talabalarda urug'ning vujudga kelishi masalasi bo'yicha ilmiy dunyoqarash va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

1-savol bayoni: So'nggi paleolit vyurm muzlanish davriga oid deb hisoblanadi. Vyurm muzliklari riss muzliklariga qaraganda kichikroq territoriyani egallagan bo'lsada, lekin muzliklar boshlanishi bilan birdan qattiq sovuq tushgan. Sharqiy Yevropa, Osiyo va Afrikada iqlim quruq va sovuq iqlimga aylangan. Madlen davrida eng sovuq iqlim bo'lgan.

So'nggi paleolit turar-joylari Yevropa va Osiyoda ko'proq o'rganilgan. Yevropaning Atlantika bo'yi qismidagi muzliklarga yaqin bo'lgan oblastlari uchta izchil arxeologik madaniyat orinyak, solyutre va madlen madaniyatlari bilan ko'rsatiladi. Orinyak madaniyati bilan bir zamonda prigor madaniyati (Frantsiyaning Perigor g'orlaridan topilgan), grimaldi madaniyati, kostyonka madaniyati (Voronej) mavjud bo'lgan. Sibir turar joylari Malta (Oq daryoda) va Buret (Angora daryosi) zamon jihatdan solyutre madaniyatiga, Afontov tog'i turar joyi (Krasnoyarsk yonidagi Yenisey daryosi bo'yida) madlenga muvofiq keladi. Sahroi Kabirda Tassili platosida madlendagi garpunlarga o'xshash garpunlar topilgan.

So'nggi paleolitga xos xususiyatlar shuki unda shakl jihatidan xilma-xil, ishlanishi bo'yicha ancha takomillashgan mehnat qurollari mavjud bo'lgan. Bu qurollar ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishidagi sakrashni ko'rsatadi. Yuqori paleolit turar joylarida keskichlar, tarashlagichlar, yo'ng'ichlar, pichoqlar, teshgichlar, tig'lar, nayzalarning uchlari, changak,

nayzalar, garpunlar, ko'zli ninalar, teshikli suyak hassalari kabilalar topilmoqda. Yuqorida sanab o'tilgan qurollardan faqat turli-tuman xildagi ikkita qurol keskichlar va tarashlagichlar eng muhim qurollar bo'lgan. Odamlar keskichni qurollar ishlab chiqarish uchun yaratishgan. Tarashlagichlar bilan yumshoq materiallar (teri, yogoch)ga ishlov berilgan.

Ba'zi bir qurollarning qulay bo'lishi uchun ularga sop, dasta o'rnatishgan. Shu tariqa tarkibli qurollar paydo bo'lgan. Toshga ishlov berish texnikasi ancha ilgari ketdi. Masalan: nukleuslar mustedagi disksimon nukleuslar o'rniga prizmasimon shaklga kirgan. Qurollar ishlashning yangi usuli siqma retush keng yoyiladi. Siqish texnikasi toshni ingichka suyak tayoqcha bilan sekin, bosib, undan yupqa tangachalar ajratib olishdan iborat. Qurollar yasashda hayvon suyaklari va shoxlaridan keng foydalana boradi. Solyutreda davrida siqma retush yuqori darajada takomillashgan. Masalan: dafna bargisimon nayza uchlari.

Madlen davrida siqma retush yo'q bo'lib ketadi va suyak qurollarning ko'p bo'lishi, mayda keskichlar va garpunlar bilan harakterlanadi. So'nggi paleolitda ovchilik va terib-termachlash tirikchilik manbalari bo'lib qolavergan. Baliq ovlash yuzaga kelgan. Qarmoq va to'r bo'lmagan. Manzillarda yashovchi odamlar yegan hayvonlarning soniga qaraganda ovchilik muvaffaqiyatli bo'lgan. Masalan: Prjedmostda (Chexoslovakiya) 1000ga yaqin mamont suyaklari, Amrosievkada (Ukraina) 1000 ta bizon, Solyutreda 10 ming ot suyaklari topilgan. Yalpi uyushqoqlik bilan haydab qilingan ov mustedagiga nisbatan ancha unumli bo'lgan. Hayvonlarni faqat jarliklarga va botqoqlarga emas, balki oldindan qazib qo'yilgan chuqurlarga olov yordamida haydab kelishgan.

Mehnat unumdorligining osha borishi tufayli aholining zichligi orta borgan. Hayvonlarning qirg'in qilib bitirilishi sababli odamlarning ovchilik uchun yangi rayonlarni o'zlashtirishlariga to'g'ri kelgan. Shu tufayli ular shimol tomonga siljib borishga majbur bo'lishgan. Keyingi paleolit odamlari g'orlardan turar joylar tariqasida foydalanishgan. Tabiiy sharoitiga qarab bostirma va kapa chaylalarda ham yashaganlar. Haydab ov qilish, aholining ko'payishi, mehnat qurollarining takomillashishi hayvonlarning qirilib, kamayishiga olib keldi. Ovchilik uchun yangi yerlar kerak edi. Shimolga siljiy bordilar. Paleolit manzilgohining eng shimoliysi Pechoradadir. Keyin paleolitda odamlar Osiyodan Bering bo'g'ozi orqali Amerikaga kirib borganlar.

Neantropalar o'zlarining jismoniy va aqliy qobiliyatlari bilan eng qadimgi va qadimgi odamlardan tubdan farq qilar edilar. Shuning uchun ham uni «aql-idrokli» odam - homo sapiens, deb ataganlar. Ular o'zlarining tashqi qiyofasi jihatidan hozirgi zamon odamlariga juda o'xshab ketadi. Mutaxassislarning fikricha Neantropalar bundan 40-35 ming yil muqaddam so'ngi tosh asrining boshlarida paydo bo'lgan va keng tarqala boshlaganlar. Ularning skletlari, suyak parchalari, moddiy-madaniy qoldiqlari Afrika, Yevropa va Osiyoning ko'pgina joylaridan topilgan. Aql-idrokli odamlar dastlab O'rta yer, Qora, Kaspiy dengizi va unga tutash bo'lgan joylarda paydo bo'lib, shu yerdan Markaziy, Sharqiy. Janubiy-Sharqiy Osiyoga, Sharqiy, Janubiy Afrikaga, G'arbiy va Janubiy Yevropaga tarqalganlar. Neantropalar tarqalgan joylar shartli ravishda quyidagi geografik o'lkalarga bo'linadi.

1. Yevropa muzlik o'lkasi. 2. O'rtayer dengizi o'lkasi. 3. Janubiy Afrika o'lkasi. 4. Sibir-mo'g'ul o'lkasi. 5. Hind-gimolay o'lkasi. 6. Malaya provinsiyasi - (janubiy Xitoy, hindi-xitoy yarim oroli va uning atroflari) o'lkasi.

Mazkur joylardan neantropalar qoldirgan juda ko'p manzilgohlar, manzilgohlardan esa ular qoldirgan moddiy-madaniy qoldiqlar va o'sha madaniyatni yaratgan kishilarning suyak qoldiqlari, butun-butun skletlari ko'plab topildi va topilmoqda. Bu tip odam miya qutisining hajmi 1400-1560 sm³ ga teng bo'lib, peshonasi keng, bosh suyagining yuqori qismi ancha baland bo'lgan. Ularda boshning tepa qismi, ikki chekka, ayniqsa peshona kattalashgan edi. Unda qosh-qovoq usti qabartma suyagi yo'q bo'lib, pastki jag'ida bizniki kabi do'mboq iyagi bo'lgan. Neantropalarning yuz tuzilishi neandertallarga nisbatan chiroyliroq bo'lgan. Bu davr

kishilarining qaddi-qomati hozirgi zamon odaminiki singari bo'lib, to'ppa-to'g'ri yurganlar. Ularning qo'l-oyoqlari, tana tuzilishi bir-birlariga mutanosib bo'lib, tez chopa olgan, mo'ljalni to'g'ri ura olgan. Agar neantrop bilan hozirgi zamon odamining suyaklari bir-biriga qiyos qilinsa, ularni jismoniy tuzilishi jihatidan bir-biriga o'xshashligini ko'rish mumkin. Shunday qilib so'nggi paleolitning boshlariga kelib neandertallardan hozirgi jismoniy tipdagi odam paydo bo'ldi va shu bilan antropogenez jarayoni asosan tugallandi, odam o'z biologik rivojlanishini yakunladi. Bu tarixiy jihatdan urug'chilik tuzumining ilk bosqichi edi.

2-asosiy savol: Zamonaviy odamning vujudga kelish joyi va vaqti. Irqlarning paydo bo'lishi va sabablari, ahamiyati.

2-asosiy savol bayoni: Aqlli odamning kelib chiqishi haqida fanda 2 xil gipoteza bor.

1. *Politsentrizm gipotezasi.* Bu gipotezaga ko'ra, aqlli odam yer yuzining bir qancha joylarida turli xil ajdodlardan kelib chiqqan. hozirgi vaqtda odamning bir nechta irqi bor. Shunga asoslanib, bir grupp olimlar irqi o'rtasidagi farqlar hozirgi zamon odamiga oid belgilarga nisbatan qadimiydir deydi va hozirgi zamon odami birdaniga bir qancha markazdan kelib chiqqan, deb ko'rsatadilar. M: Veydenrayx fikricha, hozirgi odam 4 ta markazdan kelib chiqqan: 1. Avstraliyaning mahalliy xalqi Janubiy-Sharqiy Osiyodagi pitekanthropdan; 2. Mongoloid va Amerika irqining vakillari Sharqiy Osiyodagi sinanthropdan; 3. Negr va bushmenlar Janubiy Afrikadagi rodeziya odamidani; 4. Janubiy-G'arbiy Osiyodagi Palestin odamidani Yevropa irqiga oid odamlar kelib chiqqan deydi.

Amerika antropologi K.Kuk hozirgi zamon odami 5 markazdan, vengr antropologi A.Tom 3-4 markazdan kelib chiqqan deydi.

Rus olimlari P.I.Boriskovskiy, G.F.Debets, G.P.Grigorev, Yu.M.Semyonovlar ham odam ko'p markazdan kelib chiqqan, degan politsentrizm gipotezasini himoya qiladilar.

2. *Monotsentrizm gipotezasi.* Bu gipotezaga ko'ra, hozirgi odamlar bir joyda, bir ajdoddan kelib chiqqan. Rus olimlari M.G.Leven, V.P.Yakimov, Ya.Ya.Roginskiy va boshqalar bu gipotezani himoya qiladilar. V.P.Yakimovning fikricha, Yevropada tarqalgan neandertal odam ikki yo'nalishda taraqqiy etgan. Birining bosh miyasi sifat jihatidan, ikkinchisining bosh miyasi miqdor jihatidan o'zgargan. Bosh miyasi sifat jihatidan o'zgarganlaridan hozirgi zamon odamlari kelib chiqqan, deb uqtiradi. Keyingi paytlarda olimlar ana shu 2 ta gipotezani uyg'unlashtirib keng monotsentrizm gipotezasini ishlab chiqmoqdalar.

Shuni aytish kerakki, keyingi yillarda paleantrop va neantrop orasida oraliq formalar suyagining qoldig'i Sharqiy O'rta Yer dengizi, Old Osiyoning bir qancha joylarida topilgan. Mana shu dalillarga asoslanib, rus antropologi Ya.Ya.Roginskiy aqlli odam (homo sapiens) yagona ajdoddan kelib chiqqan, degan fikrni ilgari suradi.

Turli davrlarda qazilma holda uchragan odamlar suyagining qoldig'ini o'rganish vaqt o'tishi bilan odamlarning tashqi qiyofasi chiroqli uzun bo'lyi bo'lganligi kalla skeletining yuz qismi kichik, miya qismi katta, peshona, qosh do'ngliklari rivojlanganligi, ensasi oldinga chiqqanligi nutq taraqqiy etganligini ko'rsatadi. Tik yurish, tayanch vazifasidan ozod bo'lish xilma-xil harakatlar bajarish, qurollar yasash organiga aylanganligida, nutqning taraqqiy qilishida va jamiyatning tashkil topishida mehnat hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Odam irqlarining paydo bo'lishi. Hozirgi vaqtda yer yuzida 6 milliarddan ortiq odam yashaydi. Ularning hammasi bitta biologik tur – homo turiga kiradi. Odamning kelib chiqishi, rivojlanishi, turli irqiarga mansub odamlarning bir-biri bilan cheksiz ravishda

qo'shilish va ko'payish qobiliyati, barcha vakillarning jismonan va aql–idrok jihatdan bir xilligidan dalolat beradi.

Kromononlardan kelib chiqqan odamlar bir necha o'n ming yillar o'tib, zamonaviy odamlar butun yer yuzasida keng tarqalib ketgan. Mana shu uzoq muddat mobaynida kromononlarning avlodlari juda xilma-xil iqlim sharoitiga tushib qolgan va turli-tuman tabiiy omillar ta'siriga uchragan. Bu muayyan geografik oblastlarda yashab turgan insonlarning tashqi qiyofasiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Shuning natijasida turli qit'alarining har xil zonalarida yashaydigan odam guruppalari terisi va ko'zlarining rangi, sochining tipi va rangi, burnining, labining, yuzining va boshining shakli, bo'yining uzunligi va proportsiyasi singari jami belgilari bilan bir-biridan ancha boshqacha bo'lib qolgan. Mana shu gruppalarning hammasini 3 ta katta irqqa birlashtirsa bo'ladi:

1. Negroid – Avstraloid yoki Ekvatorial irq. Bu irqni ko'pincha negroid irq deb yuritiladi.
2. Yevropeoid yoki Yevropa – Osiyo irqi. Bu irqni ko'pincha yevropeoid irq deb ataladi.
3. Mongoloid yoki Osiyo – Amerika irqi. Bu irqni ko'pincha mongoloid irq deb yuritiladi.

Bu irqarning har birini xarakterli belgilari quyidagilardan iboratdir:

1. Negroid irqi yoki negroid – avstraloid yoki ekvatorial irq vakillari uchun quyidagi belgilar xarakterlidir: teri, soch va ko'zlarining rangi qora bo'lishi. (“Odam irqdari o'rtasidagi bog'lanish sxemasi”. Ya.Ya.Roginskiy va M.G.Levinlar, 1978 bo'yicha). Sochlarning spiralga o'xshab buralgan yoki jingalak bo'lishi, burun qanotlarining serbar – keng puchug'roq bo'lishi, lablarning qalin bo'lishi, soqol va mo'ylovlari yoki sust (negrlar-afrikada) yoki kuchli (Avstraliyaliklarda) taraqqiy qilgan bo'lishi mumkin. Bu irq quyidagi kenja irqdarga bo'linadi: Avstraliya, Melaneziya, Negr, Negrill, Bushmen kenja irqdarga bo'linadi. Bundan tashqari, Yevropeoid irqi bilan efiopiya va janubiy hind kenja irqdarga bilan, mongoloid irqi bilan kuril va polineziya kenja irqdarga bilan bog'likdir. Keyingi paytlarda ba'zi olimlar bu irqni 2 ta mustaqil irqqa: negroid irq va avstraloid irqqa bo'ladi. Shunga ko'ra, irqdarga 3 ta emas, balki 4 tadir: Negroid Avstraloid, Yevropeoid va Mongoloid.

2. Yevropeoid irqi yoki Yevropa – Osiyo irqi vakillarida teri rangi oqdan jigarrangacha boradi, sochlari yumshoq, to'g'ri yoki jingalak, sochining rangi xilma-xil ochiq sarg'ishdan qoragacha bo'ladi. qirrali va tor burunli, soqol va mo'ylovlari ba'zan kuchli taraqqiy etgan bo'ladi. Bu irq 5 ta kenja irqqa: atlanto-bolting, o'rta evropa, hind o'rta er dengizi, oq dengiz – bolting, bolqon – kavkaz kenja irqdarga bo'linadi, bundan tashqari negroid irqi bilan efiopiya va janubiy hind kenja irqdarga orqali, mongoloid irqi bilan janubiy hind kenja irqdarga orqali, monogloid irqi bilan janubiy Sibir va Ural kenja irqdarga orqali bog'liq bo'ladi.

3. Mongoloid irqi yoki Osiyo – Afrika irqi vakillarining terisi sarg'ish, bug'doy rang yoki tiniqroq, qirg'iz yoki bodom qovoq, sochi qattiq va to'g'ri hamda qora rangda, soqol va mo'ylovlari keng va sust taraqqiy etadi, yonoqlari bo'rtib chiqqan, lab va burunlari o'rtacha qalinlikda, yuqori qovog'ining burmasi kuchli taraqqiy qilgan bo'lib, ko'zlarining ichki burchagini qisman yoki batamom bekitib turadi, burnining qanshari past bo'ladi. Bu irq doirasida Amerika, Janubiy Osiyo, uzoq Sharq, Arktika, Shimoliy Osiyo kenja irqdarga farqlanadi. Bundan tashqari, bu irq negroid irqi bilan quril va polineziya kenja irqdarga orqali, Evropeoid irqi bilan Ural va janubiy Sibir kenja irqdarga orqali bog'liqdir.

Demak, odam – *homo sapiens* turi 3 ta katta irqqa va 22 ta kenja irqqa bo'linadi. Irqlar bir-biri bilan bog'liq deb ta'kidlangan bo'lib, aralash yoki qurama kenja irq deb ataladi. Bu

aralash kenja irqar 2 ta irq belgisini o'zida namoyon qiladi. Masalan, Ural kenja irqi mongoloid va evropeoid irqarining aralashmasidir.

Nima sababdan odamlar o'rtasida bunday farqlar paydo bo'lgan. Irqlarning kelib chiqishi juda murakkab tarixiy protsess hisoblanadi. Rus olimi Ya.Ya.Roginskiy fikricha, hozirgi zamon odami shakllanishi jarayonida, ya'ni 100 ming yillar oldin, uning vatani hisoblangan Osiyo va Afrika, Yevropaning unga yaqin oblastlarida ikki irq – g'arbiy-janubiy irq, shimoliy-sharqiy irqar shakllangan. Bu irqar Himolay va Hindikush tog' tizmalari bilan bir-biridan ajralib (geografik alohidalanish) turgan.

Shu tarmoqlarning birinchisi – g'arbiy irqdan va negroid irqari paydo bo'lgan. Ikkinchisi, shimoliy-sharqiy irq tarmoqlaridan biri Amerikaga o'tib tarqalgan. Irqlar o'rtasidagi farqlar iqlim sharoitlari, fizik, geografik muhit, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning kompleks ta'siri tufayli kelib chiqqan. Yevropeoidlar “oqtanlilar” deb ataladi va “oliy” irq hisoblanadi, degan nazariya reaksion nazariya hisoblanadi. Bu nazariyaga ko'ra, “oliy” irq vakillarining bosh miyasi katta va yaxshi ishlaydi. Ular madaniyatli, yaratuvchi, jamiyatni boshqaruvchi kishilardir. Mongoloidlar va negroidlar esa aqli past kishilar, deb da'vo qiladilar. Bu fikrlar asossizdir. Masalan, bantu negrlari – bosh miyasining o'rtacha vazni 1422 g inglizlarniki – 1456 g fransuzlarniki – 1473 g polineziyaliklarniki – 1475 g hindlarniki – 1514 g buryatlarniki – 1584 g eskimoslarniki – 1581 g ekan. Bosh miya hajmiga qarab odam qobiliyatini aytib bo'lmaydi. Masalan, Turgenevning bosh miya hajmi - 2021 g, mashhur yozuvchi Anapi Frannsniki – 1017 g kelar edi. Aslida irqchilik urushlarni, mustamlakachilikni, ishsizliklarni himoya qilish maqsadida sun'iy yaratilgan nazariya hisoblanadi.

XVIII asrdayoq nemis tarixchilaridan Meyners kavkaz irqi mongol irqidan, kelt irqi slavyan irqidan yuqori turadi, deb aytgan edi. XIX asrda Gobino degan olim oq irqarni barcha irqardan yuqori qo'yadi. Lents va Gyunterlar shimoliy Yevropa irqarini iste'dodli, kishilik jamiyatining barcha madaniy meroslarini yaratgan irq, deb maqtaydi. Irqchilik ikkinchi jahon urushidan oldin Germaniya, Italiya, Yaponiya kabi mamlakatlarda keng tarqaldi. Bu bilan ular bo'lingan jahonni qayta bo'lish, o'zga xalqlarni qul qilish niyatlarini yashirmoqchi bo'ldilar. Hozirgi paytda irqchilik Janubiy Afrika Respublikasida avj olgan.

Odamzod paydo bo'lganidan yer yuzida tarqalgan. Yangi joylarning ob-havosi hammaga ham bir xil ta'sir etmasdi. Issiq Afrikada quyosh haddan tashqari qizdirib, oq tanlilarga salbiy ta'sir ko'rsatgan, shimolda esa qora tanlilarga sovuq salbiy ta'sir ko'rsatgan. Aksincha, issiq qora tanlilarga, sovuq oq tanlilarga moslanishni yuzaga keltirgan.

Masalan, tana terisining qora rangi – qora pigmentatsiyasi quyoshning ultrabinafsha nurlariga qarshi organizmlarning himoya moslamasi sifatida paydo bo'lishi mumkin, jingalak sochlarda issiqdan saqlaydigan havo qatlamlari bo'ladi. Yevropoidlarning och rangli terisi ultrabinafsha nurlarni o'tkazadi va shu yo'l bilan odamni raxit kasalligidan saqlaydi. Tor qirra burun nafas olishga olinadigan havoni tor joydan o'tkazib isitadi. Aqliy qobiliyat, tafakkur, nutq jihatdan olganda, har xil irqar o'rtasida hech qanday muhim farq yo'q, barcha irqar biologik jihatdan bir-biriga teng.

Ayrim olimlar sinantroplardan irqar paydo bo'la boshlagan, deydilar. Ko'pchilik olimlar esa irqar bundan 180 ming yil oldin paydo bo'lgan deydilar. Shuni etiborga olish kerakki, hozirgi zamon irqari bir-biriga aralashib ketgan, boshqacha qilib aytganda, hech qanday sof irq yo'q. O'zgarmaydigan irqiy belgilar ham yo'q. Odamlar qaysi irqqa va qaysi millatga mansubligidan kat'iy nazar, ularning turmushi va ongi bir-biriga yaqin bo'ladi.

Hozirgi zamon odamlari irqi va millatidan qat'iy nazar bitta biologik tur – Homo sapiens turiga mansub ekanligini ko'rsatadi.

Yevropada so'ngi paleolitda paydo bo'lgan Kro-manon tipidagi odamlar yevropoid irqining tipik vakili hisoblanadi. Baland bo'ylik, kalla suyagining cho'ziqligi, qovoq usti qabartma suyagining yo'qligi, keng yumaloq yuzlilik, pastki jag'ning to'laligi va iyakning yaxshi rivojlanganligi yevropoid irqining o'ziga xos xususiyatidir. Yevropoid irqining asosiy belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bosh suyaklari franstiyaning Kro-Manon, Shanselad, Komb-Kapell, Orinyak, Angliyaning Paviland, Italiyaning Kavilon, Barma Grande, Bausso ds-Torre, Shimoliy Afrikaning Afalu-bu-Rummel, Maktaal-Arbi, Assillar, sobiq SSSrning Voronej shahri yaqinidagi Kostenka, Qrimdagi Murzak-Koba, Fotma-Koba, Yaqin va O'rta Sharqdagi bir qancha joylardan topilgan va o'rganilgan.

Lekin yevropoidlar asosan Yevropada shakllanib kengroq tarqalgan. So'ngi poleolitda yevropoid irqidan tashqari negroid irqining ham bo'lganligi fanga ma'lum. Bu irq vakillari Kromanonlardan bo'y-bastining pastligi bilan va boldirlarining uzunligi, basharalarining yapaloqligi, tishlarining so'yoqligi, sochlarining qora, jingalakligi va iyaklarining o'rtacha taraqqiy qilganligi bilan ajralib turadi. Negroid irqining vakillari Italiyaning Grimaldi, Saxroyi Kabirdagi Asselyar, Kostenkadagi Markina gora, Palastin va O'rtaer dengizi xavzasidagi ba'zi joylardan ko'plab topilgan.

So'ngi poleolit davrida Markaziy Osiyo, Sibir va uncha tutash bo'lmagan joylarda mongoloid irqiga mansub bo'lgan odamlar yashagan. Bu irq vakillari yuz bichimining kattaligi, oldinga tomon chiqib turishi, yonoqlarining o'siqligi yon tomonga biroz bo'rtib chiqib turishligi shu tufayli yuzning yapaloqroq bo'lishi, ko'zning biroz qisiqligi, yuqori qovoq burmasining kuchli rivojlanganligi burunning o'rtacha kenglikda bo'lishi va qansharning pastligi bilan xarakterlanadi.

Mongoloid irqi vakillarining qazilma suyaklari Krasnoyarskdagi Afontova Gora P, Pekin yaqinidagi Chjoukoudyanning yuqori g'oridan topilgan. Keyingi vaqtda Uzoq Sharq, Sharqiy Sibir, G'arbiy Sibir, Mongoliya, Xitoy va boshqa joylardan mongoloid irqiga mansub bo'lgan juda ko'p kalla suyaklari, butun-butun skletlari topildi va topilmoqda. Shuni nazarda tutish kerakki, mazkur qadimgi irqlar hozirgi zamon irqlariga nisbatan bir-birlaridan uncha ko'p farqlanmaganlar. Biroq so'ngi poleolit odamlarining ayrim vakillarida har xil irqqa oid alomatlar paydo bo'la boshlagan. Mutaxassislarning aniqlashicha ibtidoiy jamiyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida turli odamlar yashab turgan tabiiy sharoit, geografik muhit muhim ahamiyat kasb etgan. Antropolog Ya.Ya. Roginskiy negroid irqini odamlarning ilk davrdan boshlab janubiy kengliklarida issiq, serquyosh o'lkalarda yashaganligi bilan bog'laydi. Arxeolog S. A. Semenov mo'g'ul irqidagi bo'rtgan qovoq, epikantus va qisq ko'zlarining dastlab paydo bo'lishida tabiiy muhitning katta rol o'ynaganligini isbotlab bergan. Markaziy Osiyo va unga shimol tomondan yondoshgan Sibirning arktik rayonlari mo'g'ul irqi dastlab paydo bo'lgan o'lkalardir. O'z-o'zidan ravshanki, Markaziy Osiyo uchun uzoq davom etadigan qattiq shamollar va kuchli qor hamda qum bo'ronlari xarakterlidir. Bu bo'ron va shamollar to'xtaganda esa havo toza, tiniq bo'lib, quyosh butun nurini sohib turgan, hamda ko'zni kattaroq ochib yurishga imkon bermagan. Shu tufayli mazkur joydagi aholida mo'g'ul irqiga xos bo'lgan qisq ko'zlilik va qalin qovoqlilik alomatlari paydo bo'la boshlagan.

Shunday qilib, irqlar va irqiy ayirmalar bir necha o'n ming yillar davomida mahalliy sharoitlarning odam tashqi qiyofasiga ta'siri ostida shakllana borgan va rivojlangan hamda nasldan naslga o'tgan. Hozir yer yuzida yevropoid, negroid va mongoloid irqlarining shahobchalari keng tarqalgan.

Negroid irqi-qora irq ham deb yuritilgan. Ular asosan Afrika, Avstraliya va Okeaniyada keng tarqalgan. Ularning soni 300 million kishidan oshiq bo'lib, jahon aholisining 10% ni tashkil qiladi.

Yevropoid irq, jonli tilda uni «Oq irq» deb ham ataladi. Mazkur irq vakillari 1750 millionga yaqin bo'lib, yer aholisining 53% ni tashkil qiladi.

Mongoloid irq, uni sariq ham deyishadi. Mongoloid irqining vakillari Osiyo, Amerika va Okeaniyada keng tarqalgan bo'lib ularning soni 1,220 million kishidan oshiq bo'lib, yer yuzi aholisining 37% ga yaqinini tashkil etadi.

4-asosiy savol: Homo sapiensning kelib chiqishi: zamonaviy talqin.

Darsning maqsadi: Zamonaviy paleontologiyada Homo sapiensning kelib chiqishini o'rganish.

Identiv o'quv maqsadlari: 4.1. Talabalarda bashariyatga hurmat hissini rivojlantirish.

4-savol bayoni: Homo sapiensning kelib chiqishi va yer yuzida tarqalishida ikki nazariyani ilgari suradi. Bulardan biri "Out of Africa" («Afrikadan tarqalish») nazariyasi bo'lib, bunga ko'ra, hozirgi zamon aqlli odamlari Homo sapiens 150-200 ming yil oldin umuman yangi tur sifatida Afrikada paydo bo'lgan va ular Afrikadan boshqa qit'alarga ko'chishi tufayli yer yuziga keng tarqalgan. Bunda Homo sapiens qadimgi odam turlari Homo neandertalesis va Homo erectus populyatsiyalarini siqib chiqarib, ularning o'rnini egallagan. Ikkinchi nazariya «multimintaqaviy model» deb atalib, odam ajdodlari ancha qadimiy va xilma-xil ildizga ega, degan g'oyani ilgari suradi. Mazkur nazariya tarafdorlari odam ajdodlari bundan ikki million yil avval Afrikadan ko'chishi vaqtida boshqa qit'alarga tarqalgan va «joylarda» kechgan tadrijiy jarayonlar natijasida hozirgi odamga aylangan.

1950-yillardayoq genetikaning rivojlanishi bilan turli hudud va mamlakatlardagi odam populyatsiyalari qon gruppasiga va ularni belgilovchi oqsillarga ko'ra farqlanishi ko'rsatib berilgan, bunday tahlillar yordamida odam populyatsiyalaridagi genetik xilma-xillikni o'rganish ishlari boshlab yuborilgan edi. 1987-yili Kaliforniya universiteti olimlari R.Kann va A. Vilsonlar tomonidan faqat onalik hujayralari tomonidan irsiylanadigan hujayra organellalari -mitoxondriyalar DNKsi (mtDNK) analizi ishlab chiqildi hamda uning yordamida turli odam populyatsiyalari tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, turli populyatsiyalarga mansub odamlar tarixan bundan 200 ming yil oldin yashagan yagona afikalik ayoldan tarqalganligi aniqlandi va shu kashfiyot obrazli qilib "Mitochondrial Eve" ("Momo havo mitoxondriyasi") deb nom oldi²⁷. Tadqiqotchilar ikki guruh odamlar mtDNK mutatsiyalar soni farqiga (soat millari) qarab bu odamlarni genetik kelib chiqish shajarasini, yoshini va qarindosh - ajdodlarini aniqlay olishadi.

Odam kelib chiqishining genetik tarixini o'rganishda yana bir dastlabki DNK texnologiyasi erkaklardagi U-xromosoma DNKsi (bir necha milliondan ortiq nukleotid ketma-ketliklaridan iborat) tahliliga asoslangan bo'lib, mtDNK tahliliga nisbatan (16 ming nukleotidli) bir necha bor ko'p mutatsiyalarni tekshirish imkonini beradi. Y xromosoma erkaklardan irsiylanganligi uchun uni obrazli qilib "Y-sg1Gotozota1 AsGat" ("Odam Ato Y-xromosomasi") deb ataladi. Odam populyatsiyalari olib borilgan xromosoma DNKsi tahlillari natijasida, yer yuzidagi barcha erkaklar bundan 60 ming yil avval yashagan yagona afrikalik erkakdan tarqalganligi g'arb genetik olimi Spenser Vells va uning izdoshlari tomonidan kashf

²⁷ Fan va turmush. 2008 y. №3-4-5-sonlar. – B. 59-60.

qilindi. Odam Ato va Momo havo genetik markerlari bilan olingan molekulyar soat natijalari o'rtasida bir oz nomutanosiblik bo'lsa-da, bu molekulyar DNK tahlillari odam genomi uchun eng kuchli analitik qurol hisoblanadi va undan olingan natijalar aqlli zamonaviy mavjudot Homo sapiensning kelib chiqishidagi "O ut of Africa" modelini to'la tasdiqlaydi.²⁸.

Bunday tahlillar, turli xalq va elatlarning kelib chiqishi va taraqqiy etishi tarixini ochib berishda ham juda qo'l keldi. Shunday bo'lsa-da, turli arxeologik qazilmalarning anatomik tahlili qadimgi va zamonaviy odamlar o'rtasida o'zaro duragaylanish bo'lganligiga ishora qiladi.

Yana bir misol sifatida 2007 yilda Germaniyaning Maks Plank evolyutsion antropologiya instituti olimi S. Paabo va uning shogirdlari tomonidan odamlarda til va nutqning rivojlanishida ishtirok etadigan FOXP2 genining Ispaniyadan topilgan neandertallardagi gen variatsiyalaridan biriga o'xshashligini keltirish mumkin. Ko'rinib turibdiki, yuqoridagilarning barchasi Darvin ta'limotini mustahkamlaydi. Hozirdagi arxeologik suyak topilmalariga ko'ra, qadimgi odamlar genomlari DNKsi ketma-ketliklarini to'la o'qish ishlari olib borilmoqda va bu kelajakda odam evolyutsiyasiga katta oydinlik kiritadi.

Odamlar hali ham tadrijiy rivojlanyaptimi? Odam genomining 2007- 2008 yillardagi keng tadqiqi va ko'plab «individual» genomlarni to'la qayta sekvins qilish shuni ko'rsatdiki, odam evolyutsiyasi o'tgan 40 ming yil mobaynida Afrikadan yangi joylarga ko'chishda va bu joylarga moslashishdagi tabiiy tanlanish bosimi ostida juda tezlashgan. Kembrij universiteti olimi R.Sabetining fikricha, hozirgi zamon odamlari genomidagi yuzlab mintaqalar, masalan, turli kasalliklarga chidamlilikni hosil qiladigan hamda teri rangi va terlashni boshqaradigan genlar adaptiv evolyutsiyalanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu odamlarda o'zlari yashayotgan muhitdagi quyoshdan kelayotgan nurlanishga, patogenlar va oziq-ovqatlarga moslashuv jarayoni kechayotganini ko'rsatadi. Fransuz olimi L. Kuvintana-Murtsi maktabi tadqiqotlariga ko'ra, "NarMar" populyatsiyalari o'rtasida 580 ta genlar, masalan, diabet, semirib ketish va gipertenziya genlari, turli darajadagi tabiiy tanlanish bosimi ostida evolyutsiyalanayotganini aytish mumkin.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Urug'chilik tuzumi davri necha bosqichga bo'lib o'rganiladi?
2. Orinyak va solyutre madaniyatlari arxeologik davrlashtirishning qaysi bosqichiga to'g'ri keladi?
3. Hozirgi zamon odami yoki homo sapiensning eng tipik vakillari qayerlardan topilgan?
4. Paleolitning orinyak solyutre bosqichidan so'nggi madaniyat qanday ataladi?
5. Garpunlar qaysi davrdan qo'llanila boshlaydi?
6. So'nggi paleolitning tabiiy sharoitlari?
7. Ibtidoiy gala davri qachongacha davom etgan?
8. Hozirgi tipdagi odamning va dastlabki irqiy farqlarning paydo bo'lishi?

²⁸ Fan va turmush. 2008 y. №3-4-5-sonlar. – B. 59-60.

9. Odamning tashqi jismoniy farqlari asosida inson irqi nechanchi yilda, kim tomonidan klassifikatsiya qilindi?
10. Urug`ni ta'riflab bering?
11. Urug` jamiyati qaysi davrda paydo bo`lgan?
12. Ekzogamiya ma'nosi nimani anglatadi?
13. Ekzogamiya nikoh tartibi qachon o`rganilgan?
14. Endogamiya qanday ma'noni anglatadi?
15. Monogamiya qanday ma'noni anglatadi?

8-MAVZU. ILK URUG` JAMOASI

Asosiy savollar:

1. Urug` jamoa tuzumining vujudga kelishi.
2. Ilk urug` jamoasi va uning xususiyatlari.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
4. Mezolitda mehnat qurollari texnologiyasining takomillashuvi va ovchilik unumdorligining oshishi.

Darsning maqsadi: Galaning urug` jamoasiga aylanishi ishlab chiqaruvchi kuchlarining o`shishi va shu bilan belgilanadigan ishlab chiqarish munosabatlarining o`zgarishi bilan bog`liqligini tahlil qilish.

1-asosiy savol: Urug` jamoa tuzumining vujudga kelishi.

**Identiv o`quv maqsadlari:** 1.1. Urug`ning kelib chiqishi ibtidoiy jamoa tarixi fanidagi eng qiyin masalalardan biri ekanligini izohlaydi. 1.2. Ibtidoiy galaning urug`ga aylanishi jarayoni mohiyatini ochib beradi.

1-savol bayoni: Urug`ning kelib chiqishi masalasi- ibtidoiy jamoa tarixi fanidagi eng qiyin masalalardan biridir.

So`nggi paleolit davrida hozirgi jismoniy qiyofadagi odamlar shakllanadilar. Tikka yurish, o`ng qo`l bilan ish harakat qilish va tafakkurning rivojlanishi, aniq nutqning o`shishiga imkon bergan mehnat faoliyatining to`xtovsiz murakkablashuvi bilan, go`shtli ovqat salmog`ining tobora oshuvi, gala a'zolarining orasida jinsiy munosabatlarning cheklanishi, yaqin qarindosh bilan jinsiy aloqada bo`lishning bartaraf etilishi, ya'ni nikohda ekzogamiya (tashqari nikoh) tartibining joriy qilinishi bilan bog`liqdir. Ekzogamiyada bir gurux odamlar kollektivining erkaklari bilan boshqa odamlar kollektivining ayollari nikohlangan.

Arxeologlar manzilgohlarda turgan odamlar soni haqida ular o`rnashgan maydon va turar joylarning katta-kichikligiga qarab fikr yuritadilar. Ularning aniqlashlaricha har qaysi turar joyda kamida 50 odam yashagan, manzilgohlarda ikki yoki uch turar joy bo`lgan. Demak manzilgohlarda 100-150 odam yashagan. Keyingi paleolitda mustahkam o`troqlik, ovchilik ayniqsa, hayvonlarni o`rab ovlash, katta turar-joylar qurish katta odamlar guruxlarining ko`p kuch g`ayrat sarflashini talab etgan. Birgalikdagi mehnat faoliyati, umumiy turar joy, nisbiy o`troqlik kollektiv a'zolarining jipslashuviga va qarindoshlik keyingi paleolitda faqat biologik omil sifatida mavjud bo`lib qolmay, balki butun urug`chilik jamiyati davomida katta rol uynagan ijtimoiy hodisaga aylangan. O`sha davrda qarindoshlik haqidagi tushuncha faqat odamlar o`rtasidagi jismoniy qarindoshlik emas, balki kollektiv iqtisodiy va ijtimoiy birligining ifodasi bo`lgan. Qarindoshlik gurux qarindoshligi sifatida anglab olingan. Totemizm odamlar guruhlarining o`z nomi bilan bog`liq bo`lgan hayvonlar,

o'simliklar va baliqlarning biron bir g'ayri tabiiy qarindoshlik bog'lanishiga e'tiqodida aks etgan.

Keyingi paleolitda ayollarning haykal shaklidagi tasvirlarining tarqalishi olimlarning fikricha oila-urug munosabatlarida onalik davri boshlanishining badiiy gavdalanishidir. O'sha davrda mavjud bo'lgan guruh holidagi nikohda otalik ma'lum bo'lmagan va u hali ijtimoiy ma'noda tan olinmagan. Ayol-ona urug'ini bosh onasi hisoblangan, bolalar uning tevaragida to'plana borgan. Ekzogamiya nikoh tartibining paydo bo'lishini izohlaydigan ilmiy farazlar ko'p bo'lsa ham, uning yuzaga kelish muammosi hali tamomila oydinlashtirilgan emas. Tadqiqotchilar bolalik chog'ida birga yashaydigan odamlar o'rtasida jinsiy maylning yo'qligi sababli ekzogamiya tartibi o'rnatilgan deb hisoblaydilar. Morganning fikricha dastlab ota-onalar bilan bolalar, keyinroq aka-ukalar bilan opa-singillar orasidagi nikoh man qilingan. Masalan: bolalik chog'laridan boshlab birga yashaydigan odamlar o'rtasida jinsiy maylning yo'qligi sababli yoki yaqin qarindosh bilan jinsiy aloqada bo'lishdan saqlanishga intilish sababli ekzogamiya tartibi o'rnatilgandir, yoki bir kollektiv a'zolari o'rtasida ayollar tufayli yuz beradigan to'qnashuvlarning oldini olish vositasi bo'lgan, chunki tartibga solinmagan jinsiy munosabatlar doimiy janjal va to'qnashuvlarga olib kelar edi, bu esa kollektivning normal xo'jalik faoliyatini buzar edi.

Ekzogamiya paydo bo'lishi bilan gala o'rnini urug' va dual-urug' (lotincha dio-«ikki») endogamiya (grekcha-ichki nikoh) tuzilishi egalladi. Shu bilan birga ayrim olimlarning fikricha galaning ikkita teng ekzogamiyaga bo'linishi natijasida ana shu endogamiya tuzilishi vujudga kelgan, ikki qo'shni galaning birlashuvi yuz bergan. Bu hanuz munozarali masala bo'lib turibdi. Ekzogamiya tartibidagi nikoh mavjud bo'lganida jinsiy munosabatlar dual urug' tuzilishi ichida ya'ni ikki muayyan urug' a'zolari o'rtasida amalga oshirilgan. Bunday nikoh tartibi endogamiya deb ataladi.

Avstraliyaliklarning ayol tomon qarindoshidan tashkil topgan ikki nikoh sinfi ekzogamiyaning arxaik shakli hisoblanadi. Nikoh guruh holda, xotinlar bilan erkaklarning o'zaro umumiyligi bo'lgan. Shunday nikoh tartibi sharoitida bir sinfnig barcha ayollari boshqa sinf erkaklarining real yoki potentsial(yashirin) xotinlari hisoblangan.

Avstraliyaliklarning ikki sinfli nikoh sistemasida bolalar ona sinfida qoldirilgan, demak, qizlar o'z otalarining xotinlari bo'lib qolish ehtimoli mavjud bo'lgan. Bunday jinsiy aloqada bo'lish to'rt sinfli nikoh sistemasida istisno qilingan. Ba'zi bir avstraliyalik qabilalarda to'rt nikoh sistemasida bolalar ota-onalar sinfiga kirmas edi. Ular buvilari va bobolari sinfiga qo'shib qo'yilar edi. To'rt sinfli nikoh paydo bo'lgach ota-onalar bilan bolalar, shuningdek ota tomonidan amaki va jiyan o'rtasidagi nikoh bartaraf etilgan. Bu esa grupp holidagi nikohni tartibga solishda ikkinchi qadam bo'lgandir. Ammo nikoh baribir gruppaviy bo'lib qolavergan. Nikoh munosabatlariga aloqador shakllar doirasini torayishidagi keyingi qadam ehtimol ota tomonidan amakivachchalar va xolavachchalar o'rtasidagi jinsiy munosabatlarning man qilinishidan iborat bo'lsa kerak, bunday taqiqlash sakkiz sinfli nikoh sistemasiga ega bo'lgan avstraliyaliklarda ko'rsatiladi.

Birlashgan ishlab chiqarish kollektividan iborat bo'lgan urug' faqat ekzogamiya xususiyati bilangina xarakterlanib qolmaydi, uning boshqa belgilari ham bor. Urug'da kollektiv mehnat hukmronlik qiladi. Turar-joylar va ularning atrofidagi xo'jalik xususiyatlariga qarab umumiy mehnat samaralari butun kollektivniki bo'lgani va ulardan birgalikda foydalanilgani aniqlangan. Shunday qilib urug' qon-qarindoshlardan iborat xo'jalik kollektivi bo'lib, unda birgalikda ishlab chiqarish mavjud. Ishlab chiqarish vositalari va iste'mol mahsulotlarining umumiy mulkligiga ega bo'lgan urug' - bu ekzogamiya nikoh tartibi va qarindoshlikning bir tomondan (ota yoki ona) hisoblanishi bilan, ijtimoiy hayotdagi demokratik tartiblari bilan ta'riflanadi.

O'sha davrda muvaffaqiyatli ovchilik va nisbiy o'troqlik tufayli turar joylar ilgariidek faqat noqulay tashqi sharoitlardan saqlanish uchun xizmat qilmay, balki xo'jalik

mahsulotlarini saqlash joyi ham bo'lgan. O'ldirilgan hayvonlarning nimtalangan butun tanalari manzil joyiga keltirib qo'yilgan. Ayol ovchilik mahsulotlaridan foydalanish ishi bilan shug'ullangan. O'rtoqlik bilan bog'liq bo'lgan hamma ishlar: turar joyga, o'choqqa qarash, bolalarni parvarish qilish, mahsulotlarni saqlash, ovqat pishirish kiyim-bosh tayyorlash ayol zimmasida bo'lgan. Ayollar urug'ning asosiy qismini tashkil qilgan va umumiy turar joylarning egalari bo'lgan. Bunday sharoitda dastlabki urug' faqat ona tomon qarindoshligiga asoslanishi mumkin edi.

2-asosiy savol. Ilk urug' jamoasi va uning xususiyatlari.

Darsning maqsadi: Urug' va urug'chilik tuzumining vujudga kelishini, ishlab chiqarish kuchlarining o'sa borishini, ijtimoiy hayotda katta o'zgarishlar sodir bo'lishini ochib berish.

Identiv o'quv maqsadlari: 2.1. Urug' va urug'chilik tuzumining vujudga kelishini tahlil qiladi. 2.2. Ishlab chiqarish kuchlarining o'sishini izohlaydi.

2-savol bayoni: Ishlab chiqarish kuchlari o'sa bordi. Kuchlarning rivojlana borishi natijasida ijtimoiy hayotda ham katta o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Bu o'zgarishlar ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida xususan mehnat qurollarining takomilashuvida ko'zga tashlanadi. Qadimgi paleolit davrida qurollarning xili juda oz bo'lib, ular juda ham sodda ishlangan edi. Lekin qadimgi paleolitning oxiri va so'ngi tosh asrining boshlariga kelganda manzara butunlay o'zgarib, toshdan tarashlagich, qirg'ich teshgich va nayza uchlari, yer kavlag'ich qurollar vujudga keldi. Undan tashqari suyakdan va yog'ochdan bigiz, igna, so'yil, nayza uchlari va boshqa murakkabroq, asboblarni uchun moslamalar yasashga erishildi. Baliq ovlashning rivojlanishi munosabati bilan teskari tishli garpun kashf qilindi.

Mehnat va ov qurollarining mukammalashuvi oqibatida ovchilik xo'jaligi va termachilik ham rivojlana bordi. Bu hol jamiyatda chuqur o'zgarishlar sodir bo'lishiga sabab bo'ldi. Tirikchilik hayot-mamot uchun bo'lgan kurash, xo'jalikni uluksiz taminlay oladigan doimiy va birlashgan ishlab chiqarish uyushmasining zarur ekanligini taqazo etdi va uni vujudga keltirdi. Bunday birlashgan uyushmani ibtidoiy kishilarning tasodifiy, yig'indisi vujudga keltira olmas edi. Bu birlashma negizida tabiiy qon-qarindoshlik yotar, bu eng dastlabki urug' yoki urug'chilik jamoasi edi. Ibtidoiy poda davrida ham odamlar gala-gala, guruh-guruh bo'lib yashaganlar. Lekin u guruhlarining soni 20-30 kishidan oshmas, ular ancha beqaror va mustahkam emas edi.

Urug'chilik tuzumi davriga kelib esa har bir urug'dagi kishilar uyushmasi 4-5 barobar oshib, urug' ichidagi odamlar o'zaro mustahkam birlikka ega bo'lganlar. Urug' va urug'chilik tuzumining kelib chiqishi tarixchilikning eng muhim va eng qiyin masalalaridan biri hisoblanadi. Urug' jamoasi ibtidoiy to'daga nisbatan ancha progressiv ijtimoiy tashkilot hisoblanardi. Ibtidoiy to'daning urug' jamoasiga aylanish jarayoni uzoq, tarixiy davrni bosib o'tadi. Urug' bir-biriga qon-qarindosh, ancha mustahkam birlikka ega bo'lgan kishilar majmuasidan iboratdir.

3-asosiy savol. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

Darsning maqsadi: Urug'chilik tuzumining dastlabki bosqichidagi ijtimoiy munosabatlarni ochib berish.

Identiv o'quv maqsadlari: 3.1. Nikoh va oila munosabatlarini tahlil qiladi. 3.2. Ilk qabila tuzilishini izohlaydi. 3.3. Dual tashkilot bilan tanishadi.

3-savol bayoni: Hayot taqozosi bilan vujudga kelgan urug'lar keyinchalik qabilani tashkil etgan. Dastlabki qabilalar ikki va undan ortiq urug'dan tashkil topishi mumkin edi. Bir Avstraliya qabilasining ikki pallaga yoki ikki nikoh sinfi – kroki va kumetiga bo'linishi

buning yaqqol misolidir. Urug'chilik jamiyatining bu dastlabki tuzilishini dual tashkilot deb atash rasm bo'lgan. Bu dual tashkilot turli mamlakatlardagi ko'pgina qabilalarda so'nggi vaqtlargacha ham saqlanib sodda yoki murakkab tarzda ko'zga tashlanadi. Dual tashkilotning navbatdagi murakkabroq shakli boshqacharoq bo'lib, bunda qabila har qaysi to'rt urug'dan iborat ikkita pallaga bo'linadi.

Ilk qabila tuzilishining bu ikki shakli fratriy – birodarlik sistemasi deb ataladi. Shimoliy Amerikadagi tub joylik seneka-irokezlar qabilasi fratriya tashkilotining klassik namunasi hisoblanadi. Seneka-irokezlar qabilasi to'rt urug'dan iborat bo'lgan ikki fratriyaga bo'lingan. Mazkur fratriya va urug'lar alohida nomlar bilan atalgan. Rivoyatlarga ko'ra ularda Ayiq va Kiyikdan iborat ikkita boshlang'ich urug' bo'lgan. Bo'ri, Qunduz, Toshbaqa (Ayiq fratriyasi), Loyho'ra, Qo'tos, Lochin (Kiyik fratriyasi) kabi urug'lar ularning bo'linishi natijasida shakllangan. Bunday misollarni yer yuzining boshqa xalqlarida ham kuzatish mumkin. Urug'chilik tuzumining bunday dual tashkiloti shaklida paydo bo'lishi erkak va ayollar orasidagi munosabat – nikoh rivojlanishining yangi bosqichi bilan chambarchas bog'liqdir.

Kishilikning poda davrlarida nikoh munosabatlari o'zining betartibliigi va umumiyliigi bilan xarakterlidir. Nikoh va oila munosabatlarining bu shakli promiskuytet deb ataladi.

Urug'chilik tuzumi davriga kelib esa nikoh va oila munosabatlari o'zgara bordi. Promiskuytetda dastlabki cheklanish sodir bo'ldi. Bu ham bo'lsa katta avlod bilan kichik avlod o'rtasidagi nikoh munosabatlarining bekor qilinishidir. Mazkur davrdagi dual tashkilotining eng muhim xususiyati shundan iborat ediki, bu bir pallaga mansub odamlarning o'zaro nikohlana olmasligi edi. Endi er va xotin qabilaning turli qabilasidan bo'lishi shart edi. Shu tariqa ekzogamiya nikoh tartibi vujudga kelgan.

Guruhli nikohning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bundan tug'ilgan bolaning otasi aniq bo'lmay, faqatgina onasi ma'lum bo'lgan xolos. Bunday sharoitda butun dual sistema – urug'lar, pallalar va fratriya ayollar atrofida to'planadi. Demak, har bir shunday guruh, ayollar avlodidan tashkil topadi va qon qarindoshlik onalar avlodidan hisoblanadi. Shu tariqa urug' ona urug'i sifatida qujudga kelib, urug'chilik tuzumi rivojlanishida matriarxat deb ataladigan davr boshlangan.

4-asosiy savol: Mezolitda mehnat qurollari texnologiyasining takomillashuvi va ovchilik unumdorligining oshishi.

Darsning maqsadi: Mezolit davri odamlarining tabiiy sharoitlarga qarab turli tuman xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatlarini ochib berish.

Identiv o'quv maqsadlari: 4.1. Mezolit davrining mehnat va ov qurollarini tahlil qiladi. 4.2. Mezolit davrida iqlim va tabiatni izohlaydi. 4.3. Mezolit davrining manzilgohlari bilan tanishadi.

4-savol bayoni: Muzlik davrining tugashi bilan insoniyat tarixidagi eng uzoq davr - paleolit tamom bo'ldi va mezolitga o'tish boshlandi. Mezolitda (14-7 ming yil ilgari) iqlim flora va fauna asta-sekin hozirgi xarakterga kirgan. Iqlim o'zgarishi bilan mamont, serjun karkidon kabi yirik hayvonlar so'nggi paleolitda qirg'in qilib, haydab kelib ovlanish natijasida va o'zgargan iqlim ta'siri ostida butunlay yo'q bo'lib ketgan. Boshqa hayvonlar, masalan shimol bug'usi orqasidan shimol tomonga ketib qolganlar. Muzliklardan tozalangan yerlar asta-sekin o'rmonlar bilan qoplangan. Hayvonot olami ham o'zgarib borgan. O'rmon hayvonlari maydaroq, chopqir va poda bo'lib yashaydigan hayvonlar urchiy boshlagan. O'rmonlarda bug'u, los, yovvoyi cho'chqa, ayiq kabi hayvonlar uchrab borgan. Bu hayvonlarning ko'pchiligi chopqir va mayda bo'lgan. Ilgarigi usullar va qurollar bunday hayvonlarni ovlash uchun yaroqsiz bo'lib borgan.

Yangi ov sharoitlari irg'itiladigan, otiladigan qurollar va takomillashgan kamon va o'q-yoy ixtiro qilinishiga olib kelgan. Mikrolitlar 1-2 sm uzunlikdagi prizmatik, pichoqsimon

yoki o'tkir uchli shakldagi chaqmoq tosh buyumlar keng yoyilgan. Kesadigan, randalaydigan yoki sanchib teshadigan qurollar yasashda asosan yog'och va suyak soplarga vkladish sifatida, yoki yangi ov quroli-kamon va o'q uchun mikrolitlardan foydalanilgan. Mikrolitlar qurol-asboblar va qurol yarog'larning ish bajaradigan asosiy qismini tashkil etgan. Mikrolitlarga sop-dasta qo'yilavergan. Chaqmoq toshdan yasalgan qurollar yasash qiyin, sinza tuzatib bo'lmagan. Kamon bilan o'qning ixtiro qilinishi odamning g'oyat katta muvaffaqiyati bo'lgan. Odamlarda tez otar, uzoqqa otadigan qurol mavjud bo'lgan. Bu qurol merganligi va nishonga o'q tekkizishi kuchi bilan nayzadan farq qilgan. Bumerang mezolit qabilalarining o'ziga xos ixtirosi bo'lgan. Bumerang- egilgan yassi shakldagi o'roqsimon irg'itma. Uning ko'zga arang tashlanadigan egilgan burama sirti bor bo'lib, uchib borish xususiyati shunga bog'liq. 150 metrgacha bo'lgan masofaga uchadi. Og'ir yarador qiladi. Bumerang - yer sharidagi ko'pgina qabilalarga ma'lum bo'lgan, ammo u Avstraliya mahalliy aholisining o'ziga xos qurolidir.

Texnikaning rivojlanib borish darajasi mezolit davri odamlarning tabiiy sharoitlariga qarab turli tuman xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishlariga imkoniyat bergan. Fauna o'zgarganligi sababli hayvonlarni o'rab olib ovlash ikkinchi darajali mashg'ulot bo'lib qolgan. Ovchilik yakka hayvonlarni qidirish tusiga kirgan. Kamon va o'qlar poda holidayashamaydigan chopqir hayvonlarni ovlashni osonlashtirgan, shuningdek ilgari odam ovlay olmagan qushlarni ovlash imkonini bergan. O'ljaning hammasi bir yo'la yeyilmagan. Yaralangan hayvonlar yoki ularning bolalarini olib qolganlar. Hayvonlarni qo'lga o'rgatish fikri tug'ilgan. It dastlabki uy hayvoni bo'lgan. Itni qo'lga o'rgatish oson bo'lgan, chunki odam nima bilan ovqatlansa u ham ovqat tashlandiqlari bilan ovqatlangan. Dastlab itdan go'sht uchun, keyin ov uchun, joydan-joyga ko'chish va manzilgohlarni qo'riqlash uchun foydalangan.

Muzlikning chekinishi va odamlarning joylashishi keyinroq yuz bergan Boltiq bo'yi mezoliti mingbi madaniyatiga to'g'ri keladi. Yevropaning ko'proq qismida mezolit azil va tardendaz arxeologik madaniyati bilan ko'rsatilgan. Afrikada, O'rta Osiyoda, Hindistonda va Avstraliyada ham mikrolit texnika bo'lganligi ko'rinadi. Paleolitga xos bo'lgan arxeologik madaniyatlarning aniq izchilligi mezolitda yo'q. Uning madaniyati territorial jihatdan cheklangan xususiyatga egadir. Azil madaniyati ilk mezolit uchun xarakterli madaniyatdir. Azilda ko'pgina qurollarning madlen tipi saqlanib qolgan. Lekin suyak qurollar kam uchraydi. Tardenuaz madaniyati manzilgohlariga qaraganda kamon o'qi uchlari mikrolitlar keyingi mezolitda ayniqsa keng tarqalgan. Azil qatlamlarida uy itining suyaklari topildi.

Boltiq bo'yi va Polsha madaniyati G'arbiy Yevropa madaniyatlariga o'xshashdir. Bushmenlar, vidlar, olovli yerliklar va boshqa qabilalar - mezolitning relikt vakillaridir. Bushmenlarning asosiy mashg'ulotlari itlardan foydalanib hayvonlar va qushlarni ovlashdir, termachilik va baliqchilik ikkinchi darajali bo'lgan. Mezolitda boshqa relikt jamiyatlarning ham xo'jalik rivojlanishi darajasi xuddi shunday bo'lgan. Tabiiy sharoitlariga qarab xo'jalik faoliyati quruqlikdagi hayvonlarni ovlashgan va yeyimli o'simliklarni yig'ishgan, dengiz hayvonlari, qushlarni ovlashgan, molyuskalarlarni yig'ishgan va baliq tutishgan.

Mezolit manzilgohlarda turar-joy qoldiqlari kamdan-kam ko'riladi, chunki ular juda yengil va kichik-kichik joylar bo'lgan. Mezolit manzilgohi o'z maydoni jihatidan paleolit manzilgohlaridan kichikroq bo'lib daryo bo'ylab, ko'pincha qumloq yerlarga joylashgan. Bu chayla-kapa shaklidagi vaqtincha turar joylari bo'lgan manzilgohlar edi. Baykal bo'yidagi mezolit chayla-kapalari, ularning poydevorlariga qarab aniqlanadi. Shoh-shabbalardan qurilgan chaylalar usti barglar, o't-o'lan, po'stloq va hayvon terilari bilan yopilgan. Bushmenlar, olovli yerliklar va boshqa relikt qabilalar shox-shabadalardan chayla qurib ustini barglar, o't-o'lan, pustlok va terilar bilan yopganlar. Chaylalar bilan bir qatorda kichik-kichik yerto'lalar mavjud bo'lgan. g'orlardan ham foydalanilgan. Mezolit manzilgohlaridagi jamoaga qarashli ko'p o'choqli uylarning yo'q bo'lib ketishi va ko'p qatlamlilikning sababi

shuki o'sha zamon odamlarining hayot sharoitlarini o'zgargan. Yangi ov qurollari va o'rmon hayvonlarini ovlashda yangi usulning paydo bo'lishi sababli uzoq yashash imkoniyati va katta birlashmalarga ehtiyoj qolmagan.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Mezolit uchun xarakterli madaniyatlar?
2. Mikrolitlar qaysi davrda keng yoyilgan?
3. Mezolit davrining mehnat va ov qurollari qanday bo'lgan?
4. Mezolit davrida iqlim va tabiat qanday bo'lgan?
5. Mezolit davrining manzilgohlari qanday bo'lgan?
6. Ibtidoiy jamoa tuzumining qaysi davrida o'q-yoy kashf etildi?
7. Uy hayvonlaridan it qachon xonakilashtirildi?
8. Bundan qancha yil ilgari muzliklar erib yer isiy boshlagan?

9-MAVZU. RIVOJLANGAN URUG'CHILIK JAMOASI.

Asosiy savollar:

1. Neolitda ona urug'i davri odamlarining muvaffaqiyatlari.
2. Eneolit va bronza asri. Rivojlangan dehqonchilik va chorvachilik. Birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti.
3. Matriarxatdan patriarxatga o'tish.

Tayanch tushuncha va iboralar: Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi. Ibtidoiy jamoaning yangi shakllari. Jamoada oilalarning o'rni. Ilk dehqonchilik va chorvachilik. Jamoalararo va qabilalararo mehnat taqsimoti. Ibtidoiy jamiyatda oila.

1-asosiy savol: Neolitda ona urug'i davri odamlarining muvaffaqiyatlari.

Darsning maqsadi: Talabalarga neolitda ona urug'i davri odamlarining muvaffaqiyatlari mohiyatini ochib berish.

Identiv o'quv maqsadlari: 1.1. Neolit keramikaning paydo bo'lishi va toshga ishlov berishning yangi ancha yuksak texnikasi bilan xarakterlanishini tushunadi. 1.2. O'zlashtiruvchi xo'jalik formalaridan ishlab chiqarish formalarga o'tilishi mohiyatini tushuntiradi. 1.3. Neolit davrida, yana bir muhim texnika yutug'i loydan pishirib sopol idishlar yasashi, keramika bilan harakterlanishini ko'rsatadi. 1.4. Neolitda to'qish-o'rish va to'quvchilikka asos solinganligini biladi. 1.5. Chorvachilik va dehqonchilikning vujudga kelishi odamning birinchi eng katta ishlab chiqarish g'alabasi ekanligini ko'rsatadi.

1- asosiy savol bayoni: Neolitning umumiy xronologik doiralarini ko'rsatish imkoniyati yo'q, chunki bu davr turli joylarda turli vaqtlarda tugaydi. Yevropa va Osiyoda ilk neolit yodgorliklarining ko'p qismi er.av. V ming yillikka oid deb ko'rsatiladi.

Neolitdagi iqlim sharoitlari flora va fauna hozirgi zamondagiga yaqin bo'lgan. Neolit keramikaning paydo bo'lishi va toshga ishlov berishning yangi ancha yuksak texnikasi bilan, o'zlashtiruvchi xo'jalik formalaridan ishlab chiqarish formalarga o'tilishi bilan xarakterlanadi.

Neolitda toshga ishlov berishning ilgarigi usullari toshni chiqib yo'nish sindirish bilan bir qatorda odamlar toshni silliqlashga, arralashga va parmalashga o'tishgan. Shuning uchun neolitni silliqlangan tosh asri ham deb atashadi. Neolitda suyak va shoxga ishlov berish texnikasi oldinga siljigan. Bularning hammasi ancha takomillashtirilgan maxsus tosh va suyak qurollar yaratishga imkoniyat bergan. Neolitda boltalar, yo'ng'ich-tarashlagichlar uskunalar, o'roqlar, don yanchgichlar, o'g'irlar, o'g'ir dastalari, tosh suyak motigalari keng tarqalgan. Kamon o'qlari va nayza uchlari yanada takomillashtirilgan. Neolitda ayniqsa bolta katta ahamiyatga ega qurolga aylangan. Daraxt kesish, turar joylar qurishda sollar, qayiqlar yasashda qo'llangan. Avval boshda butunligicha yo'nilgan, faqat dami silliqlangan bolta, keyinroq esa batamom silliqlangan bolta muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Neolitda chaqmoq toshning yer usti zaxiralari kamaygan. Uni yer ostidan qidirish boshlangan. Angliya,

Frantsiya, Belgiya, Sobiq SSSR territoriyasidan chaqmoq tosh konlari qidirib topilgan. Shaxtalardan ponalar, belkuraklar, kirka, qora chiroqlar topilgan.

Neolit davri toshga ishlov berish yangi texnikasining egallanishi bilan bir qatorda, yana bir muhim texnika yutug'i loydan pishirib sopol idishlar yasalishi, keramika bilan karakterlanadi. Sopol siniqlari ilk va keyingi neolit manzilgohlarida uchraydi. Sopol idishlarni ixtiro qilish yo'llari turli xil bo'lsa kerak. Kulolchilik to'qima idishning hamma tomoniga loy yopishtirishidan loy parchasini chuqur qilib o'yishdan iborat bo'lgan. Bu ishlar dastlab charxsiz bajarilgan, shu sababli sopol idishlar qo'pol, xunuk bo'lgan va maxsus chuqurga o'tkazilgan. Sopol idishlarning ishlatilishi oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibini kengaytirishga, ovqat pishirish va uni saqlashga imkon bergan. Sopol idishni ayollar ixtiro etishgan. O'troqlik sopol idishlarni turmushda keng ko'lamda ishlatish uchun zamin bo'lgan, chunki boshqa joyga ko'chishda idish tashish og'ir bo'lar edi. Rivojlangan kulollik ham o'z navbatida o'troqlikni mustahkamlashga yordam bergan va manzilgohlardan qishloq-qishloq bo'lib yashashga o'tish imkoniyatini tug'dirgan.

Neolitda to'qish-o'rish va to'quvchilikka asos solgan savat, bo'yra, arqon, to'r, to'rva xalta, kamar, oyoq kiyim, bosh kiyim, idishlar va hokazo. O'rish-to'qish uchun xivich-novdalari, soch, teri tilimlari, yog'och tolasi ishlatilgan. Tollarni o'rish yigirishni boshlab bergan dastlab qo'l bilan, so'ngra charxli urchuq yordamida yigirishgan. Keyinroq oyoq charxlaridan foydalanilgan. Yigirish rivojlanishi bilan to'quvchilik va oddiy to'quv dastgohlari paydo bo'lgan. Qichitqi o't tolasi, daraxt po'stlog'i tolalari, yung, yovvoy zig'ir poyalardan foydalanilgan.

Neolitdagi turar joylar yer to'lalar, xodalardan tiklangan bostirmali yarim yer to'lalar, hayvon terilaridan qilingan uylar, novdalardan urib tiklangan va loy bilan suvalgan devorli joylar, yog'och uylar svaya imoratlari va namat o'tovlardan iborat bo'lgan. Svaya (qoziq oyoq) imoratlari ko'llar, dengizlar qirg'oqlarida qoziqlar ustiga qurilgan. Bunday uylar va turar joylar butun boshli qishloqlarni tashkil etgan. Shunga o'xshash imoratlar yaqin o'tmishda mavjud bo'lib, hozirgi zamonda ham ba'zi xalqlarda bor. Ibtidoiy svaya turar-joylari birinchi marta Shveysariyadagi Syurix ko'lining sayozlanib qolgan yerida, Shimoliy Italiya, Janubiy Germaniya, Avstriya, Angliya, Shvetsiya va sobiq SSSRda topilgan. Svaya imoratlarida insoniyat tarixida birinchi yog'och mebel: skameykalar, stollar sandiqlar paydo bo'ldi.

Neolit madaniyatlari darajasiga qarab va xo'jalik rivojlanishining yo'nalishlariga qarab bir-biridan farq qilinadi. Neolitda ovchilik, baliq ovlash va terib-termachlab ovqat topish takomillasha boradi, yanada uyushqoqroq mashg'ulotlar bo'lib qoladi.

Ancha yuqori xo'jalik formalari bo'lgan chorvachilik va dehqonchilikka o'tish mehnat qurollarining rivojlanishidagi yutuqlar va ishlab chiqarish tajribasini ortirilishi bilan bog'liqdir.

O'z holicha o'sadigan boshqoli o'simliklarni terib-tarmachlab ovqat topishdan oddiy (ibtidoiy) dehqonchilikka o'tilardi. Odamlar o'simliklarni kuzatib, uni ekib ko'paytirib, hosil olish mumkinligi to'g'risida xulosaga kelganlar. Dehqonchilikni ayollar ixtiro qilgan, ba'zi bir tadqiqotchilar natuf madaniyatida dehqonchilik elementlarini topishib, dehqonchilikning boshlanishini keyingi mezolitga mansub deb hisoblashadi. Natufliklar ovchilik, termachilik bilan shug'ullanishgan. Keyingi mashg'ulot kuchli rivojlangan. Ibtidoiy dehqonchilik haqidagi e'tiroz qilib bo'lmaydigan ma'lumotlar bir xil rayonlarda ilk neolitga boshka rayonlarda rivoj topgan neolitga taalluqlidir. Dastlabki dehqonchilik cheklangan xarakterga ega bo'lgan. Bir yoki ikki xil ekin o'stirish uchun kichik yer maydonlari ishlangan.

Qurollar oddiy bo'lib, dehqonchilik faqat yaroqli yerlardagina vujudga kelgan. Dajla, Frot, Nil, Xind va Xuanxe daryolari vodiylari shunday rayonlar bo'lgan. Bu daryolar toshib, yerlarni o'g'itlagan va sug'organ. O'rmonzorlar orasida yerlar ochilgan. Odamlar yerlar oriqlanishi va begona o'tlar ifloslanishigi qarab, eski tomorqalarini qoldirib, yangi yerlar

o'zlashtirganlar. yer tomorqalarini yovvoyi hayvonlardan g'ov tutib ximoyalagan. Eng qadimgi dehqonchilik quroli o'tkir uchli tayoq qazgich bo'lgan, keyinroq yassi uchli tayoqlar va motiga paydo bo'lgan.

Hayvonlarni qo'lga o'rgatish odamlar ovlab kelgan xuddi o'sha hayvonlarni urchitish natijasida ovchilikdan chorvachilik vujudga keldi. Hayvonlarni qo'lga o'rgatish, keyinroq esa ko'p ming yillar davomida odamlar ovlab kelgan xuddi o'sha hayvonlarning urchishi natijasida ovchilikdan chorvachilik vujudga kelgan. Xonakilashtirish juda qiyin va uzoqqa cho'zilgan. yer yuzidagi 140 mingga yaqin hayvon turidan 47 turi xonakilashtirilgan xolos. Hayvonlarni qo'lga o'rgatish mezolitda boshlangan. Itdan keyin cho'chqa, qo'y, echki qo'lga o'rgatilgan. Keyin qoramollar, undan keyin ot. Chorvachilik va dehqonchilikning vujudga kelishi odamning birinchi eng katta ishlab chiqarish g'alabasini ko'rsatadi. Endi go'sht, don, sabzavot shaklida doimiy ovqat paydo bo'ldi.

Neolitda xalqlarning ko'pchiligida dehqonchilik va chorvachilik yetakchi xo'jalik bo'lmagan, ular yordamchi ahamiyatga ega bo'lgan. Avval boshda butun urug' a'zolari xo'jalikni birgalikda boshqarishgan. Keyin neolit davrida esa uni urug'ining ona oilalari yoki xonadon jamoalari boshqaradigan bo'lgan, chunki ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va mehnat unumdorligi osha borishi orqasida xo'jalikni butun urug'ning birgalikda idora qilishga zarurat qolmagan. Onalik katta oilalari ona tomonidan ayrim uyda yashaydigan ammo urug' hayotidagi umumiy qonun qoidalariga bo'ysunadigan to'rt besh avlodning qarindoshlarini birlashtirgan.

Erkaklar daraxt va butalardan tozalangan yer ochganlar. Undan keyin ayollar va bolalar yerni yumshatishgan. Ayollar sabzavot ekishgan. Polizni parvarish qilishgan, hosilni terib olishgan va saqlashgan. Qabila yerlari urug' o'rtasida, urug' yerlari esa xonadon jamoalari o'rtasida bo'lingan.

1964 yilning kuzida O'zbekiston Fanlar akademiyasining korrespondent a'zosi, professor Ya.Q.G'ulomov boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya qadimgi Maxondaryo vodiysida (hozirgi Buxoro viloyati) ilmiy tadqiqot ishlari olib boradi. Ana shu arxeologik qazishlarning birida kichkina bir tosh asbob topiladi²⁹. Bu g'alati asbob yapaloq, yoysimon shaklda bo'lib, og'irligi 125 gramm kelardi. Uning pastki qismi yapaloq shaklda bo'lib, o'zi cho'ziqroq edi. Yuqori qismining o'rtasida kichkina o'yig'i ham bor. Bu kichkinagina toshning qanday qurol ekanligini va uni kimlar ishlatganligini aytib berish uchun gapni xiyla uzoqdan boshlashga to'g'ri keladi. Shimoliy Amerikaning janub qismida joylashgan Meksika davlatining Yukatan, Kampeche shtatlarida hamda «Britaniya Gondurasi»da Mayya nomli hindi qabilalari yashardi.

Mayya hindilari yashagan va yashayotgan joylarda olib borilgan arxeologik qazishlar natijasida yorqichiq (qo'l tegirmon), turli xil sopol idish parchalari va kichik-kichik haykalchalar kabi talay asbob va buyumlar topilgan. Sopol idish parchalarida har turli naqshgullar bor. Ba'zilar sariq, qora, qizil va boshqa ranglarga bo'yalgan. Bu narsalar ibtidoiy davrlarda yashagan qadim mayya qabilasining ancha rivojlangan madaniyatidan va turmush sharoitlaridan darak beradi. Mayya hindilari neolit davrida, ya'ni eramizdan avvalgi ikki minginchi yillardayoq makkajo'xori, qovoq va qalampir ekishni bilishgan. Mayya hindilari hayotidagi bu rivojlanish Yangi Dunyodagi (ya'ni Amerika qit'asidagi) boshqa hindi qabilalariga qaraganda juda tez sur'atlarda davom etib borgan. Ular birinchi bo'lib o'z yozuvlariga ega bo'lishgan. Keyinchalik fani, madaniyati, arxitekturasini, xo'jaligi yuksalgan mayya davlati vujudga kelgan.

Mayya davlatining rivojlangan davri eramizning X asriga to'g'ri keladi. Zamonlar o'tishi bilan va, ayniqsa, qabilalar o'rtasidagi o'zaro urushlar natijasida mayya davlati

²⁹ Ўткир Исломов. Макони Бухорода, давоми Америкада // Фан ва турмуш. 1965 йил, 2 феврал. 8-10 бетлар.

ag'dariladi. Xususan ispanlarning bosqinidan keyin mayya qabilasining ilgarigi dovrug'idan asar ham qolmaydi. Biz mayya hindilarining ibtidoiy davrlarda dehqonchilik bilan shug'ullanishganini yuqorida eslatib o'tdik. Dehqonchilik bilan bir qatorda ovchilik ham ularning asosiy kasbi hisoblangan. Mayya hindilari uzun va o'tkir nayzalar bilan ov qilishtan. Nayza uzoqdagi ovga tez, aniq va zarb bilan tegsin uchun, uning bir tomoniga toshdan yasalgan tig'dor uchlik mahkamlaganlar, ikkinchi tomoniga esa yapaloq qilib ishlangan kichkina tosh bog'laganlar. Mayya hindilari ana shu yapaloq toshni o'z tillarida *atlatl* deb atashgan.

Qadimgi Maxondaryo vodiysida, ya'ni hozirgi Buxoro hududi qorako'l rayonidan 40 kilometr shimoli-g'arbda joylashgan Kattatuzkon yonidagi 1-Darvozaqir degan joyda ekspeditsiya tomonidan qazib topilgan mazkur tosh qurol tekshirish natijasiga ko'ra, ana shu atlatlning aynan o'zi ekan³⁰.

Tabiiyki, Amerika qit'asi bilan O'rta Osiyo o'rtasida hech qanday madaniy aloqa bo'lmagan va bo'lishi ham mumkin emas edi. Binobarin, atlatlning Buxoro yaqinida topilishi bir-biridan juda uzoq bo'lgan qabilalarning taraqqiyot darajasi bir xil bo'lganligini ko'rsatadi. Zotan arxeologik topilmalarning bir-biriga o'xshashligi tez-tez uchrab turadigan holdir. Masalan, Sudanda 1944-1945 yillarda A.Ya.Arkel tomonidan Xartum yaqinidagi qadimgi manzilgohda olib borilgan qazish ishlari bu manzilgohning bir necha qatlamlardan, ya'ni tosh asrining oxirgi davridan (yuqori paleolitdan) boshlab, o'rta asrlarning oxirlarigacha vujudga kelgan qatlamlardan iborat ekanini ko'rsatdi. Shu manzilgohning yangi tosh davriga oid qatlamidan topilgan sopol idishlar va ularga solingan gullar bizdagi Kattatuzkon manzilgohidan topilgan sopol idishlar va ularga solingan gullarga o'xshaydi. Lekin bundan, O'rta Osiyo bilan Shimoliy Afrika o'rtasida eramizdan oldingi to'rt minginchi yillarda madaniy aloqa bo'lgan, degan xulosa chiqmaydi, albatta. Bu, umuman, yangi tosh davrida yer yuzining turli joylaridagi taraqqiyot darajasi bir-biriga ancha yaqin bo'lganini bildiradi, xolos.

Tarixdan ma'lumki, mezolit davridan keyin neolit davri, ya'ni yangi tosh davri boshlangan. Bu vaqtga kelib, endi, muz davri tugaydi va ob-havo sharoitlari ham hozirgi davr ob-havo sharoitlariga ancha yaqinlashib qoladi. Arxeologlar bu davrni «Neolit revolyutsiyasi» davri deb ataganlar. Darhaqiqat, bu davrda kishilik jamiyatida tub burilishlar ro'y bergan, katta-katta yutuqlarga erishilgan. Masalan, odamlar endi sopol ishlashni bilganlar, tosh boltadan keng foydalanganlar.

Eramizdan avvalgi besh minginchi yillarda O'rta Osiyoda yashagan mezolit davri qabilalari ikki gruppaga bo'lingan. Bu gruppalaridagi xo'jalik taraqqiyoti bir-biridan keskin farq qilgan.

Birinchi gruppaga Kopetdoh etaklarida va, umuman, dehqonchilik uchun qulay bo'lgan yerlarda yashagan qabilalar kiradi. Ular mezolit davrida ovchilik va baliqchilik qilishgan. Yangi tosh davriga kelib, bu qabilalar asta-sekin dehqonchilikka o'tishgan. V.M.Masson boshliq bir grupp olimlarning aniqlashicha, mezolit davrining oxirlarida Kopetdoh etaklarida yovvoyi bug'doy va arpa o'sgan. Odamlar ularni tamaddi qilib kun kechirishgan, keyinchalik o'zlari ham bug'doy va arpa eka boshlaganlar. Natijada dehqonchilik asosiy kasb bo'lib qolgan. Endi tosh qurollar o'rnini asta-sekin jez va temir qurollar ola boshlagan.

Ikkinchi gruppaga O'rta Osiyoning cho'l qismida va, umuman, dehqonchilik qilish mumkin bo'lmagan yerlarida yashagan qabilalar kiradi. Ular, asosan, baliqchilik va ovchilik bilan shug'ullanishgan.

³⁰ Ўткир Исломов. Макони Бухорода, давоми Америкада // Фан ва турмуш. 1965 йил, 2 феврал. 8-10 бетлар.

Yangi tosh davrida Zarafshon daryosining quyi oqimida yashagan qabilalar ham, xuddi shu xilda, ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanishgan. Bu qabilalarda mezolit davridan meros qolgan mehnat qurollari uzoq yillar saqlanib qolgan.

Eramizdan oldingi 4-3 minginchi yillarda ana shu Maxondaryo havzasi ko'llari, to'qayzor va qamishzorlari ko'p bo'lgan ko'rkam bir vodiya edi. Bu vodiya hayot barq urgan: qadimgi odamlar har xil hayvonlarni ov qilib, ko'llarda baliq tutib kun kechirishgan. Yangi tosh davridagi odamlar, asosan, shu sersuv ko'llar bo'yida, qisman daryo bo'ylarida chayla qurib yashaganlar. O'sha qadimgi daryo va ko'llar o'rnida hozir suv yo'q bo'lib, vodiya taqir cho'lga aylangan. Kattatuzkon degan joy o'sha yerlardagi qadimgi ko'l o'rnidir.

Zarafshonning quyi oqimi hisoblangan ana shu joylarda yashagan qadimgi qabilalar asosan tosh, suyak va yog'och qurollar ishlatishgan. Ular chaqmoq toshdan foydalanib, o'q uchlari, boltalar, pichoqlar, qirg'ich, bigiz va parmalovchi qurollar yasaganlar. Yangi tosh davridagi Kattatuzkon manzilgohidan ana shunday o'q uchlarning ko'plab topilishi o'q-yoyning qadimgi katta tuzkonliklar uchun kerakli qurollardan biri bo'lganligini ko'rsatadi. Ikkinchi tomoniga atlatl bog'lanadigan nayzalar ham Kattatuzkon atrofida yashagan qadimgi ajdodlarimizga mehnat quroli sifatida katta ish berganligi shubhasizdir³¹.

2-asosiy savol: Eneolit va bronza asri. Rivojlangan dehqonchilik va chorvachilik. Birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti.

Darsning maqsadi: Talabalarda eneolit va bronza davrida dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi haqida tasavvur hosil qilish.

Identiv o'quv maqsadlari: 2.1. Mehnat qurollari yasash uchun odam tomonidan qo'llanilgan birinchi metall mis bo'lganligini biladi. 2.2 Bronzaga o'tilish ishlab chiqarish kuchlarining yanada yuksalganini tahlil qiladi. 2.3. Birinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimotini ko'rsatib beradi.

2-asosiy savol bayoni: Eneolitda mehnat qurollari yasash uchun odam tomonidan qo'llanilgan birinchi metall mis bo'lgan. Toshni qidirib topishda odam ehtimol sof holdagi misga duch kelgandir. Mis oson yassilangan va o'tkirlangan. Bunday ishlov berish usuli cho'qqichlash deb ataladi. Ammo mis ancha og'ir va kuchli qurollar yasash uchun yaroqsiz bo'lgan. U toshning o'rmini bosa olmagan. Sof shakldagi mis asri bo'lmagan.

Old Osiyoda va Nil vodiysida mis eritish va misni qizdirish er.avv. IV ming yillikda, Yevropada III ming yillikda boshlangan. Mis bezaklar, kichkina xanjarlar, pichoq va bigizchalar yasash uchun ishlatgan. Ancha og'ir va kuchli qurollar yasash uchun yaroqsiz bo'lgan. Shuning uchun u tosh o'rmini egallay olmadi. Odamlar misni qalay, rux, qo'rg'oshin bilan birga eritib bronza hosil qilishni o'rganib olgan. Bronza ham toshni tamomila surib chiqarmagan. Bu narsa faqat temir kashf etilgandan keyin ro'y berdi.

Bronza asrining boshlanishi er.avv. III ming yillikning o'rtalariga oid deb hisoblanadi. Bronza qurollardan foydalanish er.avv. III ming yillik bilan II ming yillik chegarasida Kichik Osiyoda, Suriyada, Falastinda, Kiprda, Kritda, er.avv. II ming yillikda Misrda, Hindistonda, Xitoyda, Yevropada, eramizning I ming yilligida Amerikada taraqqiy etgan.

Bronzaga o'tilishi ishlab chiqarish kuchlarining yanada yuksalganini ko'rsatadi. Bronzadan yasalgan qurollar ancha takomillashgan. Ayniqsa, chorvachilik va dehqonchilikni taraqqiy etishida imkon bergan. Osiyo va Yevropada yer haydaydigan yog'och qurollar ishlatila boshlangan. Natijada omoch takomillashgan. Dehqonchilikda hayvonlarning ishlatilishi tufayli mol qo'llanila boshlagan. Shu munosabat bilan ko'pgina xalqlar motiga polizchiligidan haydab ekiladigan dehqonchilikka o'tishgan. Poliz ekinlari boshloqli ekinlarga nisbatan ikkinchi darajaga tushib qolgan. G'alla dehqonchiligining roli ortgan, ortiqcha

³¹ Ўткир Исломов. Макони Бухорода, давоми Америкада // Фан ва турмуш. 1965 йил, 2 феврал. 8-10 бетлар.

mahsulot paydo bo'lgan, g'allachilik chorvachilikning rivojlanishiga ham olib kelgan. Lekin chorvani dehqonlar yem-xashak bilan ta'minlay olmagan. Chorvadorlar dehqonlardan ajrala boshlaganlar. Ular Yevropa, Osiyo va Shimoliy-Sharqiy Afrika dashtlariga ko'chib o'mashgan. Chorvadorlarning dehqonlardan ajralib chiqishi, birinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimotidir.

Birinchi buyuk mehnat taqsimoti ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishga va mol ayriboshlashni tartibga solishga asos solgan, doimiy ortiqcha mahsulotlar yetishtirishga, xususiy mulk va qullikning paydo bo'lishiga olib kelgan. Ixtisoslashtirilgan chorvachilik, dehqonchilik xo'jaliklari va boshqa, xo'jaliklar o'z iste'molidan bir muncha ortiqcha mahsulotlar yaratishgan va shu ortiqcha mahsulot ayribosh qilingan. Endi har bir odamning xo'jalik uchun zarur bo'lgan hamma narsani o'zi tayyorlashi shart bo'lmay qolgan. U yetishmaydigan hamma narsani ayriboshlab olishi mumkin bo'lgan. Birgalikdagi mehnat va umumiy mulkning mavjudligi sharoitida ortiqcha mahsulotlarni urug' oqsoqollarning vositachiligida ayriboshlaganlar.

Rivojlana borgan ishlab chiqish ko'proq ish kuchi bo'lishini talab etgan. Yangi ish kuchlarini jalb etish kerak bo'lib qolgan. Harbiy asirlar ana shu maqsad uchun yaroqli bo'lib qolgan, ilgari esa ular o'ldirilgan yoki urug'ning kamaygan qismini to'ldirish uchun o'g'il qilib olingan. Endilikda ularni qullarga aylantira boshlagan. Qullar asosiy ishlab chiqaruvchi sinf bo'lmagan, jamoa a'zolari qullar bilan birgalikda mehnat qilgan.

Patriarxal qullik butun dunyoga yoyilgan hodisa bo'lgan, hamda tasodifiy va umrbod qullikdan to' yuqori bosqich bo'lgan nasldan-naslga o'tadigan qullikkacha bir qator davrlarni o'tgan. Dastlab asosan ayollar, bolalar qul qilingan. Avval boshda cho'rilardan o'ynash sifatida va uy-ro'zg'or ishlarida foydalanilgan. Oldin qullar jamoaga qarashli bo'lgan, keyinroq xususiy qullik vujudga kelgan.

3-asosiy savol: Patriarxatdan patriarxatga o'tish.

Darsning maqsadi: Ota urug'ining ona urug'i o'rnini olishi jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lganligini ko'rsatib berish.

Identiv o'quv maqsadlari: 3.1.Patriarxatdan patriarxatga o'tish ishlab chiqarish kuchlarining o'sishiga asoslanishini tahlil qiladi. 3.2.Patriarxal munosabatlar tarkib topishi bilan birga erkak avlodlaridan patriarxal oila paydo bo'lganligini biladi.

3-asosiy savol bayoni: Plug dehqonchiligi, chorvachilik, kasbkorlik ovchiligi, ixtisoslashtirilgan baliq ovlash erkaklar mashg'uloti hisoblangan. Ular rivojlanishi bilan ortiqcha mahsulot kelib chiqqan, bular uning o'z mulki hisoblangan. Kosibchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi sababli ayolning ilgarigi uy xo'jaligidagi sohalari ham erkaklar mashg'ulotiga aylangan. Erkak boshqarishni qo'lga olgan. Ayol ijtimoiy ishlab chiqarishdagi rolini yo'qotib, jamiyatda va oilada birinchi o'rinni qishloq kengashi yig'ilishlarida ishtirok etishdan chetlashgan. Ayol erga chiqishda uning jamoasiga ko'chib o'tadigan bo'lib qolgan. Urug' ayolni yo'qotar ekan, uning uchun haq, ya'ni ishchi kuchi yo'qolayotgani uchun tovon to'lashni talab etgan. Shu tariqa xotinlarni sotib olish vujudga kelgan. Bunda xotin erining irodasiga tamomila bo'ysunadi. Ayollarni er jamoasiga mahkam berkitish uchun levirat va sarorat urf odatlaridan foydalanilgan.

Levirat - aka yoki uka o'lgan akasi yoki ukasining xotiniga uylanadi.

Sarorat - erkak agar o'lgan xotini uchun to'langan haqni qaytib berishni talab qilmasa, uning singlisiga uylanadi.

Xotin erining mulkini meros qilib ololmagan. Xotinning o'zi erining mulki hisoblangan. Erkak - oila boshlig'i, bolalar va xotin ustidan hukmron. Xotin uchun bir nikohlilik belgilab qo'yilgan. Er xotiniga bevafoqlik qilish huquqiga ega bo'lgan. (Erni dafn qilish marosimida xotinini o'ldirib, birga ko'mish tartiblari patriarxatning saqlanib qolgan belgilaridir).

Ayol ishlab chiqarishda muhim mavqeini egallab turganiga qadar oila urug` munosabatlarini matriarxal xarakteri saqlanib turgan. Uy xo`jaligida qullar mehnatidan foydalana boshlash natijasida bu xo`jalik ishi sharaflı faoliyatdan qullik ishiga aylanib ayollarni qullik darajasiga tushirishga imkon bergan Endi erkaklar urug`ning doimiy yadrosini tashkil etgan. Uning opa-singillar va qizlari erga chiqqandan so`ng erining urug` guruhi va oilasiga ko`chib borib joylashgan. Qarindoshlik hisobi ota nasabidan yuritiladigan bo`lgan, endi oilaning mulkini bolalar meros qilib oladigan bo`lishgan. Ayol erining oqsochiga bola tug`ishning oddiy vositasiga aylangan. Chorvachilik qabilalriga xos xususiyatlardan biri erkak bilan ayolning ayni bir vaqtda ko`milishi bilan bog`liq bo`lgan juft mozorlarining uchrashidir.

Matriarxat zamonida jinslarning alohida yashashi munosabati bilan erkaklar uyi bo`lgan. Erkaklar uylanishi urug` jamoasining erkaklari yig`ilish joylari bilan ular bo`sh vaqtlarini shu yerda o`tkazishgan. Ittifoq kengashiga eng boy nufuzli odamlar kirgan.

Patriarxal munosabatlar tarkib topishi bilan birga erkak avlodlaridan patriarxal oila paydo bo`lgan. Oila jamoasi jamiyatning iqtisodiy yacheykasi bo`lgan. O`sib borgan katta oilada uy xo`jaligini boshqarish qiyinlashib borganda oila jamoasi qismlarga bo`lingan. Har bir qism vaqt o`tishi bilan, yangi *patriarxal oilaga* aylana borgan. Bir oilaviy jamoaning bo`linib ketishi natijasida tashkil topgan qarindosh patriarxal oilalar gruppasi *patronimiya* deyiladi. Patriarxal oilalar va patronimiyalarning jami *patriarxal urug` jamoasini* tashkil qilgan. Patriarxal urug`jamoasi xo`jalik yacheykasi bo`lmagan. Patriarxat matriarxat singari universal bosqichdir. Matriarxatdan patriarxatga o`tish ishlab chiqarish kuchlarining o`sishiga asoslanadi. Bu o`sish ilgaridan rivojlangan. Etnografik materiallar shuni ko`rsatadiki, muayyan taraqqiyot darajasiga yetgan har qanday xo`jalik asosidan masalan, ixtisoslashtirilgan ovchilik, baliq tutish xo`jaligi negizida ham ota urug`i vujudga kelish jarayoni sodir bo`ladi. Ovchilik bilan shug`ullanuvchi chukchalar patriarxatning relikt vakillaridir. Ularda mulkiy notenglik ro`y bergan. Yangi Gvineya papuaslari patriarxat bosqichida yashaganlar. Ularda sug`oriladigan polizchilik, cho`chqa podalari bo`lganligi, erkin odamlarning kambag`allar va boylarga bo`linganligi aniqlangan. Boylarning 40 tagacha cho`chqasi bo`lgan va bir necha xotin sotib olishgan.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Ibtidoiy jamiyatning qaysi davrida ilk dehqonchilik paydo bo`ldi?
2. Ibtidoiy jamiyatning qaysi davrida chorvachilik kelib chiqdi?
3. Ibtidoiy jamiyatning qaysi davrida hunarmandchilik paydo bo`lgan?
4. Dastlabki dehqonchilik qayerdan boshlangan?
5. Qaysi davr o`zlashtiruvchi xo`jalik formalaridan ishlab chiqaruvchi formalariga o`tilishi bilan harakterlanadi?
6. Qaysi davr muhim texnika yutug`i bo`lgan keramika bilan harakterlanadi?
7. Qaysi davrda o`rish, to`qish, yigirishga asos solingan?
8. Neolit davrining turar joylari qanday bo`lgan?
9. Neolit davrining mehnat qurollari?
10. Urug`chilik tuzumining ravnaq topishi qaysi davrga to`g`ri keladi?
11. Ibtidoiy odamlar misga ishlov berishni qachon bilib olgan?
12. Old Osiyoda va Nil vodiysida mis eritish va misni qizdirib ishlash qachon boshlangan?
13. Yevropada mis eritish qachon boshlangan?
14. Birinchi yirik ijtimoiy mehnat taqsimoti nima?
15. Initsiatsiya nima?
16. Matrilokal nima?
17. Ayollarni er jamoasiga mahkam berkitish uchun qanday urf-odatlardan foydalanilgan?
18. Patriarxal oilalar nima?
19. Patronimiya nima?
20. Patriarxal urug`jamoasi nima?

10-MAVZU: URUG'CHILIK TUZUMINING BUZILISHI VA DAVLATNING VUJUDGA KELISHI

Asosiy savollar:

1. Temir asrining boshlanishi.
2. Harbiy demokratiya.
3. Sinflar va davlatning vujudga kelishi.

Tayanch tushuncha va iboralar: Ishlab chiqarish kuchlarining yuksalishi. Sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi. Mehnat qurollari. Omoch. Ko'chmanchi chorvachilik. Birinchi mehnat taqsimoti. Hunarmandchilik. Ikkinchi mehnat taqsimoti. Metallurgiya vujudga kelishi. Mis, jez, temir. Almashuv. Jamiyatning parchalanishida notekislik va xilma-xillik. Mulkiiy tengsizlik. Xususiy mulk. Nikoh odatlari. Urug' aloqalarining qo'shni aloqalar bilan almashuvi. Qabila ittifoqlarining vujudga kelishi. Zodagonlik. Sinfiy jamiyatning shakllanishi. Jinsiy tengsizlik.

1-asosiy savol: Temir asrining boshlanishi.

Darsning maqsadi: Temir davrida kasblar yanada xilma-xil bo'lib ixtisoslashgan va takomillashgan kasblarga aylana borishi sabablari va mohiyatini yoritib berish, ikkinchi va uchinchi mehnat taqsimotining o'ziga xos tomonlarini tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadlari: 1.1. Temir tarixda revolyutsion rol o'ynagan eng muhim xom ashyo ekanligini ochib beradi. 1.2. Ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimotini tahlil qiladi. 1.3. Savdo-sotiq vositalari keyinchalik savdogarlar sinfiga aylanganligini va uchinchi mehnat taqsimotini keltirib chiqargan sabablarni yoritib beradi.

1-asosiy savol bayoni: Temir asrining boshlanishi. Ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti. Ibtidoiy jamiyat texnikasi ayniqsa temir davrida ilgarilab ketgan. Temir o'zidan ilgarigi mis va bronzaga nisbatan ulkan ustunlikka ega bo'lgan. Yangi material bronzadan qattiqroq, bolg'alab yasaladigan, tabiatda eng ko'p uchraydigan metallidir. Temir rudalar, ayniqsa to'qay rudalari hamma yerda bor bo'lgan. Odamlar temirdan foydalanishni keyinroq o'rganishgan, chunki u baland temperaturada 1530 da eriydi. Shuning uchun dastlab ibtidoiy temirchilik o'chog'i yordamida ya'ni unga temir rudasi va pista ko'mirni to'ldirib solib, 1100 va undan baland temperaturada shlak bilan aralashgan xamirsimon massa-kritsani hosil qilishgan. Ko'mirning yonishi va temperaturani oshirish bilan qulay sharoit yaratilgan va bunday ishlov berish rudadan bevosita temir ajratib olish usuli deb ataladi.

Old Osiyoda topilgan temir eritishning dastlabki izlari eramizdan avvalgi XI asrga taalluqlidir. Temir asri eramizdan 1000 yil avval boshlangan. Temirni tarixda revolyutsion rol o'ynagan xom ashyo turlarining hammasi ichida eng muhimi deb atadik. Temir buyumlar keng tarqala boshlagan va hatto bronza qurollarini siqib chiqargan.

Mehnat qurollari yasashda temirdan foydalanish dastavval qishloq xo'jalik texnikasiga ta'sir etdi. Metall soshnikli (tishli) pluglar, temir boltalar va kuraklar paydo bo'lgan. Bu qurollar katta-katta maydonlarda dehqonchilik qilishda, o'rmonzorlarni tozalab, ekin maydonida qo'sh kuchidan foydalanishda yetakchi xo'jalik tarmog'iga aylana borgan.

Dehqonchilik yutuqlari chorvachilikning rivojlanishiga muqarrar suratda ta'sir qilgan. Dehqonchilik mahsulotlarini keng ravishda ayirboshlash imkoniyati chorvador qabilalar ajralib chiqishiga olib kelgan, ular dehqonchilik xo'jaligining qoldiqlari bilan tamomila uzilganlar.

Temir kosibchilikning rivojlanishida ham muhim rol o'ynagan. Endilikda kosib ixtiyorida qurollar bor bo'lib, ular suyakka, yog'ochga ishlov berish, teri, rangli metall va shu kabilarni ishlashni tubdan yaxshilashga imkoniyat bergan.

Temir ishlash mutaxassislari - temirchilar paydo bo'lgan.

Odamlar kulolchilik charxini yaratganlar. Kulollar paydo bo'lgan.

Oddiy dastgoh ixtiro qilinishi bilan birga to'quvchilik vujudga kelgan, to'qimachilik alohida ajralib chiqqan.

Temir davrida kasblar yanada xilma-xil bo'lib ixtisoslashgan va takomillashgan kasblarga aylana borgan.

Kasblarning unumdor faoliyati tufayli boshqa turlari bilan birga qo'shib olib borish mumkin bo'lmay qolgan. Agar ilgari mehnat qurollarini qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi odamlar ishlab chiqargan bo'lsalar, endilikda kosiblar ajralib chiqishgan. Kosiblar mustaqil xo'jalik tarmog'iga aylangan. Natijada kosibchilik qishloq xo'jaligidan ajralib chiqqan, ya'ni ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti ro'y bergan.

Kosibchilikning xo'jalik tarmog'i sifatida paydo bo'lishi bilan tovar ishlab chiqarish vujudga kelgan. Tabiiy xo'jalik avvalgidek ustun xo'jalik bo'lib qolavergan. Kosiblar endi kezib yurishmay muayyan joylarda o'rnatilib olganlar. Ularning qishloqlarida boyliklar to'plana borgan. Hujumlardan himoya qilish maqsadida qishloqlar atrofi devorlar bilan o'rab olingan. Keyinchalik ular shaharlarga, kasb-hunar va savdo markazlariga aylana borgan. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi bilan mahsulotlarning bir qismini ayirboshlash kengaygan va hayotiy zarurat bo'lib qolgan. Kosiblar endi ayirboshlovsiz tirikchilik qila olmas edilar. Ular o'z buyumlarini qishloq xo'jalik mahsulotlariga ayirboshlaganlar.

Hamisha yuz beradigan ayirboshlash umumiy qiymat o'lchovini ishlab chiqishga va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida vositachilarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Uy hayvonlari keng yoyilgan ekvivalent bo'lib qolgan. Pulning lotincha nomi (resis "hayvon"), Hindistonning hozirgi zamon pul birligi rupiya buning dalilidir. Ba'zi bir xalqlarda nodir chig'anoqlar, fil suyagi, qushlarning patlari, quyma metallar va buyumlar ekvivalent hisoblangan.

Savdo-sotiq vositalari keyinchalik savdogarlar sinfini yuzaga keltirgan. Bu uchinchi mehnat taqsimoti edi. U ijtimoiy sinflarga bo'linishdan ilgari sinfiy jamiyatga o'tish davrida yuzaga kelgan va bora-bora mustahkamlangan. Savdogarlar paydo bo'lishi bilan birga chet mamlakatlar bilan savdo qilish boshlangan.

2-asosiy savol: Harbiy demokratiya.

Darsning maqsadi: Urug'chilik tuzumi ravnaq topgan zamonda mavjud bo'lgan boshqarish organi harbiy demokratiya mohiyatini ochib berish.

Identiv o'quv maqsadlari: 2.1. Sinflar va davlatning tashkil topishida barcha xalqlar harbiy demokratiya davrini boshidan kechirganligiga baho beradi.

2-asosiy savol bayoni: Urug'chilik tuzumining buzilish davridagi siyosiy ustqurtmasi - **harbiy demokratiya** deb ataladi. Urug'chilik tuzumi ravnaq topgan zamonda mavjud bo'lgan boshqarish organlari xalq yig'ilishi, oqsoqollar kengashi, lashkarboshi harbiy demokratiya davrida qolgan, ammo ular o'z mohiyati jihatidan o'zgargan. Oqsoqollar kengashi yo'l boshchilari sud vazifalarini bajarganlar. Sud xalq ishtirokida bo'lgan. Yo'l boshchi diniy e'tiqodni nazorat qilgan.

Yo'l boshchi mansabiga eng boy patriarxal oila boshlig'i, dastlab muayyan bir muddatga keyinchalik umrbod saylab qo'yilgan. Ishlab chiqarish kengaya borgan sari uning tashkil etilishi va ijtimoiy tartiblar murakkablasha borgan, yangi odatlar va ijtimoiy funktsiyalar paydo bo'lgan. Bularni ijro etish uchun ko'proq bilimga, tajribaga ega bo'lish talab etilgan. Yo'l boshchida ana shunday kerakli tajribalar to'plana borgan. Ijtimoiy burchlarni bajarish iqtisodiy foyda keltira boshlagan jamoa rahbarida o'z bilimi va tajribalasini boshqalardan yashirib, ularni o'g'liga o'rgatishdan manfaatdorlik paydo bo'lgan.

Ota o'lgandan keyin jamoa yo'l boshchining vazifalarini ijro etishni uning bu ishda eng bilimli bo'lgan o'g'liga topshirgan. Shu tariqa ijtimoiy mansablar bir oila doirasida meros bo'lib qola boshlagan. O'sha zamonda urushlar tez-tez bo'lib turgan. Qo'shnilarning boyliklarini talon-taroj qilish uchun osonlik bilan tez o'ljalar olish maqsadida urushlar olib borilgan. Qabiladoshlarning tinchlik xotirjamligi ularning harbiy mahoratiga bog'liq bo'lgan. Urush vaqtida ular lashkarga rahbarlik qilishgan lashkar an'anaviy urug' qabilaga mansublik

belgisiga qarab tuzilgan lashkarboshining kuchli, botir, sadoqatli jangchilardan tuzilgan doimiy drujinasi bo'lgan. U ana shu janglar yordamida tobora ko'proq obro'ga ega bo'lgan. Boshliq drujina bilan birga talonchilik maqsadida bosqinlar qilgan. Bunday yurishlar harbiy texnikani rivojlantirishga, qabilaning harbiy tashkilot sifatidagi rolini oshirishga, qarindosh-qabilalarning ittifoqlarini tuzishga qishloqlarni hujumlardan himoya qilish maqsadida ularning atrofini tuproq g'ovlar, xandaqlar bilan mustahkamlashga imkon bergan.

urug'chilik tuzumining buzilishini, sinflar va davlatning tashkil topish davrini kechirgan barcha xalqlarda harbiy demokratiya bo'lgan. Gomer jamiyatida, podsholik davridagi Rim tarixida, skiflarda, keltlarda, germanlar va normandlarda harbiy demokratiya klassik shaklda mavjud bo'lgan.

Xususiyl mulk va mulkiy tengsizlikning vujudga kelib kuchaya borishi qator o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Bu hol urug' jamoa va qabilalar orasidagi munosabatlarni, ular orasida qator-qator kelishmovchiliklarni vujudga keltirdi. Bu kelishmovchiliklar esa qabilalararo urushlarni kuchayishiga sabab bo'ldi. Ilgari chegarani himoya qilish, o'ldirilgan urug' a'zolarining xunini olish uchun urushlar olib borilgan bo'lsa, endilikda urush talonchilik, boylik orttirish va qo'lga kiritishning asosiy manbaiga aylandi. Urushda g'olib chiqqan qabilalar qo'lga tushurgan xazina, qurol, chorva va boshqa qimmat baho buyumlarni o'lja qilib olar, erkin aholini esa qul qilib haydab ketar edilar. aholi sonining orta borishi bilan esa yengilgan qabilalarning ekin yerlarini, ajoyb o'tloqlarini, hayvonot olamiga boy bo'lgan ov qilish maydonlarini ham tortib olar edilar. Talonchilik bosqinchi qabilalarga mashaqqatli meshnatdan ko'ra osonroq va xatto sharafliroq bo'lib ko'rinadi. Demak o'sha davrdagi harbiy yurishlar, harbiy texnika va harbiy tashkilotlarni qayta qayta ko'rishni talab etar edi.

Jangovar va mudofaa ahamiyatga ega bo'lgan nayza, oybolta, cho'qmor, qilich, dubulg'a, qalqon, xanjar kabi qurollar o'sha vaqtlarda paydo bo'ldi va takomillasha borgan. Dushman hujumidan saqlanish uchun qishloqlarni atrofi qalin devor, ko'tarma va xandaq kabi mudofaa inshootlari bilan ihota qilina boshladi.

Shunga muvofiq urush xarakterlari, uning taktika va strategiyasi o'zgarib murakkablasha boshladi. Aholining borgan sari zich bo'lib yashashi talonchilik urushlari, o'z-o'zini mudofaa qilish, qator ichki va tashqi sabablar hamma yerda qarindosh qabilalar ittifoqini tuzish zaruriyatini taqazo etdi. Qabilalar ittifoqi, ular orasidagi iqtisodiy -siyosiy va madaniy munosabatlar esa turli qabilalarning bir-biriga qo'shilib, aralashib ketishi natijasida jamiyatda yangi ijtimoiy shakl-xalqlar vujudga keldi. Dastlab harbiy yurishlari vaqtida qabila boshlig'ining o'zi barcha ishlarga rahbarlik qilgan. Lekin urush harakatlarining kuchayishi va urush texikasining takomillashuvi natijasida alohida harbiy boshliqlar ajralib chiqqan boshlaydi. Bu harbiy boshliq yoki lashkarboshi atrofida esa kuchli, botir epchil va sadoqatli jangchilardan tashkil topgan askarlari bo'lgan.

Qabilani tashqi dushmanlardan muvaffaqiyatli ravishda mudofaa qilish va talonchilik urushlari va harbiy sohada olib borilgan boshqa ishlar lashkarboshilarning obro'-e'tiborini oshirib yuboradi. Qo'shni qabilalar ustiga bosib borish, talonchilik urushlari natijasida hisobsiz o'ljalari va asirlar qo'lga kiritilgan. Shubhasiz bu o'lja va asirlar g'oliblar orasida taqsimlanib, boylik va asirlarning katta qismi harbiy boshliqlarga tekkan. Shunday qilib g'olib kelgan lashkarboshilar va askarlar o'ziga qabila va xalqlarni talash yo'li bilan boyib keta boshlaganlar.

Endilikda ilgari xalq lashkaboshi qabila uchun zarur bo'lgan mansabdor kishiga aylana boshlaydi. Xalq majlisi bo'lmagan joyda xalq majlislari paydo bo'lib, xalq majlisi, lashkarboshi, oq soqollar kengashi harbiy demokratiya deb atalmish tashkilotni tashkil etadilar. Xalq yig'inida 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar-ya'ni xarbiy yoshdagi

kishilar qatnashar edi. unda yo'lboshchini, demokratik muassasi hisoblangan xalq yig'ilishi va oq soqollar keggashi saylab qo'yar edi. Xarbiy demokratiyaning demokratik deyilishining sababi ham shundadir.

Xalq yig'ilishi harbiylar yig'ilishi ham edi. Unda xalq lashkarboshisining ta'siri kuchli bo'lib, endilikda urushning o'zi va urush olib borish uchun uyushish xalq turmushining muntazam funkstiyalariga aylandiki, shuning uchun ham u harbiydir. Harbiy demokratik tushunchasini tarix faniga olib kirgan kishi L.G.Morgan bo'lib, urug'chilik tuzumining so'nggi bosqichi davridagi jamiyatni boshqarish tashkilotini «harbiy demokratiya», deb atagan. Normanlar, qadimgi germanlar, keltlar, skiflar jamiyati, qadimgi Rimning podsholik davri va Gomer davridagi grek jamiyati harbiy demokratiyaning yorqin namunasi hisoblanadi. Shunday qilib, harbiy demokratiyaning vujudga kelishi talonchilik urushlari, qabilalararo-munosabatlar, savdo sotiq, ayriboshlashning kuchayishi xususiy mulkchilik, mulkiy tengsizlik, ijtimoiy tabaqalar va davlatning kelishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratdi.

3-asosiy savol: Sinflar va davlatning vujudga kelishi.

Darsning maqsadi: Sinflar va davlatning tashkil topishi uchun asos bo'lgan vositalar mohiyatini ochib berish.

Identiv o'quv maqsadlari: 3.1. Sinflar va davlatning tashkil topishiga baho beradi. 3.2. O'sha davrdagi davlat funksiyasi iqtisodiy jihatdan eng qudratli va siyosiy jihatdan hukmron sinfnings apparati sifatida kambag'allar bilan qullarning manfaatlarini tiyib qo'yishdan iborat ekanligini tahlil qiladi.

3-asosiy savol bayoni: Sinflar va davlatning tashkil topishi haqida, ya'ni qullikning azaliyligi to'g'risida, sinfiy mansublikka qaramay, barcha xalqlarning tinchlik-bardamligini saqlash maqsadida davlat barpo qilinganligi turli nazariyalar bor. "Zo'rlik nazariyasi" ayniqsa keng tarqalgan. Bu nazariya namoyondalari sinflar va davlat istilolar natijasida vujudga kelgan deb hisoblaydilar. Istilochilar yoki hukmron sinfni tashkil etgan va qul qilingan kishilarni o'z hokimiyati ostida saqlab qolish uchun davlat barpo qilgan emish. Bu nazariya noto'g'ridir.

Kosibchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishi bilan, savdogarlar sinfining paydo bo'lishi bilan qullik mustahkamlana borgan. Asta-sekin qullar ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lgan huquqsiz sinfni tashkil qilishgan. Ishlab chiqarish va iste'mol vositalari, shuningdek qullar egalaridan iborat quldorlar sinfi vujudga kelgan. Urug' va qabila boshliqlari, lashkarboshilar, koinlar, savdogarlar quldorlar bo'lib qolishgan. Ular qo'lida boyliklar to'plana borgan sayin xalqdan ajralib urug'-qabila zodagonlarini tashkil etishgan. Urug' qabila zodagonlari eng yaxshi va katta yer uchastkalarini egallab olish hisobiga, shuningdek, jamoa a'zolarining, qullarning qo'shimcha mahsulotlarini o'zlashtirishi, bo'ysindirilgan qabilalardan o'lpon va xiroj to'latish hisobiga boyishgan. Qo'shimcha mahsulot jamoa a'zolarining sovg'alar, qurbonliklari shaklida va to'g'ridan-to'g'ri bosib olish yo'li bilan zodagonlar qo'lga tushgan. Bu ish ular uchun oson bo'lgan, chunki ular ijtimoiy mulkning qo'riqchilari hisoblangan. Lashkarboshilar harbiy o'ljalarning juda ko'p qismini tortib olib, o'z mulk boyliklarini ko'paytira borishgan.

Jamoa zodagonlari boyliklarining oshib borishi bilan bir qatorda mulkiy tabaqalanish kuchaygan, kambag'allar ommasi tobora ko'paygan, ular boy odamlarga qaram bo'lib qola boshlaganlar. Shu tariqa ishlab chiqarishda turlicha o'rin tutadigan va jamiyatda har xil manfaatlar bo'lgan, mulkiy jihatdan farq qiladigan odamlar guruhi tashkil topgan. Bunday sharoitlarda eski boshqarish organlari ishlay olmagan. Ular qul va quldorlarning, boylar va kambag'allarning manfaatlarini yurishtira olmagan. Yangi organlar bo'lishi talab qilingan, ular urug'chilik tashkilotidan tashqarida vujudga kela boshlagan, shu organlar bilan birga

davlat paydo bo'lgan. Shunday qilib "davlat aslo jamiyatga tashqaridan zo'rlab kiritilgan emas".

Davlat jamiyat guruhlarining qarama-qarshi manfaatlarini kelishtirmagan. Davlat iqtisodiy jihatdan eng qudratli va siyosiy jihatdan hukmron sinfnining apparati sifatida kambag'allar bilan qullarning manfaatlarini tiyib, qisib qo'ygan. Qarama-qarshi sinflarga ega bo'lgan davlatning asosiy vazifasi -funktsiyasi ana shundan iboratdir.

Davlatning ikkinchi vazifasi chegaralarni qo'riqlash va kengaytirishdir. Qabila aristokratiyasining yordamiga va shaxsiy drujinalarning kuchiga tayanuvchi oliy lashkarboshilar davlatlarga boshliq bo'lib olishgan. Bir qator joylarda erkaklarning yashirin ittifoqlari boshliqlari hokimiyatni mustahkamlashga yordam berishgan: bu ittifoqlar shakllanayotgan davlatchilik sharoitida sud-politsiya vazifalarini bajarganlar.

Dastlabki sinfiy jamiyatlar eramizdan avvalgi 1V ming yillik oxirida Sharqdagi eneolit davrida Nil, Dajla va Frot daryolari vodiylarida dehqonchilik bilan shug'ullangan xalqlarda paydo bo'lgan. Eramizdan avvalgi 111 ming yillik o'rtalarida hind vodiysida 11 ming yillikda Egay dengizi havzasida, Kichik Osiyoda, Finikiya, Janubiy Arabistonda, Xuanxe daryosi vodiysida davlatlar vujudga kelgan, eramizdan avvalgi 1 ming yillikda va eramizning 1 ming yilligida yer territoriasining katta qismida davlatlar paydo bo'lgan.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Old Osiyoda topilgan temir ishlari va eritishning dastlabki izlari nechanchi asrga taalluqli?
2. Temir asri qachon boshlangan?
3. Temir buyumlar keng tarqala boshlashi qanday qurollarini sikib chiqargan?
4. Mehnat qurollari yasashda temirdan foydalanish qishloq xo'jaligi texnikasiga qanday ta'sir etdi?
5. Kosibchilikning qishloq xo'jaligidan ajralib chiqishi bilan nima ro'y bergan?
6. Uchinchi ijtimoiy mehnat taqsimotini ta'riflab bering?
7. Urug'chilik tuzumining buzilish davridagi siyosiy ustqurtma nima uchun harbiy demokratiya deb ataladi?
8. Nima uchun yo'l boshchi mansabidagi patriarxal oila boshlig'i muayyan bir muddatdan keyinchalik umrbod saylab qo'yilgan?
9. Nima uchun ijtimoiy mansablar bir oila doirasida meros bo'lib qola boshlagan?
10. "Zo'rlik nazariyasi"ning mohiyati?
11. Nima sababdan ishlab chiqarishda turlicha o'rin tutadigan va jamiyatda har xil manfaatlar bo'lgan, mulkiy jihatdan farq qiladigan odamlar guruhi tashkil topgan?
12. Qarama-qarshi sinflarga ega bo'lgan davlatning asosiy vazifasini qanday baholash mumkin?
13. Davlatning muhim belgisi nimadan iborat?
14. Dastlabki sinfiy jamiyatlar qachon va qayerda paydo bo'lgan?

11.MAVZU: OILA VA NIKOH

Asosiy savollar:

1. Jamiyatning yosh va jinsga qarab bo'linishi.
2. Patriarxal jamoaning buzilishi. Monogam oila.
3. Urug' aloqalari o'rniga qo'shni aloqalar bilan almashuv jarayoni.

Tayanch tushuncha va iboralar: Erkaklar uyi. Mulkning jinsga qarab bo'linishi. Jinsga qarab mehnat taqsimotining amalga oshirilishi. Nikoh va oila. Monogam oila. Nikoh puli-qalin. Nikoh odatlari. To'y. Kelin. Oilada ota va buvaning roli. Oilaviy mulk. Jamoadagi ekzogamiya. Jamoa boshqaruvi.

1-asosiy savol: Jamiyatning yosh va jinsga qarab bo'linishi.

Darsning maqsadi: Jinsga qarab mehnat taqsimotining amalga oshirilishi sabablari va mohiyatini yoritib berish.

Identiv o'quv maqsadlari: 1.1. Matriarxatdan patriarxatga o'tishni tahlil qiladi.

1.2. Matrilokal nikoh tartibini yoritib beradi.

1.3. Katta patriarxal oila paydo bo'lishini izohlab beradi.

1-asosiy savol bayoni: Hayot taqazosi bilan vujudga kelgan urug'lar keyinchalik qabilani tashkil etgan. Dastlabki qabilalar ikki va undan ortiq, urug'dan tashkil topishi mumkin edi. Bir Avstraliya qabilasining ikki «pallaga» yoki ikki nikoh sinifi»-kroki va kumetiga bo'linishi buning yaqqol misolidir. Urug'chilik jamiyatining bu dastlabki tuzilishini *dual* tashkilot deb atash rasm bo'lgan. Bu dual tashkilot turli mamlakatlardagi ko'pgina qabilalarda so'ngi vaqtlargacha ham saqlanib sodda yoki murakkab tarzda ko'zga tashlanadi.

Dual tashkilotining navbatdagi murakkabroq shakli boshqacharoq bo'lib, bunda qabila har qaysi to'rt urug'dan iborat ikkita «pallaga» bo'linadi. Ilk qabila tuzilishining bu ikki shakli fratriy-birodarlik sistemasi deb ataladi. Shimoliy Amerikadagi tubjoylik seneka-irokezlar qabilasi *fratriya* tashkilotining klassik namunasi hisoblanadi.

Seneka-irokezlar qabilasi to'rt urug'dan iborat bo'lgan ikki fratriyaga bo'lingan. Mazkur fratriya va urug'lar alohida nomlar bilan atalgan. Rivoyatlarga ko'ra ularda Ayiq va Kiyikdan iborat ikkita boshlang'ich urug' bo'lgan, Bo'ri, Qunduz, Toshbaqa (Ayiqlik fratriyasi) Loyho'ra, Qo'tos, Lochin (Kiyik fratriyasi) kabi urug'lar ularning bo'linishi natijasida shakillangan. Bunday misollarni yer yuzining boshqa xalqlarida ham kuzatish mumkin.

Urug'chilik tuzumining bunday dual tashkiloti shaklida paydo bo'lishi erkak va ayollar orasidagi munosabat-nikoh rivojlanishining yangi bosqichi bilan chambarchas bog'liqdir. Kishilikning polda davrlarda nikoh munosabatlari o'zining betartibliigi va umumiyligi bilan xarakterlidir. Nikoh va oila munosabatlarining bu shakli *promiskuitet* deb ataladi. Urug'chilik tuzumi davriga kelib esa nikoh va oila munosabatlari o'zgara bordi. Promiskuitetda dastlabki cheklanish sodir bo'ldi, bu ham bo'lsa katta avlod bilan kichik avlod o'rtasidagi nikoh munosabatlarining bekor qilinishidir. Mazkur davrdagi dual tashkilotining eng muhim xususiyati shundan iborat ediki, bu bir «pallaga» mansub odamlarning o'zaro nikohlana olmasligi edi. Endi er va xotin qabilaning turli «palla» sidan bo'linishi shart edi. Birmuncha rivoj topgan fratriyadagi dual tashkilotining nikoh tartibi bir fratriyadagi va undagi urug'ning odamlari o'zaro nikohlanishi mumkin emas. Yigit boshqa fratriyaga mansub bo'lgan qiz yoki ayol bilan nikohlana olishi mumkin edi. Natijada bir fratriya boshqa fratriyaga nisbatan «ona fratriyasi» ona urug'i boshqasi esa «ota fratriyasi» ota urug'i vujudga kelar edi. Shu tariqa ekzogamiya nikoh tartibi vujudga kelgan.

Shunday qilib, doimo qabilaning ikki pallasi, fratriyalar va fratriyadagi ikki urug' o'rtasida tuziladigan nikoh tartibining xususiyati bu tartibni dual ekzogamiya deb atashga asos bo'ldi. Ikkinchidan esa doimo bir urug' bir fratriya, ichida shubhasiz ekzogamiya shakillanayotgan vaqtda nikoh tartibi bir yigit va bir qizning qovushishidan iborat bo'lmagan ekzogamiyali nikohga muvofiq butun bir urug'ning hamma erkaklari boshqa urug' yoki pallaning ayollariga er bo'lishi huquqiga ega bo'lgan. Nikohning bu tarixiy shakli *guruhli nikoh* deb atalgan.

Guruhli nikohning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bundan tug'ilgan bolaning otasi aniq bo'lmay, faqatgina onasi ma'lum bo'lgan xolos. Bunday sharoitda butun dual sistema-urug'lar, pallalar va fratriya ayollar atrofida to'planadi. Demak har bir shunday guruh, ayollar avlodidan tashkil topadi va qon-qarindoshlik onalar avlodidan hisoblanadi. Shu tariqa urug' ona urug'i sifatida vujudga kelib, urug'chilik tuzumi rivojlanishida *matriarxat*, deb ataladigan davr boshlangan.

Urug'chilik tuzumining bu dastlabki bosqichidayoq erkak va ayollar o'rtasida ijtimoiy mehnat taqsimotining harakteri va jamiyat rivojlanishining bu bosqichida ayollarning o'ynagan xo'jalik roli urug'chilik tuzumining ota avlodidan emas balki ona avlodlaridan boshlanishining asosiy sabablaridan biri deb hisoblanadi. Lekin insoniyatning barchasi o'z boshidan matriarxat paleolitdan neolit oxirigacha bo'lgan uzoq lekin qatorasiga ikki marta ishlatilgan tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Lekin kishilikning matriarxat bosqichi yer sharining hamma yerida bir vaqtning o'zida boshlanib bir vaqtning o'zida nihoyasiga etgan xolos. Uning rivojlanish darajasi ham turlicha bo'lgan. Bu shubhasiz ishlab chiqarish kuchlarining qay darajada rivojlanishiga bog'liq edi.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlana borishi oqibatida matriarxatdan patriarxatga o'tish sodir bo'ladiki, endilikda erkaklar ishlab chiqarishda asosiy rol o'ynay boshladilar. Bu o'tish avvalo xo'jalikning yuksalishida motiga asosidagi dehqonchilikdan omoch asosidagi dehqonchilikka o'tishda, uy hayvonlarini urchitib, ko'paytirib boqishdan chorvachilikka o'tishda namoyon bo'ldi. Natijada erkaklar xo'jalikda etakchi o'rniga chiqib oldilar, ayollar esa uy xo'jaligi ishlari bilan shug'ullanib ikkinchi o'ringa tushib qoldilar. Endilikda urug' ota urug'i nomi oldi.

Lekin yer yuzining turli yerlarida ona urug'i va ota urug'i tartibida hayot kechirayotgan etnik gruppalar, qabilalar va xalqlar hamon mavjud. Ammo ota urug'i tarkibidagi qabila, elat va xalqlar asosiy ko'pchilikni tashkil qiladi. Mazkur ijtimoiy tashkilot qon-qarindoshdan iborat xo'jalik tashkiloti bo'lib, unda birgalikda ishlab chiqarish mavjuddir. Ishlab chiqarish vositalari va iste'mol mahsulotlari urug' a'zolari uchun umumiy bo'lgan.

Matriarxatdan patriarxatga o'tish nikohning va oilaning yangi shakllarini paydo bo'lishi bilan birga sodir bo'ladi. Mazkur davrga kelib, *matrilokal o'rnashish* endilikda erkaklar egallay boshlagan ijtimoiy va xo'jalik vaziyati bilan murosasiz qarama-qarshilikka uchraydi. Endilikda erkak o'zining yangi ijtimoiy vaziyatga tayangan holda matrilokal nikoh tartibini yemirib tashlaydi va xotinini o'z uyiga olib keladi. Bu *patrilokal o'rnashish* tartibi bo'lib, nikohning yangi, yuqori shakli edi. Bolalari bilan birgalikda er va xotinning mustahkam bog'lanishi yakka nikohni *monogamiyani* vujudga keltirdi.

Shunday qilib katta ona oilasi o'rniga *katta patriarxal oila* paydo bo'ldi. Bu jarayon qisqa vaqt ichida bo'lgani yo'q albatta. Unda matriarxatning sarqitlari uzoq vaqt saqlanib qolgandir. Patriarxatning dastlabki bosqichida oila erkak va ularning xotinlaridan iborat bo'lib, ularning bolalari ona urug'ida, o'z tog'alari huzurida yashaydilar. Patriarxatda katta oilani katta yoshdagi erkak boshqaradi. Ayol o'z ona urug'idan qarindoshlari bilan aloqasini buzmaydi. Balki, u yerda tez-tez bo'lib, ma'lum muddatga qolib ketadi. Ayol homilador bo'lib, oy-kuni yaqinlashgach ona oilasiga kelib yangi farzandini tavallud etadi. Bu ayollarning ma'lum darajadagi mustaqilligidan darak beradi. Lekin vaqti kelib, patriarxatning ikkinchi bosqichlarida ota matriarxatning bu qoldig'ini yemirib tashlab bolalarini ham, xotinini ham o'z uyini ushlab qoladi. Oqibat natijada bu oila *patriarxal oilaga* aylanadi.

Yerga va ishlab chiqarish qurollariga egalik oila xo'jaligining asosini tashkil etadi. Bu vaqtga kelib katta patriarxal oila maydaroq oilaga bo'linadi. Bu *patronimiya* deb atalgan bir butun xo'jalik va ijtimoiy kollektivni tashkil qiladi. Yerning ma'lum uchastkasi ham ularga beriladi, yerda birgalikda ishlanadi, hosil esa oila o'rtasida taqsimlanadi. Patronimiyalar dastlab alohida qishloqni tashkil qilar edi. Lekin keyinchalik patronimiyalardan iborat qishloqlar paydo bo'ladi. Patriarxal oilalar va patronimiyalar birlashib bir necha qishloqlardan iborat bo'lgan *patriarxal urug' jamoasini* tashkil etadi. Patriarxal urug' jamoasi qabilaning urug'ga berilgan yeridan foydalanadi.

2-asosiy savol: Patriarxal jamoaning buzilishi. Monogam oila.

Darsning maqsadi: Xususiy mulkning vujudga kelishi bilan patriarxal jamoalar kichik oilalarga bo'linib ketganligini ochib berish va monogam oilalar vujudga kelganligini yoritish.

Identiv o'quv maqsadlari: 2.1. Xususiy xo'jalik va xususiy mulkning vujudga kelishi shaxsiy tashabbusni kuchaytirishga, mehnatning tobora taqsimlanishiga va unumdorligining osha borishiga imkon berganligini sharhlaydi.

2.2. Patriarxal jamoalar kichik oilalarga bo'linib ketganligini ochib beradi.

2.3. Monogam oila faoliyatiga baho beradi.

2-asosiy savol bayoni: Ibtidoiy jamoa tuzumining asosiy negizi - kollektiv mehnatni bunyodga keltirgan ishlab chiqaruvchi kuchlarning nihoyat darajada qoloqligi, mehnat unumdorligining pastligi, iste'mol vositalarining tekis baravar taqsimlanishi bilan baholanadi. Temir qurollarning keng tarqalishi tufayli dehqonchilikda, kosibchilikda, chorvachilikda mehnat unumdorligi osha borib, ana shu negizni tubdan o'zgartirdi va o'sha vaziyatda ancha progressiv bo'lgan individual ishlab chiqarishga - xususiy manbaiga o'tish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Ilgari faqat katta kollektivning qo'lidan keladigan ishni endilikda ayrim oilaning bajara olishi mumkin bo'lib qoldi. Kollektiv mehnatga hojat qolmadi.

Xususiy xo'jalik va xususiy mulkning vujudga kelishi progressiv tarixiy protsessdan iborat bo'lib, u shaxsiy tashabbusni kuchaytirishga mehnatning tobora taqsimlanishiga va unumdorligining osha borishiga imkon bergan. Mehnatning kuchaya borgan individuallashuvi sharoitida iqtisodiy jihatdan mustahkam oilalar alohida yashab urug'doshlardan alohida ajralib chiqar edilar.

O'sha zamonga kelib uy jamoalari kuchli ravishda o'sib kengayib ketgan. Shunday ishlab chiqarish sharoitlarida umumiy xo'jalikni boshqarish mumkin bo'lmay qolgan. Patriarxal jamoalar kichik oilalarga bo'linib ketgan. Bunday oilalar jamiyatning iqtisodiy yacheykasiga aylanib, xo'jalikni mustaqil boshqarganlar. Bunday oila *monogam oila* (bir nikoh) deb ataladi. Juft nikoh mustahkam bo'lib, faqat er tomonidan bekor qilinishi mumkin bo'lgan. Butun mol mulkning ishonchli merosxo'riga ega bo'lish maqsadida ayol uchun bir nikohlilik erkak tomonidan belgilab qo'yilgan. Erkak xotiniga bevafoqlik huquqini saqlab qolgan.

Shuni unitmaslik kerakki ona urug'idan ota urug'iga o'tishning shakli va bosqichlari xilma xildir. Lekin omoch asosidagi dehqonchilikka va chorvachilikka o'tish ona urug'idan ota urug'iga o'tishning eng muxim va keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi. Ona va ota urug'i davri ibtidoiy jamiyat tarixining ikki umumiy-tarixiy bosqichini tashkil qiladi. Xo'jalikning rivojlanishi natijasida ishlab chiqarishda erkaklarning mehnati ustun darajaga yetib, ular asosiy o'rinni egallaganda ona urug'i o'rmini ota urug'i egallashi shubhasizdir. Haydab ekiladigan dala dehqonchiliga va chorvachilik ota urug'ini yuksalishda qulay imkoniyatlar keltirdi. Hozir Afrika va Avstraliya, Amerika va Okeaniyada patriarxal munosabatlar hukmron bo'lgan qabilalar ko'p uchraydi.

Ona urug'idan ota urug'iga o'tish nikoh va oila munosabatlarining o'zgarishiga - *matrilaxal yoki dislokal joylashishning patriarxal joylashuviga* o'rin bo'shatib berishga olib keldi. Demak ota urug'i davriga kelib nikoh yangicha shakl va yangicha mazmunga ega bo'ldi. Ota urug'i davriga kelib matrilokal va dislokal joylashuv vaqtidagi muvaqqat va u qadr mustahkam bo'lmagan juft nikoh o'rnini er va xotinning ancha barqaror va mustahkam bog'lanishga ega bo'lgan - monogamiya-bir nikohlikka asoslangan oila shakli vujudga kela boshladi va tobora mustahkamlandi.

Nihoyat ilgarigi matriarxat oilalar o'rniga ota urug'i davrining yirik patriarxal oilalari tashkil topa boshladi. Ota urug'i o'zining rivojlangan va so'nggi bosqichiga o'tgach matriarxal tartibini yemirib tashlaydi. Er o'z bolalari va xotinini o'z urug'i o'z uyida olib qoladi va bu oila patriarxal oilaga aylanadi. Ayol va uning bolalari o'zi tug'ilgan oila,

qarindosh va butun urug'dan aloqani uzib, patriarxal oilaning uy xo'jaligida huquqsiz mehnat kuchiga aylanadi, xotin va bolalar shu oila boshlig'ining qo'l ostiga o'tadi. Shu tariqa oilada onalik huquqi mag'lub bo'lib, otalik huquqi g'olib bo'lib qoldi.

Monogamiyaga o'tish natijasida er-xotin orasidagi nikoh mustahkamlanadi va ularning bir-biridan ajralishi ancha mushkullashadi. Etnografik va tarixiy adabiyotlarda katta patriarxal uy jamoasi nomi bilan mashhur bo'lib, u bir otaning 3-4 avlodidan iborat eng yaqin qarindosh-urug'lari, ularning xotin va bolalari, oila doirasida yashovchi kuyovlari va oilaga qabul qilingan uzoq yaqin qarindoshlardan tarkib topgan, yagona xo'jalikka birikkan guruhlar majmuasidir. Bunday patriarxal oilalarda odam soni yuz va undan ortiq bo'ladi.

Ishlab chiqarish predmeti va ishlab chiqarish vositalariga umumiy egalik qilish patriarxal oila xo'jaligining negizini tashkil etib, ayrim shahsiy buyumlarga, (kiyim bosh, ayrim qurollar) u yoki bu kishining shaxsiy mulki hisoblanadi. Ammo, ishlab chiqarish jarayoni, ishlab chiqarilgan narsa va iste'mol buyumlari oila jamoasiga barobar taqsim qilinadi. Patriarxal oila jamoasi jamiyatining asosiy negizini tashkil etgan, oiladagi eng keksa erkak oila jamoasidagi barcha katta yoshdagi a'zolari bilan maslahatlashib uy jamoasining hamma ishlariga rahbarlik qilgan. Uy jamoasining butun a'zolari hamma uchun turar joyda istiqomat qilib, bir qozondan ovqat yeganlar.

Lekin aholi sonining tobora ortib borishi ishlab chiqarishning yuksalishi va xo'jalik tarmoqlaridagi ishlarining tobora murakkablashuvi natijasida uy xo'jaligini boshqarish ancha og'irlashadi. Natijada oila jamoasi ayrim-ayrim guruhlariga bo'linib ketadi va alohida xo'jalik bo'lib yashay boshlaydi. Patriarxal oilaviy jamoaning bo'linishi natijasida paydo bo'lgan qon-qarindosh oilalar kattalashib borib bir butun xo'jalik va ijtimoiy kollektivni tashkil etgan patranomiyalarga aylanadi. Patranomiyaning asosiy mohiyati va xo'jalik birligi asosini patriarxal oila kabi yerga umumiy egalik qilish va undan umumiy foydalanish tashkil etadi.

Patranomiya alohida qishloqni tashkil etib, o'zini o'zi idora etadi, o'z kengashiga, o'z boshlig'iga ega bo'ladi. Ular birgalashib, bir-birlariga ko'maklashadilar. Patriarxal uy jamoasi va patranomiyalar birlashib bir necha qishloqlardan iborat bo'lgan patriarxal urug' jamoasi qabilaning ular uchun ajratilgan ekin yerlaridan qabila uchun umumiy bo'lgan o'tloq, o'rmon, tog' daryo, ko'llardan barobar foydalaniladi. Uruqqa berilgan yer patranomiyalar o'rtasida vaqti-vaqti bilan taqsimlanib turiladi.

Dastlab patriarxal urug' jamoasini boshqarish xalqchil xarakterlarga ega bo'lgan. Patriarxal urug' jamoasini urug'dagi bosh patranomiya boshqarib, urug'dagi boshqa patranomiya va oilalarning boshliqlaridan saylangan kishilar urug' kengashini tashkil etadi. Urug'ning barcha katta yoshdagi a'zolari ba'zi muhim masalalarni hal etishda qatnashadilar.

Bu davrning eng muhim xususiyati shuki, undan ezuvchi halq ezuvchi ham, yo'q bo'lib umum manfaat shahs manfaatidan ustun turadi, hokimiyat esa urug' ichidagi katta yoshdagi, tajribali, obro'li shahs tomonidan boshqariladi. Ibtidoiy davrning eng katta, eng yirik etnik birlashmasi qabila bo'lib, u urug'larning o'zaro birlashuvidan tashkil topgan. Qabilaning ham xo'jalik ijtimoiy va mafkuraviy masalalarni hal qilishda o'z qoida qonuni mavjud. Qabilani urug' boshliqlaridan tashkil topgan kengash boshqargan. Kengashdagi eng keksa, obro'li tajribali, aqilli tadbirkor kishini qabila boshlig'i qilib tayinlaganlar. Qabila uchun aloqador bo'lgan masalalar urug' boshliqlaridan tashkil topgan kengashda xal qilingan. Qabilada ham urug'larda bo'lgani kabi ezuvchi ham, eziluvchi ham, zolim ham, zulm ko'ruvchi ham bo'lmagan. Chunki buning uchun hech qanday iqtisodiy va siyosiy zamin yo'q edi.

3-asosiy savol: Urug' aloqalari o'rniga qo'shni aloqalar bilan almashuv jarayoni.

Darsning maqsadi: Qarindoshlik aloqalari territoriya, qo'shni aloqalari bilan almashinganligini yoritish.

Identiv o'quv maqsadlari: 3.1. Qarindoshlik aloqalari territoriya, qo'shni aloqalari bilan almashinganligini ta'riflaydi.

3-asosiy savol bayoni: Kichik oilalar o'z jamoasidan ajralib chiqishar ekan, ko'pincha boshqa joyga ko'chib borib, ba'zan, hatto o'zga jamoalarning a'zolari bilan yonma-yon o'nashganlar. Natijada qon-qarindoshlar kollektivining butunligi, ularning territorial birligi buzilgan.

Qullik, kambag'allar va boylar mavjud bo'lgan sharoitda qarindoshlik oilalari bilan uzviy bog'liqlik yo'qolgan. Chunki, oilalar o'rtasida ham ziddiyatlar paydo bo'lgan. Qarindoshlik aloqalari territoriya, qo'shni aloqalari bilan almashingan. Bir joyda yashagan oilalar ba'zi bir birgalikda qilinadigan ishlar uchun birlashganlar. Masalan, qadimgi Sharqda ular birgalikda sug'orish inshootlarini qurganlar. Shu tariqa qo'shni jamoa - odamlarning yangi birlashish formasi vujudga kelgan. Tarixiy adabiyotlarda u *territorial jamoa yoki qishloq jamoasi* deb ham aytiladi. Barcha xalqlarda u yoki bu formadagi qishloq jamoasi mavjud bo'lgan.

Kichik oilada ishlab chiqarishda dehqonchilik, chorvachilik ayrboshlash va boshqa sohalarning yuksala borishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talab kuchaya bordi. Kichik oila katta xo'jalik yurita boshlash natijasida oilada kishilarning ish kuchi kifoya qilmay qoldi. Endilikda xo'jalik ishlarini olib borish uchun tashqaridan qo'shimcha yangi ishchi kuchi kerak bo'lib qoldi. Bunday ishchi kuchni o'zga qabilalar bilan olib borilgan urushlar vaqti asr olingan kishilar tashkil etib, ular qullarga aylantirilgan, ular mehnatidan xo'jalikning turli soxalarida foydalanilgan. Shuni ham aytib o'tish kerakki, harbiy asrlar qo'shimcha ishchi kuchi qulning yagona manbai emas. Ibtidoiy jamoa tuzumining emirilayotgan so'nggi bosqichiga kelib, iste'mol buyumlarini taqsimoti o'zgarib, ba'zi kishilar nochor ahvolga tushib qoladi. Natijada qarz olish paydo bo'lib, qarzni o'z vaqtida yoki umuman to'lay olmaslik qaramlik va asoratga olib keladi. Shunday qilib qul va qulchilik vujudga keldi. Qulchilik ba'zi joylarda matriarxatning so'ngi bosqichlaridayoq vujudga keldi, ibtidoiy jamoa tuzumining oxirlarida uning tanazzulga yuz tutgan davrida biroz rivoj topdi. Lekin bu davrdagi qulchilikni klassik qulchilikka taqqoslab bo'lmas edi. Chunki u hali ishlab chiqarishning alohida vositasiga aylanmagan edi. Ular o'z mulklariga ega bo'lishih bilan birga, ba'zi shaxsiy huquqlarga ham ega edilar. Ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilayotgan bir sharoitda hamma oilalar boylik jihatidan bir hil emas edilar. Ba'zi oilalar sermulk, badavlat, ba'zilari o'rta hol, ayrimlari esa kambag'alroq edilar. Ko'rinib turibdiki, bu davrga kelib oilalar urug'lar va qabilalar jamoasi ichida ham mulkiy-tengsizlik vujudga keldi. Mulkiy tengsizlikda esa jamiyatni boy va kambag'al tabaqalarga bo'lib yuborib, ular orasida qator ziddiyatlarni vujudga keltirdi. Bu ziddiyatlar esa ular orasidagi to'qnashuvlarga sabab bo'ldi. Mulkiy tengsizlikning vujudga kelishi xususiy mulkning vujudga kelishi bilan chambarchas bog'liq. Mulkiy tengsizlikning vujudga kelishi bilan jamiyatning bir necha qarama qarshi toifalarga bo'linishi ibtidoiy jamoa tuzumining negizida dastlabki quldorlik davlatlarini vujudga kelishi uchun asos yaratdi. Ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi davrida urug' jamoalari tarqalib qo'shni jamoalar vujudga kela boshlaydi. Urug' jamoalarining ko'chishi boshlanadi. Yoki ular borib o'nashgan yerga o'zga joylardan o'zga uruqqa mansub odamlar guruhi kelib o'nasha boshlaydi. Bu ko'chishlar urug'larning dastlabki territorial birligini buzib yuborib, turli urug'lardan tashkil topgan aralash qishloqlarni vujudga keltiradi. Bu qo'shni jamoalar edi.

Shu tariqa qon-qarindosh urug'chiligi buzilib qo'shni jamoalar paydo bo'ladi. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlarda bu qishloq jamoasi, chorvadorlarda esa ko'chmanchilar jamoasi nomini oladi.

Qishloq jamoasi ibtidoiy jamoa tuzumining so'nggi bosqichi hisoblanadi. Qishloq jamoasi dualizm-ikki tomonlama xarakterga ega edi. Bu ikkiyoqlik qishloq jamoasida ayni bir vaqtning o'zida ham xususiy ham ijtimoiy mulkning mavjud ekanligi bilan xarakterlanadi. Yerni yakka-yakka ishlash, undan hosilni xususiy o'zlashtirish, hayvonlar, qishloq xo'jalik buyumlari, qullar, «uy va uning qo'shimcha qismi-xovli» xususiy mulk hisoblanib, ekiladigan yer, o'tzorlar, o'tloq, yaylovlar, o'rmonlar, tog'-toshlar va suvlar umumiy mulk hammaga tegishli bo'lgan. Lekin qishloq jamosi ham barqaror bo'lmay, keyinchalik o'zgarishga uchragan. Qadimgi Sharqning sug'orma dehqonchiligi rivojlangan mamlakatlarida qishloq jamoalari nisbatan barqaror bo'lib, uzoq yashaganlar. Chunki sug'orma dehqonchilikka asoslangan mamlakatlarda kanallar qazish, sug'orish inshootlarini qurish va ularni tartibga solib turish hamisha, hamma vaqt birgalikda mehnat qilishni taqazo etar edi. Shuning uchun ham bunday mamlakatlar uchun qishloq jamoasining ahamiyati katta edi.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Matrilokal o'rnamish nima?
2. Patronimiya nima?
3. Patriarxal oilalar va patronimiyalar birlashib nimani tashkil qiladi?
4. Xususiy xo'jalik va xususiy mulkning vujudga kelishi qanday oqibatlarga olib keldi?
5. Patriarxal jamoalar kichik oilalarga bo'linib ketish sabablari?
6. Qanday oila monogam oila deb ataladi?
7. Qarindoshlik aloqalari territoriya, qo'shni aloqalari bilan almashinganligi sabablari nimada edi?
8. Qarindoshlik aloqalari territoriya, qo'shni aloqalari bilan almashinganligi sabablari nimada edi?

12-MAVZU: MA'NAVIY MADANIYAT. IBTIDOIY JAMOA VA SIVILIZATSIYA.

Asosiy savollar:

1. Amaliy bilimlar.
2. San'at.
3. Ibtidoiy din.
4. Ilmiy bilimlar va yozuv kurtaklari.

Tayanch tushuncha va iboralar: Ibtidoiy jamiyatda hisob-kitoblar. Geometriya. Tabiat haqidagi bilimlar. Jo'g'rofik tushunchalar. Tillar, etnoslar va qabilalar. Tafakkur va nutqning o'sishi. Ibtidoiy jamiyatda san'at. Ibtidoiy din va uning turlari. Yozuv turlari va shakllari.

1-asosiy savol: Amaliy bilimlar.

Darsning maqsadi: Insoniyat amaliy bilimlarni juda uzoq muddat davomida hayotiy ehtiyojlar zahirida egallaganligi sabablari va mohiyatini yoritib berish.

Identiv o'quv maqsadlari: 1.1. Dastlabki turar joylarni tahlil qiladi. 1.2. Ibtidoiy kiyim-boshlarning turlari va uy ro'zg'or anjomlarini yoritib beradi.

1.3. Insonning tabiat bilan kurashida bilimlar zabt etib borilganligi ochib beradi.

1-asosiy savol bayoni: Insonlar o'z mehnatlarini yengillashtirish uchun mehnat qurollarini takomillashtirib borganlar. Oddiy tosh qurollaridan kamon va o'qlar, suyak va metallardan foydalanib, juda oddiy dastgohlar ixtiro qilish sari rivojlanish yo'li bosib o'tilgan. Odamlar avval qulayroq tabiiy pana joylar g'orlardan turar joy sifatida foydalanganlar. Keyinroq esa turli-tuman sun'iy uylar qurishga o'tganlar. Qurilish xom-ashyosi sifatida xodalar, paxol, qamish, po'stloq, teri, daraxt, tosh, loy, keyinroq g'isht, keyinroq pishirilgan g'ishtlardan foydalanishni o'zlashtirganlar.

Dastlabki turar joylar devorsiz, eshiksiz va derazasiz bo'lgan. Uylar gulxan yordamida isitilgan. Turar joyning tepasi ochiq bo'lgan va yorug' tushib turgan. Arxeologlarning ma'lumotlariga ko'ra madlen davrida uylarni sun'iy yoritish boshlangan. Tosh kosadan pilik

chiqarib yog` solib qora chiroq yasaganlar. Dastlab hech qanday mebel bo`lmagan, yerga bo`yra, teri solib o`tirishgan. So`ri va mebel keyinroq paydo bo`lgan. Amerika indeetslari osma to`r belanchaklarda uxlaganlar. Uy ro`zg`or buyumlari novdalar, qayin po`stlog`i, bambuk, yog`och, loy va teridan yasalgan. Dastavval mahsulotlar to`qib, usti loy bilan suvalgan idishlarda saqlangan, ovqat esa qizitilgan toshlar yordamida yog`och tog`oralarda pishirilgan. Sopol buyumlar ixtiro qilingach, chinakam ovqat pishirish mumkin bo`lgan. Ovqat yeyishda kosa, tovoq, qoshiq, pichoq va cho`plardan foydalanishgan. Don maydalash uchun toshdan yasalgan don yanchg`ichlar, yog`och o`g`irlar yasalgan.

Ibtidoiy kiyim-boshlarning turlari xilma-xildir. Hammadan avval sovuq o`lkalarda kiyim bosh paydo bo`lgan. Fartuk, kamar, plash, yubka erkak va ayollarning eng qadimgi kiyim boshlari namunalaridir. Yengil kiyim va ishton keyinroq paydo bo`lgan. Barglar, teri, o`simlik tolasi va jundan suyak ninalar bilan kiyimlar tikishgan. Oyoq kiyimlari yog`och, kigiz, teri va jundan tayyorlangan. Ibtidoiy davr odami ilk bor kiyim haqida bosh qotirgan ekan, bunga zarurat sabab bo`lgan. Aniqroq qilib aytganda, kiyimning paydo bo`lishi sovuqdan saqlanish, hasharotlardan, ziyon-zahmatdan o`zini himoya qilish va, nihoyat, uyalish tuyg`usi bilan bog`liq bo`lgan. Kiyim paydo bo`lgach, oradan ma`lum vaqt o`tgandan keyin kishining kiyim-kechakka bo`lgan munosabatida nafosat tuyg`usi shakllana boshlaydi.

Agar kiyimning rasm bo`lishi ijtimoiy sharoitlar, iqtisod, ma`naviy maslak, mafkura, iqlimiy va milliy xususiyatlar bilan bog`liq bo`lsa, kostyumni kishining ijtimoiy mohiyatini, jamiyatda tutgan o`rnini ifoda etuvchi kiyimlar, zeb-ziynatlar, boshqalardan farqlovchi belgilar va soch shaklini uyg`unlashtiruvchi vosita deb qarash mumkin.

Nemis faylasufi L. Feyerbax kishilarning biron-bir tashqi qiyofaga ega bo`lish borasidagi intilishlarida o`sha davr kishilarining ijtimoiy munosabatlari doimiy ravishda o`z ifodasini topadi, deb ta`kidlagan edi³².

Qayerdagi inson, uni o`rab olgan atrof-muhit qarshisida o`jizlik qilsa, tabiat hodisalari oldida qo`rquvga tushsa, o`sha yerda din vujudga keladi. Ibtidoiy davr dini tashqi dunyoni o`zgartira olmay, kishini tashqi sharoitlarga moslashtirish uchun uning o`zini o`zgartirishga da`vat etdi. Din insonni go`zallik manbai deb hisoblamaydi. Qadimiy dinlardan biri — totemizmga ko`ra, xudo-totemga o`xshagan kishigina go`zal hisoblanadi. Avstraliyadagi qabilalardan birida hozirgacha timsohni totem deb e`zozlashadi; totem sharafiga o`tkaziladigan har yilgi bayramlarda esa odamlar badanini timsoh terisi singari yo`l-yo`l qilib yashil rangga bo`yashadi. Keyin ular timsoh harakatlariga taqlid qilib raqsga tushishadi.

Tinch okeanidagi Bismark orollarida istiqomat qiluvchi tub-joy aholi, Kilimanjarodagi vatchacha qabilasi va Janubiy Amerikadagi botokudalar quloqlarini g`oyat kattalashtirib, muskulini shu qadar pishitishganki, natijada ularning qulog`i fil qulog`iga o`xshab boshqaruv rolini o`ynaydigan bo`lib qolgan. Sayyohlar hazil qilib, bu odamlar yotganlarida ularga na yostiq va na choyshab kerak bo`ladi: bir qulog`ini ikkiga buklab yostiq qiladi, ikkinchi qulog`i esa xuddi choyshabdek uning ustini yopib turadi, deyishadi.

Sehrli bezak hisoblangan tumor haqida ham diniy talqinlar mavjud. Diniy e`tiqodga ko`ra, tumor kishini faqat bardam qilibgina qolmay, balki uni go`zallashtiradi ham. Chunonchi, Avstraliyaning aranda qabilasidagi xotinlar eri o`lganda, dastlab, erining ko`zi va miyasini olib yeyishadi. Bundan maqsad erining aqli va o`tkir ko`zliligini olib qolishdir. So`ngra uning kalla suyagini tumor qilib bo`yinlariga osib yurishadi. Oila tashvishi endi tul xotin zimmasiga tushishi tufayli u ushbu sehrli vositalar foydali va shuning uchun go`zal deb qat`iy ishonadi.

Teriga o`chmas yozuv va shakllar tushirish (tatuировка) kabi sehrli bezak vositasi ko`p xalqlarga ma`lum. Tinch okeandagi Fija orolining aholisi badaniga tatuировка tushirgan

³² Н.Ғойибов, В.Голованова. Эътиқод, кийим-бош, гўзаллик. // Фан ва турмуш. 1969, № 9. 22-24 бетлар.

kishilargina narigi dunyoda huzur-halovatda bo'ladilar, deb hisoblaydi. Yangi Zelandiyada faqat qo'l va oyoq, ko'krak va yuzlarigagina emas, labiga va hatto eng nozik a'zolariga ham tatuirovka tushirishadi. Bunday tatuirovka tushirish oylab cho'zilar, hayot uchun xavfli bo'lib, tatuirovka qildirgan kishilar ko'pincha saramas degan dardga yo'liqib halok bo'lardi.

Meksika, Peru, Kolumbiyada va nutka degan hindu qabilasida odam boshining shaklini sun'iy ravishda o'zgartirish rasmi bor. Kalla suyagi yo oldindan orqaga qarab, yo tepadan pastga qarab qisib o'stiriladi. Bir vaqtlar Frantsiyaning Bretan viloyatida, Qrim va Kavkazda, aranda qabilasida kalla suyagi shaklini cheleh deb ataladigan maxsus bosh kiyimi bilan o'zgartirishgan. Shu narsa diqqatga sazovorki, tubjoy aholisi oddiy, bezaksiz, ya'ni biron xudoga o'xshamaydigan qiyofani ko'rganda g'oyat ajablanadi.

Bunda xudo bilan bog'liq har qanday narsa estetik qiymatga ega bo'ladi. Yuz va badanni rang-barang bo'yash, badanni tilib bezak tushirish, g'alati soch ko'rinishlari va taqinchoqlar urug'doshlik jamiyati a'zolari uchun haqiqiy go'zallik ana shularda namoyon bo'ladi, chunki bular uni narigi, ideal dunyoga muvofiqlashtirishi lozim. Kishi qiyofasida uning ilohiyotga aloqadorligi qanchalik yorqin aks etsa, u qabiladoshlariga shunchalik go'zal ko'rinadi. Masalan, Afrikadagi vatuzi qabilasining ayollari sochlariga gulsimon shakllar berishadi, boshqa bir qabiladagi ayollar esa boshlariga minorasifat qilib o'ragan sochlarini gullar bilan bezatishadi. Bu baland soch o'rami boshni tropik quyosh issiqligidan saqlaydi, uni foydaliligi va xudoga yoqadigan bo'lganligi uchun ham go'zal deb hisoblashgan.

Vishnu va Shiva xudolariga sig'inuvchilar peshonasini bo'ylama va enlamasiga yo'l-yo'l qilib bo'yashadi. Bu odat ularning ana shu xudolarni e'zozlovchilar sifatida ajralib turishlariga yordam beradi. Shimoliy amerikalik hindular ko'zlarining atrofiga g'alati doiralar chizishadi³³.

Uy-joy qurilishi, kiyimbosh, oyoq kiyimi, uy ro'zg'or anjomlari, xona kasblarining yog'och, daraxt po'stlog'i va teri ishlash, to'qish shaklida rivojlana borishi bilan bevosita bog'liqdir. Avval boshida qayiqqlar, chana, chang'i, bronza asriga kelib g'ildirakli arava transport vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Albatta insoniyat bu bilimlarni juda uzoq muddat davomida hayotiy ehtiyojlar zahirida egallaganlar. Urug'ning qabilaning zo'r berish bilan keksa avlod bu amaliy bilimlarni yosh avlodga o'rgatgan. Ilk yoshdagi bolalar kattalarning ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etilgan. Insonning tabiat bilan kurashida bilimlar zabt etib borilgan. Bu jasorat afsonalar, maqollar, matallarda kuylangan. Ibtidoiy jamiyatda yozuv bo'lmagan.

2-asosiy savol: San'at.

Darsning maqsadi: Ibtidoiy jamiyatda paydo bo'lgan san'at yodgorliklarini yoritish.

Identiv o'quv maqsadlari: Tasviriy san'atning ravnaq topishini ta'riflaydi.

1. Diniy marosimlarga baho beradi. Ibtidoiy san'atning muhim turi qo'shiq va raqslarni ta'riflaydi.

2-asosiy savol bayoni: Ibtidoiy san'at. San'at ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib ibtidoiy jamiyat tarixining tongida emas, balki ancha keyinroq vujudga kelgan, degan fikr keng tarqalgan. Lekin ibtidoiy san'atning kelib chiqishi masalasi haqida olimlar orasida kuchli tortishuvlar mavjuddir. Olimlarning bir guruhi san'atni dinga, afsungarlikka va totemizimga bog'laydilar. Ibtidoiy san'at va uning kelib chiqishini tushunishida. G. V. Plexanovning «Adressiz xat» maqolasi muhim ahamiyatga egadir. Keyingi vaqtda yer kurrasining turli joylaridan kishilikning ibtidoiy davriga mansub bo'lgan ko'pgina san'at obidalarini topildi. Ilg'or fikrli olimlar ibtidoiy san'atning barcha turlari o'z mohiyati va mazmuni bilan shak-shubxasiz insonning mehnat faoliyati bilan uning izchil tafakkuri,

³³ Н.Фойибов, В.Голованова. Этыкод, кийим-бош, гўзаллик. // Фан ва турмуш. 1969, № 9. 22-24 бетлар.

kayfiyati va fikr-mulohazasi bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. Ibtidoiy san'atning vujudga kelishini o'ziga xos shart-sharoiti bo'lib, ibtidoiy kishilarning ongi ma'lum darajaga yetib boshlagach vujudga kela boshlagan. Ibtidoiy san'at to'satdan, birdaniga vujudga kelmagan albatta. U mehnat jarayonida vujudga keldi va rivojlanib kamol topdi.

Million, necha yuz ming yillar davomida ibtidoiy insonning ongi tafakkuri mehnatga bo'lgan munosabati, malakasi rivoj topdi va o'zgardi. Bu hol o'z-o'zidan ibtidoiy san'atning vujudga kelishi uchun zamin hozirlagan edi. San'at hozirgi zamon kishisiga oddiy ko'rinadi. Lekin ibtidoiy inson tomonidan yaratilgan ilk san'at ko'p qirrali bo'lib, tosh, loydan ishlangan odam, hayvon haykalchalari, oxra bilan chizilgan rasmlar, toshga, suyakka va boshqa buyumlarga, o'yib chizilgan xilma-xil rasmlar ibtidoiy san'atning eng dastlabki namunalari hisoblanadi. Bu jihatdan qora, qizil, sariq, yashil bo'yoqlar bilan chizilgan mamont, yovvoyi ot, arslon, fil, bug'u, yovvoyi echki, karkidon yovvoyi sigir, buqa to'ng'iz kabi boshqa yovvoyi hayvon va narsalarning tasvirlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Tosh asrining so'nggi bosqichlarida, ayniqsa mezolit (o'rta tosh asri) davrida ishlangan ibtidoiy tasviriy san'atning. Ispaniyada Altamir g'orida, Frantsiyada Fan, Lasko g'orida, Uralda Kapova g'orida, Altamira, Nio, Uch birodar, Pinedel, Saxroi Kabir, Lena, Enisey, Ob, Amur, Alyaska, Saxalin, Mug'uliston, O'zbekistondagi Zarautsoy, Tojikistondagi Shaxta g'ori, Bittik chashma, Qirg'izistondagi Sari-jaz va yer yuzining turli joylaridan topilgan boshqa namunalari ayniqsa diqqatga sazovordir.

Ibtidoiy davrda ohaktosh, mergel kabi yumshoq toshlardan ba'zan ayol va erkaklarning tasvirlarini ishlash odat bo'lgan. Yer yuzining turli joylaridan, xususan Haykalchalar Frantsiyada Brassempun g'orida, Avstriyada Vallendorf manzilgohi, Italiyada Grimaldi g'orida, Yevroosiyoda Gagarino, Kostyonki manzilgohida (Voronej yonida), va boshqa yerlaridan topilgan haykallar shular jumlasiga kiradi. Ayollarning tasviri ayniqsa realistik tarzda bo'lib, ularning onalik va jinsiy bulgilari ayniqsa bo'rttirib ko'rsatilgan. Lekin tosh asridagi rassomlardan ko'p narsa kutib bo'lmas edi albatta. U davrda ishlangan qoya tosh suratlari, odam haykalchalari o'zining saddaligi bilan ajralib turardi. Lekin ijodiyotning eng dastlabki ilk namunasi va tasviriy san'at sohasidagi dastlabki qadam edi. Uning madaniy-tarixiy ahamiyati ham shunda edi. Bu hol keyingi davr tasviriy san'ati uchun dastlabki poydevor toshi hisoblanadi. Neolitda ilgari san'at shakllari bilan birga yangi dekorativ yo'nalishi rivojlangan. Odamlar keramikani, qurol-yarog'larni naqshlar bilan bezatishgan, loydan haykalchalar yasay boshlaganlar

Qo'shiq ertak, musiqa, maqol va xalq ijodiyotining boshqa turlari ibtidoiy san'atning ajralmas qismini tashkil qiladi. Qo'shiq ertak, maqol, matal va boshqalarning vujudga kelishi ham kishilikning ibtidoiy davriga borib taqaladi. Qo'shiq va raqslar ibtidoiy san'atning muhim turi bo'lgan. Ibtidoiy raqslar ko'pincha taqlidiy raqs o'yinlar mehnat faoliyati ritmini ifodalagan. Ovga jo'nash, harbiy yurish boshlash oldidan ijro etiladigan o'yin va raqslar din bilan bog'liq bo'lgan. Raqsning vujudga kelishi madlen davri deb hisoblanadi. Raqs mehnat jarayonlari ritmlaridan paydo bo'lgan. Qo'shiq musiqasi va cholg'u asboblari bilan ijro etiladigan musiqa bilan bevosita bog'langan. Ko'pgina qabilalar qo'shiq va raqsni bir so'z bilan ifodalaydilar. So'zlar ko'plab qo'shiqning birinchi shaklidir, kuy keyinroq yuzaga kelgan. Ibtidoiy odamlar musiqa asboblarning hamma turlarini: urma musiqa asboblari, duxovoy cholg'u asboblari, torli cholg'u asboblari yaratganlar. Ularning vujudga kelishini kamon bilan shox-bambuk (duxovoy va urma) bilan bog'laydilar. Urma cholg'u asboblari keng tarqalgan.

3-asosiy savol: Ibtidoiy din.

Darsning maqsadi: Diniy tasavvurlarning paydo bo'lishi va dinning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sabablarni ochib berish.

Identiv o'quv maqsadlari: 3.1. Dinning paydo bo'lishi sabablarini ochib beradi

3.2. Diniy tasavvurlarning paydo bo'lishi vaqtini tahlil qiladi.

3.3. Ibtidoiy din shakllaridan biri totemizmga baho beradi.

3.4. Animizm va fetishizmni tahlil qiladi.

3.5. Tabiatga sig'inish e'tiqodi va sehrgarlik amallariga baho beradi.

3-asosiy savol bayoni: Kishilikning qadimgi hayotiga nazar tashlansa uning ilk bosqichida din va diniy tushunchalarning bo'lmaganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Din ham san'at kabi ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanadi. Ammo ibtidoiy davrdagi diniy tushunchalarni tiklash, tushunish va tushuntirish juda murakkab masaladir. Shak-shubhasiz ibtidoiy odamlar o'z atroflarida bo'layotgan voqea va hodisalarga befarq qarayolmaganlar.

Tabiatda sodir bo'lgan turli tuman hodisa va voqealar shamol, toshqin, momaqaldiroq, tun va kunning almashinuvi, yog'in-sochin, issiq-sovuq yer qimirlash, tug'ilish, kasallik, o'lim, o'sib-ulg'ayish, uyqu va boshqa narsalar odamlarga g'ayri tabiiy bo'lib ko'ringan. Ibtidoiy odamning bilim doirasi past bo'lganligi ko'p narsa va hodisalarning mohiyatiga tushinib etmagan. Demak, bu narsa va hodisalarning mohiyati ibtidoiy odam uchun sirli tuyulib, ularning negizida qandaydir g'ayritabiiy kuch bordek tuyulgan. Shu tufayli ibtidoiy kishilar orasida narsa va hodisalarga sig'inish ularni ulug'lash hissi vujudga kelib, dastlabki diniy tushunchalarning shakllanishiga sabab bo'lgan.

Ibtidoiy kishilar o'zligining asosiy sababi ishlab chiqarish kuchlarining etarli darajada rivojlanmaganligi, mehnat qurollari binobarin mehnatning kam takomillashgani va bilimsizligidan iboratdir. Ibtidoiy davrda din va diniy tushunchalar xilma-xil ko'rinishga ega bo'lganligi shakl shubhasizdir. Buni dunyo xalqlaridan olingan etnografik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Ibtidoiy din shakllaridan biri *totemizm* bo'lib, u juda qadimiy bo'lsa kerak. Totemizm-algonkinlar (alyaskada yashovchi qabilalar) totem-uning urug'i degan so'zidan olingan. Totemizm odamlar guruhining qanadaydir hayvon - qoplon, yo'lbars, arxar, tog' echkisi yoki o'simlik turi- kungaboqar, do'lana, qovoq va shu kabi o'simlik turi bilan qandaydir bog'liqligi, g'ayri tabiiy qarindoshlik aloqasiga ishonish e'tiqodidir. Bundan ko'rinib turibdiki, totemizm ibtidoiy jamiyat tarixining ovchilik-termachilik xo'jaligi rivojlangan vaqtda urug'chilik tuzumi ijtimoiy hayotda qaror topgach vujudga kelgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham urug'lar, fratriyalar va qabilalarning nomlari muayyan territoriyada tarqalgan hayvon yoki o'simlik nomi bilan atalgan. Afrika, Amerika, Osiyo, Yevropa va Avstraliyada yashovchi urug' va qabilalarning hayvon va o'simlik nomi bilan atalishi fikrimizning dalilidir. Urug'lar qabilalar va fratriyalar emas, ayrim joylarda ba'zi odamlarning ismlari ba'zi hayvon va o'simlik nomi bilan ataladi. Har bir urug' va qabilaning totem hayvoni alohida e'zozlanib, hurmat va izzat qilganlar. Totemizmning dastlabki bosqichi davrida odatga muvofiq o'z totemizmini ovlash va uning go'shtini ovqat sifatida ist'mol qilish ta'qiqlangan edi. U muqaddas hayvon hisoblangan. Faqatgina bayramlarda, urf-odat marosimlari vaqtida muqaddas hisoblangan totemni ovlanib uning go'shti eyilgan.

Totem hayvonlarni ovlash, o'ldirish ta'qiqlangan, ularning ko'payishi uchun g'amxo'rlik qilingan. Ba'zan ularning sharafiga bayramlar o'tkazilib odamlar mazkur hayvon terisini yopinib, yoki kiyib raqsga tushganlar. Shuni ham aytib o'tish kerakki, totemizm qoldiqlari ko'pgina xalqlar hayotida yaqin vaqtlargacha saqlanib qolgan. Lekin avstraliyaliklar dini klassik totemizm namunasi. Agar avstraliyalik kenguru totemiga tegishli ekan u kenguru haqida «bu mening akam» yoki «mening onam» deydi. Mustamlakachilar Avstraliyada totem hayvonni o'ldirganlarida mazkur urug'ning odamlari

ularga «Nega siz bu odamni o'ldirdingiz, u bizning birodarimiz» deb aytganlar. Agar totemizmning boshlang'ich davrlarida totem hayvonining go'shtini iste'mol qilish taqiqlangan bo'lsa, keyinchalik uning go'shtini ovqat sifatida iste'mol qilishga ruxsat etilgan. Lekin totem hayvon o'ldirilgach undan uzr so'rash odati ham bo'lgan yoki aybni o'zlaridan soqit qilib, uni o'zgalarga to'nkab, o'z totemlari g'azabidan xalos bo'lishga intilganlar. Sibir yerlari mustamlaka qilinayotgan vaqtda evenklar, tunguslar kiyik yoki ayiqni o'ldirib gunohni o'zlaridan soqit qilish, totem hayvonini g'azabini qo'zg'atmaslik maqsadida unga «bizdan hafa bo'lma, seni biz emas, ruslar o'ldirdilar.» deganlar. Ibtidoiy dinning shakllaridan biri bo'lgan totemizm juda ko'p xalqlarda, xususan turkiy xalqlarda zamonamizgacha saqlanib qolgan.

Osiyodagi juda ko'p xalqlarda shuningdek Turkiy xalqlarining kalendarida 12 hayvon nomi nomi bilan yuritiladigan muchal yil xisobi uzoq vaqtlardan beri qo'llanilib keladi. Shuningdek O'rta Osiyoda Arslonbek, Bo'riboy, Yo'lbars, Bobir, Qoplon, Sher, Sherali, Qo'chqor, Qo'ziboy, Alqar kabi ismlarning keng tarqalishi totemizm bilan aloqador emasmikan.

O'rta Osiyo klassik adabiyotining zabardast namoyondasi A. Firdavsiyning «Shohnoma» asarini o'qir ekansiz unda, ot-aspi bilan bog'liq bo'lgan odam va joy nomlarini ko'plab uchratish mumkin. Bu totemizmga aloqador ismlar bo'lishi ehtimoldan xoli emas. O'rta Osiyo, Osiyo va yer yuzining juda ko'p joylaridagi qoya toshlarda arslon va yo'lbars, kiyik va to'ng'iz, arxar va bug'i, ot va it, bo'ri va tulki, qulon va sayga, yovvoyi buqa va fil, antilop va jirafa, mamont va karkidon kabi hayvon tasvirlarining uchrashi qadimgi qabilalarda totemizmning keng tarqalganligini nishonasi bo'lishi mumkin.

Ibtidoiy o'troq dehqonchilik qishloqlari harobalaridan topilgan sopol, mis, jez va boshqa narsalarga xilma-xil hayvonlarning bo'yoq bilan chizilgan tasvirlari ham mazkur idishlarda taom egan kishilar e'tiqodida totemizm mavjudligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ibtidoiy qabilalarning mafkuraviy qarashlarida sehr-jodu va *afsungarlik* ham keng tarqalib, u ham ibtidoiy dinning bir turi hisoblangan. O'z-o'zidan savol tug'iladiki, sehr-jodu va afsungarlik nima? Afsungarlik-deb yozadi M. O. Kosven, noto'g'ri, yolg'on va ko'zga ko'rinmaydigan aloqa ta'sirlarining tabiatda mavjudligiga ishonish va odamlarni ishontirish, ayrim xalqlarda tabiat odamlarga ko'zga ko'rinmaydigan ta'sirlar ko'rsatish mumkinligi va ayniqsa odamlarning tabiatga, shuningdek nihoyat bir odamning boshqa odamga ta'sir ko'rsatishi mumkinligidan iboratdir. Diniy e'tiqodning mazkur ko'rinishi odam hayotining juda ko'p tomonlariga ta'sir etgan. Xatto u tasviriy san'atni ham o'zicha bo'yinsindiran. So'ngi paleolit, mezolit, neolit va bronza davri qoya toshlaridagi hayvon, ularga sanchilgan nayza, kamon o'qi va ular qoldirgan jarohat izlarining tasvirlari sehrgarlik bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Sehrgarlik bir narsa xuddi shunday ikkinchi bir narsa o'rnidadir, bo'lak butun o'rnidadir, degan tasavvurga asoslangan. «Nayza tirik hayvonga uning xuddi shunday tasvir yoki kalla suyagiga sanchilgani kabi sanchilsin» - ibtidoiy sehrgarlikning mantiqi shundan iboratdir. Ibtidoiy davr kishilarining e'tiqodiga ko'ra sehrgarlik odatlari, irim-chirimlari, ov yoki xo'jalik sohasidagi boshqa ishlarning muvaffaqiyatli yakunlanishiga yordam berar ekan. Etnografik ma'lumotlarga ko'ra mahalliy avstraliyalik ovchilar kenguru oviga borish oldidan kenguru tasvirini chizib, unga tevarak atrofdan nayza sanchishgach, ovga jo'nab ketganlar. Etnograflarning kuzatishlaridan shu narsa ravshanki, Afrikada yashovchi pigmeylar antilopa yoki boshqa hayvonni ovlashga jo'nashdan oldin sokin bir joyga borib yerga ovlanuvchi hayvon suratini chizib, unga nayza sanchgach ovga ketganlar. Sehrgarlik faqat ov va xo'jalikning o'zidagina qo'llangan emas. Qadimgi urug' va qabilalar sehrgarlikni yoddirish, dushmani maxv etish, hayvonlarni ko'paytirish, sevish, sevilish, davolanish va

boshqa narsalarda ham qo'llaganlar. Sehrgarlikda har bir voqea va hodisaning o'ziga yarasha irim-chirimi va urf-odatlarini bo'lgan. Shunday qilib, sehrgarlik ibtidoiy diniy e'tiqodning shakllaridan biri edi.

Mantiqiy jihatdan o'ylab qaralsa diniy e'tiqodning sehrgarchilik shakli ancha murakkab bo'lib, inson tafakkurining ancha rivojlangan davriga to'g'ri kelib, totemizm va *fetishizmga* nisbatan keyinroq vujudga kelgan bo'lsa kerak. Ibtidoiy davr kishilarining diniy e'tiqodlaridan yana biri *animizm* bo'lib, mazkur so'z lotincha anima - jon, ruh so'zidan olingan. Ibtidoiy kishilarning tasavvuri bo'yicha har bir odam tabiatdagi barcha hayvonlar va o'simliklar olami jonga, ruhga egadirlarkim, ular o'lgach narigi dunyoda tirilib hayot kechiradilar. Aftidan animistik e'tiqod ham keyingi paleolitda, inson ongida narigi dunyo haqidagi tasavvur vujudga kelishi munosabati bilan kelib chiqqan. U davrda o'likni bukchaytirib tizzalarini iyagigacha bukib, kafanlab, qayish bilan bog'lab, ko'mganlar. O'lik ustida qizil oxra sepib, uning yoniga mehnat qurollari va bezak buyumlarini ham birga qo'yib ko'mganlar. Go'rlarga har xil ish qurollari, gi dunyodagi hayotga ishonish bilan bog'liq bo'lgan e'tiqod bo'lsa kerak. yaroq va ziynat buyumlarining qo'shib ko'milishi murdaga qizil oxra sepish nari yaqin-yaqin vaqtlargacha ham adamonliklar, papuaslar, eskimoslar va boshqa qator rivojlanmagan qabilalarda murdani bukchaytirib bog'lab, kafanlab ko'mish odati bo'lgan. Oxra, qizil rang esa ibtidoiy kishilar tasavvurida qon va olovni ehtimol hayot ramzini anglatgan. Animizm terminini fanga ingliz olimi E.Teylor kiritgan. Shuni ham unutmaslik kerakki, so'ngi paleolitdagi totemizm, sehrgarlik, animizm va boshqa diniy e'tiqodlar bir-biri bilan bog'lanib ketgan va biri ikkinchisiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Odamlar o'liklar ruhi yashaydi deb ularga tayin bir joyga idishlarga ovqatlar qo'yishgan. Qiynalgan paytlarida ruhlarga murojaat qilganlar, yalinib yolvorganlar keyinroq bu murojaatlar xudolarga iltimosga duolarga aylangan. Bunday duolarni biladigan duoxonlar, jodugarlar, sehrgarlar, azayimxonlar, shomonlar paydo bo'lgan. Oxiratga ishonish va ota-bobolar ruxiga sig'inish animizm bilan bog'liqdir. Matriarxat davrida ayol urug'ning bosh onasi birinchi o'rinda ko'tarilgan. Patriarxat ota urug' boshlig'i bo'lgan. Avvallari ayollar ruhiga keyin otalar, bobolar ruhini singdirish kuchli bo'lgan. Dehqonchilik va chorvachilik rivojlanishi bilan tabiatga sig'inish e'tiqodi vujudga kelgan. (Bobo dehqon, zangi ota). Odamlar quyoshga, suvga, o'tga topina boshlaganlar. Ibtidoiy odamlarda totemizm va animizmdan tashqari sehrgarlik odamning o'zini g'ayri tabiiy kuchlarga ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga ishonishga asoslangan ish amallari duolari bo'lgan. Sehrgarlik ibtidoiy odamlar hayotining hamma tomonlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Keyinchalik sehrgarlik amallari shomon koinlar tomonidan monopoliya qilib olgan. Xudolarga bo'lgan e'tiqodlarni maxsus kishilar koinlar ado etganlar. Shunday qilib insonning tabiat oldidagi ojizligi, nodonligi, bilimsizligi va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanmaganligi oqibatida har turli qabilalarda xilma-xil ko'rinishga ega bo'lgan diniy e'tiqodlar vujudga keldi.

4-asosiy savol: Ilmiy bilimlar va yozuv kurtaklari.

Darsning maqsadi: Ibtidoiy odamlar bilimlarining darajasi haqida ma'lumotlar berish.

Identiv o'quv maqsadlari:4.1. Ibtidoiy odamlarning geografik bilimlariga baho beradi. 4.2. Botanika-zoologiya, meditsina sohasida boshlang'ich bilimlarni tahlil qiladi. 4.3. Hisoblash va yozuvning eng dastlabki shakli haqida fikr yuritadi.

4-asosiy savol bayoni: Etnografiyaga ma'lum bo'lgan Avstraliya, Janubiy Amerika, Afrika va boshqa joylarda istiqomat qiluvchi xilma-xil qabilalar o'zlari yashab turgan joydagi hayvonlar va o'simliklar dunyosini yaxshi biladilar. Ular tilida har bir hayvon va o'simlikning o'z nomi bo'lgan. Bugina emas ular loy, tuproq va qum ustida qoldirilgan izlar qaysi hayvonga xos ekanligini osonlik bilan aniqlaganlar. Ularga o'sha yerda yashaydigan hayvonlarning fe'l-atvori ham yaxshi ma'lum bo'lgan. Xuddi shunday-kuzatuvchanlik ibtidoiy odamlarga ham xos bo'lganligi shak-shubhasizdir.

Shak-shubxasiz ibtidoiy kishilar «oltin davrda» emas, juda og'ir sharoitda yashagan. U davrda kasallik keng tarqalib, kishilar 35-40 yoshdan nariga o'tmay o'lib ketishgan. Lekin inson kasalini oldini olish choralarini ham qidirgan. Bu esa dastlabki, sodda tabobat ilmining kelishiga sabab bo'lgan. Qiyosiy etnografik materiallar shuni ko'rsatadiki hozir yer yuzining turli yerlarida yashayotgan qoloq qabilalar kasallarni davolashda xalq tabobatidan keng foydalanadilar. Ibtidoiy davr tabiblari muolaja qilishning oddiy usullarini qo'llab chiqqan, singan suyaklarni joylash, jarohatni davolash va og'rigan tishlarni sug'irib tashlashni bilganlar. Undan tashqari ibtidoiy kishilar shamollash, ilon chaqqanni davolab ba'zi sodda xirurgik operastiyalarni bajarganlar. Lekin xirurgiyada sodda tibbiy usullaridan tashqari davolashning yaxshi usullaridan foydalanganlar. Bosh og'rig'ini kalla suyagini kesib ochish yo'li bilan davolashga urunganlar. Ibtidoiy tabobatda silash, uqalash, issiq, sovuq kompres va bug'li xammomdan keng foydalanilgan. Ibtidoiy kishilar tabiiy davolash vositalaridan foydalanish bilan bir qatorda, maxsus tayyorlangan tarkibiy qaynatma, suriladigan, kukun va suyultirilgan dorilardan keng foydalanganlar. Shuni aytib o'tish kerakki qadimgi O'rta Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq, Xitoy Amerika va Yevropa qabilalari mazkur rayonlarda o'sadigan o'simlik va yovvoyi mevalarning ayrimlaridan turli dori-darmonlar tayyorlab ulardan davolash maqsadida foydalanganlar. Bu hol dorishunoslikning ham negizi ibtidoiy jamiyat tarixiga borib taqalishini ko'rsatadi. Shunday qilib hozirgi zamon tabobat faniga O'rta asrlarda feodal yoki -qadimgi quldorlik darida emas, balki kishilik jamiyati tarixining ibtidoiy davrida eng dastlabki poydevor toshi qo'yilgan ekan. Demak, xulosa qilib aytish mumkinki tilshunoslik, geografiya, botanika, zoologiya, iqlimshunoslik va boshqa fanlarning negizi kishilikning ibtidoiy davriga borib taqaladi.

O'z joyini bilgan, qabila va qo'shni qabila territoriyasining relef kartasini qumga, yog'ochga, po'stloqqa, teriga chiza olgan ibtidoiy odamlarning geografik bilimlari yaxshi ma'lumdir. Ovchilik, hayvonlarning qo'lga o'rgatilishi, o'simliklarning madaniylashtirila boshlashi botanika va zoologiya sohasidagi boshlang'ich bilimlardan darak beradi.

Ibtidoiy odamlarda sanash eng boshlang'ich holatda bo'lgan. Odatda uchgacha, ba'zan beshgacha sanaganlar. Ko'pgina xalqlarda besh raqam qo'lni bildirgan. Rimda V qo'l panjasining soddalashtirilgan tasvirini eslatadi.

Yozuvning eng dastlabki shakli urug'chilik tuzumining oxirida paydo bo'lgan. U *piktografiya* (lotincha fictus rasmi solingan, grekcha grapho yozaman) deb atalgan va teriga po'stloqqa, yog'ochga, suyak va toshga solingan shartli rasmlardan iborat bo'lgan. Piktografiyadan oldin ham yozuvning ayrim turlari bo'lgan.

NAZORAT TOPSHIRIQLARI:

1. Dastlabki turar joylar qanday bo'lgan?
2. Dastavval mahsulotlar qanday idishlarda saqlangan?
3. Eng qadimgi kiyim boshlari namunalari?
4. G'ildirakli aravadan transport vositasi sifatida qachon foydalangan?
5. Tasviriy san'at qachon ravnaq topgan?
6. G'or rassomchilik san'ati namunalari qayerlarda uchraydi?

7. Neolitda qanday san'at shakllari rivojlangan?
8. Ibtidoiy raqslar ko'pincha nimani ifodalagan?
9. Ibtidoiy odamlar musiqa asboblarning turlari?
10. Dinning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sabablar?
11. Diniy tasavvurlarning paydo bo'lish vaqti haqida olimlar nimaga qarab fikr yuritadilar?
12. Totemizim nima?
13. Animizm nima?
14. Fetishizm nima?
15. Animizm tushunchasi fanga kim tomonidan kiritilgan?
16. Tabiatga sig'inish e'tiqodini qanday izohlaysiz?
17. Ibtidoiy odamlarning geografik bilimlari?
18. Meditsina sohasidagi boshlang'ich bilimlar?
19. Ibtidoiy odamlarda sanash?
20. Yozuvning eng dastlabki shakli?

IBTIDOIY JAMIYAT TARIXIDAN MUSTAQ'IL ISH MAVZULARI.

1. Ibtidoiy jamoa tuzumining maqsad va vazifalari.
2. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida olovning roli.
3. Xitoy sinantropi.
4. Ibtidoiy gala davrida termachilik.
5. Ibtidoiy jamoa tuzumining matriarxat davri.
6. Ibtidoiy jamoa tuzumining patriarxat davri.
7. Ibtidoiy kollektivizmning vujudga kelishi.
8. Ibtidoiy madaniyat.
9. Odamning paydo bo'lishi masalasidagi munozara.
10. Ibtidoiy san'at.
11. O'zbekistonda mezolit davri madaniyati.
12. Kaltaminor madaniyati.
13. Ibtidoiy e'tiqod.
14. Germaniya neandertali.
15. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida chorvachilikning rivojlanishi.
16. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida din.
17. Ibtidoiy jamoa tuzumi manbashunosligi.
18. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida dehqonchilikning vujudga kelishi.
19. O'zbekistonda muste davri madaniyati.
20. Ibtidoiy jamoa tuzumining o'ziga xos xususiyati.
21. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini davrlashtirish.
22. Ibtidoiy jamoa tarixini o'rganishda arxeologik manbalarning roli.
23. Ibtidoiy jamiyatda haykaltaroshlik.
24. Ibtidoiy jamiyatda hunarmandchilikning vujudga kelishi.
25. Ibtidoiy jamiyatda rassomchilik.
26. Ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda arxeolog olim Ya.G'ulomov xizmatlari.
27. Urug'chilik tuzumining yemirilishi sabablari.
28. Ibtidoiy odamlarda dafn marosimlari.
29. O'zbekiston «Fergantropi».
30. Ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda arxeolog olim Shishkinning xizmatlari.
31. O'zbekistonda mezolit davri madaniyati manzilgohlari.
32. Yevropada dastlabki sivilizatsiya davri.
33. Ibtidoiy jamoa davrining tugashi.
34. Ibtidoiy jamoa odamlari neolit davrida.

35. Markaziy Osiyoda dastlabki sivilizatsiya davri.
36. Ibtidoiy jamoa davrida ovning roli.
37. Ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda arxeolog-sharq'shunos olim S.P. Tolstovning xizmatlari.
38. O'zbekistonda dastlabki sun'iy su g'orish sistemasining kelib chi q'ishi.
39. Ibtidoiy jamoa davrida oila masalasi.
40. Teshiktosh g'ori madaniyati.
41. Odamning paydo b o'lishida fan va dinning munosabatlari.
42. Mulkiy tengsizlikning vujudga kelishi va ilk davlatchilikning paydo bo'lishi.
43. Ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda arxeolog olim M.O.Okladnikovning xizmatlari.
44. Machay g'ori madaniyati.
45. Ibtidoiy jamoa tuzumini o'rganishda antropologiyaning o'rni.
46. Insoniyatning eng q'adimgi Vatani masalasi.
47. Yava pitekantropi.
48. Ibtidoiy odamlarning mehnat q'urollari.
49. Ibtidoiy odamlarning turar joylari.
50. Ibtidoiy odamlarning misdan foydalanishi.
51. Ibtidoiy odamlarning olovdan foydalanishi.
52. Temirdan foydalanish va uning afzalliklari.
53. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrini o'rganishda o'rta asr tarixchilarining asarlaridan foydalanish.
54. Paleolit davri va uning o'ziga xos-xususiyatlari.
55. Ibtidoiy odamlarning sopoldan foydalanishi.
56. Ibtidoiy jamoa tuzumida savdo-sotiq'ning paydo b o'lishi.
57. Ibtidoiy odamlar mehnat va ov q'uollarining takomillashib borishi.
58. Ibtidoiy jamiyatda uru g' jamoalarining vujudga kelishi.
59. Sinflar va davlatlarning paydo b o'lishi.
60. Ibtidoiy jamiyat haq'ida antik davr olimlarining ma'lumotlari.
61. Ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda akademik A.As q'arovning xizmatlari.
62. Surxondaryoda bronza davri manzilgohlari.
63. Ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda lingvistik manbalarning ahamiyati.
64. Ibtidoiy odamlarning ilmiy bilimlari va ilk yozuvlari.
65. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida tafakkur.
66. Afrika arxantropi.
67. L.Morganning «Qadimgi jamiyat» asarining ahamiyati.
68. Ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishda yozma manbalarning ahamiyati
69. Ibtidoiy jamoa tarixshunosligi.
70. Ibtidoiy jamiyatda birinchi mehnat taqsimoti.
71. Ibtidoiy odamlarning irq'larga ajralishi.
72. Ibtidoiy odamlarda nutqning paydo bo'lishi.
73. Ibtidoiy jamoa davriga oid etnografik ma'lumotlar.
74. Ibtidoiy jamiyat haqida antik davr olimlarining ma'lumotlari.
75. Ikkinchi yirik mehnat taqsimoti va ahamiyati.
76. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida ibtidoiy xalqlar haqida ma'lumotlarning ortishi.
77. Ibtidoiy jamiyat davrida metallurgiyaning vujudga kelishi.
78. Ibtidoiy jamiyatda hosildorlik e'tiqodi, dohiylarga sig'inish, shamanizm.
79. Ibtidoiy jamiyat davrida tasviriy san'at.
80. Ibtidoiy jamiyat davrida fikrlash va nutqning vujudga kelishi.
81. Ibtidoiy jamiyatda oila-nikoh masalalari.
82. Antropogenez-insonning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari.

83. Odamzodning kelib chiqishi haqidagi qarashlar va ta'limotlar.
84. Antropogenez jarayonining tugallanishi masalasi.
85. Hozirgi q'iyofadagi qadimgi odamlarning vujudga kelishi.
86. So'nggi, keyingi urug' jamoasi kishilari va ularning xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati.
87. Kishilarning ibtidoiy madaniyati
88. XIXasrda ibtidoiy jamoa to'g'risida ma'lumotlar to'planishi va ularni umumlashtirish.
89. Ch.Darvinning evolyutsiya nazariyasi.
90. K.Tomsen, I.Verso, S.Nelsonlarning arxeologiya fani nazariyasiga qo'shgan hissasi.
91. Ibtidoiy va qadimgi oilaviy munosabatlarning o'rganilishi.
92. Antropogenez jarayonini yoritishda T.Geksle, E.Gekel xizmatlari.
93. XX asrda ibtidoiy arxeologiya va paleontropologiyaning rivojlanishi.
94. Pitekanthrop, avstrolopitik, sinantropnlarning ilmiy o'rganilishi.
95. Sharqiy Afrika topilmalari.
96. Farg'ona odami muammosi (Fergantrop)
97. Buxoroning ibtidoiy davr tarixidan lavhalar.
98. Zarautsoy tilsimlari.
99. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixining davrlanishi.
100. Tarixiy antropologiya.
101. Oila-nikoh munosabatlarining ilk shakllarining o'rganish muammosi.
102. Inson t o' g'risida q'adimgi dunyo, nasroniy va islom ta'limotlari.
103. Antropogenez jarayonini siljituvchi muhim kuchlar.
104. Insoniyat vujudga kelgan yurt t o' g'risidagi fikrlar.
105. Ilk gominidlar va ularning mehnat faoliyati.
106. Atlantrop va ularning mehnat q'urollari.
107. Sinantrop va uning xususiyatlari.
108. Far g'ona odami muammosi (Fergantrop)
109. Geydelberg odami.
110. Pitekanthropning turlari.
111. Shell davri va uning mehnat q'urollari.
112. Neandertal odami va uning morfologiyasi.
113. Teshik tosh neandertal odami.
114. Ibtidoiy jamoa tuzumida ovchilikning ahamiyati.
115. Ibtidoiy jamoa arafasida jinsiy munosabatlar.
116. Ibtidoiy jamoa tuzumida fikrlash va nutqning vujudga kelishi.
117. Ibtidoiy jamoa tuzumida ma'naviy madaniyatning vujudga kelishi.
118. Hozirgi zamon odami qiyofasidagi turning vujudga kelishi.
119. Urug'chilik tuzumida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi.
120. Ibtidoiy jamoa tuzumida o'zlashtiruvchi xo'jalik.
121. Orinyak, solyut, madlen madaniyatlari.
122. Ovchilik unumdorligining oshishi.
123. Yuqori paleolitda Ovrupa madaniyatlari.
124. Chjoukodyan yuqori g'ori makoni.
125. Amerika va Avstraliya q'it'alarining ibtidoiy odam tomonidan o'zlashtirilishi.
126. Afrikada yuqori paleolit va mezolit davri.
127. Ibtidoiy jamoa tuzumida nikoh va oila masalasi.
128. Diniy e'tiqodlar (totemizm, magiya, animizm, fetishizm)
129. Urug' va jamoa munosabatlari.
130. Ilk dehqonlar va chorvadorlar.
131. Ixtisoslashgan ovchilik xo'jaligi.

132. Ibtidoiy jamiyatda o'troqlik.
133. Jamoalararo va qabilalararo mehnat taqsimoti.
134. Ibtidoiy jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.
135. Ibtidoiy jamiyatda tasviriy san'at.
136. Ibtidoiy jamoa tuzumida sug'orma dehqonchilikning vujudga kelishi.
137. Ibtidoiy jamoa tuzumida ko'chmanchi chorvachilikning paydo bo'lishi.
138. Ibtidoiy jamoa tuzumida hunarmandchilikning paydo bo'lishi.
139. Urug'chilik jamoasining parchalanish davri.
140. Ibtidoiy jamoa tuzumida madaniyat, oila va nikoh.
141. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida jamiyatning parchalanishida notekislik va xilma-xillik.
142. Harbiy demokratiya davri.
143. Sinfy jamiyat rivojlanishining yo'llari.
144. Matriarxatdan patriarxatga o'tish jarayoni.
145. Urug' aloqalari o'rniga qo'shni aloqalar bilan almashuv jarayoni.
146. Ibtidoiy jamiyatda jamoa yer egaligi.
147. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida tabiat haqidagi bilimlar.
148. Etnik birlashmalarning qadimiy xalqlarga aylanish jarayoni.
149. Piktografiya. Piktografiyadan yozuvga o'tish.
150. Hisob, geometriya, metallshunoslik va kimyo to'g'risidagi tushunchalar.
151. San'at, monumental me'morchilik, amaliy san'at, og'zaki ijod.
152. Hosildorlik e'tiqodi, dohiylarga sig'inish e'tiqodi, shamanizm.
153. Ibtidoiy jamiyat va sivilizatsiya.
154. Qabilaviy ittifoqlar.
155. Muste davri.
156. Antropologik tadqiqotlar.
157. Insoniyat rivojlanishida neandertal odamning o'rni.
158. Ilk gominidlar va ularning mehnat qurollari.
159. Nikoh va oila haqida L.G.Morgan fikrlari.
160. Neandertal odamni o'rganishda anatomik yondoshish.
161. O'zlashtiruvchi xo'jalik bosqichlari.
162. Altamira g'ori madaniyati.
163. Kiyikkoba g'ori madaniyati.
164. Fergantrop odamni o'rganishda U.Islomov xizmatlari.
165. O'rta Osiyoda ilk paleolit manzilgohlari.
166. O'rta Osiyoda o'rta paleolit manzilgohlari.
167. O'rta Osiyoda so'nggi paleolit manzilgohlari.
168. O'rta Osiyoda mezolit davri manzilgohlari davri.
169. O'rta Osiyoda neolit davri manzilgohlari.
170. O'rta Osiyoda eneolit davri manzilgohlari.

IBTIDOIY JAMIYAT TARIXI FANIDAN TEST SAVOLLARI.

1. Afrika va Osiyoda dastlabki sivilizatsiyalar qachondan boshlangan?

A) er.av. III-II ming yillikdan V) er.av. V-IV ming yillikdan

S) er.av. VI-V ming yillikdan *D) er.av. IV-III ming yillikdan

2. Yevropada dastlabki sivilizatsiya qachondan boshlangan?

A) er.av. II ming yillikdan V) eramizning I ming yilligidan

*S) er.av. I ming yillikdan D) er.av. III ming yillikdan

3. Amerika qit'asida dastlabki sivilizatsiya qachondan boshlangan?
 A) er.av. III ming yillik o`rtalaridan V) er.av. II ming yillik o`rtalaridan
 *S) eramiz I ming yilligidan D) eramiz I ming yillik o`rtalaridan
4. Arxeolog olimlar ibtidoiy jamoa tarixini davrlashtirishda nimalarga e'tibor beradilar?
 A) turar joylariga va madaniy qatlamlariga *V) Buyumlari va mehnat qurollariga
 S) Urf-odatlariga, marosimlariga D) manzilgohlariga, qabrlariga
5. Ibtidoiy jamiyat tarixi necha asrga bo`lib o`rganiladi?
 A) -5, *V) -3, S) -2, D) -4
6. Yer tarixidagi to`rtlamchi davrni chegaralab bering?
 A) Muzlikdan oldingi davr V) Muzlik davri S) Muzlikdan keyingi davr
 *D) Muzlikdan oldingi va muzlik davri
7. Insoniyatning to`rtlamchi davri geologik jixatdan davrlashtirilganda qanday nomlanadi?
 A) Golotsen *V) Pleystotsen S) Gyunts D) Mindel
8. Insoniyat tarixidagi muzlikdan keyingi davr geologik jixatdan davrlashtirilganda qanday nomlanadi?
 A) Pleystotsen *V) Golotsen S) Riss D) Gyunts
9. Pleystotsen arxeologik jixatdan davrlashtirilsa qaysi davrga to`g`ri keladi?
 A) Yuqori paleolitga *V) Paleolit davriga S) Mezolit davriga D) Neolit davriga
10. Geologik jixatdan Golotsen davri arxeologik davrlashtirishning qaysi davriga to`g`ri keladi?
 A) Mezolit davriga V) Eneolit davriga S) So`nggi paleolit davriga
 *D) Mezolit, Neolit davriga
11. Morgancha davrlashtirishda Yovvoyilik qanday bosqichlardan iborat?
 *A) Termachilik, ovchilik va baliqchilik: olovning kashf etilishi, o`q-yoyning kashf etilishi.
 V) Termachilik va ovchilik: baliqchilikning boshlanishi
 S) Termachilik: baliqchilik
 D) Baliqchilik, ovchilik: olovning kashf etilishi
12. Morgancha davrlashtirishda Varvarlik davri qanday bosqichlardan iborat?
 A) Baliqchilik, dehqonchilik, chorvachilik
 *V) Dehqonchilik va chorvachilikning boshlanishi: chorvachilik va sug`orma dehqonchilik: Temirning paydo bo`lishi.
 S) Chorvachilik va sug`orma dehqonchilik: baliqchilik, ovchilik.
 D) Baliqchilik, ovchilik, chorvachilik

13. Ibtidoiy gala davri arxeologik va morganchasiga davrlashtirishning qaysi bosqichiga to'g'ri keladi?

*A) Ilk, O'rta paleolit; yovvoylikning kuyi davriga

V) O'rta paleolit, yovvoylikning 2-chi davriga

S) Yuqori paleolit, yovvoylikning 3-chi davriga

D) Yuqori paleolit, yovvoylikning 2-chi va 3-chi davriga

14. Ibtidoiy urug' jamoalari davri arxeologik va morganchasiga davrlashtirishning qaysi davriga to'g'ri keladi?

A) O'rta paleolit, yovvoylikning 1-chi bosqichiga

V) Ilk paleolit, yovvoylikning 3-chi bosqichiga

*S) So'nggi paleolit, mezolit va neolit, yovvoychilikning 2 va 3 bosqichlari, varvarlik davri 1 va 2 bosqichlari

D) So'nggi paleolit, mezolit, yovvoylikning 2-chi, varvarlikning 2-chi bosqichlari

15. Ibtidoiy jamoa tarixining 3-chi davri arxeologik va morganchasiga davrlashtirishning qaysi davrlariga to'g'ri keladi?

A) Neolit, eneolit, varvarlikning 1-chi davriga

V) Eneolit, bronza va varvarlikning 1-chi va 2-chi bosqichlariga

S) Bronza va ilk temir va varvarlikning 3-chi bosqichlariga

*D) Eneolit, bronza, ilk temir va varvarlikning 3-chi bosqichiga

16. Ibtidoiy jamiyat tarixiga ilmiy nuqtai nazar bilan 1-chi bo'lib kimlar yondoshgan?

A) Frantsuzlar, inglizlar V) Ispanlar va portugallar *S) Greklar va rimliklar

D) Forslar va arablar

17. Antik dunyo tarixchilari madaniy olamni qaer deb hisoblashgan?

A) Mesopatamiya xududi *V) O'rta er dengizi xavzasi S) Kichik Osiyo D) Nil vodiysi

18. Antik dunyo avtorlaridan kim skiflar va pigmetlar haqida ma'lumotlar qoldirgan?

A) Strabon V) Tatsit *S) Gerodot D) Ksenafont

19. Antik dunyo avtorlaridan kim Kichik Osiyo xalqlari haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan?

*A) Strabon V) Gerodot S) Ksenafont D) Tatsit

20. Antik avtorlaridan kim German qabilalari haqida qoldirgan?

A) Lukretsiy Kar V) Demokrit *S) Tatsit D) Gerodot

21. Kuba oroli axolisi haqida kim ma'lumot beradi?

A) Djeyms Kuk V) Plano Karpini S) Marko Polo *D) X.Kolumb

22. Evropaliklarga Okeaniyani kim kashf etdi?

- A) Vaska da Gama V) Kolumb *S) Djeyms Kuk D) Magellan
23. Rossiya Akademiyasining Sibirga 1-chi ekspeditsiyasi qachon uyushtirildi?
- A) 1723-25 yillar V) 1723-33 yillar S) 1730-1740 yillar *D) 1733-1743 yillar
24. Rossiya Akademiyasining Sibirga 2-chi ekspeditsiyasi qachon uyushtirildi?
- A) 1756-1760 yillar V) 1759-1765 yillar S) 1761-1766 yillar *D) 1768-1774 yillar
25. Tungus, Evenk, Nenets va Xanti xalqlari haqida kimlar qimmatli ma'lumotlar bergan?
- A) Kruzenshteyn, Lisyanskiy V) Kotsebu, Litke *S) Pallas, Zuev D) Lazarev, Zagaskin
26. Yangi Gvineya oroli qabilasi Papuaslar haqida kim qimmatli ma'lumot qoldirgan?
- A) Magellan *V) Mikluxo-Maklay S) Zagaskin D) Vasko da Gama
27. «Ibtidoiy madaniyat», «Antropologiya» asarlarining avtori kim?
- A) Ch.Darvin *V) E.Teylor S) Maklennan D) I.Ya. Baxofen
28. «Qadimgi jamiyat» asarining avtori kim?
- A) Zagaskin V) E.Teylor S) I. Baxoven *D) G. Morgan
29. Parapitek vatani qayer?
- A) Xindiston V) Xitoy *S) Misr D) Afrikaning janubi
30. Fanning ta'rificha odam evolyutsiyasining birinchi bosqichi chegarasini aniqlang?
- A) 3 mlndan 2 mln yilcha ilgari V) 3 mlndan 1,5 mln yil ilgari
- S) 2,5 mlndan 1 mln yil ilgari *D) 3,5 mlndan 100 ming yil ilgari
31. Fanning ta'rificha odam evolyutsiyasining ikkinchi bosqichi nechanchi yillarni o'z ichiga oladi?
- A) Mil.avv. 1 mln-500 ming yil ilgari V) Mil.avv. 500-200 ming yil ilgari
- S) Mil.avv. 200-100 ming yil ilgari *D) Mil.avv. 100-40 ming yil ilgari
32. Fanning ta'rificha odam evolyutsiyasining uchinchi bosqichi qachon sodir bo'lgan?
- A) 100 ming-40 ming yil ilgari V) 100 ming-30 ming yil ilgari
- S) 100 ming-15 ming yil ilgari *D) 40 ming-12 ming yil ilgari
33. Akl-idrokli odam qachon paydo bo'lgan?
- A) Ilk paleolit davrida V) O'rta paleolit davrida *S) So'nggi paleolit davrida D) Mezolit davrida
34. Insoniyatning ilk vatani qayer bo'lgan?
- A) Afrika va Yevropa V) Janubiy Osiyo *S) Afrika va Janubiy Osiyo D) Janubiy-Sharqiy YEropa
35. Ibtidoiy gala davri qachongacha davom etgan?
- A) O'rta paleolitgacha *V) So'nggi paleolitgacha S) So'nggi paleolit o'rtalarigacha

D) Mezolit davrigacha

36. Ibtidoiy jamoa tuzumining qaysi davrida o`q-yoy kashf etildi?

A) Ilk paleolit davrida V) O`rta paleolit davrida \*S) Mezolit davrida D) So`nggi paleolit

37. Ibtidoiy jamiyatning qaysi davrida ilk dehqonchilik paydo bo`ldi?

A) So`nggi paleolit o`rtalarida V) So`nggi paleolit oxirida *S) Mezolit davrida

D) Neolit davri oxirlarida

38. Ibtidoiy jamiyatning qaysi davrida chorvachilik kelib chiqdi?

A) O`rta paleolit davrida V) So`nggi paleolit davrida *S) Mezolit davri o`rtalarida

D) Mezolit davri oxirlarida

39. Ibtidoiy jamiyatning qaysi davrida xunarmandchilik paydo bo`lgan?

A) So`nggi paleolit davrida V) Mezolit davri boshlarida S) Mezolit davri oxirlarida

*D) Mezolit davri o`rtalarida

40. Arxeologik-numizmatik kolleksiyalar to`plagan olimning ismini ayting?

A) Olimxo`ja Yunusov V) Muxammad Vafo S) Mirza Hakim *D) Mirza Buxoriy

41. Turkiston arxeologiya xavaskorlari to`garagi qachon tuzildi?

A) 1865 yilda V) 1870 yilda *S) 1895 yilda D) 1880 yilda

42. Teshiktosh g`orida nechta madaniy qatlam bo`lgan?

A) 3 ta *V) 5 ta S) 6 ta D) 8 ta

43. «Fergantrop» odam qachon topildi?

A) 1938 yilda V) 1941 yilda S) 1969 yilda *D) 1988 yilda

44. Uy xayvonlaridan it qachon xonakilashtiriladi?

A) O`rta paleolitda V) So`nggi paleolitda *S) Mezolit davrida D) Eneolit davrida

45. Boysun tog`idagi Machay g`ori qaysi davrga taallukli?

A) Quyi paleolitga V) O`rta paleolitga \*S) Yuqori paleolit D) Yuqori paleolitning so`nggi davriga

46. Bundan qancha yil ilgari er yuzida qattiq sovuq va muzlik boshlangan?

A) 40 ming yil ilgari *V) 200-100 ming yil ilgari S) 80 ming yil ilgari D) 60 ming yil ilgari

47. Inson «Aql-idrokli odam»ga bundan qancha yil ilgari aylangan?

A) 100 ming yil ilgari V) 80 ming yil ilgari S) 50 ming yil ilgari *D) 35-30 ming yil ilgari

48. «Aql-idrokli odam miyasi» «bilag`on odam» miyasidan necha baravar katta bo`lgan?

A) 1,5 baravar V) 1,7 baravar *S) 2 baravar D) 2,5 baravar

49. Bundan qancha yil ilgari muzliklar erib er isiy boshlagan?

- A) 30 ming yil ilgari V) 25 ming yil ilgari S) 20 ming yil ilgari *D) 13 ming yil ilgari
50. Mamontlar qachon qirilib ketgan?
- A) So`nggi paleolit o`rtalarida V) So`nggi paleolit oxirlarida *S) Mezolit davri boshlarida
D) Mezolit davri oxirlarida
51. Dastlabki dehqonchilik qaerdan boshlangan?
- A) Hindistonda V) Xitoyda S) Afrikada *D) Old Osiyoda
52. Ibtidoiy odamlar misga ishlov berishni qachon bilib olganlar?
- A) Bundan 10 ming yil ilgari V) 8 ming yil ilgari *S) 7 ming yil ilgari D) 6 ming yil ilgari
53. Zarautsoy qoya va kamarlariga bitilgan ajoyib suratlar kim tomonidan kashf etilgan?
- A) A.P.Okladnikov V) G.A. Bonch-Osmolovskiy S) S.N. Zamyatnik *D) I.F.Lomaeve
54. Paleolitga oid Ispaniyadagi Altamira g`or suratlari kim tomonidan kashf etildi?
- A) S.M. Sardoryan *V) Marselen Sautuola S) Miller Gmelin D) K.Yu. Tomsen
55. Qazilma odam eng avvalgi vakillaridan biri pitekanthrop skeleti qachon, kim tomonidan topilgan?
- A) XIX asrning 60-yillarida G.Mortile V) 1860 yili E.Larte *S) 1891 yil E.Dyubua
D) 1938 yil A.P.Okladnikov
56. Armanistondagi Satani Dar tepaligidan topilgan mehnat qurollari qaysi davrga tegishli?
- *A) Shell davriga V) Ashel davriga S) Muste D) Orinyak-Solyutre
57. Orinyak va Solyutre madaniyatlari arxeologik davrlashtirishning qaysi bosqichiga to`g`ri keladi?
- A) Ilk paleolit V) O`rta paleolit \*S) So`nggi paleolit D) Mezolit
58. Don daryosi bo`yida topilgan Kostyonki manzillari qaysi davrga to`g`ri keladi?
- A) Shell, ashel V) Muste *S) Orinyak-Solyutre D) Madlen
59. «Avstrolopitek» so`zi lotinchada qanday ma`noni anglatadi?
- A) Maymunsimon hayvon *V) Janub maymuni S) Daraxtda yashovchi maymun
D) Eng Qadimgi odam
60. Sinantrop odam qachon, qayerdan topilgan?
- *A) 1927 yilda Xitoyning Pekin shahri yaqinida V) 1891 yil Indoneziyaning Yava orolida
S) 1924 yilda Sharqiy Afrikada D) 1907 yilda Germaniyadagi Geydelberg shahri yaqinida
61. Hozirgi zamon odami yoki homo sapiensning eng tipik vakillari qaerdan topilgan?
- A) Germaniyaning Neandertal vodiysida va Boysunning Teshiktosh
V) Afrikaning Olduvay darasi va Indoneziyaning Yava orolida
*S) Frantsiyadagi Kro-Manon va Italiyadagi Grimoldi g`orlarida

- D) Ispaniyadagi Santander viloyati va Xitoyning Pekin shahri
62. Paleolitning orinyak-solyutre bosqichidan so`nggi madaniyat qanday ataladi?
- A) Shell, Ashel V) Muste *S) Madlen D) Mas d-Azil
63. Garpunlar qaysi davrdan qo`llanila boshlangan?
- A) Ilk paleolit-Ashel davridan *V) So`nggi paleolit-Madlen davridan
S) O`rta paleolit-Muste davridan D) Mezolit davridan
64. «Ekzogamiya» qanday ma'noni anglatadi?
- *A) Tashqari nikoh V) Ichki nikoh S) Bir nikohlilik D) Dualo nikoh
65. «Endogamiya» qanday ma'noni anglatadi?
- A) Tashqari nikoh *V) Ichki nikoh S) Bir nikohlilik D) Dualo nikoh
66. Monagamiya qanday ma'noni anglatadi?
- A) Tashqari nikoh V) Ichki nikoh *S) Bir nikohlilik D) Dualo nikoh
67. Paleontologiya qanday fan?
- A) Qadimgi iqlimlar haqidagi fan *V) Qazilma o`simlik va hayvonlar haqidagi fan
S) YErning tarkibi, tuzilishi va tarixi haqidagi fan D) Qirilib ketgan hayvonlarning Qazilma qoldiqlariga qarab ibtidoiy davrdagi hayvonot dunyosini aniqlaydi
68. Uch asr: Tosh asri, bronza asri va temir asri tushunchalarini fanga kim kiritgan?
- *A) Daniyalik arxeolog K.Yu.Tomsen V) Nemis paleontologi R.Kyonigsvald
S) Amerikalik etnograf L.Morgam D) Ingliz olimi Ch.Darvin
69. Ilk paleolit uchun xarakterli madaniyatlarni ayting?
- *A) Shell, ashel V) Muste S) Orinyak, solyutre, madlen D) Azil, Tardenuaz
70. Geologlar er qobig`ining o`tmishini necha eraga bo`lishadi?
- A) I –eraga V) II –eraga S) III –eraga *D) IV -eraga
71. Tanganikadagi Olduvay darasidan topilgan prezinjantrop (ishbilarmon odam) qachon, kim tomonidan kashf etilgan?
- A) 1890-91 yillarda golland vrachi E.Dyubua *V) 1960 yilda ingliz paleontologi L.Liki
S) 1927 yilda kanadalik D.Blek D) 1923 yilda shved geologi S.Anderson
72. Odamning tashqi jismoniy farqlari asosida inson irqi nechanchi yilda, kim tomonidan klassifikatsiya qilindi?
- *A) 1735 yil shved tabiatshunosi K.Linney V) 1860 yilda frantsuz arxeologi E.Larte
S) XIX asr o`rtalarida daniyalik arxeolog K.Tomsen D) 1825 yil frantsuz olimi J.Denuaye
73. Ekzogamiya paydo bo`lishi bilan gala o`rmini nima egallaydi?
- A) Harbiy demokratiya davri o`rnatiladi. \*V) Urug` va dual urug` egallaydi

- S) Patriarxat urug` jamoasi tashkil etadi D) Patronimiya tashkil etiladi
74. Urug` jamiyati qaysi davrda paydo bo`lgan?
- A) O`rta paleolitda \*V) So`nggi paleolitda S) Mezolit davrida D) Neolit davrida
75. Qaysi davr o`zlashtiruvchi xo`jalik formalaridan ishlab chiqaruvchi formalariga o`tilishi bilan xarakterlanadi?
- A) O`rta paleolit V) So`nggi paleolit S) Mezolit davri *D) Neolit davri
76. O`rta paleolit uchun xarakterli madaniyat?
- *A) Muste V) Shell, ashel S) Orinyak, solyutre, madlen D) Azil, tradenuaz
77. So`nggi paleolit uchun xarakterli madaniyatlar?
- A) Shell, ashel *V) Orinyak, solyutre, madlen S) Azil, tradenuaz D) Muste
78. Paleoklimatologiya qanday fan?
- A) YErning tarkibi, tuzilishi va tarixi haqidagi fan
V) Qazilma o`simlik va hayvonlar haqidagi fan
*S) Qadimgi iqlimlar haqidagi fan
D) Ibtidoiy odamlarning urf-odatlarini va marosimlarini o`rganadigan fan
79. Sinantropga ancha yaqin bo`lgan «geydelberg odami» qachon, qaerdan topilgan?
- A) 1860 yil Frantsiyada V) 1891 yil Yava orolida
S) 1927 yil Xitoyning Pekin shahrida *D) 1907 yilda Germaniyada
80. Qaysi davr muhim texnika yutug`i bo`lgan keramika bilan xarakterlanadi?
- A) So`nggi paleolit V) Mezolit *S) Neolit D) Eneolit
81. Qaysi davrda o`rish, to`qish, yigirishga asos solingan?
- A) So`nggi paleolit V) Mezolit *S) Neolit D) Eneolit
82. Fratriya nima?
- *A) Ona urug`larining bo`linishidan paydo bo`lgan birodar urug`lar birlashmasi
V) Er va xotinning mustahkam bog`lanishi
S) Ekzogamiya nikoh tartibining o`rnatilishi
D) Urug` va dual urug`
83. Old Osiyoda va Nil vodiysida mis eritish va misni qizdirib ishlash qachon boshlangan?
- A) Er.avv. III -ming yillikda *V) Er.avv. IV-ming yillikda
S) Er.avv. V-ming yillikda D) Er.avv. VI-ming yillikda
84. YEvroпада mis eritish qachon boshlangan?
- A) Er.avv. II -ming yillikda *V) Er.avv. III -ming yillikda

- S) Er.avv. IV-ming yillikda D) Eramizning I-ming yilligida
85. Urug`chilik tuzumining ravnaq topishi qaysi davrga to`g`ri keladi?
- A) So`nggi paleolit davri V) Mezolit davri *S) Neolit davri D) Bronza davri
86. Matrilokal nima?
- *A) Er-xotin oilasiga ko`chib o`tishi V) Ona urug`larining bo`linishi
- S) Tashqi nikoh D) Patriarxal jamoaning buzilishi
87. «Eng qadimgi odamlar»ga qaysilari kiradi?
- *A) Arxantropplar V) Antropoidlar S) Paleontropplar D) Neantropplar
88. «Qadimgi odamlar»ga qaysilari kiradi?
- A) Antropoidlar V) Arxantropplar *S) Paleontropplar D) Neantropplar
89. Farg`ona vodiysidagi Selengur g`orida joylashgan paleolit davri makoni nechta madaniy qatlamdan iborat?
- A) 5 ta V) 9 ta *S) 13 ta D) 15 ta
90. O`rta paleolitga oid bo`lgan Qo`turbuloqva Zirabuloq manzilgohlari qayerda joylashgan?
- A) Samarqand viloyati *V) Zarafshon vodiysi S) Toshkent viloyati D) Vaxsh vohasi
91. O`rta va so`nggi paleolitga oid Ko`lbuloq manzilgohlari qayerda joylashgan?
- A) Farg`ona V) Tojikiston *S) Toshkent D) Samarqand
92. Mezolit davriga oid bo`lgan Obishir manzilgohlari qayerda joylashgan?
- *A) Farg`ona V) Toshkent S) Tojikiston D) Vaxsh vohasi
93. Janubiy Turkmanistonda joylashgan Joytun madaniyati qaysi davrga oid hisoblanadi?
- A) O`rta paleolit V) Mezolit *S) Neolit D) Eneolit
94. Buxoro vohasidagi Lavlakon, Beshbuloq va Zamonbobo makonlari qaysi davrga tegishli ?
- A) So`nggi paleolit V) Mezolit S) Neolit *D) Eneolit
95. «Pitekanthrop», «Sinantrop», «Geydelberg» odamlari antropogenez jarayonining qaysi bosqichiga kiradi?
- A) Neantropplar V) Paleantropplar *S) Arxantropplar D) Antropoidlar
96. Armanistonning Bogutlu tog`ida, Araga tog`ining g`arbiy janubida joylashgan Satanidar makoni qaysi madaniyatga oid?
- *A) Shell V) Muste S) Orinyak D) Madlen
97. Ko`hitang tog`ida joylashgan Zarautsoy tasviriy san'atlari nechta kamarda o`z aksini topgan?
- A) 10 V) 16 *S) 26 D) 32
98. Farg`ona vodiysidagi Selungur g`oridan topilgan «Fergantrop» odamning topilishida kimning xizmatlari katta?

A) Ya.G`ulomov V) A.Okladnikov S) A.Asqarov \*D) O`.Islomov

99. Selungur g`ori paleolit davri makonida nechta madaniy qatlam topildi?

A) 5 ta *V) 13 ta S) 15 ta D) 18 ta

100. Ibtidoiy dinning shakli bo`lgan fetishizm (portugaliyaga fetic-yasalgan) tushunchasini ilmiy adabiyotga kim olib kiritgan.

A) 1735 yil shved tabiatshunosi K.Linney V) 1860 yilda frantsuz arxeologi E.Larte

*S) frantsuz olimi Sh.de Bross XV111 asrda D) 1825 yil frantsuz olimi J.Denuaye

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Prezident Islom Karimov asarlari

1. Karimov I.A. Fanning vazifasi — Vatanning gullab yashnashiga xizmat qilish. T., 1994.
2. Karimov I.A. Fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak. T., 1994.
3. Karimov I.A. Avlodlarning barkamol rivoji — O'zbekiston taraqqiyotining asosi. T., 1997.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Tanlangan asarlar to'plami. T., 1999.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T, "Ma'naviyat" 2008.
6. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. T., "O'zbekiston" 2010.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. O'zbekiston. 2011.

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalari

8. Alekseev V.P., Pershits A.I. Istoriya pervobytnogo obshchestva. M., Vysshaya shkola, 2007g.
9. Alekseev V.P. Paleoantropologiya zemnogo shara i formirovanie chelovecheskix ras. M., 1978.
10. Alekseev V.P. Stanovlenie chelovechestva. M., 1984.
11. Arutyunov S.A. Народы i kultury: razvitie i vzaimodeystvie. M., 1989.
12. Istoriya pervobytnogo obshchestva. Obshchie voprosy. Problemy antroposotsiogeneza. M., Vysshaya shkola., 1983 g.
13. Kabirov A. Ibtidoiy jamiyat tarixi. (Ma'ruza matni). –T. 2005.
14. Pershits A.I., Alekseev V.P., Mongayt A. M. Istoriya pervobytnogo obshchestva. M., Nauka. 1967
15. Kosven O. M. Ocherki istorii pervobytnoy kultury. M, "Prosvetshenie".1953
16. Issledovaniya po pervobytnoy istorii. Sb. st. M., 1992.
17. Istoriya pervobytnogo obshchestva. Obshchie voprosy. Problemy antropo-sotsiogeneza. M., 1983.
18. Istoriya pervobytnogo obshchestva. Epoxa pervobytnoy rodovoy obshchiny. M., 1986.
19. Istoriya pervobytnogo obshchestva. Epoxa klassoobrazovaniya. M., 1988.
20. Markov G.Ye. Istoriya khozyaystva i materialnoy kultury v pervobytnom i ranneklassovom obshchestvax. M., 1979.

Qo'shimcha adabiyotlar

21. Alekseev V.P. Paleoantropologiya i istoriya // VI. M., 1985. №1.
22. Alekseev V.P., Pershits A.I. Istoriya pervobytnogo obshchestva. M., 1999.
23. Alekseev V. P. Istoricheskaya antropologiya. M. 1979
24. Alekseyev V.P. Antropologiya. M. 2002.
25. Areshyan G.ye. Arxeologiya i istoricheskiy sintez // VDI. M., 1992. № 4.
26. Amalrik A.S., Mongayt A.L. Chto takoe arxeologiya. M., 1966. 250 s.
27. Ashirov A. Etnologiya. Toshkent. Yangi nashr, 2014.
28. Bichakdjyan B.X. Evolyusiya yazyka: razvitie v svete teorii Darvina // Voprosy yazykoznaniya. M., 1992. № 2. S. 123 - 134.
29. Boriskovskiy P.I. Drevneyshee proshloe chelovechestva. M., 1980. 240 s.
30. Bromley Yu.V. Etnos i etnografiya. M., 1973.
31. Bunak V.V. Nachalnye etapy razvitiya myshleniya i rechi po dannym antropologii // SE. M., 1951. № 3.
32. Galperina G.A., Dobrova ye.V. Populyarnaya istoriya arxeologii. M., 2002. 512 s.
33. Grin N., Staut U. Teylor D. Biologiya M.Mir. 3-x tomax, 1990g.
34. G'ofurov A.T.Darvinizm, T., O'qituvchi, 1980.
35. Gafurov A.T. Darvinizm 2-chi nashri Toshkent "O'qituvchi", 1992.
36. Chordanskiy N.N.Osnovo` teorii evolyutsii. M., Proveshenie, 1979.

37. Etnicheskie protsessy v sovremennom mire. M., 1987. 446 s.
38. Etnografiya kak istochnik rekonstruktsii istorii pervobytnogo obshchestva. M., 1979.
39. Its R.F. Vvedenie v etnografiyu. Ucheb. posob. L., 1991. 168 s.
40. Kabirov J., Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. T., O'qituvchi, 1979.
41. Kasimov T.K. Antropologiya Tsentralnoy Azii. T. 2001.
42. Kleyn L.S. Arxeologicheskie istochniki. SPb., 1995. 350 s.
43. Кнышенко Ю.В. Историya pervobytnogo obshchestva i osnovy etnografii. Rostov na Donu, 1965.
44. Комилов Нажмиддин. Тасаввуф. Тошкент, "Ёзувчи" нашриёти, 1996.
45. Kosven O. M. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. 1960
46. Konstantinov A.V. Osnovo`evolyutsionnoy teorii. 2-e izd. Mins. Vo`sshaya shkola, 1979.
47. Markov G.Ye. Istoriya xozyaystva i materialnoy kulturo`v pervobo`tnom i ranneklassovom obshchestvax. M., 1979.
48. Masson V. M. Perviy sivilizatsiyi. L. 1989
49. Мартынов А.И., Шер Я.А. Методы археологического исследования: Учеб. пособ. М., 1989. 223 с.
50. Майр Е. Популяtsii, vido`i evolyutsiya. M., Mir. 1974 g.
51. Mednikov A.M. Darvinizm v XX veka. M., 1975.
52. Narody mira: Istoriko-etnograficheskiy spravochnik. M., 1988. 624 s.
53. Nabiev A. "Tarixiy o'lkashunoslik" T., 1996 y.
54. Nestrux M.F. Primatologiya i antropogenez. M., 1960.
55. Opisanie i analiz arxeologicheskix istochnikov. Irkutsk, 1981. 136 s.
56. Osnovy etnografii / Pod red. S.A. Tokareva. M., 1968. 360 s.
57. Орзиев М.З., Эргашев Ж. Ибтидоий жамоа тарихидан атамалар изоҳли луғати. (Ўқув-усулий ишланма). Бухоро. "Дурдона" нашриёти, 2013.
58. Paramonov A.A. Darvinizm. M., Prosveshenie, 1971. 43 б.
59. Peyros I.I. O sootnesenii arxeologii i lingvistiki pri izuchenii proizvod'yashogo xozyaystva // VDI. M., 1989. № 1.
60. Pravdin F.N. Darvinizm. M., Prosveshenie, 1973.
61. Problemy absolyutnogo datirovaniya v arxeologii / Pod red. B.A. Kolchina. M., 1972.
62. Radiouglerod i arxeologiya. SPb., 1996. Выр. I. 68 s.; 1997. Выр. 2.
63. Roginskiy Ya.Ya., Levin M.G. Antropologiya. M., 1978.
64. Sadoxin A.P. Etnologiya: Ucheb. M., 2001. 256 s.
65. Sagdullaev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi.- T.:Universitet, 2004.
66. Semyonov Yu. A. Proisxojdeniye braka i semyi. M. 1974
67. Severtsov A.S. Vvedenie v teoriyu evolyutsii. M., Izd.vo MGU. 1981.
68. Stolyar A D. Proisxojdeniye izobrazitel'nogo iskusstva. M1985.
69. Smirov I.N. Materialisticheskaya dialektika i sovremennaya teoriya evolyutsii. M., Nauka, 1978.
70. Sharova I.X. Problemo`teorii evolyutsii. M., Znanie, 1981.
71. Shnirelman V A. Proisxojdenie proizvod'yashogo xozyaystva. M. 1989.
72. Shnirelman V.A. Arxeologiya i lingvistika: problemy korrelyasii v kontekste etnogeneticheskix issledovaniy // VDI. M., 1996. № 4.
73. Shmalgauzen I.I. Problemo`darvinizma. L., Nauka, 1969.
74. Teylor E. Pervobitnaya kultura. M. 1989.
75. Tokarev S. A. Ranniye formi religiyi i ix razvitiyi. M. 1985
76. Faynberg L.A. O vozmojno`x etnograficheskix analogax pervobo`tnogo obshchestva oxotnikov i sobirateley G`G` SE. M., 1981. №6.
77. Filosofiya i teoriya evolyutsii. Sbornik statey. Pod red. A.Ya. Ilina. M., Nauka, 1974.
78. Foks S., Doze K. Molekulyarnaya evolyutsiya i vzniknovenie jizni. M., Mir. 1975.

79. Yablokov A.V. Yusupov Abdumalik. Gasamutdinov, evolyutsionnoe uchenie (darvinizm). M., Vo'sshaya shkola, 1-e izd, 1979, 2-e izd. 1981, 3-e izd. 1989.
80. Qoraboyev U., Soatov G'. O'zbekiston madaniyati. Toshkent-2011. 193-bet.
81. Qur'oni Karim. Aloiddin Mansur. Ma'no-lar-nin-g tar-jima va ta-fsi-ri .T. 2004.
82. Qur'oni Karim. Abdulaziz Mansur. Ma'no-lar-nin-g tar-jima va ta-fsi-ri. T. 2007.
83. Fan va turmush. 2008 y. № 3-4-5-sonlar.

Internet ma'lumotlari

1. <http://golob.narod.ru/biblioteca.html> - biblioteka-oznakomitsya s tekstami po istorii, politologii, sotsiologii
2. <http://www.biografia.ru/knigi.html> biblioteka redkix knig v formate DjVu.
3. <http://www.mirknig.com/> Много lit-ry (v osnovnom, v pdf i djvu) -v t ch po gumanitarnym i yestestvennonauchnym dissiplinam
4. <http://bookz.com.ua> UCheBNIKI ON-LAYN
5. <http://lib.com.ua/> biblioteka
6. <http://www.computerbooks.ru/> Elektronnye knigi
7. <http://zipsites.ru/> Besplatnaya el. internet biblioteka
8. <http://hronos.km.ru/proekty/mgu/index.html> Bibl-ka el. resursov Istoricheskogo fakulteta MGU im. M.V.Lomonosova

GLOSSARIY

ABORIGEN (yunon) – joyning tub aholisi, qadimdan shu mamlakatda yashovchi xalqlar.

AVANKULAT (lotincha *avanculis* –tog’a ma’nosida) – tog’a bilan jiyan o’rtasidagi alohida munosabatlar tizimi; bunda tog’a o’z jiyanining tarbiyasiga va uning hayotiy taqdiriga asosiy mas’ul kishi hisoblanadi.

AVTOXTON (yunon) – tub aholi, mahalliy er egasi bo’lgan xalq, mamlakatning ibtidoiy aholisi yoki aborigenlar.

AGNAT (lotincha) – ota nasabi bo’yicha qarindoshlik.

ADOBTSIYA (lotincha) – o’g’il yoki qiz qilib asrab olish.

ANIMIZM (lotincha *animu* – ruh) – tabiatdagi barcha narsalarni, tabiat kuchlari va hodisalarini jonli deb tushunish, ularda g’ayri tabiiy kuch bor deb tushunishdir. Animistik tasavvurlar mana shunday ma’nodja ibtidoiy e’tiqodlar va dinlarnig barchasida u yoki bu tarzda mavjuddir. Bu tushunchani o’tgan asrda ilm-fanga kirgan E.Teylor animizmni “eng kam quyi din”, umuman dinning dastlabki bosqichi deb qaragan. Ibtidoiy odamlar tabiat kuchlariga qarshi kurashda ojizlik qilgan, o’z hayoti va tanasidagi turli hodisalar (tush ko’rish, gallyutsinatsiya, o’lim va hokazo)ni tushunmagan. Ular jon tana bilan bog’langan u tanadan chiqib keta oladi, deb hisoblaganlar. Insonda asta-sekin abstrakt tafakkur rivojlanishi bilan moddiy narsalarga bog’liq ruh to’g’risidagi tasavvurlar paydo bo’lgan. Ruhlar yaxshi, saxiy hamda yomon, yovuz ruhlarga bo’lingan. Ruhlar odamlar hayotiga, turmushiga ta’sir ko’rsata oladi deb tasavvur qilingan. Shu sababli zarur paytlarda ularga qurbonliklar qilganlar.

ANTROPOGENEZ – odamning kelib chiqishi va rivojlanishi jarayoni.

ANTROPOLOGIYA (yunon) – odam haqida tushuncha, odamni o’rganuvchi fan. Odamning suyak tuzulishi, teri va sochining rangi va belgilariga qarab uning kelib chiqishi, irqi, morfologik tiplari, fiziologik, jinsiy va boshqa xususiyatlarini o’rganadi.

ARXANTROPLAR (yunoncha archaios qadimgi va anthropos - odam) - evolyutsion taraqqiyoti darajasi va madaniyati xarakteriga koʻra oʻzaro yaqin boʻlgan qadimgi qazilma odamlar (Pitekanthrop va sinantrop va b.). Bu odamlar bundan 800-1mln yil ilgari yashashgan.

ALTAMIR GʻORI - Ispaniyadagi gʻor boʻlib, bu yerdan soʻnggi paleolitga oid bir necha qoya suratlari topilgan. 1868 yil Rigillo tomonidan topilgan Rassomchilikda birinchi bor Ispaniyaʼning Altamira Gʻoridan yovvoyi qoramol (Bizon)lar va otlarni Qizil rangdagi oxra boʻlaklari bilan ishlangan rasmlarini topilishi bir tomondan katta ahamiyatga ega boʻlgan boʻlsa, ikkinchi tomondan katta shov-shuvlarga ham sabab boʻldi. Bu noyob yodgorlikni topgan muallifni qalbaki yodgorlik top-gansan deb ayblashdi. Ammo oradan 20 yil oʻtgach, Altamira sanʼatiga oʻxshash asarlarni Frantsiya va boshqa mamlakat-larni forlaridan topilishi Altamira foridagi rasmlarni xaqiqiy paleolit davrini asarlari ekanligini isbotladi. Hozirgi kunda 40 dan ortiq forlardan yuqori paleolitga oid rasmlar topilgan.

ARRIAN FLAVIY (Arrianos) (taxm. 95-175-yillar oʻrtasi) – yunon tarixchisi va yozuvchisi. Kichik Osiyodagi Nikomediya shahrida tugʻilgan; yunon faylasufi Epiktet qoʻlida oʻqigan. Rimda yashab, harbiy taʼlim olgan. 131-137-yillarda Kappadokiya voliyi boʻlib, alanlar hujumini qaytargan. Arrian senator, elchi va kohin ham boʻlgan. Falsafa, tarix, geografiya, harbiy va boshqa masalalarga oid asarlar yozgan (koʻpi bizgacha saqlanmagan). Uning bizgacha yetib kelgan eng qimmatli asari Aleksandr (Iskandar Maqduniy)ga bagʻishlangan 7 kitobdan iborat “Iskandarning harbiy yurishlari” nomli kitobidir. Asarda Aleksandr Makedonskiyning Eron, Oʻrta Osiyo va boshqa mamlakatlarga qilgan istilochilik yurishlari tarixi batafsil bayon etilgan. Arrianning “Hindiston”, “Nearxning harbiy yurishi”, “Epiktet haqida estaliklar” hamda epiktet taʼlimotiga bagʻishlangan “Qoʻllanma” kabi asarlari ham saqlangan. Uning **“Parfiya tarixi”, “Alanlar tarixi”, Vifiniya tarixi” va “Aleksandrdan keyingi ishlar”** nomli asarlaridan ham parchalar yetib kelgan. U Oʻrta Osiyo toʻgʻrisida ham qimmatli maʼlumotlar yozib qoldirgan. Arrian Flaviyning **“Iskandarning harbiy yurishlari”** asari nemis (Myuller; Leypsig, 1886-yil) hamda rus (Korenkov; Toshkent, 1912-yil va M. E. Sergeenko, M. – L. 1962-yil) tillarida nashr etilgan.

ARXEOLGIK MADANIYAT - bir tarixiy davrga oid, ammo turli hududlarda joylashgan arxeologik yodgorliklarning umumiy belgilarini ifodalovchi tushuncha.

ARXEOLGIYA (yunoncha arxeos - qadimiy, logos - fan yaʼni “qadimiylikni oʻrganadigan fan”) - tarixni ashyoviy manbalar asosida oʻrganuvchi va ular boʻyicha tarixiy oʻtmishni qayta tiklovchi qadimiyat toʻgʻrisidagi fan. Arxeologiya soʻzini mil. avv. IV asrda Platon (Aflotun) qadimgi voqealar maʼnosida ishlatgan. Ilmiy maqsadlardagi dastlabki arxeologik qazishlar XVIII asr boshidan boshlangan. XIX asr yirik arxeologik kashfiyotlar davri boʻlib, arxeologiya fan sifatida shakllanib bordi.

ASHEL MADANIYATI - quyi paleolit davri madaniyati. Shu davrga oid tosh choʻqmor, bir yoki ikki tomoni uchirilib, oʻtkir qilingan turli shakldagi chaqmoq toshlardan iborat qurollar dastlab Fransiyaning Amʼen shahri yaqinidagi Sent-Ashelda topilgan va bu madaniyat shu joy nomi bilan atalgan. Ashel madaniyati davri odamlari ibtidoiy jamiyat tuzumining quyi bosqichida gʻorlarda, daryo boʻylaridagi pana yerlarda toʻdalashib yashab, ovchilik bilan hayot kechirgan. Olovdan foydalangan. Ashel madaniyati Gʻarbiy va Sharqiy Yevropada, Kavkaz, Old Osiyo, Afrikada tarqalgan. Oʻrta Osiyoda Ashel madaniyatiga oid qarorgohlar Janubiy Qozogʻistonda (Qoratov), Toshkent vodiysida (Selungʻur) va boshqa joylarda uchraydi.

ASHYOVIIY MANBALAR – koʻhna manzil-makon, qabr, rasm va boshqa buyumlar (yodgorliklar), turli mehnat qurollar, roʻzgʻor buyumlar, taqinchoqlar, ziynat buyumlar, sopol idishlar va ularning parchalari, shuningdek uy-joy qoldiqlari kiradi.

AVSTROLOPITEK (janub maymuni) – maymunsimon odam vakili; 3-4 million yil ilgari yashagan. Odamzotning hayvonlar olami (maymun)dan odamlar dunyosiga oʻtishdagi qoʻyilgan birinchi qadami edi. 1924-yil Janubiy Afrikadan topib oʻrganilgan.

BRONZA DAVRI – ibtidoiy jamoa davrida jezdan mehnat qurollari ishlangan tarixiy bosqich. Ibtidoiy odamlar bir necha yuz va ming yillar davomida mehnat qurollarini faqat toshdan yasab keldilar. Mil. avv. IV mingyillikning boshlariga kelib, ayrim joylarda (Oʻzbekiston yerlarida mil. avv. III mingyillik oxiri – II mingyillikda) turli zeb-ziynat bezaklarini, baʼzi mehnat qurollarini misdan yasay boshlaydilar. Bu davrda misdan yasalgan mehnat qurollari moʻrt va yumshoq boʻlganligidan mustahkamroq qotishma olish uchun izlanish davom etgan va maʼlum davrdan soʻng qalayni misga qorishtirib bronza (jez) kashf etildi. Natijada mehnat qurollarining turi koʻpaydi, bronzadan keskirroq tigʻli qurol-yarogʻlar yasala boshladi. Ovchilik va terimchilik ijtimoiy va iqtisodiy hayotda oʻzining dastlabki ahamiyatini yoʻqotdi. Ot, eshak, tuya va hoʻkizdan transport vositasi sifatida foydalanildi. Hayvonlarga qoʻshiladigan aravalar vujudga keldi. Bu davrda xoʻjalikning, asosan, yaylov chorvachiligi va dehqonchilikka asoslangan ishlab chiqarish shakli qaror topdi. Amudaryo va Zarafshonning quyi qismi, Fargʻona vodiysining shimoli-sharqiy qismi va janubiy Surxon vohasi tabiiy geografik jihatdan qadimgi dehqonchilikning kelib chiqishi va rivojlanishi uchun qulay boʻlgan. Bu davrda Oʻzbekiston janubi va Afgʻoniston shimolida rivojlangan Baqtriya dehqonchilik madaniyati vujudga keldi. Oʻzbekistonda 3 ta asosiy dehqonchilik vohasi – Sherobod, Shoʻrchi va Bandixon shakllangan. Bu joylarda qadimgi ilk shahar madaniyati shakllana boshlagan. Bronza davriga mansub Sopollitepa, Mirshodi, Moʻlali, Jarqoʻton kabi urugʻ jamoasining turar joylari – qishloq qoʻrgʻonlari, ilk shaharlari va qabrlar topilgan. Xorazmda mil. avv. II mingyillikning 2-yarmida bronza davrining Tozabogʻyob madaniyati mavjud boʻlgan. Bu madaniyat Burgut qalʼa vohasidagi Tozabogʻyob kanali yaqinidan topilgan. Bu madaniyat dehqonchilik va irrigatsiya tarmoqlari ancha rivojlanganligi bilan farq qiladi (Ongqa-2, Qavat-3 makonlari, Koʻkcha-3 va boshqa mozorqoʻrgʻonlar). Bu davrda metall quyish texnikasi yuksak boʻlgan. Yassi tubli chizma boshoqsimon naqshlangan idishlar topilgan. Bronza metallurgiyasi rivojlangan. Xorazmda soʻnggi bronza – ilk temir davriga Suvyorgan (mil. avv. II mingyillik) va Amirobod (mil. avv. I mingyillik boshi) madaniyatlariga mansub. Suvyorgan madaniyati 3 bosqichni (Qamishli, Bozorqalʼa, Qovinch) oʻtgan. Urugʻ jamoalari ovchilik, podachilik va dehqonchilik bilan shugʻullangan. Ijtimoiy hayotda dastlab ona urugʻi anʼanalari kuchli boʻlgan, lekin keyingi ikki bosqichda erkaklarning jamoadagi mavqei ortgan. Ayollar erlarga iqtisodiy jihatdan qaram boʻla bordi. Katta oila jamoalarida ota huquqi qaror topib mustahkamlandi. Endi qarindoshlik otaga qarab belgilandi, urugʻlar ichidagi munosabatlar otaning iqtisodiy va huquqiy hukumronligi asosida qurilib, bolalar ota mulkiga merosxoʻr boʻla boshladi. Fargʻona vodiysida soʻnggi bronza davriga mansub Chust madaniyati aholisining asosiy mashgʻuloti dehqonchilik, chorvachilikdan iborat boʻlgan. Quyi Zarafshonning Zamonbobo madaniyati soʻnggi bronza davrining Andronovo madaniyatiga juda yaqindir. Andronovo madaniyatining yuqori bosqichiga mansub yodgorliklar Xorazmda, Toshkentdagi Koʻkcha mozorida, Buxoro viloyatining Qorakoʻl tumabnida, Urgut tumanining Moʻminobod qishlogʻida, Chirchiq daryosi boʻyida – Achichiqlik va Sergeli tepalarida topilgan. Toshkent vohasida soʻnggi bronza davri Burganli madaniyatida aksini topgan. Bu vaqtda ibtidoiy jamoa shiddat bilan yemirilib, qabilalar oʻrtasida dastlabki sinfiy munosabatlar vujudga keldi. Tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlandiki, mil. avv. II mingyillikning oxiri va I mingyillikning birinchi

choragida O'rta Osiyo hududida dastlabki qadimgi davlat tuzilmalarining paydo bo'lishi kuzatiladi.

GENEZIS(yunon) – kelib chiqish. Etologiyada xalqlarning kelib chiqishi.

GETERIZM(yunoncha *dugona, o'ynash ma'nosida keladi*)- gruppaviy nikohning sarqiti uni ayolning bitta erkakka tegishli bo'lish huquqi uchun gunohidan qutqazadigan zarur qurbonlik deb tariflash mumkin. Sinflardan avvalgi jamiyat davrida ayol o'zi bilan nikohga kirishi mumkin bo'lgan barcha erkaklarga tegishli bo'lishi lozim edi.

GINEKOKRATIYA(yunon) – oila va jamiyatda ayollarning hukmronligi.

CHOPPERLAR – uchi bir tomonga qarab o'tkirlangan qo'pol tosh qurol. Bu qurol O'rat Osiyodan Ko'lbuloq va Seling'urdan topilgan.

DAHYA – “Avesto”da bir qancha qabilalar ittifoqi shunday nomlangan.

DISLOKAL (lotincha) – er-xotinning ajralgan holda yashashi.

DRIOPITEKLAR hozirgi kunimizdan 15-12 mln yillar ilgari yashagan. Driopitek – «daraxtda yuruvchi odam» deb nomlanadi. 1856 yilda frantsuz arxeologi Larte Avstriyaning Yuqori Goranna degan joyidan yer tarixining miotsen yotqiziqlaridan (bundan 5-12 mln. yil burun) eng oliy tipdagi odamsimon «maymun» driopiteklarga tegishli bo'lgan 3 ta tish qoldiqlarini topgan. Driopitek odamsimon maymunlar turiga kiradi. Olimlar uning miya suyagini hajmini o'lganda 600 sm³ bo'lganligini qayd etadi. Hozirgi kunda dunyoning har xil joylaridan driopiteklarning 10 dan ortiq turlari topib o'rganilgan.

Avstrolopiteklar keyingi tur bo'lib, ular odamga ko'proq o'xshagan va hozirgi kunimizdan 3 mln. yillar ilgari yashagan. Ularning miya suyagining hajmi 600-700 sm³ bo'lib, avstrolopiteklar ikki oyoqda tik turgan, o'simlik va go'shtni ovqat sifatida iste'mol qilgan. 1924 yilda Janubiy Afrika hududlaridan odamzodning ilk ajdodi bo'lgan avstrolopitekning suyaklari topilgan. Olimlar unga «Janubiy odam» deb nom berishgan. Yer qo'riqning plyutsen (bundan 3-4 mln. yil oldin) yotqiziqlaridan olimlarning xulosasiga ko'ra, driopitek eng oliy tipdagi odamsimon «maymun» bo'lsa, avstrolopitek esa «maymunsimon» odam vakili bo'lgan. Avstrolopitek odamzodning hayvonlar olamidan odamlar dunyosiga o'tishda qo'yilgan birinchi qadami edi.

ENEOLIT (lotincha «eneus» - «mis» va yunoncha «paleos» - «tosh») - mis-tosh asri. IV-III mingyilliklarda tosh bilan birga misning ishlatilgan davri. Eneolit davrida metall ishlab chiqarish odamlarning moddiy va ma'naviy madaniyatiga katta ta'sir qildi. Mil. avv. IV mingyillikda Qadimgi Sharqda shahar va davlatlar, O'rta Osiyo janubida esa sug'orma dehqonchilik vujudga keldi. Xom g'ishtdan ko'p xonali uylar qurila boshladi; sopol idishlar hayvon, qush, o'simlik shaklidagi naqshlar bilan bezatildi. Eneolit davrining ko'plab manzilgohlari Turkmaniston janubi (Anov, Namozgoh, Oltintepa)da va Zarafshonning yuqori oqimlarida topib o'rganilgan.

EPIGRAFIKA (yunoncha epigrahe - bitik) – qadimgi bitiklarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi yordamchi tarix fani.

EKZOGAMIYA(yunoncha “tashqi, tashqari nikoh”) ma'nosini bildirib, urug'ning muhim belgisidir. Ekzogamiya printsiplarga so'zsiz rioya qilinishi urug' naslining tozalanishi, irsiy barqarorlikni ta'minlash xo'jalik va oilaviy nikoh hayotida muhim rol o'ynagan.

ELAT (xalq – norodnosti) – yagona hudud, til madaniyat, xo'jalik hayoti va turmush miqyosida qabilaviy munosabatlarning buzulishi natijasida yuzaga kelgan kishilar uyushmasi. Elat ijtimoiy umumiylik shakllaridan biri hisoblanadi, tarixan urug' qabila birlashmalaridan kelib chiqadi va ulardan muayyan majmua bo'lib ajraladi. Agar urug' qabilachilik xususiyatlari ularning qon-qarindoshlik aloqalarining mohiyatli belgisi bo'lsa, bunda millat uchun rivojlangan iqtisodiy makon xosdir. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan elatga avvalo quldorlik va feodalizm xosdir, shu bilan birga u biror shakldagi milliy davlatchilik tuzilmasini barpo etadi. Lekin elat ijtimoiy rivojlanishining keyingi bosqichlarida ham mavjud bo'ladi, chunki bir qator sabablarga ko'ra u millat bo'lib shakllana olmaydi.

Elat- tarixiy birligi tabaqalangan jamiyatning barcha davrlarda Er yuzining turli mintaqalarida boshqa etnik birliklar bilan bir qatorda mavjud bo'lib kelgan. Shuni hisobga olish kerakki, “elat” va “millat” atamalarining ayni bir vaqtda mavjud bo'lishi yana bir-birini to'ldirib borishi haqida tasavvur beradi.

Adabiyotlarda **“etnik guruh”** atamasi ham uchraydi, uni ba'zan etnik guruhning qandaydir bir o'tish shakli deb qarashadi. Ko'pincha bu atama tarix maydonidan tushib ketgan birliklarni tariflash uchun qo'llanadi.

Umumiy ilmiy atamalarning katta guruhi etnografiya tomonidan etnik tarixga, jahon madaniyati tarixi muammolariga nisbatan ishlatiladi. Ulardan ko'plari biologiya, sotsiologiyadan olingan.

Hozirgi zamon siyosiy matbuotidan etnografik adabiyotga **“treybalizm”, “traybalizm”** atamalari ham kirib kelgan (inglizcha tribe-qabila ma'nosini bildiradi), u Afrika va Osiyodagi yosh davlatlarda mavjud bo'lgan etnik vaziyatni tavsiflab beradi. U joylarda mustamlaka rejimi davrida mavjud bo'lgan qabilaviy alohidalik hozirgi vaqtda ham saqlanib qolgan. Treybalizm birlashish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda qabilalar o'rtasida ziddiyatlar keltirib chiqaradi. Siyosiy matbuotda treybalizm atamasi millatchilikning sinonimi sifatida foydalaniladi.

XX asrning ikkinchi yarmi etnografiya uchun ibtidoiy jamiyat tarixining eng muhim muammolariga taalluqli munozaralar xarakterlidir. Davrlarga bo'linish muammolari ijtimoiy yacheykani tariflash, matriarxat-ona urug'ining tutgan o'rni xususidagi munozaralar shular jumlasidan.

ENDOAMIYA (yunoncha ichki nikoh ma'nosini bildiradi) – bu qabilaning faqat birinchi etnik birligi sifatida muhim belgisi bo'lib qolmay, shu bilan birga ibtidoiy davrdagi ijtimoiy tashkilotning oliy shakli sifatida ham muhimdir.

ETNIK GURUH - til, madaniyat, din, turmushga xos eng ahamiyatli jihatlarni saqlagan elat yoki millatning o'ziga xoslangan qismi. Unday guruhga milliy-etnik, diniy-jamoaviy, til, madaniy-maishiy belgilarga ko'ra o'ziga xoslanib subetnik, etnokonfessiya, etnolingvistik jamoalarni tashkil qiladi, bular keyinchalik muayyan etnosiyosiy mavqetni davo qila boshlaydi.

Jahon tajribasidan ko'rinadiki, etnik ozchilikning mavqei, tutgan o'rniga ijtimoiy-siyosiy turmushning barqarorligiga bog'liq ekan. Barqaror bo'lmagan vaziyatlarda ko'proq o'z huquqlarini ta'minlashga ko'proq ishonch bo'lishiga muhtoj etnik guruhlar o'zlarini noqulay sezadi, chunki bular o'ziga xos madaniyatlarini yo'qotish xavfi, kamsitilish va xo'rlanish xavfi ostida bo'ladilar.

Etnoslararo munosabat barcha qolgan turlar bilan tarixan irga kechayotgan guruhlararo munosabat turi hisoblanadi. U insoniyat o'tmishi bilan chuqur bog'liq, shu bilan birga ijtimoiy hayotni tashkil etishning ruhiy qonuniyatlariga taloqador, ular qadim antropogenez vaqtida tug'ilgan birinchi galda etnik guruhga mansublik belgisi bo'yicha "biz" – "ular" qarama-qarshiligi osha rivojlanadi.

ETNOGENEZ(yunon –tug'ilish) – xalqlarning kelib chiqishi.Etnogenez etnoslar mavjudligining sezilarli qismini qamrab oladi, ham bir xalqning yuzaga kelishi boshlang'ich bosqichlari va ham uning etnografik-lingvistik va antropologik jihatdan o'ziga xos tarzda keyingi rivojlanishini o'z ichiga oladi.

ETNOLOGIYA(yunon-tushuncha, ta'limot plyus xalq) – etnografiyaga yaqin bo'lgan tushuncha, lekin undan farqli o'laroq xalqlar madaniyatining rivojlanishi, umumlashtiruvchi ilmiy sohadan iboratdir. Bunda etnografiya avvalo tavsifiy fan sanaladi, shu bilan birga umumlashtirishning muayyan darajasini inkor etmaydi. Turli mamlakatlarda bu fan turlicha nomlanadi. Uni ko'pincha etnoslar haqidagi fan, aholishunoslik, ijtimoiy antropologiya va hokazo tarzda nomlaydilar.

FARG“ONATROP – olimlar Farg“onaning Seleng“ur g“oridan topilgan odam suyagi qoldiqlariga shunday nom berishgan. Ilk tariximizning tamal toshlari ilk bor ajdodlarimiz tomonidan Selung“ur g“orida qo“yilgan bo“lib, uning yoshi 1 mln 200 ming yil bilan belgilanadi. Bizning tariximiz Selung“ur g“orida paydo bo“lgan arxantroplardan boshlanadi. O“rta Osiyo xalqlarining ajdodlari ilk bor Farg“ona vodiysida paydo bo“lgan va azaldan ularning avlodlari uzluksiz yashab kelmoqda.

FETESHIZM (portugalcha fetico, fransuzcha fetiche - sehrli narsa, tumor) - g“ayritabiiy xususiyatlarga ega deb hisoblanadigan jonsiz narsalar - fetishlarga sig“inish. Sig“inish obyektlari, ya“ni fetishlar - tosh, tayoq, ko“zmunchoq, tumor va har qanday buyum bo“lishi mumkin. Fiteshizm dinining qadimgi unsurlaridan biri. Barcha ibtidoiy xalqlarda bo“lgan.

GEYDELBERG ODAMI – 1907-yili Germaniyaning Geydelberg shahri yaqinidagi Mauer qishlog“idan topilgan pitekantroparga yaqin bo“lgan qazilma odam. Qadimligi 400 ming yilga yaqin. Unda iyak bo“lmay, tuzilishi xuddi maymunnikiga, ammo tishlarining tuzilishi odamnikiga o“xshaydi. Jag“ suyagi bilan birgalikda sut emizuvchi hayvonlarning suyak qoldiqlari topilgan.

HARBIY DEMOKRATIYA – ilk davlatchilikka o'tish davrida qabilaga harbiy sardorlar boshchilik qilgan bir boshqaruv shakli.

HOMO HABILIS - “Ishbilarmon odamlar”. Zinjantropalar eng sodda mehnat qurollarini yasay olgani ya`ni toshni-toshga urib mehnat qilgani uchun unga olimlar ushbu nomni berishgan.

HOMO SAPIENS - “Aql-idrokli, ongli odamlar”. Ushbu nom so`nggi paleolit odami kromanyonga berilgan. Ularning ongi , tili rivojlangan bo`lib , bir-birlari bilan burro-burro so`zlashganlar.

INITSIATSIYA - , bag'ishlash, ibtidoiy davrda o'smirlarni voyaga etgan erkak va ayollar safiga o'tkazish marosimi. Islomda o'g'il bolalar sunnati initsiatsiya hisoblanadi. O'zbekcha “qo'li halol bo'ldi” iborasi bolani jamiyatga a'zo bo'lishi deb qaraladi.

IRQ (arabcha) – ildiz, tomir; odamlarning kelib chiqishi, gavda tuzilishi va qiyofasi o'xshash bo'lgan tarixan tarkib topgan hududiy birligidir. Kishilar o'z tana tuzilishi, tashqi qiyofasi,

teri, ko'z va suyagining rangi, soqolining siyragu yoki qalinligi, bo'y-basti, yuz tuzilishi, bosh suyagining shakli, qon guruhi va boshqalariga qarab guruh-guruhlarga ajratiladi. Jahondagi barcha xalqlar to'rtta katta irqqa bo'linadi. Ulardan tashqari irqiy birliklar ham mavjud. Har bir irq yana bir qancha mayda guruhlarga ham bo'linadi. Jahonda 4 ta katta: evropoid, negroid, mo'g'ul(mongoloid) va avstraloid irq-lari mavjud.

IYERIXON – O'lik dengizning shimoli-g'arbida, Iordan daryosi vodiysida joylashgan shahar. Mil. avv. VII-II mingyillikda Palastindagi eng qadimiy dehqonchilik manzilgohi. Neolit va bronza davriga oid manzilgoh qoldiqlari, mustahkam qo'sh devori bo'lgan shahar xarobasi (mil. avv. XVIII-XVI asrlar), maqbaralar ochilgan. Mil. avv. II mingyillikning oxirlarida yahudiy qabilalar tomonidan vayron qilingan. Bibliya rivoyatiga ko'ra, Iyerixonning devorlari dushman karnaylari sadosidan ("iyerixon karnaylari") qulab tushgan.

JUFT OILA(parnaya semya) – juftlarning birga yashash va o'ziga o'xshash avlodlarni etishtirishi uchun barqaror bo'lmagan qo'shilmasi; u gruppaviy nikohga ancha mos keladi va urug'chilik jamiyati sharoitida oilaning mustaqil emasligini aks ettiradi.

JARQO'TON OTASHKADASI - Surxondaryo viloyati Jarqo'ton shahri xarobasidagi otashparastlar ibodatxonasi. O'rta Osiyo va O'rta Sharqdagi eng qadimiy otashkada hisoblanadi. Jarqo'ton otashkadasida A.Asqarov rahbarligidagi arxeologik ekspeditsiya tadqiqot ishlarini olib borgan (1973-yildan). Jarqo'ton otashkadasining tarhi to'g'ri to'rtburchak bo'lib, devor (qalinligi 4,5 m) bilan o'ralgan. Unda doira shakldagi 6 sajdagoh, 5 muqaddas quduq, tabarruk ashyolar saqlanadigan maxsus xona boshqa xo'jalik xonalari bo'lgan.

JARQO'TON – qadimgi shahar xarobasi (mil. avv. II mingyillikning ikkinchi yarmi). Sherobod tumani (Sherobod daryo irmog'i Bo'stonsoy o'zanining chap sohili)da joylashgan. Sopolli madaniyatiga mansub qabilalarning jez davri yodgorligi. Jarqo'ton aholisi sug'oma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. O'zbekiston Fanlar Akedimiyasi Arxeologiya institutining A. Asqarov rahbarligida ekspeditsiyasi qazish ishlari olib borgan (1973-yildan). Jarqo'ton (maydoni 100 ga) mudofaa devori bilan o'ralgan markaziy qo'rg'on, otashparastlar ibodatxonasi, qabriston (maydoni 20 ga), bir necha dahalardan iborat bo'lgan. Jarqo'tonda turar joy qoldiqlari, ibodatxona, kulolchilik mahallasi, metall eritiladigan ustaxonalar, 100 dan ortiq qabrlar ochib o'rganilgan. Jarqo'ton ashyolariga o'xshash yodgorliklar Surxondaryo viloyatidan tashqari Janubiy Tojikiston, Turkmaniston va Shimoliy Afg'oniston, Eron hududlarida uchraydi.

JOYTUN MADANIYATI - O'rta Osiyoning neolit davriga oid eng qadimgi o'troq dehqonchilik madaniyati markazlaridan biri (mil. avv. 6-5 mingyillik). Ashxoboddan 30 km shimolda joylashgan qadimgi o'troq dehqonlar qishlog'i xarobasi nomidan olingan. 1952-yildan Janubiy Turkmaniston arxeologiya kompleks ekspeditsiyasi qazish ishlari olib borgan. 10 dan ortiq yodgorliklar (Chag'illitepa, Pessejiktepa, Chopontepa, Nayzatepa, Joytun va b.)ni tekshirgan. Bu urug'doshlik manzilgohlarining har biri 0,5-2 ga maydonni egallagan. 3 madaniy qatlamlardan iborat iborat Joytun manzilgohi (Joytun madaniyati shu nomdan olingan) to'la o'rganilgan. Uning maydoni 0,5 ga, yuqori qatlami 35-40 xonadan, o'rta qatlami 29 xonadan iborat. Joytun madaniyati Kaspiy bo'yidagi mezolit davri madaniyati asosida vujudga kelgan. U ibtidoiy dehqonchilik madaniyatining jahondagi noyob obidalaridan biri.

KAPOVAYA MAG'ORASI – Boshqiristondagi eng qadimgi davrga oid qoya rasmlar saqlanadigan manzilgoh.

KROS-KUZEN(ingliz-frantsuz) – tog'a yoki ammaning qizi bilan nikohda bo'lish.

KUVADA(frantsuz) –tuxum bosish. Otaning bolaga nisbatan oʻz huquqini tasdiqlash uchun oʻtkaziladigan odat. Masalan, indeytlarda ona tugʻayotganda ota ham oʻzi tugʻayotgandek koʻrpa ichiga kirib olib ogʻir kuchanib yotishi rasm boʻlgan.

KUZEN(lotincha) – togʻa, jiyan.

KOʻLBULOQ MAKONI - qadimgi tosh (paleolit) davriga tegishli koʻp madaniy qatlamli yodgorlik. Koʻlbuloq makoni Qizilolmasoyning Jarsoy oʻzani sohiliga joylashgan Koʻlbuloq yaqinidan (1962-yilda) topilgan. Koʻlbuloq makonini arxeologik jihatdan oʻrganish ishlari 1963-1983 yillarda arxeolog M. R. Qosimov tomonidan davomli, keng koʻlamda olib borilgan. Uning madaniy qatlamlari 19 m gacha chuqurlikda oʻrganib chiqilsa-da, qazishmalar zarang qatlam (materik) gacha yetkazilmagan. Shunga qaramay, Koʻlbuloq makoni ajdodlarimizning qadimgi tosh davrida bir necha yuz ming yillar davomida uzluksiz yashagan turar joy makoni boʻlib, u faqat Oʻrta Osiyoda emas, balki Oʻrta Sharq mintaqalari yodgorliklarining yoshini aniqlashda noyob tayanch yodgorlik hisoblanadi. Koʻlbuloq makonining yuqori qatlamlari 1,5-2 m qalinlikda soʻnggi paleolit davriga oid boʻlib, u 600 m² maydonda oʻrganilgan. Qazishma chuqurlashgan sari uning maydoni qisqarib borgan. Koʻlbuloq makonining yaqin 11 m qalinlikdagi oʻrta qatlamlari mustʻe davriga oid boʻlib, uning ostidan 0,7-0,8 m qalinlikdagi toza qumli loy qatlami topilgan. Uning ostidan esa 5 m qalinlikdagi ashel davriga tegishli quyi qatlam ochilgan. Tadqiqotchilar fikriga qaraganda, Koʻlbuloq makonida, ajdodlar hayoti quyi paleolitning soʻnggi bosqichidan to yuqori paleolitning oxirigacha davom etgan, yaʼni Koʻlbuloqda hayot bundan rosa 600-700 ming yil avval boshlanib, to mil. avv. 40-mingyillikkacha davom etgan. Koʻlbuloq makonining har bir davr qatlamlaridan juda boy tosh qurollar va tegishli hayvon suyaklari topilgan. Mustʻe va yuqori paleolit qatlamlaridan esa oʻchoq qoldiqlari, kuygan hayvon suyaklarining parchalari topilgan. Tosh qurollarga berilgan ishlov texnikasiga koʻra, Koʻlbuloq tosh «industriyasi» oʻziga xos sifatlarga ega boʻlib, paleolitshunos mutaxassislar unga Koʻlbuloq makon-ustaxonasi maqomini berganlar.

KROMANYON («homo sapiens» - «ongli odam») – soʻnggi paleolit davrining hozirgi (neantrop) koʻrinishida boʻlgan qazilma odamlarning umumlashma nomi. 40-12-ming yil ilgari yashagan. 1868-yilda Fransiyaning gʻoridan topilgan (nomi shundan). Dunyoning barcha qismida kromanyonga oid suyak qoldiqlari topilgan. Kromanyonning yuz tuzilishi hozirgi zamon odamiga oʻxshaydi. Ular taxm. 140 ming yil muqaddam paydo boʻlishgan.

LEVIRAT(lotincha levir – erning akasi yoki ukasi) – akasi yoki ukasining bevasiga uylanish, bevasining oʻlgan erining akasi yoki ukasiga erga tegish hodisasi.

LINGVISTIKA – qadimgi va hozirgi tillarni oʻrganuvchi tilshunoslik fani.

MADLEN MADANIYATI - Yevropadagi soʻnggi paleolit davri (mil. av. taxm. 15-8 mingyilliklar) madaniyati. Frasiyadagi La-Madlen (La Madeleine) gʻori nomi bilan atalgan. Tosh keskichlar, suyak va shoxdan yasalgan mehnat qurollari, gʻor devorlariga solingan suratlar, suyak oʻymakorligi va b. Xoʻjaligi - ovchilik, baliqchilik.

MAGIYA(lotincha magia – jodugarlik, afsungarlik) – insonning gʻayri tabiiy vositalari yordamida voqealarning tabiiy jarayoniga, moddiy predmetlarga yoki boshqa kishiga taʼsir koʻrsata olish qobiliyati. Oʻzining funktsional vazifasiga koʻra magiya bir necha xil nomlarga egadir – ovchilik, ishlab chiqarish, sevgi-muhabbat, shifolovchi, zarar keltiruvchi, urugʻga yordamlashuvchi magiyalar. Magiya oʻzining umumiy yoʻnalishi boʻyicha adolatli ravishda taʼsir koʻrsatish(uning maqsadi – taʼsirga uchragan obʼektni magik haakatni bajaruvchi, kutayotgan harakatni amalga oshirishga yoki shunday holatda boʻlishga majbur qilishdir) va

saqllovchi magiya(uning maqsadi – shaxsni yoki jamoani dushmanning har qanday magik ta'sir ko'rsatishidan yoki tashqi kuchlarning nomaqbul ta'siridan himoya qilishdir). Ba'zan bu ikki xil tipni qora va oq magiya deb atashadi. Magik harakatlarni amalga oshirish rasmlariga ko'ra ular yakka tartibdagi va jamoa tarzidagi harakatlar bo'lishi mumkin.

MATRILOKAL(lotincha) – ona atrofida to'planish, bu ibtidoiy nikohga ko'ra, er xotinnikiga ko'chib o'tgan.

METIS(frantsuz) – aralash, indeyslar bilan yevropaliklarning aralash nikohidan paydo bo'lgan avlod.

MONOGAMIYA(yunon) – yakka nikohlilik; bir erning bir ayol bilan mustaqil nikohi zaminida birga yashashga asoslangan oilaviy hayot bo'lib, ibtidoiy jamoa tuzimining emirilishi davrida vujudga kelgan.

MULAT(ispan) – nikohsiz bola; qora tanlilar bilan yevropalik oq tanlilarning aralash nikohi natijasida paydo bo'lgan avlod.

MATRIARXAT (**lotincha** mater - ona va yunoncha arche - ibtido, hokimiyat) – eng qadimgi tuzum rivijidagi bir bosqich bo'lib, qarindoshlik munosabatlari ona tomonga qarab belgilangan, uruqqa va oilaga ayol kishi sardorlik qilgan.

MEZOLIT («mezos» - «o'rta» va «litos» «tosh») - o'rta tosh asri; Paleolitdan neolitga o'tish davri (mil. avv. 12-7 mingyilliklar). Mezolitda hayvonot dunyosi, landshaftlar muzlik davridan xalos bo'lib hozirgi tabiiy sharoitga moslashgan. Muzlik davriga moslashgan yirik hayvonlar (mamontlar) yo'q bo'lib, yangilari paydo bo'lgan. Inson hayotida katta o'zgarishlar sodir etilgan. Mezolitda o'q-yoyning kashf etilishi bilan yakka oila bo'lib yashash imkoniyati tug'ilgan. Tosh, suyak, yog'ochdan mikrolit qurollar (pichoq, qirg'ich, bolta) kashf qilingan. Bu qurollar yordamida odamlar yakka holda ov qilish imkoniga ega bo'lishgan. Shu tariqa jamoa bo'lib yashashga barham berilgan. Mezolit davri odamlari ovchilik, baliqchilik, termachilik bilan shug'ullanganlar. Mezolit davrida O'rta Osiyo tabiatida muzlik davri tugaganligi sababli iqlim sernam bo'ldi. Bu davr xo'jaligi tarixidagi yangi xususiyatlaridan biri o'q-yoyning kashf etilishi munosabati bilan yakka ovchilari rolining o'sishidir. O'q-yoy insonni kundalik hayotida bir necha yuz mingyilliklar davomida hukmronlik qilib kelayotgan yirik hayvonlar tik jarlarga haydash, ularni o'rab olib tutish ovchiligiga barham berdi. Ov jaryonida ko'pchilik tamonidan yirik hayvonlarni tutishga qaratilmay, mayda hayvonlarni tutishga moslashtirilgan. Ovdan keladigan daromad ham ko'paydi, u bilan bog'liq holda mehnat qurollari takomillashib bordi. Oqibatda xo'jalikning yangi turi paydo bo'ldi. Masalan: hayvon bolalarini qo'lga o'rgata boshladilar. Bu jamoaning zahiradagi ov o'ljasi edi. Birinchi uy hayvoni it edi. Ayrim olimlar it bilan deyarli bir vaqtda shimol bo'g'usi ham qo'lga o'rgatilganligini ta'kidlaydilar. Itlarning qadimgi suyak qoldiqlari mil. avv. 10 mingyillikka oid bo'lib, Old Osiyoda topib o'rganilgan. Mezolit davrida odamlar daraxtlarning egiluvchi novdalaridan turli xil savatchalar to'qishib, ulardan baliq tutishda foydalana boshladilar. Bu davrda iqlimning iliqlashib, sernam bo'lishi odamlarning hayotidagi doimiy o'troqlik turmush tarzi o'rnini daydi hayot egalashiga olib keldi. Bu davrda murakkab mehnat qurollari vujudga keldi. O'zbekistonda o'rganilgan mezolit davri yodgorliklarini yoshi bir xil emas. Olimlar yodgorliklarda topilgan tosh qurollariga qarab, ularni uch guruhga bo'lishgan: 1) Qo'shilish yodgorligi (Toshkent)-mil. avv. 10-9 mingyillik; 2) Obishir yodgorligi (Farg'ona vodiysi)-mil. avv. 9-8 mingyilliklar; 3) Machay madaniyati (Surxondaryo)-milloddan avvalgi 7-6 mingyillik. 1912-yilda I. Fyodorov tomonidan Surxondaryoning Zarautsoy degan joyda dunyoga mashhur qoyatosh suratlari topilgan. U yerdagi rasmlar tosh davriga mansubdir. Unda yovvoyi ho'kiz va ov manzarasi tasvirlangan. Odamlar chizilgan suratlar bo'lajak ovga

yordam berishiga ishonganliklari sababli qoyatosh suratlarda ko`pincha hayvonlar va ov manzarasini tasvirlaganlar. Ibtidoiy tasviriy san`at rivojiga insonning atrof muhitni bilish yoki dunyoni anglashga intilishi asos bo`ldi.

MIKROLITLAR – mezolit va neolit davrida odam tomonidan yasalgan kichik tosh plastinkalar. Mezolit davrida mikrolitlar paykon, suyak yoki shoxdan yasalgan qurollarning tig`i sifatida ishlatilgan.

**MACHAY G`ORI** - Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida joylashgan ibtidoiy odamlar manzilgohi (mil. avv. 12-6 mingyilliklar). Ko`hitang tog`i yaqinida, Machay daryoning o`ng qirg`og`ida joylashgan. O`lalomov tomonidan o`rganilgan (1970-1971). Machay g`orining balandligi 3,5 - 4 m, uzunligi 8 m, kengligi 10 m ga yetadi. Ikki madaniy qatlamdan iborat: ustki qatlam mezolit davriga, tepa qatlam so`nggi mezolit va ilk neolit davriga oid. Machay g`oridan mehnat qurollari, yovvoyi hayvonlarning suyaklari, oziq-ovqat qoldiqlari chiqqan; ushbu madaniy qatlamning qalinligi 40 sm ga yetadi, bu esa shu g`orda uzoq vaqt davomida ibtidoiy odamlar yashaganidan dalolat beradi. Mehnat qurollari tayyorlashda yovvoyi hayvonlarning suyaklaridan foydalanilgan. Qurollarni (teshkiqlar, kamon o`qlari) tayyorlash jarayoni birmuncha tezlashdi. Bundan tashqari, toshdan tayyorlanishi juda qiyin bo`lgan teshikli igna, ponasimon va tishli asboblari va boshqa qurollar kabi tamomila yangi qurol shakllaridan foydalaniladigan bo`lgan. Tosh qurollar, paykonlar, botiq tig`li qurollar, keskiqlar va boshqa qurol turlarining soni ortgan.

MOJOKERTO – bundan 1 mln 500-1mln 200 ming yil ilgari yashagan pitekanthroplarning bosh suyagi, bosh suyak qopqog`i, son, jag` suyaklari va tishlari topilgan Indoneziyaning Yava orolidagi g`or.

MUSTYE MADANIYATI - ilk paleolit davrining eng so`nggi madaniyati (mil. av. 150-40 mingyillik). XIX asrning 60-yillarida fransuz arxeologi G. Mortilye Fransiyaning janubi-g`arbidagi Le-Mustye (Le Moustier) g`oridan suyak va tosh qurollar topganligi uchun shu nom bilan yuritiladi. Bu davrda yashagan odamlar neandertallar nomi bilan fanga kirgan. Mustye madaniyati uchun gardishsimon nukleus va 3 burchakli tosh parrakchalar xos bo`lib, ular yog`och yo`nish, ishlash, kiyim va qurol tayyorlashda ishlatilgan. Mustye davrida nayzasimon tosh qurol, o`roq, randa, qumtosh yoki ohaktoshdan yasalgan sharlar, Mustye madaniyatining oxirida esa keskiqlar asboblari - qirg`ich, pichoq hamda suyak qurollar paydo bo`lgan. Mustye davrida odamning jismoniy qiyofasi takomillasha borgan. Qadimgi odam (pitekanthrop va sinanthrop) o`zgarib, hozirgi tipdagi odamga yaqinroq bo`lgan neandertal shakliga kiradi. Bu odam miyasida nutq markazi yuzaga keladi hamda uning jismoniy qiyofasi o`zgara boradi, buuning ish vaqtida erkin harakat qilishini ta`minlaydi. Olovni saqlab qo`yishdan uni ishqalash yo`li bilan hosil qilishga o`tilishi Must`e davrining muhim yutug`idir. Toshni ishlashda levallua texnikasidan foydalanilgan. Mustye madaniyatida g`or va ochiq manzilgohlarda neandertal odamlar yashab, mamont, ayiq, shimol bug`usi kabi hayvonlarni ovlab, iste`mol qilishgan hamda terimchilik bilan shug`ullangan. Mustye davri qarorgohlarida o`choq, kuygan suyak va qabrlar uchraydi. Qabrlar va ulardan topilgan buyumlar dafn marosimlarida diniy e`tiqodlar tug`ila boshlaganini ko`rsatadi. Mustye madaniyati yodgorliklari Yevropa, Afrika, Yaqin Sharqda, Rossiyaning Yevropa qismida, Kavkaz, O`rta Osiyo va Qozog`istonda topib tekshirilgan. O`zbekistonda - Surxondaryo (Teshiktosh g`ori), Samarqand (Omonqo`ton g`ori, Qo`turbuloq makoni, Zirabuloq, Xo`jamazgil makoni), Toshkent viloyati (Obirahmat g`ori, Ko`lbuloq makoni, Xo`jakent makoni, Paltov), Farg`ona vodiysi (Qal`acha makonlari, So`x daryosidagi makonlar), Navoiy viloyati (Uchtut)da Mustye madaniyati yodgorliklari topilgan va tekshirilgan. Hozirgi vaqtda O`rta Osiyoda neandertal zamondoshlari yashagan makonlar 90 dan ortiq joyda uchratilgan.

PALEOLIT (yunoncha «paleos» - «qadimgi» va «litos» - «tosh») – eng qadimgi odamlar yasagan qurollar, asosan, toshdan boʻlgani uchun insoniyat tarixining dastlabki bosqichi shu nom bilan atalgan boʻlib, u quyidagi 3 davrga: ilk paleolit (Olduvoy – mil. avv. 3-2 mln. yillar; Ashel – mil. avv. 1 mln. – 100-mingyilliklar), oʻrta paleolit (Muste – mil. avv. 100-40-mingyilliklar), soʻnggi paleolit (Orinyak; Solyutre; Madlen – mil. avv. 40-12-mingyilliklar) boʻlinadi.

PATRIARXAL OILA – erkak boshchilik qiladigan oila. Patriarxatdan patriarxatga oʻtish davrida vujudga kelib, birgalikda xoʻjalik yurgizuvchi qarindoshlarning bir qancha avlodidan tashkil topgan. Patriarxal oila, asosan, ilk xoʻjalik jamoasi boʻlgan, uning iqtisodiy asosini yerga va ishlab chiqarish qurollariga umumiy egalik (ishlab chiqarishga ham, istemolga ham) tashkil etgan.

PATRIARXAT – eng qadimgi jamoa tuzumining bir davri boʻlib, unda erkak kishi jamiyat hayotida yetakchi mavqega ega boʻlgan, qarindoshlik munosabatlari ham ota tomonga qarab belgilangan. Patriarxatning xoʻjalik faoliyati: omoch bilan yer haydash, chorvachilik, metallga ishlov berish. Bu davrda ibtidoiy jamiyat yemirilib, uning soʻngi bosqichida mulkiy tabaqalanish va davlat yuzaga kelgan.

PETROGLIF (yunoncha petros – tosh, glife – oʻyish) - toshga oʻyib tushirilgan rasmlar.

PITEKANTROP (yunoncha pithekos - maymun va anthropos - odam) - eng qadimgi qazilma odamlar (taxm. 900 yil avval). Ilk paleolit davrida - 700-600 ming yil ilgari yashagan. Ilk paleolit madaniyatini yaratganlar. 1890-1891-yillarda golland shifokori E. Dyubua Yava orolidagi Solo daryosi yaqinidan 4-qatlam quyi yotqiziqlarida odamning eng qadimgi ajdodiga mansub bosh miya qopqogʻi, son suyagi va uchta tishini topgan. 1973-yilda suyak boʻlaklari va yigirmaga yaqin alohida tishlar topilgan. Pitekantrop bosh miya qopqogʻi va shakli kattaligi koʻra odam va odamsimon maymun oraligʻida turadi. Pitekantropning miya hajmi 900 sm³ga yaqin (gorillaniki 500 sm³, hozirgi zamon odamlarida oʻrtacha 1400 sm³). Uning peshonasi nishab boʻlib, shimpanzenikiga oʻxshaydi. Pitekantropning topilishi antropologiyada muhim voqea boʻldi. Pitekantrop qoʻlda murakkab harakatlar bajarishgan va poda-poda boʻlib yashagan. Qoʻlda murakkab harakatlar qilish mehnat harakatiga, poda-poda boʻlib yashash esa, jamiyatning ilk kurtagiga kiradi.

PATRILOKAL(lotincha) – ota nomi, ota nasabi boʻyicha nomlanish; bir otadan tarqalgan qon-qarindosh odamlar guruhi.

POLIANDRIYA(yunon) – koʻp erlilik. Hozirgi paytda Tibet xalqlarida, Hindistonda ham uchraydi. Baʼzi turkiy xalqlarda qoldiq shakllari bor. Masalan, qozoq xalqida yaqin oʻtmishda hurmatga loyiq mehmondan “uyur” olish, yaʼni nasl olish maʼnosida mezbinni xotiniga qoʻshish odati boʻlgan.

POLIGAMIYA(yunon) – koʻp xotinlilik, koʻp nikohlilik.

PROMISKUITET(lotincha) – aralashgan, umumiy ibtidoiy jamiyatda nikoh va oila paydo boʻlishidan burun odamlar gala-gala boʻlib yashagan davrda jinsiy aloqalarning tartibsizligi.

SINANTROP (lotincha Sina - Xitoy va yunon antropos - odam) - eng qadimgi odamlar (arxantrop)ga mansub qazilma odamlar. Ilk paleolit davrida - mil. avv. 600-500 ming yil oldin yashagan. Juda koʻp suyaklari (kalla qutisi, pastki jagʻlar parchalari, oyoq va qoʻl suyaklari) oʻrta pleystotsen qoldiqlaridan ilk bor 1927-1937-yillarda Xitoydan topilgan (nomi shundan olingan). Sinantrop morfologik jihatdan pitekantroparga yaqin, lekin ulardan miya hajmining kattaligi (1000 sm³ ga yaqin), peshonasining birmuncha kengligi bilan farq qiladi.

Sinantropning suyak qoldiqlari bilan birga ular foydalangan, ilk paleolit davriga mansub soddra tosh qurollar, ularning olovdan foydalanilganiga guvohlik beruvchi kul va hayvonlarning kuygan suyak qoldiqlari topilgan.

SARAZM – Zarafshon vodiysining eneolit va ilk bronza davriga oid qadimgi dehqonchilik madaniyatiga tegishli arxeologik yodgorlik. Uning asosida keyinchalik Sarazm qishlogʻi tarkib topgan. U Zarafshon daryosining togʻlar orasidan keng vodiya chiqish joyida, Oyimkoʻl yonida joylashgan. Sugʻdshunos olim V.A.Livshitsning fikriga koʻra, “Sarazm” atamasi sugʻdcha “sarizamin”, yani “yerning boshlanishi”, “vohaning boshlanishi” demakdir. Yodgorlik yassi tepachalar koʻrinishida, 100 gektarga yaqin joyni egallagan. Unda 1976-yildan tadqiqot ishlari olib boriladi. Arxeologik tadqiqot natijalariga qaraganda, Sarazm Zarafshon vodiysining eng qadimgi bobo dehqonlari maskani boʻlib, bu joyda hayot eneolitning rivojlangan bosqichidan to ilk jez davriga qadar (yaqin 1,5 ming yil) davom etgan. Sarazmda arxeologik qazish ishlari olib borish natijasida va 10 nuqtada qadimgi qishloq hayotining davomiyligini oʻrganish uchun shurflar qazildi. Natijada yodgorlikda 4 ta tarixiy bosqich aniqlandi. Arxeologik materiallar tahliliga koʻra, 1-bosqich (Sarazm-1) mil. avv. 3400-3200-yillar, 2-bosqich (Sarazm-2) mil. avv. 3200-2900-yillar, 3-bosqich (Sarazm-3) mil. avv. 2900-2700-yillar, 4-bosqich (Sarazm- 4) mil. avv. 2700-2000-yillar bilan belgilandi.

SELUNGʻUR GʻORI - Fargʻona vodiysi Soʻx tumanidagi qadimgi manzilgoh. Selungʻur gʻori Fargʻona shahridan taxminan 100 km janubi-gʻarbida, Haydarkonning gʻarbiy chekkasida joylashgan. Bu ulkan gʻorning chuqurligi 120 m, kengligi 34 m va balandlig 25 m. Arxeologik qazish ishlari 1980-yildan buyon olib borilyapti. Gʻorda 20-40 sm qalinlikdagi beshta madaniy qatlam aniqlandi. Ular biron arxeologik qoldiqlarsiz toza qatlamlar (30-100 sm) bilan boʻlingan. Bu shundan dalolat beradiki, ibtidoiy odamlar mazkur gʻorda 5 marta yashaganlar va vaqt-vaqti bilan oʻz maskanlarini uzoq muddatga tark etishgan. Bu yerdan tosh qurollar, hayvon suyaklari qoldiqlari va arxantrop tipidagi odam qoldiqlari (10 ta tish va yelka suyagining boʻlagi)ning boy kolleksiyasi topildi. Ushbu kolleksiyada qoʻl choʻqmori, yirik tosh qirgʻichlar va pichoqlar, koʻp miqdorda oʻyib-kertib ishlangan tishsimon qurollar mavjud. Ular, asosan, yashma, kremniyli chaqmoqtosh, kremniyli ohaktoshlardan tayyorlangan. Madaniy qatlamlardan 32 turdagi yirtqich, tuyoqli, mayda sut emizuvchi va kemiruvchi hayvonlarning suyak qoldiqlari topilib, tadqiq etiladi. Tadqiqotlar natijasida qadimgi davr tabiiy sharoiti, iqlimi xronologik davrini aniqlashga erishildi. Selungʻur gʻoridan topilgan materiallar kompleks oʻrganilib, pastki qatlamlarining sanasi 1,5 mln. yil deb belgilanadi. Bunga qadar Oʻrta Osiyo, jumladan, Oʻzbekiston tarixi oʻrta paleolit davridan (mil. av. 100 ming yildan) boshlanardi.

SOPOLLITEPA – Surxondaryo viloyatining (Muzrabod tumani) Sherobod choʻlini kesib oʻtgan Oʻlanbuloqsoy yoqasiga joylashgan bronza (jez) davriga oid arxeologik yodgorlik. U 1968-yilda arxeolog L. Albaum tomonidan topilgan. 1969-1974-yillarda A. Asqarov tomonidan oʻrganilgan. Sopollitepaning maydoni taxminan 3 gektar. Uning 1 gektarga yaqin markaziy qismi mudofaa devorlari bilan oʻrab olingan. Sopollitepada oʻtkazilgan qazish jarayonida 150 dan ortiq turar joy majmualari va 158 ta qabr ochilgan. Sopollitepa manzilgohidagi qabrlarda odam jasadida oʻrnida mayday hayvon skeletlari uchratilgan, bunday qabrlar kenotaf nomi bilan ataladi. Ularga bedarak yoʻqolgan marhum oʻrniga jamoa dafn anʼanasiga koʻra, uning tirik jon mulkidan bir qoʻyni oʻldirib koʻmish lozim topilgan. Sopollitepa kenotaf qabrlarining deyarli barchasi erkaklarga tegishli edi. Sopollitepa aholisi eʼtiqodida quyoshga, olovga sigʻinish oʻz aksini topgan. Uning izlari ayrim xonalar maydonida uchratilgan sandal oʻtxonasi sifatida qabul qilingan toza kulli chuqurchalar edi. Bularning barchasi otashparastlar eʼtiqodiga aloqador belgilar edi. Sopollitepa jamoasi mazkur maskanda 150-200-yillar chamasi yashab, suv tanqisligidan, suvga qulay yangi

unumdor yerlar qidirib, Sherobod daryoning qadimgi oʻzani Boʻstonsoy sohillariga koʻchib ketadilar. Bu voqealar mil. avv. II mingyillikning birinchi yarmida sodir boʻldi. Sopollitepa dehqonlari yangi joyni oʻzlashtirib, Oʻzbekiston janubida eng qadimgi shaharni barpo etadilar. U shahar Oʻzbekiston tarixida Jarqoʻton nomi bilan atalib, uning protoshahri Sopollitepa hisoblanadi.

SIMA SZYANG (Simo Chyan) (Bolalik davridagi ismi - Zichjang, Shyayang) (mil. avv. 145-yil, hozirgi Xitoy Xalq Respublikasi (XXR)ning Shensi oʻlkasi, Xanchen shahri – mil. avv. taxm. 86-yil) – Qadimgi Xitoy tarixshunoslarining “otasi”; Xitoyning birinchi umumlashgan tarixi - «Shi szi» («Tarixiy xotiralar») asarining muallifi. Xon saroyining bosh voqeanavisi - Sima Txanning oʻgʻli. Yoshligidan mamlakat boʻylab safar qilib tarix, urf-odatlar va xalq hayotiga oid maʼlumotlar, rivoyatlar va hikoyalar yigʻish bilan shugʻullangan. Mil. avv. 108-yilda Xan imperiyasi saroyida kotiblar mahkamasi boshligʻi (tayshilin) lavozimida ishlagan. Mil. avv. 100-97-yillar oraligʻida hunlar asiri boʻlgan Li Lin ismli amaldorni jazodan qutqarish masalasida oʻrtaga tushganligi tufayli qamalgan. Mil. avv. 96-yilda qamoqdan ozod etilgan. Shundan soʻng u xoqon uchun tayyorlanadigan hujjatlarni yozish bilan shugʻullanuvchi saroy kotibiyati mahkamasi boshligʻi (chjungshulin) lavozimiga tayinlangan. Saroyda ishlab yurgan chogʻida otasi bilan tarixiy asarlar yozish bilan shugʻullangan. Mil. avv. I-asrning 90-yillarida - «Shi szi» («Tarixiy xotiralar») asarini yozib tugatgan. Asar 130 bobdan iborat boʻlib, Xitoyning qadimdan mil. avv. II-asrning oxirigacha boʻlgan tarixini oʻz ichiga oladi. Sima Szyang Xitoyda 1-boʻlib voqealarni xronologik bayon etish («Annallar»), jamiyat hayotining turli tomonlarini tematik yoritish («Traktatlar») va biografik janrlarni uygʻun holda kompleks oʻrganish tamoyilini qoʻllagan. Sima Szyangning «Shi szi» asarining toʻla matni olti jild qilib 1959-yili Pekinda chop etilgan. Rus tiliga tarjima etilib, (I. Y. Bichurin, L. S. Basilyev, L. S. Perelomov, Y. L. Krol va boshqalar) chop etilgan. Uning bir qismi rus tilida (N. Y. Bichurin, B. Uotson, F. Kirman va boshqalar) toʻliq ravishda E. Shavann (1865-1918) tomonidan fransuz tiliga tarjima qilinib, 1895-1905-yillarda (5 jild) chop etilgan. «Shi szi» ning ruscha tarjimasi ham tamomlandi (R.V. Vyatkin, V. S. Taskin); uning bir qismi toʻrt kitob boʻlib 1972, 1975, 1984, 1986-yillari bosmadan chiqqan.

STRABON (mil. avv. 64/63 – milodiy 23/24) - atoqli yunon geografi va tarixchisi. Asli amosiyalik (Pont podsholarining qarorgohlaridan); moʻtabar va badavlat oiladan chiqqan; mashhur yunon faylasufi Aristotelning shogirdi; qariyb 80 yil umr koʻrgan. Koʻp sayohatlar (Yunoniston, Kichik Osiyo, Italiya va Misr) qilgan. Antik davr geografik bilimlari yakuni boʻlgan «Geografiya» (mil. av. 7-yil, 17 kitobdan iborat) va «Tarixiy xotiralar» degan (bizgacha yetib kelmagan) asarlarining muallifi. Asarda Gʻarbiy va Markaziy Yevropa, Kichik Osiyo, Shimoliy va Sharqiy Qora dengiz sohillari haqida geografik maʼlumotlar toʻplangan. Shu bilan birga asarda koʻplab tarixiy, etnografik maishiy tafsilotlar keltirilgan, xususan, Qrim yarim oroli va Dnepr boʻyiga kelib joylashgan qabilalar, skiflar, roksolanlarning xoʻjaligi va maishiy turmushi haqida, Shimoliy va Sharqiy Qora dengiz sohillarida joylashgan antik shaharlarning qurilishi, turmushi, xoʻjaligi, tarixi, Bospor davlatining tarixi va xoʻjaligi haqida qimmatli maʼlumotlar bor. «Geografiya»da, shuningdek, qadimgi Oʻrta Osiyo geografiyasi, unda yashagan qabilalar (saklar, parfyanlar, baqtriyaliklar, dahlar va b.) va ularning urf-odati, tili, Buyuk ipak yoʻli oʻtgan joylar haqida maʼlumotlar ham juda qimmatlidir. Strabonning mazkur asari 1844 va 1848-yillari Kramer va Myuller tarafidan nashr qilingan. Uning nemischa (Grosskurd; Berlin, 1831-1834-yillar) hamda ruscha (F. G. Mishchenko; Moskva, 1879-yil, G. A. Stratanovich; Moskva, 1964-yil) tarjimalari ham mavjud.

SOLYUTRE MADANIYATI – Fransiya va Shimoliy Ispaniya hududidan topilgan soʻnggi paleolit (taxm. mil. avv. 18-15-mingyilliklar)ga oid madaniy yodgorlik. Uning nomlanishi

dastlab topilgan joy Fransiyaning Solyutre (Sona va Luara departamenti) manzili nomidan olingan. Bu davrning asosiy xususiyati chaqmoqtoşdan nayzaning uchini yasashi edi. Xo‘jaligi ovchilik bo‘lgan.

SAMBO(ispan) – indeytslar bilan qora tanlilarning aralash nikohidan paydo bo‘lgan avlod.

SORORAT(lotincha soror – opa yoki singil) – bir necha opa-singillar bilan bir vaqtning o‘zida nikohda turish, yoki keyinchalik o‘lgan xotining singlisiga uylanish vazifasi yoki imkoniyati.

NAMOZGOHTEPA – eneolit va bronza davriga oid qishloq xarobasi. Janubiy Turkmanistonning Kopetdog‘ etaklarida joylashgan. maydoni 70 ga. 1949-1952-yillarda professor B.A.Kuftin boshchiligidagi arxeologlar guruhi qazishmalar olib borgan va butun O‘rta Osiyo eneolit va bronza davriga tegishli arxeologik davriy sistemasi ishlab chiqilgan. 1950-yillarning o‘rtalaridan boshlab yodgorlikni keng ko‘lamda o‘rganish ishi bilan V.M.Masson boshchiligidagi Sankt-Peterburg arxeologlar guruhi shug‘ullanib kelgan. Namozgohtepa madaniy qatlamlari 6 ta xronologik bosqichlarga (Namozgoh 1-6) bo‘lingan. Ulardan Namozgoh 1-3 eneolit davriga, Namozgoh 4-6 esa jez davriga oiddir. Namozgoh-1 (ilk eneolit) davrida aholi xom g‘ishtdan qurilgan bir xonali uylarda yashagan. Namozgoh-2 (o‘rta eneolit) davriga kelib, uy-joy qurilishida ko‘p xonali uylar paydo bo‘ladi, bu davr qishloqlarining atrofida mudofaa devorlari qad ko‘tara boshlagan. Namozgoh-3 davriga kelib (so‘nggi eneolit), qishloqlarning hududi ancha kengayadi, uy-joy majmualari qoshida hovlilar paydo bo‘lgan. Namozgoh-4 davri majmualari Namozgohtepada ilk jez davrining boshlanishidan guvohlik beradi. Dehqonchilik va xonaki chorvachilik xo‘jaligi, hunarmandchilikning turli sohalari keng rivojlanadi. Namozgoh-4 davrining so‘nggi bosqichida kulollik charxi kashf etiladi. Natijada sopol ishlab chiqarish sohasida shunday sezilarli o‘zgarishlar yuz beradiki, oqibatda O‘rta Osiyoning janubiy rayonlari o‘z taraqqiyoti bilan ko‘p jihatdan Qadimgi Sharq madaniyatiga yaqinlashib qoladi. Namozgoh-5 bosqichida bronza davrining gullagan pallasi bo‘lib, har sohada rivojlanishning yuksak darajasi kuzatiladi. Sopol idishlarning turi va xili ko‘payadi. Sopollarning mutlaq aksariyati naqshsiz ishlab chiqariladi. Me‘morchilikda monumental inshootlar qurish keng tus oladi. Tom ma‘nodagi ilk shahar shakllanadi. Namozgoh-5 davrida yuz bergan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar Namozgoh-6 davrida yanada kengroq va chuqurroq davom etadi. Namozgohtepada so‘nggi davr qatlamlari kam uchratildi. Buning boisi, aynan shu davrdan e‘tiboran metropoliyalardagi shahar hayoti yangi mintaqalarga ko‘chadi (mas., Murg‘ob vohasi va Qadimgi Baqtriyaga).

NEANDERTAL – qadimgi qazilma odamlar, paleoantroplarning bir guruhi. O‘rta paleolit davrida – mil. avv. 100-40 ming yil ilgari yashagan. Neandertal skelet qoldiqlari (bosh miya qutisi, qovurg‘alarning bo‘laklari, yelka hamda son suyaklari va boshqalar). 1856-yilda Neandertal vodiysida (Germaniya Federativ respublikasining Dyusseldorf shahri yaqinida; nomi shundan olingan), shuningdek, Osiyo va O‘rta Osiyo (Teshiktosh odami) va Afrikada topilgan. Neandertal bo‘yi uncha katta bo‘lmagan (160 sm ga yaqin), miyasi yirik (1700 sm³), lekin hozirgi odamlarnikiga nisbatan soda tuzulgan, ko‘zining ustida qalin bo‘rtig‘i bo‘lgan. Neandertal bundan 200-35 ming yil avval - vyurm muzligi davrida G‘arbiy Yevropada yashaganlar. Neandertal yashash uchun g‘orlarni o‘zlashtiradi, qo‘l cho‘qmor va nayza uchlarini yasaydilar; o‘zlariga hayvon terisidan kiyim qiladilar, olovdan foydalanadilar, mamont va boshqa yirik muzlik davri hayvonlarini ovlaydilar (Muste madaniyati). Olov yoqishni va undan foydalanishni bilishgan, to‘da bo‘lib yasashgan. Neandertallar hozirgi qiyofadagi odamga o‘tish bosqichidir.

NEOLIT («neos» - «yangi» va «litos» - «tosh» - yangi tosh) - O`rta Osiyoda neolit davri mil. avv. VI-IV mingyilliklar bilan belgilanadi. Arxeologlar neolit davrining boshlanishi sopol idishlar yasashning kashf etilishi bilan belgilaydilar. Mezolit va neolit davrida odamlar mikrolit - toshdan mayda mehnat qurollari tayyorlashni o`rganadi. Shuningdek toshga ishlov berishning ilgari noma`lum bo`lgan usullari: silliqdash, qirtishlash va burg`ilashni ham o`rganadi. Ular endi mehnat qurollari yasashning yangi usullarini, chaqmoqtoshdan parrakchalar chiqarishni ham kashf etadi. Endi toshning keraksiz tomonlari urib tushirilmasdan, undan pichoqqa o`xshagan parrakchalar, qirg`ich, nayza uchlari charxlab olingan. Neolit davrida qabilalarning o`troq hayot tarziga o`tadi, doimiy yashash uchun manzilgohlar qura boshlaydilar. Guvaladan uylar qurish boshlanadi. Urug` jamoasining qarorgohlari shakllanadi. O`troq hayot tarzi va mehnat qurollarining takomillashuvi jamoalarning ziroat va chorvachilikka o`tishiga olib keladi, hunarmandchilikning rivoj topishiga asos bo`ladi. Neolit davri muhim kashfiyotlaridan biri kulolchilik, tikuvchilikva to`quvchilik bo`ldi. Neolit davrida aholining asosiy mashg`uloti ov, baliqchilik va termachilikdan iborat edi. O`rta Osiyoning janubiy viloyatlarida mil. avv. VI-V mingyilliklarda neolit davri qabilalari ziroatchilikka o`tadi. Markaziy, Shimoliy va Sharqiy viloyatlardagi qabilalar esa ov va baliqchilik bilan shug`ullanishda davom etadilar. Ziroatchilarning dastlabki qarorgohlari jilg`alar bo`ylab joylashgan. Shunday qadimiy makonlardan biri Chaqmoqli deb ataladi. Chaqmoqli O`rta Osiyoning aholisi ishlab chiqarish xo`jaligiga o`tgan dastlabki qishloqlaridan biri hisoblanadi. Neolit davri ilk dehqonlarining ikkinchi qarorgohi Joytun hisoblanadi. Joytun Turkmaniston janubidagi mil. avv. VI-V mingyilliklar makonidir. Bu manzilgohning ziroat usullari sodda bo`lishi qaramay O`rta Osiyo ziroatchiligi taraqqiyotiga asos bo`ldi. Neolit davri ovchi va baliqchilarning qadimgi yodgorligi Kaltaminordir. Kaltaminor mil. avv. V mingyillikning oxiri - IV mingyillikning boshlari oid. Bu yodgorligining ancha yaxshi saqlangan manzilgohlaridan biri - Jonbos-4 dir. Kaltaminor yodgorliklari xos mehnat qurollari va kulolchilik buyumlari Amudaryo va Sirdaryo oralig`idagi hududlarda: Zarafshon va Amudaryoning quyi oqimlarida hamda Qizilqum sahrosida uchraydi. Neolit davrida matriarxat jamoasi gullab yashnagan. Urug`chilik tuzumidagi ayolning rahbarlik maqomi oilasining oziq-ovqat, turmush va farzandlar tarbiyasini ta`minlashdan iborat edi. Urug` ayollari termachilik va dehqonchilik bilan shug`ullanishgan.

NMANA – “Avesto”da katta patriarxal oila shunday nom bilan atalgan.

O`ZLASHTIRUVCHI XO`JALIK - eng qadimgi odamlarning mashg`uloti bo`lib, tabiat inom etgan narsalarni terib-termachilik yoki ovchilik orqali iste`mol qilganlar.

**TESHIKTOSH G`ORI** – Muste madaniyatiga mansub neandertallarning makoni. Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi Turgandaryoning Zovtalashgansoy darasida, dengiz sathidan 1500 m balandlikda joylashgan. G`orning shipi teshik, nomi ham shundan, kirish qismi shimoli-sharq tomonga qaragan bo`lib balandligi 7 m, eni 20 m, uzunligi 21 m. Uning umumiy maydoni 300 kv m bo`lib, shundan 100 kv m joyi neandertallar yashaganligidan guvohlik beruvchi arxeologik materiallarga ega. Teshiktosh g`ori yashash uchun qulayligi tufayli g`orni vaqti-vaqti bilan suv bosib turishiga qaramasdan neandertal odamlar uni butunlay tark etmaganlar. G`orni birinchi marta 1938-1939-yillarda A. P. Okladnikov o`rgangan. Teshiktosh g`ori 5 ta madaniy qatlamdan iborat bo`lib, bu manzilgoh bir necha marotaba tark etilganidan dalolat beradi. G`orning har bir qatlamida bittadan va ba`zilarida ikkitadan gulxan qoldiqlari saqlanib qolgan. Gulxanlar atrofida ko`plab tog` echkisi, bug`u, sirtlon, ayiq, quyon va har xil qushlarning suyak qoldiqlari, 3000 ga yaqin tosh buyum, tosh uchirindisidan tayyorlangan uchburchak shakldagi 24 ta qurol, qiruvchi va tarashlovchi sifatida ishlatilgan 65 ta qirg`ich, paykonlar, tosh pichoqlar topilgan. Muste madaniyatiga oid

bu xildagi qurollarning ko'pchiligi qoramtir kremniyli ohaktosh yashma, kvartsit va boshqa vulqoniy tosh jinslardan yasalgan. Teshiktosh g'ori topilmalarining eng qimmatlisi 25 sm chuqurlikdan topilgan Teshiktosh odamidir.

TEMIR ASRI – insoniyatning ibtidoiy jamoa va ilk ishlab chiqarish xo'jaligi shakllanayotgan tarixidagi davr. Fanda tosh va jez deb yuritilgan davrlardan so'ng insoniyat hayotida sodir bo'lgan tarixiy bosqich. Bu davr xo'jalikda temir metallurgiyasi yuzaga kelishi, tarqalishi va temir qurollar ishlatilishi bilan belgilanadi. «Temir davri» atamasi, garchi antik dunyoda tosh, jez asri tushunchalari qatorida yuzaga kelgan bo'lsa-da, fanda XIX asrning o'rtalarida daniyalik arxeolog K. Y. Tomsen tomonidan kiritilgan. Rudadan temirni ajratib olish usuli dastlab Misr va Mesopotamiyada (mil. avv. III mingyillikning 1-yarmida) kashf etilgan. Keyinroq (mil. avv. II mingyillikning oxirida) bu usulni yunonlar bilib olishgan. Mil. avv. XI asrdan boshlab Palastin, Suriya, Kichik Osiyo, Zakavkaze, Hindiston va Xitoyda xo'jalik va harbiy qurol-aslahalar yasashda temirdan keng foydalanganlar. Mil. avv. IX-VII asrlarga kelib metallga termik usul bilan ishlov berish kash etilib, uni po'latga aylantirilishi yangi material – temirning keng tarqalishiga sabab bo'ladi. O'zbekistonda temir davriga oid yodgorliklarni sanalashtirish va dastlabki turkumlarga ajratilishiga doir tadqiqotlar S. P. Tolstov, A. I. Terenokhin va Y. G'ulomovlar tomonidan amalga oshirilgan. O'zbekiston hududida temir davri yodgorliklari mil. avv. VIII-VI asrlarga mansub. Ular Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro, Toshkent viloyatlari va Farg'ona vodiysida o'rganilgan; Ko'zaliqir, Qal'aliqir va Dilgilja singari qadimgi qal'a va qishloq, shahar xorabalari, Tagisken va Uygarak qabriston-qo'rg'onlari, Bo'kantov qoyatosh sur'atlari tekshirilgan. Temir davrida qadimgi Xorazm hududlarida dastlabki yirik sug'orish inshootlari vujudga kelgan. 1960-1970-yillarda Surxondaryoda Kuchuktepa, Jondavlat va Qiziltepaning quyi qatlamlari, Pachmoqtepa, Qizilchatepa yodgorliklari o'rganildi. L. I. Albaum Kuchuktepadan mil. avv. VI-IV asrlarga oid uy-joy qoldiqlari, kulolchilik, temirdan yasalgan uy-ro'zg'or va dehqonchilik buyumlarini topgan. 1960-yillarda Buxoro viloyatida Xazora yodgorligi va Sarmichsoy petrogliflari tekshirildi. Qashqadaryoda temir davriga oid Chimqo'rg'on yodgorligi (1972-yilda) o'rganildi. 1973-yilda Chordara istehkomi (Konimex tumani) va Romushtepa (Jondor tumani) tekshirildi. Temir davriga mansub arxeologik yodgorliklar Toshkent viloyatida Burganliktepa, Qovunchitepa, Tuyabo'g'iztepa va Burchmulla xazinasi, Farg'ona vodiysida esa, Eylaton yodgorligi va Oqtosh qabristoni asosida o'rganilgan. 1980-1990-yillardan Ko'ktepa (Samarqand viloyati), Yerqo'rg'on va Uzunqir (Qashqadaryo viloyati) kabi mil. avv. VII-VI asrlarga oid nodir obidalarda arxeologik qazishlar o'tkazildi.

TESHIKTOSH ODAMI - Teshiktosh g'oridan topilgan neandertallar vakilining suyak qoldig'i. A.P.Okladnikov o'rgangan (1938-1939-yillar). Ko'pgina tadqiqotchilar fikricha, Teshiktosh odami suyak qoldiqlari 8-9 yoshdagi bolaniki bo'lgan. Bola dafn qilingan joy atrofida tog' echkisining bir necha juft shoxi yotgan. Marhumni qabrga turli buyumlar bilan ko'mish, dastlabki diniy tasavvuralarning paydo bo'la boshlaganligidan dalolat beradi. Teshiktosh odami kalla suyagining hajmi katta (1490 sm kub), uning qopqog'i pitekantrop yoki sinantropnikiga nisbatan balandroq. Biroq hozirgi bolalarnikidan pastroq. M. M. Gerasimov kalla suyagi asosida Teshiktosh odamining yuz tuzulishini tiklagan (1949-yillar). 1973-yilda antropolog V. P. Alekseyev Teshiktosh odamini to'la o'rganib, skelet qiz bolaga tegishli bo'lib, u inson evolyutsiyasining neandertal fazasiga mansub ekanligi va Yevropa yoki Old Osiyo guruhiga kirishini bildirgan.

TOTEMIZM (Shimoliy Amerika indeyslarining o'jibve qabilasi tilidagi «ototem» - «uning urug'i» so'zidan) - ibtidoiy diniy e'tiqodlarning ilk shakllaridan biri. U kishilarning ma'lum guruhi bilan hayvon va o'simliklarning muayyan turlari (ba'zan tabiat hodisalari, jonsiz

narsalar) o'rtasida g'ayritabiiy aloqa, qon-qarindoshlik bor degan e'tiqodga asoslanadi. Hayvonlar, o'simliklar, jonsiz predmetlar totem hisoblangan. Totemlar (ko'pincha hayvonlar) ov qilinmagan, o'ldirilmagan, go'shti yeyilmagan, ular go'yo kishilarning qudratli himoyachisi hisoblangan. Qabila, urug' har bir a'zosining hayoti va farovonligi totemga bog'liq deb qaralgan. Ular o'z totemini qarindoshi, akasi, otasi, do'sti deb hisoblagan. Har bir qabila, urug' o'z totemining nomi bilan atalgan. Totemistik e'tiqod va marosimlar muayyan ko'rinishda ko'p xalqlarda, ayniqsa, Avstraliyadagi qabilalarda saqlanib qolgan.

URUG'(eski o'zbekcha) – kishilarning eng qadimgi birligi bo'lib, qarindosh avlod bir necha ota-onadan tarqalgan avlod, kishilik jamiyatining ibtidoiy gala davridan keyingi bosqichi. Urug'chilik qon-qardoshlikka asoslangan bo'lib, har bir urug' odamlari bir-birlari bilan xo'jalik va iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liq bo'ladi. **Ona urug'i(materinskiy rod)**-ona tomonidan qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan qondosh qarindosh-urug'lar ittifoqi. G'arbiy Ovrupo adabiyotida ota urug'i atamasining sinonimi "klan"dir-shotlandiyaliklar ota urug'i tashkilotini ana shunday deb ataganlar.

URUG'CHILIK JAMIYATI – ibtidoiy jamoa tuzumining ibtidoiy gala davridan keyin boshlangan bosqichlardan biri bo'lib, matriarxat va patriarxat davrlarini o'z ichiga oladi. Xo'jalik va ijtimoiy munosabatlar vositalarining bir qismiga(er, ov qilish, joylar va boshqalar) qon-qarindosh bo'lgan kishilar guruhi egalik qilgan.

URUG' JAMOASI- ibtidoiy jamoa tuzumining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy tashkiloti.Uning ilk bosqichida matriarxat va patriarxatning boshlang'ich davridagi qon-qarindosh kishilar guruhining xo'jalik, ijtimoiy va g'oyaviy uyushmasi.

FETISHIZM(portugal, abretas – tumor ma'nosida) – g'ayri tabiiy kuchga ega bo'lgan jonsiz buyumlarga sig'inish, topinishdir. U o'ziga sig'ingan kishilarga yordam ko'rsatishga qodirdir. Fetishizmning varianti butparastlikdir. Fetishga, ya'ni eng moddiy buyumga topinish dastlab unda alohida ruh borligi bilan unchalik bog'lanmas edi(fetishlarni jonlantirish keyinroq sodir bo'ldi). Fetishlar odatda o'zining shakli jihatdan odatdan tashqari narsa-buyumlar(toshlar, shox-shabbalar, hayvonning bo'laklari va shu kabilar) bo'ldi.

FRATRIYA(yunoncha) – qabilaning bo'linmasi bo'lib, dastlab ko'proq bitta urug'dan paydo bo'lgan bir necha o'zaro nikohli urug'larni birlashtirgan. Qabilaning eng birlamchi shakli – kam deganda ikki urug'ning qismlari. Ba'zan "fratriya" atamasi urug'ning analogi sifatida xato ishlatiladi. Ekzogamiyaning muqarrar ta'sir ko'rsatishi faktini hisobga olib, N.A.Butinov urug' ichida alohida mirostruktura – urug' o'zagini ajratib ko'rsatishni taklif etgan. Bu tuzilma urug'ga nikoh tufayli kirib qolgan kelgindilarga qarshi turuvchi qondosh qarindosh-urug'larning jipslashgan guruhidir.

XO'JAKENT MAKONI - muste davri g'orlari. Hozirgi Xo'jakent qishlog'i (Toshkent viloyati) yaqinidagi qoyatoshlar orasidan topilgan (1957-yilda). Bir-biriga yondosh 2 ta ungurdan iborat. 1-ungurdan 36 m kvadrat maydon ochilib, uning 1-2-qatlamlari ilk o'rta asrlarga oid sopol idishlarning siniqlari va bir necha tosh qurollar, 3-quyi qatlamidan esa, muste davriga oid sariq harsangtosh bo'laklari va ko'pgina tosh qurollar topilgan. 10 dan ortiq yirik tosh, shuningdek, mayda nukleuslar uchraydi. Xo'jakent makonidan tosh parrakcha, qirg'ich, o'choq o'rni, uning atrofida qoraygan toshlar va qadimgi hayvonlarning suyak qoldiqlari, 2-ungurdan esa har xil tosh qurollar va hayvon suyaklari topilgan. Xo'jakent maydonida yashagan neandertallar ovchilik va termachilik bilan kun kechirgan.

SHAMANSTVO-SHAMANLIK(tungus – manchjuriyada ruhoniylar-"saman" so'zidan) – ibtidoiy diniy e'tiqodlarning shakllaridan biri, insonning maxsus shaxs – shomon(afsungar)

tomonidan amalga oshiriladigan alohida marosi harakatlari yordamida ruhlar bilan aloqa o'rnatish mumkinligiga ishonishidir. Bunda maqsad kasalliklarni davolashda, hayvon va baliq ovlashda, narigi dunyoda eson-omon sayr-sayoxat uyushtirishda va shu kabilarda ana shu ruhlarning yordamiga ishonishdir. Shomonlik Sibir va Shimol xalqlarida keng tarqalgan. Eski jdunyodagi xalqlarda so'nggi poleolit va neolit davrida, shuningdek mulkiy tabaqalangan jamiyatning vujudga kelish davrida uchraydi(arxeologiya ma'lumotlari va qadimgi yozuv yodgorliklari ana shundan dalolat beradi).

VARZANA – “Avesto”da hududiy qo'shnichilik jamoasi shunday nomlangan.

VALLON – 1958-yili hayvon suyaklari, tosh qurollar va ularning parchalari topilgan Fransiyadagi g'or.

VERTESHSELLESH – arxantroplarning tishi, qadimgi hayvonlarning suyaklari va oddiy tosh qurollari topilgan Budapesht (Vengriya) shahri yaqinidagi voha.

VIS – “Avesto”da urug' jamoasi shunday deb atalgan. Avestoda yozilishicha, katta patriarxal oila – “nmana”lar visni tashkil etgan.

QABILA (plemya) – endogamiyani amalga oshira borib, oliy makrastrukturadan iborat bo'ldi, u ishlab chiqarishning ikki turi bo'yicha qabila ichida doimiy aloqada bo'lgan endogamiya tufayli urug'ning mikrostrukturasi ham etnik jihatdan, ham xo'jalik jihatidan birlashtiradi. **Qishloq jamoasi** (obhinasi) ning an'analari sovetlar davridan oldingi rus qishlog'i uchun xos narsa edi. Chunki bunday jamoaga o'xshash ijtimoiy tuzilmalar haqiqatda nafaqat dehqonlar va qishloq aholisi o'rtasida, balki barcha xalqlarda ham mavjud edi. Shuning uchun ham sovet davri etnografiyasida “qishloq jamoasi” atamasiga o'xshash qo'shnilar jamoasi (bunday begona urug'larning yonma-yon hududiy aloqalari ko'zda tutilgan), ko'chmanchi jamoa (chorvadorlar uchun), **qishloq jamoasi, ovul jamoasi, ayil jamoasi (qishloq, ovul, ayil nomidan olingan)** atamalari paydo bo'ladi.

ZARAUTSOY RASMLARI – O'zbekiston hududidagi eng qadimgi qoyatosh rasmlari. Hisor tizmasining janubi-g'arbida. Ko'hitang tog'ining sharqiy yon bag'ridagi Zarautsoy darasidagi ungir va kamar toshlariga ishlangan ibtidoiy san'atning nodir namunalari. Surxondaryo viloyatida, Termizdan 100-110 km shimoli-g'arbda. 1912-yilda I. Fyodorov tomonidan topilgan. Arxeolog G. Parfyonov (1940-45), keyinchalik **A. Roginskaya** (rassom), **A. Formozov, A. Kabirovlar** tomonidan o'rganilgan. 200 dan ortiq rasmlar mezolit, neolit va keyingi davrlarga mansub. Rasmlar chizma tarida kontur va soyauslubida qizil angob (oxra) bilan chizilgan. Zarautsoy rasmlarida odamlarning itlar yordamida yovvoyi buqalarni ov qilish manzarasi tasvirlangan. Hayvonlar (yovvoyi buqa, it, tulki, yovvoyi cho'chqa, burama shoxli echki, hasharot va b.), turli buyumlar (o'q-yoy, nayza, o'roqsimon qurollar), niqoblangan odamlar va boshqa o'ziga xos tarzda hayotiy qilib ishlangan Zarautsoy rasmlari ibtidoiy san'atning noyob yodgorligi sifatida yodgorliklarni muhofaza qilish “qizil kitob”iga kiritilgan.

ZAMONBOBO – so'nggi bronza (jez) davriga oid mil. avv. III-II mingyilliklarda yashagan qadimgi chorvador o'troq dehqonlar manzilgohi va qabristoni. O'zbekiston hududidagi dastlabki qishloq xarobasi. Buxoro viloyati Qorako'l tumani markazidan 15 km shimoli-g'arbda joylashgan Zamonbobo ko'li sohilidagi makon. Zamonbobo turar joylari usti chayla qilib berkitilgan yerto'lalardan iborat bo'lgan. Yodgorlikda 45 ta qabr ochilgan. Qabristonda Y. G'ulomov (1950-1951, 1953-1954-yillar), A. Asqarov (1961, 1964-yillar) arxeologik qazish ishlari olib borgan. Qazuv ishlari natijasida tagi yassi va dumaloq, bezaksiz sopol

idishlar, jez buyumlar, paykonlar, tosh o'roq parchalari topilgan. Ilk bor bu yerdan mis ko'zgulari va taqinchoqlar topilgan.

ZINJANTROP (ishbilarmon odam) - ilk paleolit davrida - 1,5 - 2 million yil avval yashagan avstrolipiteklar oilasining eng qadimgi vakili. Zinjanthropning bosh skeletini ilk bor arxeolog Luis Liki 1959-yilda Olduvoy darasi (Tanzaniya)dan topgan. Liki uning ensa qismi va kesmasi tuzilishiga ko'ra dastlab Homo urug'iga kiritgan va ekspeditsiya uchun mablag' ajratgan Boysi sharafiga Boysi zinjanthrop deb atagan. Lekin zinjanthropning morfologik tuzilishi uning hatto tosh qurol ham yasashi mumkin emasligini ko'rsatdi, shuning uchun uni Boysi janub odami (Zinjanthropus boisei) deb nomlagan. Zinjanthropning bosh skeleti bo'ylab pushtacha o'tgan, kichik oziq tishlari yirik oziq tishlariga nisbatan mayda bo'lgan. Dag'al o'simlik bilan oziqlangan. Olimlar zinjanthropga «Homo habilis» - «Ishbilarmon odam» deb nom berganlar. Chunki u eng sodda mehnat qurollarini yasay olgan, ya'ni toshni-toshga urib mehnat qila boshlagan.

ORINYAK MADANIYATI - G'arbiy Yevropadagi so'nggi paleolit davri madaniyati. Fransiyadagi (Yuqori Garonna departamenti) Orin'yak (Aurignak) g'ori nomidan olingan. Orin'yak madaniyatida tasviriy san'atning eng qadimiy turi haykaltaroshlik paydo bo'lgan. Orin'yak madaniyatining ilk davrida yorma texnika takomillashgan. Ushbu davr odamlari hozirgi zamon odami tipiga (Homo Sapiens) tegishli bo'lgan.

OBIRAHMAT G'ORI - Muste madaniyatiga oid qadimgi manzilgoh. Toshkentdan 100 km shimoli-sharqda, Ko'ksuv tizmasi etagidagi Paltovsoyning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Obirahmat g'orini A.R.Muhammadjonov va S.K.Nasriddinov topgan (1962-yilda). R.H. Sulaymonov tekshirgan. Obirahmat g'ori keng yoysimon shaklda bo'lib, eni 20 m dan ortiq; u quruq va yorug', sharqiy chekkasidagi qiyadan chuchuk suvli shalola oqib tushadi. G'orning og'zi janub tomonga qaragan. Obirahmat g'orida uzoq vaqt davomida hosil bo'lgan 21 madaniy qatlamning umumiy qalinligi 10 m. Obirahmat g'oridan nayzasimon qurollar, nukleuslar, turli xildagi tosh keskichlar, ponasimon qurollar, bigizlar topilgan. Topilmalar O'rta Osiyoda tosh davrining eng boy kolleksiyalaridan birini tashkil qiladi.

OBISHIR G'ORLARI - mezolit davriga oid g'orlar. Farg'ona viloyati hududidagi So'x daryosining qadimgi o'zani Obishir soyning o'ng qirg'og'ida joylashgan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va arxeologiya institutining Farg'ona paleolit otryadi 5 ta g'orni tekshirgan (1966-yilda). Obishir-1 va Obishir-5 da qazish ishlari olib borilgan. Ularning sanasi mil. avv. 8 mingyillikka oid. Obishir-1 ning eni 25,5 m bo'lib, balandligi 12. G'ordan tosh qadama pichoqlar, mikroplastinkalar, parmalar, bigizlar, qirg'ichlar, nukleuslar topilgan. Obishir-5, Obishir-1 dan 200 m g'arbda. Uning eni 8 m, balandligi 10 m. G'orda 3 madaniy qatlam mavjud. Quyi qatlam antik davrga oid, qalinligi 1-1,20 sm. Undan so'ng qalinligi 30-40 sm lik mezolit davriga tegishli qatlam boshlanadi, unda tosh qurollar va hayvon suyaklari ko'plab uchraydi. Uchinchi qatlam ham shu davrga taalluqli bo'lib, qalinligi 3-4 m. Bu yerda tosh qurollar nisbatan ancha kam. Obishir-5 g'ori yashash uchun qulay bo'lganligidan unda qadimda odamlar yashagan.

OLDUVOY (Olduvay, Oldoway) – 1959-yilda amerikalik arxeolog Luis Liki tomonidan topilgan Sharqiy Afrika (Tanzaniya)dagi dara. L. Liki bu yerdan zinjanthrop odamining bosh suyagi bilan birga mayda hayvon suyaklari, to'ng'iz, antilopa suyaklari va tosh qurollarini topdi. Zinjanthrop avstrolipiteklar oilasining eng qadimgi vakili bo'lib, u 1,5 - 2 million yil avval yashagan. Olimlar zinjanthropga «Homo habilis» - «Ishbilarmon odam» deb nom berganlar. Chunki u eng sodda mehnat qurollarini yasay olgan, ya'ni toshni-toshga urib mehnat qila boshlagan.